



# BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTI



Научный вестник Бухарского государственного университета  
Scientific reports of Bukhara State University

4/2024

E-ISSN 2181-1466





9 772181 146004

ISSN 2181-6875



9 772181 687004



4/2024

<https://buxdu.uz>

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTI**  
**SCIENTIFIC REPORTS OF BUKHARA STATE UNIVERSITY**  
**НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК БУХАРСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА**

**Ilmiy-nazariy jurnal**  
**2024, № 4, aprel**

Jurnal 2003-yildan boshlab **filologiya** fanlari bo'yicha, 2015-yildan boshlab **fizika-matematika** fanlari bo'yicha, 2018-yildan boshlab **siyosiy** fanlar bo'yicha, **tarix** fanlari bo'yicha 2023 yil 29 avgustdan boshlab O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar Vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiya ishlari natijalari yuzasidan ilmiy maqolalar chop etilishi lozim bo'lgan zaruriy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnal 2000-yilda tashkil etilgan.

Jurnal 1 yilda 12 marta chiqadi.

Jurnal O'zbekiston matbuot va axborot agentligi Buxoro viloyat matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan 2020-yil 24-avgust № 1103-sonli guvohnoma bilan ro'yxatga olingan.

**Muassis: Buxoro davlat universiteti**

**Tahririyat manzili:** 200117, O'zbekiston Respublikasi, Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko'chasi, 11-uy.

Elektron manzil: nashriyot\_buxdu@buxdu.uz

**TAHRIR HAY'ATI:**

**Bosh muharrir:** Xamidov Obidjon Xafizovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Bosh muharrir o'rinbosari:** Rasulov To'liqin Husenovich, fizika-matematika fanlari doktori (DSc), professor

**Mas'ul kotib:** Shirinova Mexrigiyo Shokirovna, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Kuzmichev Nikolay Dmitriyevich**, fizika-matematika fanlari doktori (DSc), professor (N.P. Ogaryov nomidagi Mordova milliy tadqiqot davlat universiteti, Rossiya)

**Danova M.**, filologiya fanlari doktori, professor (Bolgariya)

**Margianti S.E.**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Indoneziya)

**Minin V.V.**, kimyo fanlari doktori (Rossiya)

**Tashqarayev R.A.**, texnika fanlari doktori (Qozog'iston)

**Mo'minov M.E.**, fizika-matematika fanlari nomzodi (Malayziya)

**Mengliyev Baxtiyor Rajabovich**, filologiya fanlari doktori, professor

**Adizov Baxtiyor Rahmonovich**, pedagogika fanlari doktori, professor

**Abuzalova Mexriniso Kadirovna**, filologiya fanlari doktori, professor

**Amonov Muxtor Raxmatovich**, texnika fanlari doktori, professor

**Barotov Sharif Ramazonovich**, psixologiya fanlari doktori, professor, xalqaro psixologiya fanlari akademiyasining haqiqiy a'zosi (akademigi)

**Baqoyeva Muhabbat Qayumovna**, filologiya fanlari doktori, professor

**Bo'riyev Sulaymon Bo'riyevich**, biologiya fanlari doktori, professor

**Jumayev Rustam G'aniyevich**, siyosiy fanlar nomzodi, dotsent

**Djurayev Davron Raxmonovich**, fizika-matematika fanlari doktori, professor

**Durdiyev Durdimurod Qalandarovich**, fizika-matematika fanlari doktori, professor

**Olimov Shirinboy Sharofovich**, pedagogika fanlari doktori, professor

**Qahhorov Siddiq Qahhorovich**, pedagogika fanlari doktori, professor

**Umarov Baqo Bafoyevich**, kimyo fanlari doktori, professor

**Murodov G'ayrat Nekovich**, filologiya fanlari doktori, professor

**O'rayeva Darmonoy Saidjonovna**, filologiya fanlari doktori, professor

**Navro'z-zoda Baxtiyor Nigmatovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Hayitov Shodmon Ahmadovich**, tarix fanlari doktori, professor

**To'rayev Halim Hojiyevich**, tarix fanlari doktori, professor

**Rasulov Baxtiyor Mamajonovich**, tarix fanlari doktori, professor

**Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Quvvatova Dilrabo Habibovna**, filologiya fanlari doktori, professor

**Axmedova Shoira Nematovna**, filologiya fanlari doktori, professor

**Bekova Nazora Jo'rayevna**, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

**Amonova Zilola Qodirovna**, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

**Hamroyeva Shahlo Mirjonovna**, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

**Nigmatova Lola Xamidovna**, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

**Boboyev Feruz Sayfullayevich**, tarix fanlari doktori

**Jo'rayev Narzulla Qosimovich**, siyosiy fanlar doktori, professor

**Xolliyev Askar Ergashovich**, biologiya fanlari doktori, professor

**Artikova Hafiza To'ymurodovna**, biologiya fanlari doktori, professor

**Hayitov Shavkat Ahmadovich**, filologiya fanlari doktori, professor

**Qurbonova Gulnoz Negmatovna**, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

**Ixtiyarova Gulnora Akmalovna**, kimyo fanlari doktori, professor

**Rasulov Zubaydullo Izomovich**, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

**Mirzayev Shavkat Mustaqimovich**, texnika fanlari doktori, professor

**Samiyev Kamoliddin A'zamovich**, texnika fanlari doktori, dotsent

**Esanov Husniddin Qurbonovich**, biologiya fanlari doktori, dotsent

**Zaripov Gulmurot Toxirovich**, texnika fanlari nomzodi, professor

**Jumayev Jura**, fizika-matematika fanlari nomzodi, dotsent

**Klichev Oybek Abdurasulovich**, tarix fanlari doktori, dotsent

**G'aybulayeva Nafisa Izattullayevna**, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

MUNDARIJA \*\*\* СОДЕРЖАНИЕ \*\*\* CONTENTS

TILSHUNOSLIK \*\*\* LINGUISTICS \*\*\* ЯЗЫКОЗНАНИЕ

<b>Safarov F.S.</b>	O‘zbek adabiy tilida ko‘plik ma’nosining ifodalanishi va tejamkorlik	<b>4</b>
<b>Akhmedova R.A.</b>	Antropocentric aspect of phraseological units with the component "red"	<b>12</b>
<b>Alieva N.X., Mukhtoraliyeva F.A.</b>	The role of translation in the enrichment of languages: analysis of some neologisms presented in «Steve Jobs» by Walter Isaacson	<b>17</b>
<b>Barnoyeva Z.S.</b>	O‘zbek leksikografiyasida boshlang‘ich sinf o‘quv lug‘atlarini tuzishning ahamiyati	<b>22</b>
<b>Barotova N.Sh.</b>	O‘zbek kinodiskursida “milliylik” obrazini yaratishning tamoyillari	<b>27</b>
<b>Ganieva O.Kh., Khakimova D.M.</b>	Concept of term definition and its characteristics	<b>32</b>
<b>Kurbonova G.S., Pulatova U.B.</b>	Frazeologik konsepsiyalar talqini	<b>37</b>
<b>Jumayev E.B., Nurullayeva G.X.</b>	O‘zbek va nemis tilida shaxs ifodalovchi vositalar	<b>45</b>
<b>Raxmonova Y.X.</b>	Matn tili va tarjima muammolari	<b>50</b>
<b>Ro‘ziyev Y.B., Halimova Sh.Sh.</b>	O‘zbek va nemis tillarida o‘tgan zamonning voqelanishi	<b>55</b>
<b>Turayeva D.M.</b>	Muallif punktuatsiyasining yuzaga kelishi va punktuatsion tizimdagi yangi an‘analar	<b>61</b>
<b>Xodjayeva D.I.</b>	Lingvodidaktik terminologiya tadqiqot obyekti sifatida	<b>65</b>
<b>Yaqubova M.M.</b>	Tarjima jarayonida asl matnning semantik va pragmatik jihatlarini saqlash masalalari	<b>70</b>
<b>Ахмеджанова С.Дж.</b>	Сбор и анализ корпусных данных для узбекского и русского языков	<b>76</b>
<b>Жўраева И.А.</b>	Инглиз ва ўзбек антропонимик луғатларида атоқли отларнинг берилиш усуллари	<b>81</b>
<b>Шермухамедова Н.А.</b>	Двуязычный и многоязычный устный корпус	<b>87</b>
<b>Qobilova N.S.</b>	Til tejamkorligi nazariyasining tadqiq qilish tamoyillari	<b>92</b>
<b>Qodirova H.X.</b>	Badiiy diskurs tarjimasida kommunikativ-funksional yondashuv	<b>98</b>
<b>Yuldasheva F.E.</b>	Expression of the modesty maxim in communication	<b>102</b>
<b>Рабиева М.Ғ.</b>	Эвфемизмларнинг дискурсив турлари ва уларнинг таржима стратегияларини белгилашдаги роли	<b>106</b>
<b>Ataeva G.B.</b>	The power of idioms in business English: communicating with impact	<b>117</b>
<b>Karimova D.H.</b>	Tarjimada variantlilik hodisalarining asosiy belgilari xususida (Aka-uka Grimm ertaklarining o‘zbekcha tarjimalari misolida)	<b>122</b>

<b>Nurova Y.U.</b>	O'zbek xalq paremalaridagi etnonimlarda omonimik munosabat	<b>127</b>
<b>Jumayeva O.I.</b>	Ingliz va o'zbek lingvomadaniyatida emotsionallik konseptlarining ifodalanishi ("Baxt" va xursandchilik" konseptlari misolida)	<b>131</b>
<b>Axmedova D.B.</b>	Jahon va o'zbek leksikografiyasida maxsus lingvistik lug'atlar, ulardan semantik kengaytmada foydalanish imkoniyatlari	<b>136</b>
<b>Саидкулова М.С.</b>	Роль структуры жанра в разграничении функциональных стилей современного русского языка	<b>140</b>
<b>Hikmatova A.Q.</b>	Simile and its characteristic features in English and Uzbek languages	<b>147</b>
<b>Abulova Z.A.</b>	"Ikki eshik orasi" romanida paremalarning tutgan o'rni	<b>151</b>
<b>ADABIYOTSHUNOSLIK *** LITERARY CRITICISM *** ЛИТЕРАТУРОВЕДЕНИЕ</b>		
<b>Doniyorova M.T.</b>	Adabiyotshunoslikda uslub tushunchasi	<b>155</b>
<b>Haqberdieva G.H.</b>	Differentiation of proverbs and sayings in Uzbek and English languages	<b>159</b>
<b>Maxmudova M.M.</b>	Y.V.Gyotening "G'arb-u Sharq" devoni tarjimalariga xos xususiyatlar (S.S.Buxoriy va M.Shayxzoda tarjimalari asosida)	<b>165</b>
<b>Nodirova F.X.</b>	Sa'dulla Hakim she'rlarida xalqona ohanglar	<b>169</b>
<b>Norova M.B.</b>	Dunyo va o'zbek adabiyotshunosligida ramz tadqiqi	<b>173</b>
<b>Kasimova R.R., O'roqova M.O'.</b>	Artur Konan Doylning ingliz adabiyotida tutgan o'rni	<b>177</b>
<b>Rakhimova Sh.R.</b>	Fragmented narratives and consciousness streams: the study of modernist techniques in contemporary literature	<b>181</b>
<b>Safarova Sh.A.</b>	"Hayrat-ul Abror" dostonidagi munojot boblarining manbalari va badiiyati	<b>186</b>
<b>Кодирова З.Б.</b>	Этапы развития детской британской литературы	<b>190</b>
<b>Очилова Д.С., Хамдамова С.Б.</b>	Взаимодействие традиций и инноваций в современной американской поэзии	<b>194</b>
<b>Axmatov A.H.</b>	Ikkinchi jahon urushining adabiy muhitga ta'siri	<b>198</b>
<b>Namroyeva S.B.</b>	The impact of colonialism on indigenous cultures in Thomas King's "Green grass, running water"	<b>202</b>
<b>Khajieva F.M.</b>	Exploring Gerard Genette's theory of transtextuality	<b>206</b>
<b>Буранова Ж.А.</b>	Мифологические мотивы в творчестве Чингиза Айтматова и у современных татарских литераторов	<b>214</b>
<b>Sodiqova D.T.</b>	Muslihabegim Miskinning badiiy san'atlardan foydalanishdagi shoirlik mahorati	<b>219</b>
<b>Hikmatova A.Q.</b>	Descending into wonderland: the rabbit hole as a portal to altered states of consciousness and reality in Lewis Carroll's	<b>225</b>

	narrative	
<b>Мурадова Х.Б.</b>	Комплексный анализ лингвистических и структурных особенностей английского фольклора в социальных сетях	<b>229</b>
<b>Jalilova Z.S.</b>	Epik turda inson tasviri (Xurshid Do'stmuhammad asarlari misolida)	<b>235</b>
<b>Axmatov A.H.</b>	Ne'mat Aminovning Buxorodagi adabiy faoliyati (arxiv materiallari asosida)	<b>240</b>
<b>MATNSHUNOSLIK VA MANBASHUNOSLIK *** TEXTOTOLOGY AND LITERARY SOURCE STUDY *** ТЕКСТОЛОГИЯ И ЛИТЕРАТУРНОЕ ИСТОЧНИКОВЕДЕНИЕ</b>		
<b>Nurmatova M.F.</b>	Ko'ngil – taxti amiri	<b>245</b>
<b>JURNALISTIKA *** JOURNALIZM *** ЖУРНАЛИСТИКА</b>		
<b>Xamroyeva Sh.Sh.</b>	Jurnalistikada universallashtirish va ixtisoslashtirish masalalari	<b>249</b>
<b>“NAVOIY GULSHANI”</b>		
<b>Sayliyeva Z.R.</b>	Ey, nubuvvat xaylig'a xotam bani Odam aro	<b>253</b>
<b>FALSAFA VA HUQUQ, SIYOSATSHUNOSLIK *** PHILOSOPHY, LAW AND POLITICAL SCIENCES *** ФИЛОСОФИЯ, ПРАВО И ПОЛИТОЛОГИЯ</b>		
<b>Galimov R.R.</b>	Mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlashda Pokiston va O'zbekiston hamkorligi	<b>257</b>
<b>Нормаева М.Г.</b>	Барьеры рекрутирования женщин в политической карьере: обзор современных практик в зарубежных странах	<b>261</b>
<b>Saparboyev K.K.</b>	Constitutional basis of state policy on youth	<b>268</b>
<b>Бозоров А.М.</b>	Жиноят процессуал ва миллий қонунчилик нормаларини қўллашдаги муаммолар ва уларни такомиллаштириш истиқболлари	<b>273</b>
<b>TARIX *** HISTORY *** ИСТОРИЯ</b>		
<b>Klichev O.A.</b>	Buxoro amirligi va Rossiya imperiyasi o'rtasidagi elchilik tortiqlarining almashinuvi	<b>278</b>
<b>Jumayeva N.A.</b>	Quyida Zarafshon vohasida ziroatchilik homiysi - Bobodehqon bilan bog'liq urf-odat va marosimlar (XIX asr oxiri - XX asr boshlari)	<b>282</b>
<b>Эркинова Н.М.</b>	Суғднинг илк ўрта асрлардаги сиёсий ва маданий маркази бўлган Кеш хусусида айрим мулоҳазалар	<b>286</b>
<b>Tursunov A.S.</b>	O'zbekistonning janubiy viloyatlari shaharlarida urbanizatsiya jarayonlari tarixshunosligining tahlili	<b>290</b>
<b>PEDAGOGIKA *** PEDAGOGICS *** ПЕДАГОГИКА</b>		
<b>Bakhromova A.A.</b>	Modern methods of working with physical problems in the teaching of Physics	<b>294</b>

## O'ZBEK ADABIY TILIDA KO'PLIK MA'NOSINING IFODALANISHI VA TEJAMKORLIK

*Safarov Firuz Sulaymonovich,*  
*Buxoro davlat universiteti doktoranti (DSc),*  
*filologiya fanlari nomzodi, dotsent*  
*f.s.safarov@buxdu.uz*

**Annotatsiya.** Maqolada o'zbek adabiy tilida ko'plik ma'nosining donalab sanaladigan o'ning o'zak, negizi orqali ifodalanishi orqali ifodalanishi bayon qilinadi. Donalab sanaladigan o'ning o'zak, negizi ko'plikning ko'rinishlari: ikkilik, ikkidan ortiq aniq miqdor, noaniq bo'linuvchan ko'plik, jamlilik, umumiylik ma'nolariga betaraf bo'lganidan mazkur ma'nolarni qulay vosita yordamida ifodalaydi. O'ning o'zak, negizi qulay vosita yordamida ko'plikni bildirganda ta'kid nazarda tutilmaganda -lar qo'shimchasi tejraladi. Biroq hozirgi kunda ilmiy matn, matbuot, televideniya tejamkorlikka rioya qilinmayapti. Maqolada -lar qo'shimchasining ortiqcha, noo'rin qo'llanish holatlari ham tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** son-miqdor kategoriyasi, birlik, ko'plik, ikkilik, ikkidan ortiq aniq miqdor, noaniq bo'linuvchan ko'plik, jamlilik, umumiylik, -lar qo'shimchasi tejamkorlik, nutqning softligi, adabiy me'yor.

**ВЫРАЖЕНИЕ ЗНАЧЕНИЯ МНОЖЕСТВЕННОСТИ В УЗБЕКСКОМ  
 ЛИТЕРАТУРНОМ ЯЗЫКЕ И ЭКОНОМИЯ**

**Аннотация.** В статье описывается выражение значения множественного числа в узбекском литературном языке посредством корня и основы исчисляемого существительного. Поскольку оно нейтрально к видам значения множественности: двойственности, точному количеству более двух, неопределённой делимой множественности, собирательности, общности, то оно выражает эти значения с помощью удобного средства. Когда корень и основа имени существительного выразят множественность с помощью удобного средства, если множественность не подчёркивается, аффикс -лар экономится. Однако сегодня в научных текстах, прессе и телевидении не соблюдается экономия. В статье также анализируются случаи чрезмерного и неуместного употребления суффикса -лар.

**Ключевые слова:** категория числа-количества, единственное число, множественное число, двойственность, точное количество более двух, неопределённая делимая множественность, собирательность, общность, аффикс -лар, экономия, чистота речи, литературная норма.

**EXPRESSION OF THE MEANING OF PLURAL IN UZBEK LITERARY LANGUAGE  
 AND ECONOMY**

**Abstract.** The article describes the expression of the meaning of the plural in the Uzbek literary language through the root and stem of a countable noun. Since it is neutral to the types of meaning of plurality: duality, exact quantity more than two, indefinite divisible plurality, collectivity, generality, it expresses these meanings using a convenient device. When the root and stem of a noun expresses plurality by a convenient means, if plurality is not emphasized, the affix -lar is saved. However, today, in scientific texts, the press and television, economy is not observed. The article also analyzes cases of excessive and inappropriate use of the suffix -lar.

**Keywords:** category of number-quantity, singular number, plural number, duality, exact quantity more than two, indefinite divisible plurality, collectivity, generality, affix -lar, economy, purity of speech, literary norm.

**Kirish.** Maqolada son-miqdor ma'nosini bildiruvchi vositalar ma'nodoshligi tahlil qilinadi. Chunki so'z va qo'shimcha ma'nodoshligi son-miqdor bildiruvchi vositalar orasida ham mavjud. Jumladan otda ko'plik ma'nosi lug'aviy vosita (birdan katta son, hisob so'z, miqdor olmoshi, sifatning o'zak, negizi, ravishning o'zak, negizi, fe'lining o'zak, negizi, ibora) yordamida yoki qo'shimcha (-lar) orqali ifodalanadi: **ikkita qalam, bir quchoq gul, hamma talaba, sanoqsiz yulduz, ko'p odam;** qalamlar, gullar, talabalar, yulduzlar, odamlar. Misollardan ko'rinib turibdiki ko'plik ma'nosi lug'aviy vositadan anglashilganda otga -lar qo'shilmaydi. Bu ko'plik bildiruvchi so'z (lug'aviy vosita) va qo'shimcha (morfologik vosita) orasida

ma'nodoshlik borligini ko'rsatadi. Ma'nodosh vositalarning qo'llanishi gap, matnning hissiy-nohissiyliigi aniqrog'i ko'plikning ta'kidlab ta'kidlanmasligi bilan bog'liq. Ko'plikni ta'kidlash nazarda tutilmasa lug'aviy vositaning o'zi yetarli bo'lib qo'shimcha qo'llanmaydi. Demak bu holda so'z emas, qo'shimcha tejaladi. Hissiy bayonda ya'ni ko'plikni ta'kidlash nazarda tutilganda lug'aviy vosita bilan birga morfologik vosita (-lar) ham qo'llanadi. Bunday holda qo'shimcha konnotatsiya ifodalashga xizmat qiladi. Ko'plikni ta'kidlash zarur bo'lmaganda otga qo'shimcha qo'shilsa ortiqcha, noo'rin qo'llangan bo'ladi. Bunday holda adabiy me'yor buzilib estetik omilga putur yetadi, nutq g'alizlashib tilimizning ko'rki zaiflashadi. Shunga ko'ra bu faslda badiiy, ilmiy, publitsistik, rasmiy uslubdagi matnlarda qo'shimchani o'rinli-noo'rin qo'llanishi ham tahlil qilinadi.

Ushbu mavzuda son-miqdor ma'nosi *funksional-semantik kategoriya* tarzida o'rganiladi. Bu atama umumiy ma'noga ega bo'lib o'zaro munosabatga kirishadigan muayyan vositalar sistemasini bildiradi [2; 3; 4; 5]. Masalaga funksional-semantik kategoriya tarzida yondashilganda son-miqdor ma'nosini ifodalovchi lisoniy vosita hamda g'ayrilisoniy omilning barchasi qamrab olinadi. Bu esa funksional yondashuvning zaruriy shartidir

**Asosiy qism.** Donalab sanaladigan otning o'zak, negizi birlik va ko'plik (ikkilik, ikkidan ortiq aniq miqdor, noaniq bo'linuvchan ko'plik, jamlik, umumiylik) ma'nolariga betaraf bo'lganidan mazkur ma'nolarni qulay vosita yordamida ifodalaydi.

**Ko'plik** ifodalanishiga quyidagi vositalar qulaylik tug'dirdi.

Ikki va undan katta sanoq son va jamlovchi son aniq ko'plik ifodalanishiga qulaylik tug'diradi: *ikki bola, ikkita kalit, uch kishi, yigirmata uy, to'rtala nomzod.*

Mavjudotning donalab sanalishini konkretlashtirish uchun son bilan hisob so'z ishlatiladi: *ikki dona anor, uch nusxa kitob, besh nafar yigit.* Hisob so'z ayrim holda mavjudotni aniqlashtirib ko'rsatishga ham xizmat qiladi. Masalan o'zbek tilida o'simlik nomi ham o'simlikning o'zini ham uning mevasini bildiradi. Shuning uchun o'simlikning o'zini ko'rsatish uchun boshqa hisob so'z, mevasini anglatish uchun boshqa so'z ishlatiladi: *to'rt tup anjir – to'rt dona anjir.* Bu misollarda ko'plik ma'nosi uchun qulaylik so'z birikmasida vujudga kelyapti. Demak bunday birikmalar donalab sanaladigan otga aniq ko'plik namoyon bo'lishi uchun qulay kontekst vazifasini bajaradi.

*Ikki* va undan katta son ko'plikni bildirganidan bunday son bilan *-lar* qo'shimchasi orasida ma'nodoshlik mavjud. Biroq bu ma'nodosh vositalar ifodalaydigan ko'plik bir-biridan farq qiladi: son aniq ko'plikni, *-lar* esa noaniq ko'plikni bildiradi. Shuning uchun donalab sanaladigan ot oldidan aniq miqdorni bildiruvchi sanoq, dona son kelganda nohissiy bayonda ham hissiy bayonda ham *-lar* ishlatilmaydi. Bu fikrni A. Qahhor asarlarining statistik tahlili ham tasdiqlaydi. Bunday birikmaning yozuvchi asarlarida uchrash miqdori quyidagi jadvalda ko'rsatilgan.

So'z birikmasi	Qo'shchinor chiroqlari	O'tmishdan ertaklar	Sinchalak	Sarob	Muhabbat
sanoq, dona son + sanaladigan ot	52	28	15	9	7

Bularning birortasida otga *-lar* qo'shilmagan. Namuna tariqasida bir nechta misol keliramiz: *to'rtta behi* (A.Qahhor, Qo'shchinor chiroqlari); *qirq yigit* (A.Qahhor, Qo'shchinor chiroqlari); *sakkiz ayol, to'rtta non* (A.Qahhor, O'tmishdan ertaklar); *yigirmata uy, o'n bir kishi, to'rtala nomzod* (A.Qahhor, Sinchalak); *ikkita stol, yetti kishi* (A. Qahhor, Sarob); *ikkita eski ko'ylak, uchta farzand* (A.Qahhor, Muhabbat). Bundan xulosa qilish mumkinki adib o'zbek tili qurilishining bosh xususiyatiga (tejamkorlikka) izchil rioya qilgan.

Lekin hozirgi kunda matbuot, televideniya rus, ingliz tili ta'sirida bunday birikmalarda otga *-lar* qo'shib ishlatilmoqda. Misol uchun Ma'rifat gazetasining bitta sonini (2002, 6-iyul) olib ko'ramiz: *5 ta intervyu-suhbatlar* (3-bet), *10 nafar tanlov hay'ati a'zolari* (3-bet) *81 ta sog'liqni saqlash muassasalari* (4-bet), *42 ta eng hayotiy masalalardan* (6-bet), *15 ta fakultetlar* (7-bet), *64 nafar sportchilar* (15-bet). Ko'rinadiki bitta sonning o'zida *-lar* 5 marta ortiqcha ishlatilgan.

O'zbekiston bunyodkori gazetasining bir soniga (2023-yil 8-avgust) nazar tashlaymiz: *6 ta yopiq va 7 ta ochiq sport inshootlari* (1-bet), *162 ta tibbiy jihozlar* (1-bet), *18 ta uylarni* (2-bet). Bu birikmalarda ham *-lar* ortiqcha qo'llangan.

Quyidagi misollar Xalq yo'li gazetasi (2023-yil 7-avgust soni)dan: *281811 nafar ishlovchilar* (1-bet), *2000 ta raqamli eshitish moslamalari* (2-bet), *1126 nafar fuqarolar* (3-bet), *846 nafar ishchi-xizmatchilar* (3-bet), *12 nafar xodimlarning* (3-bet), *8 nafar Ikkinchi jahon urushi ishtirokchilari* (3-bet), *260 nafar mehnat*

*faxriylarining* (3-bet), *12 ming 341 nafar bolajonlar* (3-bet), *9 ta bolalarni sog'lomlashtirish oromgohlarida* (3-bet), *366 ta yonilg'i to'ldirish shaxobchalarida* (6-bet).

Mana bu misollar Boshlang'ich ta'lim jurnali (2001, 4-son)dan: *8 ta nodavlat ta'lim muassasalari, 210 ta xonadon bog'chalari, 11 tup karam va 9 tup baqlajon ko'chatlari*.

Bunday holat televideniya ham tez-tez uchraydi: *bir yuz ikki dona tasviriy san'at asarlari, 5 ta maktab va 2 ta bolalar bog'chalari* (Davr axborot dasturi, 2002, 7 avgust.).

Yuqoridagi misollarda otga *-lar* qo'shib ishlatilishini o'zbek adabiy tili me'yoriga mos deb bo'lmaydi.

Son eganing aniqlovchisi bo'lib kelganda subyektning ko'pligini bildiradi. Bunday holda egada ham kesimda ham *-lar* tejaladi: *Beshta otlig yetib keldi*. (A. Qahhor, Qo'shchinor chiroqlari). *Hovlida besh-olti kishi g'ivirlab yuribdi* (O'. Umarbekov, Yulduzlar) *Eshik oldida beshta ot qator turar edi* (A. Qahhor, Qo'shchinor chiroqlari).

Hozirgi kun matbuotida ana shu qoidaga rioya qilinmay ega va kesimga *-lar* qo'shib ishlatilmoqda: *Musobaqada 1, 2, 4, 5, 9, 10, 11, 15, 31- o'rta maktablardan 64 nafar sportchilar ishtirok etdilar* (Ma'rifat gazetasi, 2002, 6 iyul). *Bu gal ham qizg'in bahslar ostida o'tgan «Yil o'qituvchisi – 2001» ko'rik tanloviga turli viloyatlardan kelgan 14 nafar sara o'qituvchilar qatnashdilar* (Boshlang'ich ta'lim jurnali, 2001, 4-son). Keyingi misolda hol bo'lib kelgan otda ham *-lar* ortiqcha. Mana bu gapda esa *-lar* ikki marta otga, bir marta fe'l (kesim)ga ortiqcha qo'shilgan: *Mazkur mehnat yarmarkalarida shahar va tumanlarda faoliyat yuritayotgan 3364 ta korxonalar, muassasa va tashkilotlar 25 ming 663 ta bo'sh ish o'rinlari bilan qatnashdilar* (Xalq yo'li gazetasi, 2023-yil 7-avgust, 3-bet).

Quyidagi vositalar donalab sanaladigan otda noaniq bo'linuvchan ko'plik ifodalanishiga qulaylik tug'diradi.

Sifatning o'zak, negizi: *talay anor, tumonat odam, sanoqsiz nihol, behisob chumchuq, turli hayvon, har xil kapalak, ko'pgina o'simlik, anchagina tarvuz*.

Ravish: *ko'p bola, oz askar, bir nechadan quyon, bir nechta sigir, bir qancha maktab*.

Ot: *ko'pchilik dehqon, aksariyat bino*.

Takroriy so'z: *semiz-semiz qo'y, baland-baland bino, choynakday-choynakday behi, mitti-mitti qo'ng'iz, g'ij-g'ij pashsha*.

Yuqoridagi hollarda donalab sanaladigan ot qulaylik tug'diruvchi vosita yordamida noaniq bo'linuvchan ko'plik ifodalagan. Ko'plik ma'nosi uchun qulaylik so'z birikmasida vujudga kelyapti. Demak bunday birikmalar donalab sanaladigan otda noaniq bo'linuvchan ko'plik namoyon bo'lishi uchun qulay kontekst vazifasini bajaradi.

Quyidagi hollarda noaniq bo'linuvchan ko'plik kuchaytirib ifodalanadi.

Ayrim so'z tarkibidagi unli cho'zib talaffuz qilinadi: *ko'p baliq, mo'ol terak, aancha qog'oz*.

Miqdor bildiruvchi so'z oldidan juda so'zi ishlatiladi: *juda ko'p kitob*.

Yirik miqdorni bildiruvchi son, *olam, dunyo* kabi otlar takror ishlatiladi: *million-million odam, milliard-milliard yulduz, olam-olam yog'och, dunyo-dunyo chigirtka*. Bunday birikma donalab sanaladigan otda ham ko'plik namoyon bo'lishi uchun qulay ham ko'plikni ta'kidlovchi kontekst vazifasini bajaradi. Ko'plikni ta'kidlovchi vosita hissiy bayonda ishlatiladi:

*Mana senga olam-olam gul*

*Etagingga sig'ganicha ol.* (H. Olimjon)

Ot oldidan kelib noaniq bo'linuvchan ko'plikni bildiruvchi so'z bilan *-lar* qo'shimchasi orasida ma'nodoshlik mavjud. Bunday birikmada nohissiy bayonda *-lar* tejaladi: *Baliqchidan o'n sakkizta qayiq o'z vaqtida yetib kelmaganda talay odam o'ladigan bo'lgan ekan*. (A. Qahhor, Qo'shchinor chiroqlari). *Qish kunlaridan birida qulay payt keldi: bir necha ovchi o'sha tomonga – daryo bo'yiga ovga chiqadigan bo'lib qoldi* (A. Qahhor, Xotinlar).

Bu misollar A. Qahhor asarlaridan olingan bo'lib adib lug'aviy miqdorni inobatga olib otga *-lar* qo'shmagan. Lekin yozuvchi barcha o'rinda ham tejamkorlikka rioya qilmaydi. Quyidagi birikmalarda nohissiy bayonda otga *-lar* qo'shib ishlatilgan: *Qishloqning kiraverishida talay bolalar muz tiyg'anmoqda edi* (A. Qahhor, Xotinlar). *Salimxon O'zbekistonlik bir necha o'quvchilarni mehmonga chaqirdi* (A. Qahhor, Sarob). Ko'rinib turibdiki bu gaplarda bayon tarzi nohissiy bo'lib yuqorida keltirilgan misollardan farq qilmaydi. Binobarin ko'plikni ta'kidlash nazarda tutilmaganidan, uning lug'aviy vosita (talay, bir necha) bilan ifodalanishi yetarli bo'lib morfologik vosita (*-lar*)ni ishlatishga hojat yo'q.

Hozirgi kun matbuotida bunday birikmada *-lar* qo'shimchasining tejalmay ishlatilishi ko'p uchraydi. Quyidagi misollar Ma'rifat gazetasi (2002, 6-iyul soni)dan olingan: *turli tadbirlar* (2-bet), *ayrim kishilar* (2-



bet), *bir qancha mulohazalar* (2-bet), *ko'pdan-ko'p savollar* (2-bet), *minglab bolajonlarimiz* (2-bet), *ko'pgina ta'lim muassasalari* (3-bet), *yangi-yangi do'stlar* (4-bet), *turli safarlar* (4-bet), *ko'p hollarda* (4-bet), *turli adabiyotlar* (4-bet), *turli viloyatlar* (6-bet), *turli muammolarni* (6-bet), *qator masalalar* (6-bet), *ko'p ishlar* (9-bet), *ko'pgina o'quvchilar* (9-bet), *o'n nafarcha iqtidorli o'quvchilar* (9-bet), *o'nlab iqtidorli o'quvchilarni* (9-bet). Ko'rinadiki har bir sahifada kamida 3-4 joyda otga *-lar* noo'rin qo'shilgan. Mana bu misollar O'zbekiston bunyodkori gazetasi (2023-yil 8-avgust soni)dan: *ko'plab turar joylar* (1-bet), *7000 dan ortiq jarrohlik amaliyotlarida* (1-bet), *bir qator taklif va mulohazalar* (2-bet), *ayrim ko'chalar* (2-bet), *bir qancha imkoniyatlarga* (3-bet). Quyidagi misollar Yangi O'zbekiston gazetasi (2023-yil 8-avgust soni)dan: *turli sohalar* (2-bet), *ko'plab bo'sh ish o'rinlari* (2-bet), *qator imtiyoz va imkoniyatlar* (2-bet), *qator ekologik muammolar* (4-bet), *bir necha asrlardan buyon* (4-bet), *bir qator natijalarga* (5-bet).

Televideniya ham ko'p o'rinda tejamkorlikka rioya qilinmayapti. Quyidagi misollar Davr axborot dasturi (2002, 7-avgust soni)dan: *bir millionga yaqin kuygan simobli yoritgichlar, turli tadbirlar, saksondan ortiq eksponatlari, mamlakatning ko'pgina siyosiy arboblari, juda ko'p yangi qo'shiqlar, dunyoning qanchadan-qancha mamlakatlariga, turli nodir qo'lyozmalar, turli stadionlarida*. Quyidagi misollar Sport telekanali ko'rsatuvlaridan: *Neymar ko'p ishlardan ozod qilingan bo'lsa kerak*. (2022-yil 25-noyabr) ***Ko'plab turnirlarni o'tkazib yuboryapti***. (2022-yil 25-noyabr) Mana bu misollar esa Madaniyat va ma'rifat telekanalidan: *Mening uyimga ko'p zararlar yetkazildi*. (2022-yil 1-dekabr) ***Bir-ikkita o'rtog'larim tabriklagan bo'ldi***. (2022-yil 1-dekabr) ***Bir necha filmlarni ko'rganmiz***. (2022-yil 10-dekabr) ***Bir necha ziyotilar bu haqda bosh qotirar edi***. (2022-yil 14-dekabr) Bunday qo'llanish jurnalistlarda hali milliy ruh shakllanmaganligidan, rus tili ta'siridan qutulmaganligidan dalolat beradi.

Qo'shimchani tejamay ishlatish ilmiy matnlarda ham ancha-muncha uchrab turadi. Mana bu misollar Jahon jug'rofiyasi (2012-yil 29-iyuldagi) ko'rsatuvidan: *millionlab turli-tuman jonivorlar, ko'pgina raqiblar, o'n millionlab shoxchorloqlar, har xil jonivorlarga, ba'zi jonivorlarga, milliontagacha g'ijjakchi yoki jozibador krablar, son-sanoqsiz jonivorlar qalashib yotganda, juda ko'p dengiz otlari, millionlab mayda baliqlar*.

Miqdor bildiruvchi so'z faqat aniqlovchi emas, gapning boshqa bo'lgi bo'lib kelganda ham noaniq bo'linuvchan ko'plik uchun qulay vosita vazifasini bajaraveradi: *Tarbiyaga doir kitob ko'p*. (A. Qahhor, Ayb kimda) *Odam yig'ildi*. (A. Qahhor, O'tmishdan ertaklar) *Stansiyada odam siyrak*. (A. Qahhor, Sinchalak) ***O'quvchi orttirish kerak***. (A. Qahhor, Sarob) *Uyimizni kitob bosib ketgan*. (A. Qahhor, Kitob shavq bilan o'qilishi kerak) Bu misollarda tub otdan ko'plik anglashilishiga kesim vasifasidagi so'zning lug'aviy mazmuni yordam bergan.

Bir gapda ko'plik uchun qulaylik tug'diruvchi birdan ortiq vosita ishlatilishi mumkin: *Har kuni uydan bitta-ikkita mehmon uzilmaydi*. (A. Qahhor, Sarob) Bu gapda ko'plik son va fe'l yordamida namoyon bo'lgan. Son miqdorni aniqlashtirib kelyapti.

*To'kilgan tut tushgan yerida ezilib, suvi tirqirab ketar edi*. (A. Qahhor, Qo'shchinor chiroqlari) Bu misolda ko'plik ikkita vosita ya'ni aniqlovchi bo'lib kelgan sifatdash (*to'kilgan*) va fe'lning *-ar edi* shakli yordamida ifodalangan. Sifatdash tushirib qoldirilsa ham ko'plik ifodalanaveradi. Chunki fe'lning *-ar edi* shaklida davomiylik ma'nosi bor [10, 34]. Shuning uchun bu gapda aniqlovchi o'rnida bir sonini qo'llab bo'lmaydi. Bu gapdagi aniqlovchini tushirib qoldirib fe'l qo'shimchisi *-di* bilan almashtirilsa tub ot (*tut*) birlik ma'nosini ifodalaydi.

Yuqorida keltirilgan misollardagi kabi miqdor bildiruvchi yoki mazmunidan ko'plik anglashiluvchi so'z birikmada emas, gapda biror bo'lak bo'lib kelganda ham u bilan mazmunan bog'langan ot *-lar* olmaydi: *Yangi kasb, yangi hunar ko'p* (A. Qahhor, Sinchalak). *Miltiq ulashildi* (A. Qahhor, Oltin yulduz). *Odam ko'p* (A. Qahhor, O'tmishdan ertaklar). *Bozorda odam siyrak*. (A. Qahhor, O'tmishdan ertaklar). *O'quvchingiz ko'payadi* (A. Qahhor, Sarob). *Savol yog'ilib ketdi* (A. Qahhor, Qo'shchinor chiroqlari). *O'zbekistonda yozuvchi ko'p*. (A. Qahhor, Sarob). Bu misollar Abdulla Qahhor qalamiga mansub. Adib bu o'rinlarida tejam-korlikka rioya qilgan. Lekin ayrim o'rinda yozuvchi bunday holda otga *-lar* qo'shib ishlatadi: *Kooperativdan mijozlar ko'p*. (A. Qahhor, Sarob) *Toshkentda zo'r olimlar ko'p* (A. Qahhor, Qo'shchinor chiroqlari). *Soyabon aravalar ko'p*. (A. Qahhor, O'tmishdan ertaklar). Bu gaplarda bayon nohissiy bo'lib so'zlovchining maqsadi hissiy munosabat bildirmay neytral xabar yetkazish. Shunga ko'ra ko'plikni ta'kidlash nazarda tutilmaganidan qo'shimcha tejalishi kerak edi. Tejamkorlikka rioya qilinmaganidan mazkur misollarda otga *-lar* qo'shilishini to'g'ri deya olmaymiz.

Matbuot, televideniya bunday holda otga *-lar* qo'shib ishlatish ancha-muncha uchrab turadi. Hurriyat gazetasi sahifalariga nazar tashlaylik: *Viloyat miqyosidagi gazetalar ham behisob* (2002, 27-iyun). *Biz yosh jurnalistlar ko'payotganidan sevinamiz* (2002, 27-iyun). Quyidagi misollar Turkiston gazetasi: *nashrlar ko'payib ketdi, qilinishi lozim bo'lgan ishlar talaygina, gazetalar ham uncha ko'p*

emas, *sanoqli edi, tadbirkorlar soni ortib* (2002, 27-iyul). Quyidagi misollar Qishloq hayoti gazetasidan: *Shu bilan birga, maktab ta'limi sohasida dolzarb masalalar hali ko'p* (2023-yil 30-avgust soni, 1-bet). Bu gapda vergul ham ortiqcha qo'llangan. *Yangi Namangan tumanida aholi bandligini ta'minlash bilan bir qatorda tumanning iqtisodiy rivojiga hissa qo'shayotgan korxonalar ko'p* (2023-yil 10-avgust soni, 1-bet). ...*ko'saklar soni va vaznini oshirish, Sababi, oromgohda juda ko'p do'stlar ortirdim.* (2023-yil 3-avgust soni, 3-bet) *Suvni tejaydigan texnologiyalarning afzalliklari ko'p.* *Zamonaviy gaz-chang tozalash uskunalarini o'rnatishning afzalliklari ko'p. ... qiyinchiliklar ko'p bo'layotgani* (2023-yil 20-iyul soni, 1-bet), ... *ishchilar soni esa 2 baravarga oshdi* (2023-yil 20-iyul soni, 2-bet), ... *turlarini ko'paytirishga* (2023-yil 20-iyul soni, 3-bet). Mana bu misollar Boshlang'ich ta'lim jurnalidan: *Yutuqlar ko'p. – Darслиklar sonini ko'paytirish kerak. – O'qituvchilar uchun tarqatma materiallar, usuliy qo'llanmalar soni yanada ko'paytirilsa* (2001, 4-son). Quyidagi misollar turli telekanaldan olingan: *Bu vaqtda avtobus bekatida odamlar ko'p edi* (Davr axborot dasturi, 2002, 7-avgust). *Hujumni shakllantiruvchi futbolchilar ko'p* (Sport telekanali, 2022, 23-noyabr). *O'zbekiston terma jamoasidan jahon chempionlari ko'p* (Sport telekanali, 2022, 2-dekabr). *Albatta bugun savollarimiz ko'p* (Madaniyat va ma'rifat telekanali, 2022, 10-dekabr).

Matnda qulay vosita oldingi yoki keyingi gapda kelishi mumkin: *To'rt quti urug'ni o'z qo'li bilan keltirib berdi. Hademay qurt ko'm-ko'k barg ustida o'rmalab qoldi.* (A. Qahhor, Kampirlar sim qoqdi) Bu misolda tub ot (*qurt*)ning ko'plik ifodalashiga birinchi gapdagi lug'aviy vosita (to'rt quti urug') qulaylik tug'dirgan. Birinchi gap tushirib qoldirilsa tub ot miqdori aniq bo'lmay qoladi. Quyidagi misolda esa qulaylik tug'diruvchi vosita keyingi gapda kelgan. *Mehmon kelgan edi. – Yo'lda ko'rdim. Ertaga aniq kelishadi* (A. Qahhor, Qo'shchinor chiroqlari). Tinglovchi mehmonning miqdoridan xabardor shuning uchun fe'ning ko'plik shakli (*kelishadi*)ni qo'llaydi.

Quyidagi misol qo'shma gapdan iborat bo'lib birinchi gapdagi tub otning ko'pligi ikkinchi gapdagi juft sondan anglashiladi: *Bola o'rikni oldi, bir-ikkitasini yedi* (A. Qahhor, O'tmishdan ertaklar). Bu kontekstda ikkinchi gap tushirib qoldirilsa tub ot da birlik ma'nosiga munosabat sezilib qoladi.

Bitta otga qo'shilgan *-lar* ikkinchisidan ham noaniq bo'linuvchan ko'plik anglashilishiga yordam beradi. Binobarin donalab sanaladigan ot da ko'plik ifodalanishiga morfologik vosita ham qulaylik tug'diradi. *Yakshanba kuni ovqatdan keyin bolalarga kuzgi paxtalik nimcha berildi.* (A. Qahhor, O'tmishdan ertaklar). Bu gapda donalab sanaladigan ot (*nimcha*)ning ko'plik ifodalashiga u bilan mazmunan bog'langan *-lar* li ot (*bolalar*) yordam bergan. Quyidagi misol ham xususiyati jihatidan yuqoridagiga o'xshash: *To'plardan g'ilof olindi* (A. Qahhor, Oltin yulduz). *-lar* tushirib qoldirilsa ikkala ot da ham birlik namoyon bo'ladi.

Bunday holda *-lar* olgan so'z ot emas, olmosh ham bo'lishi mumkin: *Bombay aholisi sizlarday mehmonni kutish bilan faxrlanadi* (A. Qahhor, Salom hind xalqiga). Bu misolda ko'plik ifodalanishiga *-lar* shaklidagi kishilik olmoshi yordam bergan. Qo'shimcha tushirib qoldirilsa siz olmoshi birlik va ko'plikka betaraf bo'lganidan tub otning miqdori ham noaniq bo'lib qoladi.

Ko'plikni bildirgan ega kesim bo'lib kelgan ot da ko'plik ifodalanishiga qulaylik tug'diradi: *Akalarim injener. Opalari tikuvchi. Lekin hammasi ham hali usta ko'rmagan shogird.* (A. Qahhor, Kartina) *Bizni sotib olgani yo'q, biz meros qulmiz.* (J. Sharipov, Xorazm) Birinchi, ikkinchi misolda *-lar* shaklidagi ot, uchinchi misolda miqdor olmoshi, to'rtinchi misolda kishilik olmoshi va shaxs, son qo'shimchasi kesim vazifasidagi otning ko'plik ifodalashi uchun qulay vosita vazifasini bajargan. Bunday holda ham qo'shimcha (*-lar*) tejaladi.

Biroq televideniya da ko'p holda tejamkorlikka rioya qilinmay ot kesimga *-lar* qo'shilyapti. Quyidagi misollar Sport telekanali ko'rsatuvlaridan olindi: *Yaponiyalik muxlislarni eng ajoyib muxlislar desa bo'ladi.* (2022-yil 24-noyabr) *Avstraliya Yaponiya bilan ancha yaxshi imkoniyatlarga egalar.* (1-dekabr). *Ikkalasi ham drebling sohiblari.* (2022-yil 1-dekabr) *Bizning muxlislarimizning hammasi kitobxonlardir.* (2022-yil 1-dekabr) *Bular xavfli futbolchilar ekanini hamma biladi.* (2022-yil 5-dekabr) *Ular Muqbil toshotarlar.* (2022-yil 5-dekabr) *Koreya futbolchilari oldinga o'tishga majburlar.* (2022-yil 5-dekabr) Mana bu misollar Madaniyat va ma'rifat telekanalidan: *Biz buyuk ajdodlarning avlodlarimiz.* (2022-yil 21-noyabr) *Biz mana shu tumanning fuqarolarimiz.* (2022-yil 24-noyabr) *Bu farzandlar olimlar bo'lyapti.* (2022-yil 24-noyabr) *Bu qarzlar 1-2 kun ichida yig'ilgan qarzlar emas.* (2022-yil 24-noyabr) *Bular ham puldor ayollar.* (2022-yil 25-noyabr) *AQSH terma jamoasining o'yinchilari ko'pchiligi muhojirlarning farzandlari.* (2022-yil 26-noyabr) Bu misolda kesim bo'lib kelgan otning ko'plikni ifodalashiga uchta vosita qulaylik tug'dirgan: eganing aniqlovchisi, ega vazifasidagi jamlovchi ot va kesimning aniqlovchisi. Binobarin kesimga *-lar* qo'shishga ehtiyoj yo'q. *Bular kelgusi shifokorlar.* (2022-yil 26-noyabr) *Bular ansamblda solistlar bo'lgan-da.* (2022-yil 26-noyabr) *Chunki biz deputatlarimiz.* (2022-yil 28-noyabr) *Bu dunyo katta sahna. Biz unda aktyorlarimiz.* (2022-yil 30-noyabr) *Haqiqatan ham baxtli insonlarimiz.* (2022-yil 3-dekabr) Bu misolda donalab sanaladigan otning ko'plik ifodalashiga shaxs, son qo'shimchasi (*-miz*)

qulaylik tug'dirgan, shuning uchun *-lar* ni qo'llashga ehtiyoj yo'q. Mening *asosiy bemorlarim san'atkorlar*. (2022-yil 3-dekabr) *Sizlar mening bemorlarimsizlar*. (2022-yil 3-dekabr) Bu gapda ko'plik ma'nosi ega vazifasidagi kishilik olmoshidan anglashilgan, shu sababli kesim bo'lib kelgan ot va tuslovchi qo'shimchadagi *-lar* ortiqcha. *Biz ham hamma qatori xudoning bandalarimiz*. (2022-yil 11-dekabr, Gandi filmidan) *Biz hindlar va musulmonlar xudoning bandalarimiz*. (2022-yil 11-dekabr, Gandi filmidan)

Aniqlovchi miqdor bildirmaydigan so'zdan ifodalanganda aniqlanmishga *-lar* qo'shilmaydi: *Biz, bolalar daraxtlarning shoxiga, tomlarga chiqib uzoqdan qarab turdik* (A. Qahhor, O'tmishdan ertaklar). Daraxtlarning shoxi bitta bo'lmasligi mantiqan ayon bo'lganidan *-lar* tejalgan. Quyidagi misolda ham tejamkorlikka rioya qilingan. *Anchadan keyin odamlarning ovozi eshitildi* (A. Qahhor, Sarob). Mazkur qoidaga mos kelganidan quyidagi misollarda aniqlanmishga *-lar* qo'shilishini to'g'ri deya olmaymiz: *Portretlari osilgan kishilarning nomlarini aytib qichqirishar edi*. (A. Qahhor, Qo'shchinor chiroqlari). *Bu vazifani bajarishda sizlarning yordamlaringizga muhtojmiz*. (A. Qahhor, Kartina)

Matbuotda bunday birikmada otga *-lar* qo'shib ishlatilishi uchrab turadi: *Yoki qadimgi davrlarda mavjud bo'lgan podshohlarning, davlatlarning nomlari qayd etilganda, ularning hozirgi o'rni, hududi qavs ichida bo'lsa ham berilmagan* (Boshlang'ich ta'lim jurnali, 2001, 4-son). *Boshqa muharrirlarning gazetada o'z ruknlari bor* (Tafakkur jurnali, 2002, 2-son).

Donalab sanaladigan ot uyushib kelganda ta'kid nazarda tutilmasa *-lar* oxirgi bo'lakka qo'shib qolgan uyushiq bo'lakning ham ko'pligini bildiradi: *Toshkent ko'chalaridan avtobus, tramvay, trolleybuslar qatmaydi* (M. Hamidova, Toshkentim – onam). Ko'plikni ta'kidlash nazarda tutilsa uyushiq bo'lakning har biriga qo'shiladi. Shunga ko'ra bu holat hissiy gap, matnda uchraydi: *Qish bo'yi allaqaysi go'r ostlarida junjib chiqqan qush zotlari: chumchuqlar, chittaklar, to'rg'aylar, sa'valar va boshqa allaqancha qush turkumlari o'z to'plari bilan vijir-vijir, chug'ur-chug'ur sayrab kuylaydilar* (A. Qodiriy, O'tgan kunlar). Bayon hissiy bo'lganidan bu gapda kesimga ham *-lar* qo'shilgan. Binobarin bu misolda uyushiq bo'lak va kesimga qo'shilgan *-lar* konnotatsiya ifodalashga xizmat qilgan. *Nabilar, rasullar, dohiylar unda, Qabrlar, qasrlar turgandir qator*. (A. Oripov, Yurtim shamoli).

Grammatik qurilishning bosh xususiyati uyushiq bo'lakda ham *-lar* tejalishini taqozo qiladi. Bayon nohissiy bo'lib ta'kid nazarda tutilmasa *-lar* oxirgi so'zga qo'shiladi: *Juvon qop va tugunlar ustidan oldinga o'tganidan keyin tizginni siltadi* (A. Qahhor, Qo'shchinor chiroqlari). *Bu tepaliklarning ustiga, yon bag'riga solingan kigiz, sholcha, bo'yra va paloslarda odamlar tiqilishib o'tirar edi* (A. Qahhor, Qo'shchinor chiroqlari). Keyingi misoldagi uyushiq bo'lakda o'rin-payt kelishigi qo'shimchasi ham tejalgan.

Quyidagi nolisoniy omillar ham donalab sanaladigan tub otda noaniq bo'linuvchan ko'plik namoyon bo'lishiga qulaylik tug'diradi.

Nutq vaziyati: *Piyola chiroyli ekan* (piyolaning birdan ortiqligi ko'rinib turgan bo'lsa). *Nima olib kelayapsan? – Kitob* (tinglovchining qo'lida birdan ortiq kitob bo'lsa).

Mantiqan ayonlik: *Ha, aytganday, keliningiz sizga o'rik berib yuborgan edi*. (A. Qahhor, Qo'shchinor chiroqlari). Bitta o'rik berib yubormasligi ayon. Bitta gapda birdan ortiq sanaladigan ot kelishi mumkin: *O'qishdan chiqib qurtga barg kesgani boramiz*. (A. Qahhor, Qo'shchinor chiroqlari). Qurtning ham bargning ham ko'pligi mantiqan ayon.

Ko'plik mantiqan ayon bo'lganda ham otga *-lar* qo'shilmaydi: *Ismat pochtachi velosipedda xat, gazeta tashiydi* (A. Qahhor, Sinchalak). Yozuvchi mantiqan ayonlikni inobatga olib *xat, gazeta* so'zlarida *-lar* ni tejalgan.

Mazkur qoidaga mos kelganidan matbuotdan olingan quyidagi misolda *-lar* tejalishi kerak edi: *Uy-joyga muhtoj 10 ta oilaga oilaviy yotoqxonalar kalitlari topshirildi* (Xalq so'zi gazetasi, 2014, 24 aprel). Bu gapda oilaning ko'pligi (10 ta) aytilgan binobarin ularga beriladigan yotoqxona va kalitning ham bitta bo'lmasligi mantiqan ayon. Televideniya olingan quyidagi misolda ham tejamkorlikka rioya qilinmagan: *Akam bilan ana shu tepaliklarda qo'ylar boqqanman*. (Madaniyat va ma'rifat telekanali, 2022-yil 29-noyabr). Bitta qo'y boqilmasligi mantiqan ayon shuning uchun otga qo'shilgan *-lar* ortiqcha.

Quyidagi vositalar donalab sanaladigan otda jamlik namoyon bo'lishiga qulaylik tug'diradi.

Hisob so'z: *bir quchoq gul, bir dasta jurnal, bir mashina qovun, bir uy odam, bir choyshab anor, bir savat olma, ikki-uch hovuch o'rik, bir tovoq manti, bir do'ppi yong'oq*.

Ayrim takroriy so'z: *javon-javon kitob, qop-qop anor, qator-qator terak, savat-savat nok*.

Miqdor olmoshi: *barcha talaba, hamma o'qituvchi*.

Yuqoridagi hollarda donalab sanaladigan ot qulaylik tug'diruvchi vosita yordamida jamlik ifodalangan. Jamlik ma'nosi uchun qulaylik so'z birikmasida vujudga kelyapti. Demak bunday birikmalar donalab sanaladigan otda jamlik namoyon bo'lishi uchun qulay kontekst vazifasini bajaradi.

Ot oldidan jamlikni bildiruvchi soʻz kelganda nohissiy bayonda *-lar* tejaladi. Biroq hozirgi kunda matbuot va televideniya bunday birikmada *-lar* qoʻshimchasi tejalmay ishlatilyapti. Quyidagi misollar Maʼrifat gazetasi (2002-yil 6-iyul soni)dan: *barcha sharoitlar* (2-bet), *barcha taʼlim turlari* (2-bet), *barcha maktabgacha taʼlim muassasalari* (2-bet), *barcha koʻrsatkichlar* (3-bet), *hamma tumanlardagi* (4-bet), *barcha qulay sharoitlar* (7-bet), *hamma bosqichlari* (8-bet), *barcha qiziquvchi oʻquvchilar* (9-bet). Mana bu misollar Yangi Oʻzbekiston gazetasi (2023-yil 30-avgust soni)dan: *barcha hududlarda* (1-bet), *barcha rasmiylashtirish jarayonlarini* (1-bet), *barcha bojxona postlari* (1-bet), *barcha sharoitlar* (1-bet), *barcha zarur imkoniyatlar* (2-bet), *barcha sohalarida* (3-bet), *barcha narsalar* (3-bet), *barcha yutuqlarimiz* (3-bet). Quyidagi gapda jamlik olmoshdan tashqari ikki otning oʻzidan anglashilib turgan boʻlsa-da ularga *-lar* qoʻshilgan: *Chunki Alloh insonni barcha mavjudotlardan, maxluqotlardan maʼnan ulugʻ qilib yaratdi* (5-bet). Bundan tashqari birinchi otda chiqish kelishigi qoʻshimchasi ham ortiqcha qoʻllangan. *Barcha qarindoshlarini* (6-bet), *barcha plakatlari* (6-bet) (Quyidagi misollar esa Davr axborot dasturi (2002, 7 avgust)dan: *hamma ijodkorlar, yurtimizning barcha oʻquv muassasalari, barcha viloyatlar*.

Qoʻshimchani tejamay ishlatish ilmiy matnlarda ham ancha-muncha uchrab turadi. Mana bu misollar Jahon jugʻrofiyasi koʻrsatuvchi (2002, 29-iyul)dan: *barcha qushlar, jamoaning hamma aʼzolari*.

Donalab sanaladigan otda jamlik maʼnosi namoyon boʻlishi uchun aniqlanmish vazifasida kelgan jamlovchi ot ham qulaylik tugʻdiradi: *qoʻy podasi, oʻrdak galasi, mashq toʻplami*.

Bunday birikmada ham nohissiy bayonda donalab sanaladigan otda *-lar* tejalishi kerak. Shuni hisobga olmay ayrim kitob nomida aniqlovchiga *-lar* qoʻshib ishlatilmoqda: *bayonlar toʻplami, mashqlar toʻplami, hikoyalar toʻplami*.

Donalab sanaladigan otda jamlik namoyon boʻlishi uchun ayrim feʼl ham qulaylik tugʻdirishi mumkin: *Atrofda odam toʻplandi* (Oybek, Qutlugʻ qon). *Nega bunchalik kitob yigʻmasa* (K. Yashin, Hamza). *Choy toʻkilib soy boʻlmas, Yulduz yigʻilib, oy boʻlmas* (Maqol). Bunday holda ham donalab sanaladigan otda *-lar* tejaladi.

Donalab sanaladigan otning aniq, noaniq boʻlinuvchan koʻplik yoki jamlik maʼnosi uchun qulaylik boʻlmasa umumiylik namoyon boʻladi. *-lar* shakli cheklangan miqdordagi koʻplikni anglatganda tub shakldan shu turga kiruvchi barcha ot (yaxlit tarzda) anglashiladi. Umumiylik ifodalanishiga quyidagi vositalar qulaylik tugʻdiradi.

Matnning ijtimoiy-tarixiy xususiyati. Jumladan maqolda sanaladigan ot birlik yoki koʻplik emas, umumiylikni ifodalaydi: *Farzand – belning quvvati. Daraxt tomiridan suv ichar*. Demak maqol donalab sanaladigan otda umumiylik maʼnosi namoyon boʻlishi uchun qulay kontekst vazifasini bajaradi.


Gapning umumiy mazmuni: *Soʻz adabiyotning eng birinchi unsuri, uning birinchi quroli* (A. Qahhor, Hayot qoʻshigʻi). *Shunday qilib, oʻrik gulini toʻkkanda Qoʻqondan Qudashga koʻchdik* (A. Qahhor, Oʻtmishdan ertaklar). *Oʻquvchi kitobga, yaxshi kitobga tashna* (A. Qahhor, Kitob shavq bilan oʻqilishi kerak). Bu misollarda umuman soʻz, barcha oʻrik, barcha oʻquvchi nazarda tutilganligi gapning umumiy mazmunidan anglashiladi.

Donalab sanaladigan ot umumiylikni ifodalaganda feʼl kesim koʻpincha *-adi* shaklida keladi. Chunki bu shakl bir turga kiruvchi mavjudotning doimiy belgisini koʻrsatadi: *Suvsizlikni tuya koʻtaradi* (Abdulla Qahhor, Sarob). *Ketmon ishlatilaversa yeyilib ketadi* (A. Qahhor, Oʻtmishdan ertaklar). *Baliq suvda yashaydi. Dehqon dalada shudgor qiladi. Duradgor derazaga rom yasaydi*.

Yuqorida koʻrsatilgan barcha holda tub ot biror vosita (lugʻaviy, fonetik, morfologik) yordamida koʻplik (noaniq boʻlinuvchan koʻplik, jamlik, umumiylik) ifodalash uchun xizmat qilganidan *-lar* qoʻshimchasini olgan ot bilan maʼnodosh boʻladi. Misollarning koʻpchiligida maʼnodosh shakllarni oʻzaro almashtirish mumkin: 1. *Hoʻkiz – hoʻkizlar: Hoʻkizlarni hozir joyiga eltib qoʻy. – Otim bilan sigirimni ber, hoʻkizingni ol* (A. Qahhor. Qoʻshchinor chiroqlari). 2. *Talay odam – talay odamlar: Baliqchidan oʻn sakkizta qayiq oʻz vaqtida yetib kelmaganda talay odam oʻladigan boʻlgan ekan* (Abdulla Qahhor, Qoʻshchinor chiroqlari). *Ovqat mahalida “bulbuligoʻyo” odatdagicha yana talay odamlarni yomonladi* (A. Qahhor, Sarob). 3. *Odam koʻp – odamlar koʻp: Ichkarida odam koʻp edi* (Abdulla Qahhor, Sarob). *Yaxshi odamlarimiz koʻp* (Abdulla Qahhor, Sinchalak). Bunday holda *-lar* qoʻshimchasi koʻplikni taʼkidlash uchun xizmat qiladi. Bunday qoʻllanish hissiy bayonga xos boʻlib buni quyidagi misollar ham tasdiqlaydi: 1. *Bu odamlar juda koʻp narsani biladi, bularga juda-juda koʻp narsalar yarashadi, otaxon!* (Abdulla Qahhor, Qoʻshchinor chiroqlari). Bu misol qoʻshma gapdan iborat boʻlib tarkiban bir xil birikma ikkala gapda qoʻllangan. Birinchi soddaga gapda taʼkid darajasi yuqori boʻlmaganidan ot (narsa)ga *-lar* qoʻshilmagan. Ikkinchi gapda koʻplikni taʼkidlash juda soʻzining takrori hamda *-lar* qoʻshimchasi orqali amalga oshirilgan.

2. *Sen tengi kelinchaklarning uyiga kirsang ogʻzing ochilib qoladi: qoʻsh-qoʻsh tilla soatlar, tilla bilaguzuklar ...* (Abdulla Qahhor, Sarob). Bu misolda soʻzlovchi Saidiyning qaynonasi. U qizi (Soraxon)ga

kuyovining kam pul topayotganini pisanda qilish uchun bu gapni aytadi. Shuning uchun ko'plik ma'nosi lug'aviy vosita (*qo'sh-qo'sh*) orqali ifodalanganiga qaramay, otga *-lar* qo'shib ma'no kuchaytirilgan. Keltirilgan misollardan ko'rinadiki sanaladigan ot ko'plikni bildirsa *-lar* bu ma'noni ta'kidlashga xizmat qiladi. Buni chizmada quyidagicha ko'rsatish mumkin:



Ta'kid nazarda tutilmaganda tub ot qo'llanib o'zbek tili qurilishining o'ziga xos xususiyati – tejamkorlik namoyon bo'ladi. Bunday holda *-lar* ishlatilsa ajnabiy (rus, ingliz, nemis) tili xususiyati o'zbek tiliga nisbat berilgan bo'ladi.

**Xulosa.** Donalab sanaladigan ot o'zak, negizining nutqiy xususiyati tahlilidan ko'rinadiki otning o'zak, negizi ko'plikning ko'rinishlari: ikkilik, ikkidan ortiq aniq ko'plik, noaniq bo'linuvchan ko'plik, jamlik, umumiylik ma'nolarini so'z, birikma, kichik va katta kontekstda qulay vosita yordamida ifodalaydi. Qulay vosita vazifasini son-miqdor kategoriyasiga mansub lug'aviy, morfologik, fonetik vosita hamda nolisoniy omillar bajaradi. Ko'plik ma'nosi lug'aviy, fonetik va morfologik vosita (*-lar*) bilan ifodalanadi. Birikma, gap, matnda ko'plikni bildiruvchi lug'aviy, morfologik yoki nolisoniy vosita bo'lmaganda bu ma'no qo'shimcha bilan ifodalanadi. Nohissiy bayonda ko'plik lug'aviy vositadan anglashilganda *-lar* tejaladi.

### ADABIYOTLAR:

1. Зикриллаев Ф.Н. Рух ва тил. – Тошкент, Фан, 2018. – 464 б.
2. Бондарко А.В. Теория морфологических категорий. – Ленинград, Наука, 1976. – 256 с.
3. Бондарко А.В. Грамматическая категория и контекст. – Ленинград, Наука, 1971. – 115 с.
4. Бондарко А.В. Принципы функциональной грамматики и вопросы аспектологии. – Ленинград, "Наука", 1983. – 208 с.
5. Бондарко А.В. Функциональная грамматика. – Ленинград, "Наука", 1984. – 134 с.

## ANTROPOCENTRIC ASPECT OF PHRASEOLOGICAL UNITS WITH THE COMPONENT "RED"

*Akhmedova Rano Ashurovna,  
English teacher of the 2<sup>nd</sup> foreign  
language department of Uzbekistan  
State World Language University*

So'nggi yillarda jahon tilshunosligi, qolaversa, o'zbek tilshunosligida bajarilgan tadqiqotlar tilshunoslik tarixida yaratilgan ilk lug'atlarning sof amaliy ehtiyojlar – o'quv maqsadida yaratilganini isbotladi. Jumladan, so'z ma'nosidagi nozik farqlarga asoslangan sinonimlar mavzusiga bag'ishlangan har qanday lug'atning yaratilish asosida ta'limiy maqsad – notiqlikka o'rgatish, nutqiy kompetentlikni o'stirish maqsadi yotgan. Ma'nosi bir xil yoki yaqin bo'lgan so'zlarning semantik imkoniyati, qo'llanish o'rni, chegarasi, o'z yoki o'zlashmaligi va boshqa xususiyatlari ularni maxsus lug'atlarda jamlash va izohlash ehtiyojini yuzaga keltirgan.

O'quv-metodik qurilma – o'quv lug'atini xarakterlaydigan muhim belgilardan biri. B.Bahriddinova unga quyidagicha izoh beradi: "O'quv lug'atining metodik qurilmasi deganda nima nazarda tutiladi? Ma'lumki, bugungi o'ta shiddatkor va axborot manbalarining son-sanoqsiz turlari misli ko'rilmagan darajada taraqqiy etgan bir davrda zarur ma'lumotni tez va qulay izlab topa bilish ham zamonaviy shaxsning muhim ko'rsatkichidan biri hisoblanadi. Lug'atdan samarali foydalana bilish uchun o'quvchi lug'at ustida ishlash ko'nikmasiga ega bo'lishi lozim. O'quv-metodik qurilma o'quv lug'atining ilmiy-metodik asosini tashkil etadi, uni har qanday kichik hajmli cho'ntak lug'ati, turli maqsadda tuzilgan spravochnik-lug'atlardan farqlaydi, lug'atni maksimal darajada o'quv jarayoniga moslashtiradi. Unda lug'at korpusi, lug'at maqolaning tarkibiy tuzilmasi, leksikografik simvolika haqidagi ma'lumot bilan birga lug'at bilan ishlashga doir mashq va topshiriqlar ham ilova qilinadi".

O'zbek tilida maktab o'quvchilari uchun tuzilgan sinonim lug'atlar, xususan, O.Shukurov va B.Boymatovalarning «O'zbek tilining ma'nodosh so'zlar o'quv lug'ati»da kirish «So'z boshi» mavzusi ostida berilib, unda lug'atni tuzish zarurati xususida so'z borgan holda o'quv-uslubiy ta'minot «Tuzuvchilardan» sarlavhasi ostida keltiriladi. Ushbu qismda lug'at xarakteristikasi, so'zlikni taqdim qilish tartibi, shu tipdagi boshqa lug'atlardan farqi, lug'atda ishlatilgan shartli belgilar xususida ma'lumot beriladi: «Ushbu qo'llanma o'zbek tilining ma'nodosh so'zlar o'quv lug'ati bo'lib, unda so'zlar ma'nodoshligi alifbo tartibida nutqiy misollarsiz sinonimik qator holda berilgan.

Shuningdek, o'tgan asrning oxirlariga qadar so'zlararo ma'noviy munosabatlar sinonimiya va antonimiya bilan chegaralanib qolgani, sistem tahlil usuli asosida olib borilgan keyingi kuzatishlarda tilda ma'noviy munosabat rang-barang ekanligi oydinlashgani, ularning graduonimiya, giponimiya, partonimiya, funktsionimiya, ierarxionimiya kabi turlari aniqlangani, ushbu lug'at avvalgi lug'atlardan so'zlikni shakllantirishda mazkur munosabatlardan sinonimlarni ajratib olishi bilan farqlanishi izohlanadi: «Lug'aviy ma'nodoshlik sememasi tarkibidagi atash va vazifa semalari bir xil, ifoda semalari har xil bo'lgan, bir turdagi narsa-buyum, belgi-xususiyat, harakat-holatni ifodalovchi leksemalararo munosabatdir. Darajalanish esa umumiy atash semalari bir xil, lekin ma'lum bir semaning turli darajasini ifodalovchi leksemalardir.

**Xulosa va tavsiyalar.** Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, o'quvchilar mashqlarda berilgan barcha so'zga ma'nodosh so'z topa olmasligi mumkin. Shuning uchun ularga ma'nodosh so'zlar lug'ati kerak bo'ladi. Biroq hozirgi kunda boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun ma'nodosh so'zlar lug'ati mavjud emas. Binobarin, hozircha Nizomiddin Mahmudov tahriri ostida "O'zbek tili sinonimlarining katta izohli lug'ati" (Toshkent: "G'.G'ulom", 2022) va Azim Hojiyev tomonidan tuzilgan "O'zbek tili sinonimlarining izohli lug'ati"dan (Toshkent: "O'qituvchi", 1974) foydalanishga to'g'ri keladi. Shuning uchun biz ilmiy ishlarimiz yakunida boshlang'ich sinflar uchun sinonim so'zlar o'quv lug'atini tuzishni maqsad qilib qo'ydik.

### ADABIYOTLAR:

1. *Mirxanova G.R. O'zbek tilining sinonim so'zlar o'quv lug'atini tuzishning lingvistik asoslari: Filol. Fan. Doktori (PhD)diss. – Qarshi.2020., – 143 b.*
2. *Adizova N.B. Ona tili o'qitish metodikasi. – Buxoro: Durdona. – 2021. – 113 b.*
3. *Aydarova U.B. O'qish savodxonligi. Mashq daftari I qism. – Toshkent: Novda. –34 b*
4. *Baxriddinova B.M. O'zbekistonda o'quv tug'atchiligi: lingvistik asoslari, tarixi va istiqbollari: Filol. Fan. Doktori (DSc)diss. – Samarqand.2020., –234 b.*
5. *Данияров Б. Ўзбек тили лексик синонимларининг лисоний ва нутқий муносабати, лексикографик тадқиқи. – Тошкент: Сано-стандарт, 2019. – Б.159*

## O'ZBEK KINODISKURSIDA "MILLIYLIK" OBRAZINI YARATISHNING TAMOYILLARI

*Barotova Nigina Sharofovna,*  
*Buxoro davlat universiteti tayanch doktoranti*  
*niginabarotova@gmail.com*

**Annotatsiya.** Maqolada kino san'ati, uning rivoji va insonlar hayotida tutgan o'rni haqida gap boradi. Kinofilmlar xalqlar madaniyati, milliy urf-odatlarini namoyon etishga xizmat qilishi haqida mulohazalar keltiriladi. Milliylik, qadriyat kabi tushunchalar ilmiy izohlanadi. Lingvomadaniyatshunoslik fanida "milliylik" tushunchasiga berilgan izohlar va olimlar fikri tahlil etiladi. Tahlillar natijasida esa o'zbek millatiga, xalqiga xos bo'lgan "milliylik" obrazi aks ettirilgan sahnalar ochib beriladi.

**Kalit so'zlar:** kinodiskurs, milliylik, qadriyat, lingvomadaniyatshunoslik, "milliylik" obrazi, insonparvarlik, qo'shnichilik.

### ПРИНЦИПЫ СОЗДАНИЯ ОБРАЗА «НАЦИОНАЛЬНОСТИ» В УЗБЕКСКОМ КИНОДИСКУРСЕ

**Аннотация.** В статье говорится об искусстве кино, его развитии и роли в жизни людей. Приводятся мнения, что фильмы служат показу культуры и национальных традиций народа. Научно объяснены такие понятия, как национальность и ценность. Анализируются разъяснения понятия «национальность» и мнения учёных в области языкознания и культурологии. В результате анализа выявлены сцены, изображающие образ «национальности», характерный для узбекской нации и народа.

**Ключевые слова:** кинодискурс, национальность, ценность, лингвокультурология, образ «национальности», гуманизм, добрососедство.

### THE PRINCIPLES OF CREATING THE IMAGE OF «NATIONALITY» IN UZBEK CINEMA DISCOURSE

**Abstract.** The article deals with the art of cinema, its development and its role in people's lives. Movies serve to show people's culture and national traditions as the article claims. Concepts such as nationality and value are explained scientifically. Explanations given to the concept of "nationality" and the opinions of scientists are analyzed in the field of linguistics and cultural studies. As a result of the analysis, scenes depicting the image of "nationality" characteristic of the Uzbek nation and people are revealed.

**Keywords:** film discourse, nationalism, values, linguo-culture, the image of nationalism, humanism, neighborhood principles.

**Kirish.** Kino san'ati – kinomatografiyaning texnik vositalar asosida shakllangan badiiy ijod turi, ekran san'atining muhim tarkibiy qismi, real borliqni aynan yoki badiiy-hujjatli obrazlar, multiplikatsiya vositalari yordamida suratga olish, kinofilmlarning omma orasida keng tarqalishi uchun xizmat qiladigan televideniye, videokasseta va videodisklarni ham o'z ichiga oladi. Kino san'ati kinomatografiya bilan bir vaqtda paydo bo'ldi. Kinematografiya fan va texnika taraqqiyoti bilan bog'liq holda yuzaga keldi va asta-sekin zamonaviy iqtisodiyot, san'at va madaniyatning eng zarur sohasiga aylandi [1].

**Asosiy qism.** Kino 1895-yil 28- dekabrda Parijda (ixtirochilar aka-uka O. va L. Lyumyerlar) yaratildi [2]. Uning yuzaga kelishi, o'z navbatida, insoniyatning badiiy madaniyati tarixida obyektiv qonuniyat bosqichi bo'ldi. Kinoda adabiyot, teatr, tasviriy san'at va musiqa tajribalari, uning estetik jihatlari uyg'unlashtirilib, o'ziga singdirilgan holda voqelik o'ziga xos ifoda vositalarida fotografik tasvir orqali ko'rsatiladi. Kino san'atining ommani ijtimoiy-siyosiy va madaniy jihatdan tarbiyalashda, kishilar ongi, fikr va qarashlari, estetik did va his-tuyg'ulari, umuman, ma'naviy dunyosining shakllanishida g'oyaviy-badiiy ta'siri kuchlidir. Kino san'atining yuzaga kelishida amerikalik kinorejissyor D.Griffitning xizmatlari katta. Birinchi bo'lib, u yirik plan, parallel montaj, kengaytirilgan panorama kabi ifodali vositalarni qo'llagan. Shuningdek, S. Eyzenshteyn, Ch.Chaplin, E.Shtrogeym, K.Dreyer, K.Vidor, R.Kler kabilar ham jahon kinosi rivojiga munosib hissa qo'shdilar.[3]

Kino inson faoliyati jarayonida katta ahamiyatiga ega bo'lgan madaniy vosita hisoblanadi. Kino bizga insonning dunyoqarashini shakllantirishimizga, uning muayyan narsalarga munosabatini o'zgartirishimizga, unga ma'lum bir jarayon yoki hodisa haqida fikr shakllantirishimizga yordam beradi. Shuningdek, filmlar inson ruhiyatiga bevosita ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Kino bu sintetik san'at turi bo'lib, fazoviy-vaqt, tovush-vizual, texnik asosda ko'plab san'at turlarining ifoda imkoniyatlarini sifat jihatdan yangi badiiy yaxlitlikka birlashtiradi. Bu uning estetik o'ziga xosligini va zamonaviy badiiy madaniyatdagi o'rnini belgilaydi. Kino bizning his-tuyg'ularimizni, urf-odatlarimizni ommaga yetkazadi va insonning o'z illyuziyalari olamiga cho'ndiradi. Kino orqali biz butun avlodlar, o'n yilliklar tarixini o'rganishimiz mumkin. Kino yordamida biz avlod-ajdodlarimizning hayotlarini, boshdan kechirganlarini, turli tarixiy voqealarni gavdalantira olamiz.

Kinolarida biz turli semantik mavzular va obrazlarga duch kelishimiz mumkin, jumladan, "milliylik" obrazini yaqqol ko'rishimiz mumkin. Ma'lumki, ko'plab kinofilmlar xalqlar madaniyati, milliy urf-odatlarini namoyon etishga xizmat qiladi. Shu o'rinda "milliylik" tushunchasi yoki obrazi haqida fikr yuritishni maqsad qildik.

Milliylik – muayyan xalqqa, millatga xos bo'lgan, uni boshqalardan farqini ko'rsatuvchi xususiyatlar majmui hisoblanadi. Milliylik millatning tarixi, qadriyatlari, an'analari, madaniyati, yashash tarzida yaqqol namoyon bo'ladi. Milliylikni bilish va anglash uchun millatlar o'rtasidagi farq va tafovutlarni o'rganish bilan birgalikda, ularni yaqinlashtiruvchi jihatlarga jiddiy e'tibor berish zarur [4]. Chunki boshqa millatlarning yutuq va ijobiy tajribasini o'rganish, ularni o'zlashtirish milliylikni boyitadi va rivojlantiradi. Xalqning ma'naviy-ruhiy tiklanishi – iqtisodiy islohotlarning ijtimoiy negizidir. Biz farzandlarimizning barkamol ruhiy dunyosi uchun, ularning ma'naviy-axloqiy jihatdan yetuk, jismonan sog'lom bo'lishi uchun doimo qayg'urishimiz, kurashmog'imiz darkor. Ana shu jarayonda xalqimizning milliylik qiyofasi, ruhiyati, dunyoqarashi, qadriyatlari, bir so'z bilan aytganda milliyliги yaqqol namoyon bo'ladi. Milliylikni biz qadriyatlarda, urf-odat va an'alarimizda namoyon qilishimiz mumkin.

Qadriyat — voqelikdagi muayyan hodisalarning umum insoniy, ijtimoiy axloqiy, madaniy-ma'naviy ahamiyatini ko'rsatish uchun qo'llanadigan tushuncha. Inson va insoniyat uchun ahamiyatli bo'lgan barcha tuyg'ular: erkinlik, tinchlik, adolat, ijtimoiy tenglik, ma'rifat, haqiqat, yaxshilik, go'zallik, moddiy va ma'naviy boyliklar, an'ana, urf-odat va boshqalar qadriyat hisoblanadi. Qadriyatni aksiologiya nuqtai nazaridan talqin qilish uni kategoriya sifatidagi mohiyati, mazmuni, obyektiv asosi, namoyon bo'lish shakllari va xususiyatlarini o'rganish imkonini beradi. Qadriyat kategoriyasi faqat buyum va narsalarning iqtisodiy qimmatini emas, jamiyat va inson uchun biror ahamiyatga ega bo'lgan voqelikning shakllari, holatlari, narsalar, voqealar, hodisalar talab va tartiblar va boshqalarning qadrini ifodalash uchun ishlatiladi. Ijtimoiy jarayonlar ta'sirida kishilarning qadriyatlar to'g'risidagi qarashlari o'zgarib boradi. Qadriyat mehnat, ishlab chiqarish sohasidagi faoliyat, insonlar o'rtasidagi munosabatlar uchun foyda keltiradigan narsalar, hodisalar, hatti-harakatlar majmuasi sifatida yuzaga kelib, ayrim kishilar, ijtimoiy guruhlar faoliyati, hatti-harakatini ma'lum yo'nalishga buradigan, tegishli me'yorga soladigan ma'naviy hodisaga aylanadi. Qadriyatlar umumbashariy, milliy, shaxsiy bo'lishi mumkin. Olam, tabiat va jamiyatning eng muhim tomonlarini, qonun-qoidalarini, aloqadorliklarini ifodalaydigan qadriyatlar umumbashariy xususiyatga ega. Bunday qadriyatlar o'z ahamiyatini yo'qotmaydigan, abadiy qadriyatlardir. Muayyan bir elat, millat, xalqning hayoti, turmush tarzi, tili, madaniyati, ma'naviyati, urf-odat va an'analari, o'tmishi va kelajagi bilan bog'liq qadriyatlar milliy qadriyatlardir. Inson, uning faoliyati, turmush tarzi, e'tiqodi, umr mazmuni, odobi, go'zalligi bilan bog'liq qadriyatlar shaxsiy qadriyatlardir. Qadriyatlarining barcha turlari komil insonni tarbiyalashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

"Milliylik" obrazi lingvomadaniyatshunoslik fanining asosiy tushunchalaridan biridir. V.Gumboldtning fikricha, til "milliy ruh"dir, u xalqning "o'zi"dir. Ma'lum bir xalqning tili o'sha xalqning ko'zgidir [5]. Uning madaniyati, urf-odat va an'analari, milliyliги o'zini, birinchi navbatda, tilda namoyon qiladi. U milliylik va madaniyatning haqiqiy voqeligi hisoblanadi, u insonni milliylikka, madaniyatga kiritishga qodir kuchdir.

Biz ma'lum bir tilni leksik birliklar, frazeologik birliklar va turli xil til vositalari yordamida o'rganamiz. V.N.Teliya tilni o'rganishda lingvistik birliklarning milliy-madaniy ma'nolarini talqin qilishni ilgari surib, tilni - "ichkaridan", ichki kuzatuvchi pozitsiyasidan o'rganish kerakligini ta'kidlaydi [6]. Millat hayotida, fe'l-atvorida uning milliyliги, madaniy omillar bilan izohlanadigan ko'p tushunchalar borligini ko'rmasdan bo'lmaydi. Lingvomadaniyatshunoslikda bizni faqatgina til egasi bo'lgan inson emas, tildagi individ qiziqtiradi. Gap shundaki, til bizdan yashiringan aqliy sohaga kirib borishimizga yordam beradigan yagona vositadir, chunki u dunyoning ma'lum bir madaniyatda qanday bo'linishini belgilaydi, uning milliyliğini ko'rsatadi. U bizga inson haqida o'zi bilmagan narsalarni aytib beradi. Bizning maqsadimiz,

uning tiliga asoslangan holda, inson haqida qanday qilib ko'proq bilishni ko'rsatishdir. Zero, til shunchaki muloqot, fikrni uzatish va ifodalash vositasi emas. Bu yondashuv tilning asosiy vazifasi bilan belgilanadigan asosiy tamoyilini emas, balki undan foydalanishni birinchi o'ringa qo'yadi: dunyoning kontseptual qiyofasi tilda shakllanadi.

Ushbu maqolada biz o'zbek kinofilmlarida "milliylik" obrazini yaratishning tamoyillarini tahlil qilishni o'z oldimizga maqsad qilib qo'yganmiz. Quyida biz filmlardagi "milliylik" obrazini ko'rib chiqamiz.

Ma'lumki, filmlar madaniy munosabat va urf-odatlarini shakllantiradi, chunki tomoshabinlar ekranda tomosha qilayotgan qahramonlarning munosabati va uslublarini o'zlashtiradilar. Rejissyorlar o'z filmlaridan ma'lum ijtimoiy muammolarga nisbatan madaniy munosabatga ta'sir qilish uchun foydalanishlari mumkin. Filmlar madaniy munosabat va urf-odatlarini shakllantiradi, chunki tomoshabinlar ekranda tomosha qilayotgan qahramonlarning munosabati va uslublarini o'zlashtiradilar.

Kino bizning e'tiqodlarimiz va qadriyatlarimizni shakllantirish orqali madaniyatga ta'sir qilish qudratiga ega, ko'pincha fantastika va haqiqat o'rtasidagi chegarani xiralashtiradi. Kino ijodkorlari va hikoyachilar jamiyat normalariga doimiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Kino madaniyat bilan murakkab aloqaga ega. U ommaviy madaniyatga ta'sir qilish bilan bir paytda jamiyatning har bir bosqichining mafkurasi, umumiy tashvishlari va e'tiqodlarini aks ettirishi mumkin. O'tgan asrda kino global tomoshabinlar bilan aloqa qilishning kuchli vositasi bo'lib xizmat qildi va vizual kontent bilan tobora to'yingan dunyoda zamonaviy madaniyatning muhim qismiga aylandi [7].

Milliylik, qadriyatlar, urf-odat va an'analar aksar milliy kinolarimizda o'z aksini topgan va o'zbek milliy madaniyatida o'chmas iz qoldirib kelmoqda. Ulardan biri biz bugun tahlilga tortadigan "Mahallada duv-duv gap" filmi hisoblanadi. O'zbek kinomotografiyasida alohida o'rin tutadigan, milliy o'zbek hayoti manzarasini o'ziga xos jihatdan ochib bera oladigan kinofilmlardan biri hisoblanadigan "Mahallada duv-duv gap" badiiy filmi tahlil qildik. Ushbu film barchamiz uchun qadrdon bo'lgan "Sen yetim emassan", "Olovli yo'llar" kabi ko'plab kinofilmlarni tomoshabinlarga taqdim etgan, "El-yurt hurmati" ordeni va "Shuhrat" medali sohibi Shuhrat Abbosov rejissyorligidagi 1960-yil yaratilgan oq-qora kinotasmaga olingan o'zbek kinokomediyasi hisoblanadi. "Mahallada duv-duv gap" o'zbek millatining hozirgi kunga qadar sevib tomosha qilib kelayotgan sevimli filmlaridan biri sifatida e'tirof etiladi. Ushbu filmda biz o'zbek millatiga xos bo'lgan milliylik, an'ana va qadriyatlarining naqadar ulkan mahorat bilan ochib berilgan sahnalarni guvohi bo'lishimiz mumkin.

Ushbu filmda o'zbek millatiga xos bo'lgan "qo'shnichilik", "insonparvarlik", "o'zbek ayoliga xos bo'lgan ona mehri" va o'zbeklar hayot tarzidan so'zlaydigan "orzu-havas qilib yashash" hissi kabi ko'plab jihatlarni ko'rishimiz mumkin.

Filmida Toshkent shahrining eski qismidagi mahallalardan biridagi zamonaviy turar-joy binolari qanday qurilayotgani haqida hikoya qilinadi [8]. Film qahramonlari mahoratli aktyor va aktrisalar, Maryam Yoqubova, Lutfixon Sarimsoqova, Ikroma Boltayeva, Ra'no Madrahimova va boshqalar tomonidan gavdalantirilgan bo'lib, ular o'zbek milliy qadriyatlaridan biri bo'lgan "qo'shnichilik" munosabatlarini juda mahorat bilan ko'rsata olishgan. Qo'shnilarning har kuni bir-biridan xabar olish uchun, birgalikda yaxshi va yomon kunlarida hamjihat bo'lishlari uchun o'tib qaytadigan devor orasidan ochilgan maxsus "eshik" qo'shnichilik munosabatlarining kuchliligidan dalolat beradi. Hovlilar ichidagi bu kichik "eshik" oddiy eshik emas, balki "mehr-muhabbat", "insoniylik" "eshigi"dir. Bu "eshik"dan insonlar bir-birlariga mehr-muhabbat, insoniylik taftini o'tkazishadi. Bu "eshik" orqali qo'shni qizning yoshi ulug' ayol hovlisini supurib berishga o'tib qaytishi, xat-xabar kelganda bir-birlarining xursandchiliklariga-yu hayratlariga guvoh bo'linishi ulkan mahorat va joziba bilan ko'rsatib berilgan. Bundan tashqari mahalla fuqarolarining bir-birlariga ahilliklari, doimo yordam qo'lini cho'zishga tayyorliklarini ham ushbu kino parchalarida guvohi bo'lishimiz mumkin. Ko'p qavatli uyga ko'chib kelgan Mehrixon xolaning qo'shnilari ularni iliq munosabatda kutib oladi va yordam qo'lini cho'zib birgalikda yangi uyga joylashishadi.

O'zbek xalqi azaldan bir-biriga mehr-oqibatli, yaxshi-yomon kunlarida doimo birga bo'lib kelishgan. O'z kechinmalarini yaqinlari va atrofdagi yon qo'shnilari bilan ulashishgan. "Mahallada duv-duv gap" filmidagi yana bir parchada biz shu kabi meh-oqibat va insonlar bir-birlaridan havotirda, tashvishda, xabardor ekanliklarining yana bir bor guvohi bo'lamiz. Mehrixon xola o'g'li Azimjondan, Moskvadan kelgan xatni eshitgach qo'shnilarini chaqiradi, qo'shnilari ham xursand bo'lib yugurib kelishadi, quvonchi va sabri chidamagan Oyposhshoxon ham shoshib paxsalar orasidagi "eshik"dan o'tishga harakat qilib, tiqilib ham qoladi. Hammalari yig'ilgach xat tashuvchi xatni ochib o'qib beradi. Biz bu kabi mehr-oqibatni faqatgina o'zbek millatida, o'zbek xalqida ko'rishimiz mumkin.

Ushbu filmda biz o'zbek ayoli, uning daryodek jo'shqin mehri aks ettirilgan sahnalarga ham duch kelamiz. Filmdan olingan parchaga e'tibor qarataylik: ("Mahallada duv-duv gap" kinofilmi, Toshkent, 1960-yil, 14-daqiqa)

Ona: Nima deb pichirlayapsan?

Sayyora: Oyijon, zavodda ishlasam bilasizmi... *Ona qizining gapini oxirigacha eshitishni xohlamasdan tezda e'tiroz bildiradi.*

Ona: Yo'q-yo'q, bolam, yo'q-yo'q

Sayyora: Gapimga quloq soling

Ona: Aslo gapirma. Artistlikdan ulug'roq ish bormi? Mahallamizdan artist chiqsa yomonmi?

Sayyora: Axir men yaxshi ashulachi bo'lolmaymanda.

Ona: E qo'ysangchi, bolam. Shu husning bilan qora ishchi bo'lmoqchimisani?

Sayyora: Men ham shunday bo'laman.

Ona: Gapirma, qizim, gapirma. Seni yo'rig'ing boshqa. Qizimni oyog'i toymasin, qo'li qavarmasin deb otangni umri mehnatda o'tdi-ya.

Ota: Sekinroq, qo'ni-qo'shnilarini boshingga ko'taryapsan axir.

Ona: Siz aralashmang, otasi

Sayyora: Axir, hamma qizlar shunday qilyaptiku

Ona: Menga so'z qaytarma

Ota: Qo'y endi o'z ixtiyoriga, bilganini qilsin

Ona: Shunaqami? Men o'z qizim deb kuyib-pishib yursam-u, meni o'gayligim darrov bilinib qoldimi? *Ona yig'lashni boshlaydi.*

Sayyora: Qo'ying yig'lamang, bo'ldi. Mayli, siz aytganча bo'lsin.

Ona: Rostmi?

Sayyora: Ha, rost

Ona: O'rgilay, qizim. Mana endi o'zingga kelding.

Hay, Adasi, bir muallim topaylik, Sayyorani konservatoriyaga tayyorlasin.

Sayyora: Men o'zim topaman, ertagayoq...

Garchi Sayyoraning onasi qiziga o'gay bo'lsada, qizini o'z farzandidek o'stirib-ulg'aytiradi, uni oq yuvib, oq tarab voyaga yetkazadi. O'gayligini bildirmaydi. Bu kabi ona mehri bor millat yana qayerda bor, qaysi millatda bor?! Albatta, bu biz o'zbek xalqi, o'zbek millatiga xos va biz o'zbek xalqi milliyatimizning yana bir ramzidir. Mazkur filmda milliylik obrazini shakllantirgan yana ko'plab sahnalar borki, ularda biz o'zbek millatining doimo farzandiga yaxshilikni tilashi, uning kelajagi porloq bo'lishini tilab duoda bo'lishi, yutuqlaridan g'ururlanib yurish hissini ham ko'rishimiz mumkin. Azimjonning onasi Mehrixon ayaning farzandi yaqinda diplom olib, o'qimishli inson bo'lib qaytishini va bo'lajak kelinining arxitektor bo'lishini mag'rurlanib aytish sahnalarida gapimizning isboti sifatida ko'rishimiz mumkin.

**Xulosa** sifatida shuni aytishimiz mumkinki, kinofilmlardan biz madaniy hordiq va ma'naviy ozuqa olishimiz mumkin. Filmlardagi turli qahramonlar turmush-tarziga tushib qolishimiz va hattoki, ularning ichki kechinmalarini his eta olishimiz ham mumkin. Ammo biz bir narsani unutmasligimiz lozimki, filmlarda millat tili, dini, madaniyati, ma'naviyati, urf-odat-u an'analari va uning milliyligi yotadi. Bu kabi unsurlar filmdagi parchalarda o'z aksini topgan bo'ladi. "Mahallada duv-duv gap" kinofilmdan olingan sahnalar - bu o'zbek xalqiga xos bo'lgan milliylik ramzining yaqqol namoyon etilgan sahnalaridandir. O'zbek xalqi va millatiga yarashadigan qo'shnichilik munosabatlari, insonlar o'rtasidagi mehr-oqibat tushunchalari, o'zbek ayoli timsoliga xos ona mehri va albatta farzandlarining kamol topishini, ularning yutuqlaridan mag'rurlanib yurish hissi kabi munosabatlar aks etgan sahnalarning guvohi bo'ldik. Demak, filmlarda nafaqat qahramonlarning tili va ular so'zlayotgan gaplar mazmuni yotadi, balki ular yaratgan obrazlarda o'sha millatning milliyligi, ruhi ham yotadi. Har bir kinofilmda xalq milliyligini asoslovchi lisoniy birliklar mavjud. Ular yordamida biz u yoki bu xalqning milliy obrazlarini, milliy-madaniy kodlarini yaratishimiz mumkin. Jumladan, "Mahallada duv-duv gap" filmda lingvomadaniyatshunoslikka oid bo'lgan bir nechta madaniy kodlar mavjudki, ular yordamida milliylik obrazi va bu kinomatn yordamida butun millat ayol va ona obrazini ko'rish mumkin bo'ladi.

### ADABIYOTLAR:

1. "O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi". Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil, 105-bet.
2. Hasanov B., "O'zbek hujjatli kinosi", Toshkent, 1972-yil, 118-bet.
3. Гумбольдт В. "Язык и философия культуры". - М., 1985, стр.313.



## LINGUISTICS

---

4. Теля В. Н. “О методологических основаниях лингвокультурологии”, XI Международная конференция «Логика, методология, философия науки». - М.; Обнинск, 1995, стр.87.
5. Маслова В. А. “Лингвокультурология: Учеб. пособие для студ. высш. учеб. заведений”. - М.: Издательский центр «Академия», 2001, стр.38.
6. Nazarov. Q, “Ma’naviyat asosiy tushunchalar lug’ati”, 159-bet.
7. [https://uz.wikipedia.org/wiki/Kino\\_san'ati](https://uz.wikipedia.org/wiki/Kino_san'ati)
8. [https://uz.wikipedia.org/wiki/Mahallada\\_duv-duv\\_gap](https://uz.wikipedia.org/wiki/Mahallada_duv-duv_gap)

## CONCEPT OF TERM DEFINITION AND ITS CHARACTERISTICS

**Ganieva Orzigul Khayriddinovna,**

PhD, Associate professor, Bukhara State University

*o.x.ganiyeva@buxdu.uz*

**Khakimova Diana Maratovna,**

Bukhara State University, 2<sup>nd</sup> year master student

*d.m.xakimova@buxdu.uz*

**Abstract.** This article discusses the concept of "term" and its definition. The author provides various definitions of the term, noting the diversity of these definitions in linguistic literature. It is also pointed out that each scientific field develops its own terms that reflect the characteristics of a specific area of knowledge. The article describes various characteristics of the term, such as stylistic neutrality, systematicity, absence of expressiveness, and presence of definition. The article also emphasizes the dynamism and changeability of the term. It is noted that terms should comply with the language rules of translation. In addition, the author draws attention to the connection between the term and the concept, its polysemy, as well as the fact that terms serve the function of precisely expressing specialized concepts and designating specialized objects.

**Keywords:** term, concept, language unit, linguistic sign, property, characteristic, structural organization, symbol.

## КОНЦЕПЦИЯ ОПРЕДЕЛЕНИЯ ТЕРМИНА И ЕГО ХАРАКТЕРИСТИКИ

**Аннотация.** В данной статье обсуждается концепция «термина» и его определение. Автор представляет различные определения термина, отмечая разнообразие этих определений в лингвистической литературе. Также отмечается, что каждая научная область развивает свои собственные термины, отражающие характеристики конкретной области знаний. В статье описываются различные характеристики термина, такие как стилистическая нейтральность, систематичность, отсутствие экспрессивности и наличие определения. Также подчёркиваются динамизм и изменчивость термина. Отмечается, что термины должны соответствовать языковым правилам перевода. Кроме того, автор обращает внимание на связь между термином и концепцией, его полисемию, а также на то, что термины служат функции точного выражения специализированных понятий и обозначения специализированных объектов.

**Ключевые слова:** термин, концепция, языковая единица, лингвистический знак, свойство, характеристика, структурная организация, символ.

## TERMIN KONSEPSIYASI VA UNING XUSUSIYATLARI

**Annotatsiya.** Bu maqolada "termin" konsepsiyasi va uning xususiyatlari muhokama qilinadi. Muallif terminning turli turlarini ta'rifi bilan taqdim etadi va ularning lingvistik adabiyotda turli xil ta'riflardagi farqli sohalariga e'tibor qaratadi. Shuningdek, har bir ilmiy soha o'zining xususiyatlarni aks ettiradigan o'z terminlarini rivojlantiradi. Maqolada terminning turli xususiyatlari, masalan, stilistik neytralitet, tizimlilik, ifodaviylik yuqoriligi va ta'rif mavjudligi kabi xususiyatlar tasvirlanadi. Maqolada terminning dinamizmi va o'zgaruvchanligi ham ajratiladi. Terminlarning tarjima tilining tili qoidalari bilan mos kelishi kerakligi aytib o'tiladi. Qo'shimcha ravishda, muallif termin va konsepsiya orasidagi bog'ni, uning polisemiya sifatini va shuningdek, terminlarining maxsus kontseplarni aniqlash va maxsus obyektlarni belgilash funksiyasini ta'kidlaydi.

**Kalit so'zlar:** termin, konsepsiya, til birliklari, lingvistik belgi, xususiyat, xarakteristika, tuzilma qurilishi, simvol.

**Introduction.** The idea of what exactly constitutes a term and its defining qualities has long been an area of discussion among language experts. As specific fields develop new terminology to precisely communicate particular ideas, researchers aim to improve their comprehension of the nature and properties of terms.

This article analyzes descriptions of "term" put forth by leading academics such as .V. Dankova, O.N. Zagorovskaya, V.P. Danilenko, B.N. Golovin and others. It outlines typical features often associated with terms, such as semantic unambiguity and connection to concepts. However, the article also acknowledges debates around some purported properties and examines factors like multiple meanings and change over time.

By reviewing core definitions and attributes, as well as topics of disagreement, the study aims to further the comprehension of terms and terminology.

**Research Methodology.** This study utilized a qualitative analysis approach to examine definitions and characteristics of terms as presented in linguistic literature. A comprehensive review of scholarly sources published in Russian and English was conducted to explore perspectives on terms from different academic traditions.

Primary sources included seminal works focused on terminology from prominent linguists such as Danilenko, Golovin, Terpak, Superanskaya, Dankova and Zagorovskaya. These foundational texts provided foundational insights through their definitions of terms and descriptions of commonly discussed attributes.

Complementary viewpoints were explored through analysis of specialized terminology dictionaries and research articles addressing ongoing debates. Literature searches of library databases and peer-reviewed journals were undertaken to identify relevant secondary sources.

As terminology varies across domains of knowledge, an interpretive research orientation was applied. The aim was to further comprehension by considering both widely accepted and ambiguous aspects presented in the specialist sources, rather than seeking consensus.

Through qualitative examination and synthesis of definitions, classifications and debates highlighted in the literature, the study sought to gain a nuanced yet rigorous understanding of terms from multiple theoretical perspectives. Continued research incorporating additional methodologies could further develop insights revealed through this exploratory analysis.

**Results and Discussion.** A term is a dynamic element of language that undergoes changes and modifications. Therefore, the characteristics of a term are also changeable. The main features of a term include semantic unambiguity, practical use, and logical correlation of a specific term with others from a specific field.

These characteristics of a term can also include the fact that a term is precise, not connected to the context, stylistically neutral, devoid of expressiveness and emotional coloration, and has object-orientedness.

It is known that terms should comply with the phonetic, grammatical, and word-formation rules of the language they are translated into. Terms can be created through borrowing, terminologization of words in a language, and calquing. Certainly, all terms are part of the lexical system of a particular language with an accompanying terminological system. It is also important to note that a term is a certain concept in the corresponding sign form, so to speak a symbol, and a concept, in turn, reflects the essence of certain phenomena. As a result, a term can be polysemous, while a concept is singular. Therefore, the connection between a term and a concept is also a feature of a term. Due to these events, it is necessary to mention the following definition given by A.A. Reformatsky: "Terms are special words ... seeking to be unambiguous as an exact expression of concepts" [16; pp. 103-125]. It should also be noted that "a term is a word or phrase of a special (scientific, technical, etc.) language created (accepted, borrowed, etc.) to precisely express specialized concepts and designate specialized objects" [1; pp. 474].

There are proper terms that have emerged within a specific terminology and borrowed terms that are taken from related fields of knowledge and used without changing their meaning. There are also outdated and new terminological units. Outdated terms include archaisms and historicisms.

From the perspective of structural organization, there are word terms and terminological phrases [7; pp. 45]. According to T.V. Dankova and O.N. Zagorovskaya, in terms of content structure, terms can be divided into monosemous and polysemous.

Thus, when creating definitions of language units in specialized dictionaries, it is necessary to take into account the peculiarities of the vocabulary.

It is known that linguistic literature still does not provide a definitive definition for the concept of "term." In this regard, we need to consider several definitions. For example, V.P. Danilenko provides 19 definitions and notes that this is not exhaustive. B.N. Golovin gives 7 examples of term definitions in his work.

It is worth noting that in each scientific field, its own term is developed, which incorporates all the distinctive features of a specific sphere. Therefore, it is clear that there can never be a single concept of "term" suitable for the diversity of other sciences.

It should be mentioned that M.A. Terpak provides the following definition for this concept: "a term is a word that is necessarily correlated with a specific unit of a corresponding logical-conceptual system in terms of content" [19; pp. 281-284].

While A.V. Superanskaya provides a more concise definition: "a term is a special word (or phrase) accepted in professional activities and used in special conditions" [17; pp. 135].

Based on the analysis conducted, it can be argued that the clearest definition of a term is given by F.M. Tsitkina: a term is a "linguistic sign representing a scientific concept of a special, professional branch of knowledge" [20; pp. 9].

Some representatives of the normative approach argue that a term is a unique unit and a special category in the system of symbols (D.S. Lotte, A.A. Reformatsky, etc.).

However, representatives of the descriptive approach believe that it is not expedient to distinguish between a term and a common word, as a term does not have specific properties that distinguish it among other linguistic units of the national language [3; pp. 394-397].

There are specific characteristics of a term, such as stylistic neutrality, systematicity, absence of expressiveness, presence of a definition, and unambiguity in its scientific field. However, some scholars give examples of terms that are neither precise nor unambiguous (for example, in linguistics, neologism, historicism, archaism) [21; pp. 109].

The existence of the main properties or requirements inherent in any term is known, namely systematicity, motivation, unambiguity, accuracy, and conciseness. Let's consider them in more detail.

1) Systematicity: Each term is an integral element of a terminological system that is constantly interconnected with other elements. This property is considered one of the most significant by most researchers [11; pp.7].

2) Motivation, semantic transparency of a term: As noted by V.D. Tabanakova, because unlike other words, a term appears to designate a special concept, it is always motivated and secondary [18; pp. 107].

V.P. Danilenko argues that terms can be initially unmotivated, which include terms that arise from metonymic transfer of proper names. Borrowings, non-derivative formations, as well as calque terms, are also considered initially unmotivated. However, it should be noted that over time, a term can transition from motivated to unmotivated. Therefore, such a term should be examined not only in terms of fixation but also in terms of its functioning. In this regard, the example of the term "mobile phone" initially borrowed from the English language is interesting. At the time of borrowing, it was fully motivated as it represented a phone device that allowed communication from anywhere in the world. However, over time, with the development of smartphone functionality, this term became partially demotivated as modern smartphones are no longer used only for making calls but also serve as universal communication and entertainment devices. Thus, the original meaning of the term "mobile phone" no longer reflects all the functions of modern smartphones.

The idea of the possibility of demotivation of a term is supported by scholars who classify terms based on the degree of motivation. They distinguish:

1) Motivated terms, which possess semantic (lexical according to O.I. Blinova) and word-formational (structural) motivation.

2) Partially motivated (semi-motivated) terms, which are motivated only based on one of the two types of motivation.

3) Unmotivated terms, in which there is no motivational correlation [2].

The loss of a motivating feature leads to the demotivation of a language unit. Demotivation can occur:

1. Unconsciously, when the connection between the terminological unit and the denotatum, on the basis of which the features reflecting the essence of the terminable concept were distinguished, weakens or disappears.

2. Consciously and deliberately in the process of terminologization. For example, when borrowing foreign terms without considering their internal motivated structure or when using creative word-formation techniques to create new terms.

Demotivation of a term can be the result of both spontaneous language change processes over time (e.g., changes in word meaning or weakening of the connection between the word and denotatum) and a conscious approach to terminologization when new concepts are borrowed or created without considering their internal structure and connection to meaning.

In both cases, it is important to consider the essence of the concept to maintain the motivation of the term, in order to ensure a transparent connection between the linguistic sign and its denotatum. Both spontaneous and deliberate demotivation can occur [10].

3) Unambiguity: This property has long been subject to sharp criticism by researchers. They point out that the use of a particular lexical form in other fields of knowledge does not impact its unambiguity in a specific field [6].

Indeed, there are numerous examples today where the same term has different meanings in different systems (for example, the term "resource" in information technology can mean the computing power of a computer system, in economics - material, financial, or labor resources, and in ecology - natural resources). Modern authors increasingly point to the existence of polysemy even within the same terminological system. Such cases are most common in technical language when a term can refer to both a substance and a process, and so on. For example, the word "wiring" can refer to both a material and a process. Thus, it should be acknowledged that unambiguity is not an obligatory feature of a term.

4) Accuracy. A term should possess semantic and conceptual accuracy: "a term is a word with a strictly defined meaning" [3; p.29]. O.D. Mitrofanova also emphasizes the fact that "terms are words precisely worked out to agreement" [14; p.34]. In our opinion, every concept should strive for a high degree of accuracy.

5) Conciseness. Various scholars highlight this characteristic as they believe that excessive complexity of a term hinders its widespread use in speech. I.N. Volkova and other researchers also emphasize the need for "conciseness" [4]. V.M. Leichik [12] and some other scholars discuss the optimal length of a term, which takes into account the real conditions for forming terms in a specific terminological system based on a particular natural language. At the same time, A.V. Superanskaya and other authors [17; p.131] consider the previous points of view erroneous: "a term is not an ordinary word, and precision is more important than conciseness." Therefore, they do not consider the use of multiple terms as a disadvantage. In our view, the third perspective is preferable, as if a concept is expressed by a group of well-coordinated words, it ensures the systematicity of the term. Thus, conciseness is an optional, rather than obligatory, characteristic of a term.

**Conclusion.** The main properties of a term include its connection to the concept and definition, as mentioned in the previous section. Some linguists highlight nominativeness – the requirement for a term to be expressed by a noun or a noun-based phrase – as the main property of a term. This position was proposed by G.O. Vinokur and developed by A.A. Reformatsky, but later it was refuted. The work "Russian Terminology: Experience of Linguistic Description" states: "Do terms like 'virtual,' 'visual,' 'relativistic,' etc. not express specific concepts, do they not have a specific content outside of specific combinations of these terms with other terms?" [9; p.48]. Examples of other terms that are not nouns, such as "stimulating," "narrative," "widespread," etc., are also cited, which have independent interpretations in the Dictionary of Linguistic Terms [1].

### REFERENCES:

1. Akhmanova, O.S. *Dictionary of Linguistic Terms. 4th edition, stereotype. Moscow: KomKniga, 2007. - 576 pp.*
2. Blinova, O.I. *Term and Its Motivation. Terminology and Speech Culture. Moscow: Nauka, 1981. - pp. 28-37.*
3. Budagov, P.A. *Introduction to Language Science: Teaching Aid for Philological Universities. 2nd edition, revised and supplemented. Moscow: Prosveshchenie, 1965. - 492 pp.*
4. Volkova, I.N. *Standardization of Scientific and Technical Terminology. Moscow: Izd-vo standartov, 1984. - 199 pp.*
5. Golovin, B.N. *On Some Tasks and Topics of Research on Scientific and Technical Terminology. Scientific Notes. Issue 114. Linguistic Series. Gorky: Izd-vo Gorkovsk. Un-ta, 1970. - 68 pp.*
6. Grinev, S.B. *Introduction to Terminology. Moscow: Moscow State University named after M.V. Lomonosov, 1993. - 309 pp.*
7. Grinev-Grinevich, S.V. *Terminology: a textbook for students of higher educational institutions. Moscow: Izdatelskiy tsentr "Akademiya", 2008. - 304 pp.*
8. Danilenko, V.P. *Russian Terminology (Experience of Linguistic Analysis). Moscow: Nauka, 1977. - 246 pp.*
9. Dankova, T.N., & Zagorovskaya, O.V. *Problems of Contemporary Terminology: Monograph. Voronezh, 2018. - 219 pp.*

10. Ivanov, A.B. *Features of Implementing the Principle of Motivation in Linguo-Literary Terminology. Bulletin of Pomeranian University. Series: Humanities and Social Sciences.* 2005, no. 1, pp. 65.
11. Kiak, T.R. *Linguistic Aspects of Terminology Studies: Teaching Aid.* Kyiv: UMV VO, 1989. - 104 pp.
12. Leichik, V.M. *Terminology: Subject, Methods, Structure.* 3rd edition. Moscow: Izdatelstvo LKI, 2007. - 256 pp.
13. Lotte, D.S. *Basics of Constructing Scientific and Technical Terminology: Issues of Theory and Methodology.* Moscow: Izd-vo LN SSSR, 1961. - 160 pp.
14. Mitrofanova, O.D. *Language of Scientific and Technical Literature.* Moscow: Izd-vo MGU, 1973. - 147 pp.
15. Reformatsky, A.A. *Introduction to Linguistics.* Moscow: Prosveshchenie, 1967. - 542 pp.
16. Reformatsky, A.A. *Term as a Member of the Lexical System of Language. Problems of Structural Linguistics,* 1967. Moscow: Nauka, 1968. - p. 125.
17. Superanskaya, A.V. *General Terminology: Issues of Theory.* 3rd edition, stereotype. Moscow: Editorial URSS, 2004. - 248 pp.
18. Tabanakova, V.D. *Ideographic Description of Scientific Terminology.* Tyumen: Izdatelstvo Tyumenskogo gos. un-ta, 1999. - 107 pp.
19. Terpak, M.A. *Study of Terminology in the Scientific and Technical Style as One of the Types of Informative Translation.* Moscow: Izd-vo Nauka i kultura Rossii, 2011. - 284 pp.
20. Tsitkina, F.A. *Terminology and Translation: Foundations of Comparative Terminology.* Lviv: Vysha shkola, 1988. - 155 pp.
21. Shelov, S.D., & Shufan, S. *Term as the Primary Unit of Terminology: Diversity of Definitions and Unity of Understanding. Questions of Linguistics,* 2017, no. 6, pp. 102-114.
22. Khayriddinova G. O. "East of eden" романида қаҳрамонлар хулқ-атвориға жамият фикрининг таъсири //Scientific reports of Bukhara State University. – С. 146.
23. Ganiyeva O. K. H., Rajabova Z. T. *The Analysis of Loneliness theme in of Mice and Men //Miasto Przyszłości.* – 2023. – T. 31. – С. 157-159.
24. Ganieva O. K. H., Aminova N. B. *John steinbeck's "discontent" over the social problems //Gospodarka i Innowacje.* – 2022. – T. 23. – С. 146-148.
25. Khayriddinova G. O., Jahonovna C. M. *Description of the relationship between people and society in John Steinbeck" s „The grapes of wrath" //IEJRD-International Multidisciplinary Journal.* – T. 6. – С. 75-78.
26. Ganieva O. K. H., Aminova N. B. *Family relationships in John Steinbeck's novel "East of Eden" //Евразийский журнал академических исследований.* – 2023. – Т. 3. – №. 5 Part 4. – С. 247-249.
27. Khakimova D.M. (2023). *Features of translating modern tourism terminology from English to Russian. Research and Innovations,* 1(1), 21–25. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7551491>
28. Ganieva, O., & Khakimova, D. (2023). *The concept of tourism discourse and its specifics. Academic International Conference on Multi-Disciplinary Studies and Education,* 1(22), 22–24. Retrieved from <https://aidlix.org/index.php/us/article/view/349>

## FRAZEOLOGIK KONSEPSIYALAR TALQINI

**Kurbonova Gulsara Sodikovna,**

*O‘zbekiston Milliy universiteti*

*Fransuz filologiyasi kafedrası dotsenti,*

*filologiya fanlari doktori (DSc)*

[gulsars.qurbonovna@gmail.com](mailto:gulsars.qurbonovna@gmail.com)

**Pulatova Umida Baxramjanovna,**

*O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti*

*Fransuz tili nazariy fanlar kafedrası stajor-o‘qituvchisi*

[umidapulatova71@gmail.com](mailto:umidapulatova71@gmail.com)

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada frazeologizmlarning milliy-madaniy jihatlarini qiyosiy-chog‘ishtirma usulda o‘rganilishi borasidagi ilmiy-nazariy qarashlar o‘rganiladi. Unda frazeologiya sohasidagi tadqiqotlar ko‘lami hali hanuzgacha dolzarb qolayotgani, uning tahlil usullari esa tobora turli xillashib borayotgani xususida fikr yuritiladi. Ushbu nazariyalar frazeologiyani tor va keng ma‘noda tushunish an‘analarini yuzaga keltirishi tahlil etiladi. Shuningdek, onomastik komponentli frazeologizmlarning frazeologizatsiyalashuv jarayoni idiomatik iboraning mazmun va ifoda planiga ko‘ra sinxron jihatidan, ham etimologik motivatsiyaga, ham frazeologik birlikning yaxlit semantikasiga egaligiga ko‘ra diaxron jihatidan o‘rganilishi aniqlanadi.

**Kalit so‘zlar:** frazeologik konsepsiya, diaxron va sinxron jihat, ifoda va mazmun plani, milliy-madaniy xususiyat, proverbial frazeologizm, onomastik komponent.

## ТОЛКОВАНИЕ ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИХ КОНЦЕПЦИЙ

**Аннотация.** В данной статье будут рассмотрены научные и теоретические взгляды на сравнительно-когнитивное изучение национально-культурных аспектов фразеологизмов. В ней отражён тот факт, что сфера исследований в области фразеологии по-прежнему актуальна, а методы её анализа становятся всё более разнообразными. Анализируется, что эти теории порождают традицию понимания фразеологии в узком и широком смысле. Также определено, что процесс фразеологизации фразеологизмов ономастического компонента изучается в синхронном плане в соответствии с планом содержания и выражения идиоматического словосочетания, как в этимологических мотивациях, так и в диахроническом плане в соответствии с целостной семантикой фразеологической единицы.

**Ключевые слова:** фразеологическая концепция, диахронический и синхронный аспект, план выражения и содержания, национально-культурная особенность, proverbial фразеологизм, ономастический компонент.

## INTERPRETATION OF PHRASEOLOGICAL CONCEPTS

**Abstract.** This article will consider scientific and theoretical views on the comparative cognitive study of national and cultural aspects of phraseological units. It reflects the fact that the field of research in the field of phraseology is still relevant, and the methods of its analysis are becoming more diverse. It is analyzed that these theories give rise to a tradition of understanding phraseology in a narrow and broad sense. It is also determined that the process of phraseologization of phraseological units of the onomastic component is studied synchronously in accordance with the plan of the content and expression of an idiomatic phrase, both in etymological motivations and in diachronic terms in accordance with the integral semantics of the phraseological unit.

**Keywords:** phraseological concept, diachronic and synchronous aspect, plan of expression and content, national and cultural peculiarity, proverbial phraseology, onomastic component.

**Kirish.** Istalgan tilning leksik-frazeologik tizimi o‘zgarib, rivojlanib hamda boyib boruvchi, nutq madaniyatini yuksaltirishga xizmat qiluvchi hodisa bo‘lganligi uchun ham jahon tilshunosligida

frazeologizmlarni o'rganishga bo'lgan qiziqish hamisha uning yangi-yangi qirralarini ochishga xizmat qilib kelmoqda.

Frazeologizmlarni til hodisasi sifatida e'tirof etish, uni turli aspektlarda tadqiq etish ishlarini xorijlik olimlar boshlab berishdi, rivojlantirishdi. Jumladan, ingliz frazeologiyasida N.N.Amosova [1], A.V.Kunin[13;14]; nemis frazeologiyasida I.I.Chernisheva[38], A.D.Rayxshteyn [26]; fransuz frazeologiyasida V.G.Gak[8], N.N.Kirillova [23], Z.N.Levit[23], A.G.Nazaryan[22-23], G.G.Sokolova[23], I.N.Timeskova[23], A.E.Mamatov[18]; rus frazeologiyasida V.V.Vinogradov[6;7], V.L.Arangel'skiy[1], L.I.Royzenzon[31], V.P.Jukov[10], M.T.Tagiyev[33], V.N.Teliya[34], N.M.Shanskiy[40], B.A.Larin[16]; ispan frazeologiyasida N.N.Kurchatkina[15]; Italyan frazeologiyasida T.Z.Cherdanseva[39] singari olimlarning doktorlik dissertatsiyalari, monografiya va o'quv qo'llanmalari frazeologiya muammolariga bag'ishlangan.

O'zbek tilshunosligida turkiyshunos olimlar Ye.D.Polivanov[24], Ya.Pinxasov[25], o'zbek tadqiqotchilari Sh.Rahmatullayev[27;28;29], H.Berdiyev[4], E.Umarxo'jayev[34], A.Mamatov[19; 20], B.Yo'ldoshev [12]larning monografik tadqiqotlari o'zbek frazeologiyasi muammolari yechimiga bag'ishlanganligini alohida ta'kidlash zarur.

**Asosiy qism.** Fanda frazeologizmlarni semantik, struktural-grammatik va uslubiy-pragmatik jihatdan tahlillari yetarli bo'lsa-da, frazeologik ma'no, frazeologik tizim, frazeologizmlarning yuzaga kelishi, manbalari, tarixiy taraqqiyoti va milliy-madaniy jihatlarini qiyosan o'rganish borasida o'z yechimini kutayotgan muammolar bor. Frazeologik birliklar – serqirra hodisa. Shuning uchun uning tahlil usullari ham rang-barang. Frazeologik-identifikatsiya, kontekstologik, variatsiya, ikki tomonlama sinxron-qiyosiy tahlil, qiyosiy-diaxron tahlil, tuzulmaviy-tipologik tahlil usullari shular sirasiga kiradi.

Frazeologiyaning rivojlanishida muhim ahamiyatga ega muammolarni fransuz tilshunosi Charl Balli birinchilardan bo'lib ko'tarib chiqdi. U tildagi frazeologik birliklarni ilmiy jihatdan maxsus o'rganish zarurligini asoslab, “Précis de stylistique”, “Traité de stylistique française” nomli ikki jildli frazeologik konsepsiya ishlab chiqdi. Sh.Balli frazeologizmlarning semantik belgilari xususida fikr yuritib, “...ichki belgilar haqiqiy qimmatga ega va bu belgilar tashqilariga nisbatan ancha muhim” ekanligini ta'kidlab, frazeologik birlik, odatda, leksik birliklarga sinonim bo'la olishini aytadi [2. R.60]. Sh.Balli mazkur konsepsiyada frazeologizmlar rivojidadagi tarixiy-tadrijiylikni hisobga olmaydi; ularni sinxron doirada muayyan tarixiy taraqqiyot bosqichida mavjudligi va o'zaro bog'langanligi doirasida o'rganadi.

Garchi mohiyatga bir tomonlama yondashilgan bo'lsa-da, Sh.Balling frazeologizmlarning tuzilishi, semantikasi haqidagi ilmiy tezisi keyinchalik mazkur sohaning nazariy asoslarini o'rganishda muhim ahamiyat kasb etdi.

Sh.Ballidan so'ng Moris Ra, J.Maruz, P.Giro, Alen Reyning frazeologiya sohasida olib borgan izlanishlari fransuz tili frazeologiyasining nazariy asoslarini ishlab chiqishda ahamiyatli bo'lsa-da, ular Sh. Ballining frazeologiya nazariy muammolarini o'rganish xususida boshlagan ishlarini davom ettira olmadilar. Sh.Balling frazeologik konsepsiyasi keyinchalik V.V.Vinogradov, V.P.Jukov, A.V.Kunin, A.G.Nazaryan, G.G.Sokolova kabi rus tilshunoslarining tadqiqotlarida davom ettirildi.

V.V.Vinogradov rus tili frazeologizmlarni o'rganish barobarida frazeologik birliklarning semantikasi, tuzilishidan tashqari boshqa grammatik xususiyatlariga ham e'tibor qaratib Sh.Balli konsepsiyasini to'ldirdi, mukammallashtirdi. U: “Frazeologik birliklar ikki va undan ortiq mustaqil so'zdan tarkib topgan, ma'no jihatidan yaxlit, muloqot jarayonida keng qo'llaniladigan so'zlar birikmasi”dan iboratligini ta'kidlab, frazeologizmlarning mohiyati “ularning turg'unligida va bu turg'unlik frazeologik birliklar tarkibidagi so'zlarning leksik-semantik xususiyatlari natijasi” [6. S.45-69], deya qayd etdi. V.V.Vinogradovning ushbu konsepsiyasi tilshunoslikda frazeologiyaning mustaqil soha sifatida shakllanishiga asos bo'ldi.

V.V.Vinogradov fikricha, frazeologik birliklarning uch turi mavjud: 1) frazeologik qo'shilma; 2) frazeologik butunlik; 3) frazeologik chatishma. V.V. Vinogradov tomonidan guruhlangan frazeologik birliklar tasnifiga N.M. Shanskiy “tarkibi bo'yicha turg'un iboralar sifatida qo'llanilib, faqat semantik jihatdan bo'linmasdan, erkin ibora ma'nosiga ega so'zlardan tashkil topgan” [40. S.109] frazeologizmlarni ham qo'shadi. N.M.Shanskiyning ta'rifi frazeologik birlik borasida V.V.Vinogradov tasnifini ma'lum darajada to'ldirdi. Tilshunoslikda rus tili materiallari asosida V.V.Vinogradov tomonidan ishlab chiqilgan frazeologizmlarning semantik tasnifi keyinchalik boshqa tillar doirasida frazeologik tizim tavsifini berishda e'talon vazifasini o'tadi.

Jahon tilshunosligi nazariyasida frazeologik birliklarning yagona, qat'iy ta'rifi mavjud emas. Quyida mavjud ba'zi ta'riflarni keltiramiz:



A.G.Nazaryan: "Frazeologik birlik – bu qisman va to'liq ko'chma ma'noga ega bo'lgan turg'un so'z birikmalaridan iborat bo'lib, frazeologizmlar turg'unlik darajasining semantik belgisi, ularning morfologik va sintaktik tuzilishida namoyon bo'ladi" [22. S.7-9].

P.Giro: "Frazeologizm bir necha so'zdan iborat birikmaning yaxlit ma'no ifodalashi orqali yuzaga chiqadi" [9. S.14].

B.A.Larin: "Frazeologik birliklarning asosiy belgisi uni tashkil qiluvchi so'z komponentlarining ma'nosidan, uning umumiy ma'nosining kelib chiqmaganligida" [16. S.202-204].

N.N. Amosova: "Frazeologik birlik – matn" [1. S.122].

A.A.Reformatskiy: "Frazeologik birliklarning xususiyati ular tarkibidagi komponentlarni boshqa tillarga so'zma-so'z tarjima qilib bo'lmasligida" [30. S.127-128].

Bu kabi ta'riflar sirasini yana uzoq davom ettirish mumkin.

Jahon tilshunosligida frazeologiya sohasini tor va keng ma'noda tushunish an'anasi mavjud. N.N.Amosova, A.I.Molotkov, V.P.Jukov, A.M.Fyodorov, A.M.Babkin singari olimlar uchun frazeologiyani tor doirada tushunish xarakterli. Ular frazeologizmlarda turg'un va ko'chma ma'nolarni e'tiborli deb hisoblaydilar, maqol va matallarni frazeologik birliklar qatoriga kiritmaydilar. Masalan, *fr. être connu comme Barrabas dans la passion* (butun dunyoga mashhur bo'lmoq), *aller à Niort (rad etmoq)*, "nier" fe'lidan so'z o'yini tarzida yasalgan idioma, shuningdek, *aller contre la Providence* (Iloh irodasiga qarshi bormoq) [42].

A.V.Kunin, A.G.Nazaryan, V.N.Teliya, A.I.Smirnitskiy, A.A. Reformatskiy, Ye.M. Vereshagin, V.G.Kostomarov ilmiy tadqiqotlarida frazeologiya keng ma'noda e'tirof etiladi. Ular frazeologik birliklar sirasiga iboralar, proverbal frazeologizmlar (maqol va matallar), hikmatli so'zlar, nutqiy qoliplar hamda iqtiboslarni ham kiritishadi.

Zamonaviy frazeologiya – uzoq tarixiy rivojlanish mahsuli. Tarixiy taraqqiyot natijasida frazeologik birliklar strukturasi va semantikasida evolyutsion jarayonlarning yuz berishi tabiiy hol. Shu jihatni nazardan qochirmagan P.P.Amosova, V.L.Arxangelskiy, A.V. Kunin, A.G.Nazaryan kabi olimlarning tadqiqotlarida frazeologik birliklar mohiyatiga tarixiy nuqtayi nazardan yondashildi. V.M.Mokiyenko ham frazeologiyani diaxronik nuqtayi nazardan o'rganish zarurligini, chunki u diaxronik jihatdan to'liq o'rganilmasa, keyingi sinxronik jihatdan tahlil etishda jiddiy nuqsonlar paydo bo'lishi mumkinligini ta'kidlaydi [21. S.79].

Rus olimlari V.G.Kostomarov va Ye.M.Vereshagin frazeologizmlar semantikasini ikkiga bo'lib o'rganish g'oyasini ilgari surishdi:

- 1) sinxron jihatdan ikki planli frazeologik birliklar;
- 2) diaxronik jihatdan ikki planli frazeologik birliklar [5. S.65-66].

Sinxron jihatdan frazeologik birliklarni osongina izohlash mumkin, chunki ular tarkibidagi so'zlarning o'z ma'nosi tushunarli izohlangan bo'ladi va frazeologizm komponentlari o'z motivatsiyasini yo'qotadi. Shuning uchun ular ham ifoda planiga, ham mazmun planiga ega bo'ladilar: *fr. Âgé comme le Pont-Neuf* (dunyo kabi ko'hna), o'zb. Ali jinni, Ali jinnining bari jinni kabi.

Diaxron jihatdan esa frazeologizm ham etimologik motivatsiyaga, ham frazeologik birlikning yaxlit semantikasiga ega bo'ladi. Masalan, *suppliee Chinois – Xitoy qiynog'i* (o'ta azobli va sekin qiynoqlar) kabi frazeologik birlikni to'g'ridan to'g'ri tushunib bo'lmaydi. Frazeologik birlik o'zining genetik prototipi bilan uzviy bog'liq bo'lib, bunday frazeologik birlikning mazmun plani, albatta, etimologik tahlilni taqozo etadi. Mazkur ibora Oktava Mirboning "Le Jardin des supplices" romani ta'sirida shakllangan bo'lib, fransuzlarning xitoyliklar qiynoq usullari to'g'risidagi tasavvurlari natijasida yuzaga kelgan [42].

Frazeologik birliklarning yuqorida keltirib o'tilgan tarixiy-semantik tabiati to'g'risidagi ikki yoqlamalikni uning semantik belgisi bilan aralashtirib yubormaslik kerak.

Agar frazeologik birlik obrazlilik belgisini yo'qotsa, u semantik jihatdan ikki planlilik xususiyatidan mahrum bo'ladiyu, lekin har doim o'zining tarixiy - semantik tabiatini saqlab qoladi. Frazeologizm diaxron jihatdan semantik ikki planda ham o'z ma'nosida, ham ko'chma ma'noda qo'llanilaveradi. Ye.M.Vereshagin buning sababini frazeologik birlik tarkibidagi komponent arxaik so'z sifatida qo'llanilishida yoki erkin ibora tarkibida yotgan hodisa, urf-odat, irim-sirim kabilar unutilgan bo'lishi mumkinligida, deya ta'kidlaydi (masalan, *popast vprosak–pand yemoq*, noqulay ahvolga tushib qolmoq). Shuning uchun har doim frazeologik birlik semantikasini uning genetik prototipidan farqlash lozim.

Binobarin, frazeologik birliklarning milliy-madaniy xususiyatlarini o'rganishda ularni etimologik tadqiq etish, diaxronik jihatdan dinamik o'zgarishlarini o'rganish muhim. A.G.Nazaryan ta'kidicha, frazeologiyada sinxroniya va diaxroniyani bir-biriga qarama-qarshi qo'yish asossiz, chunki "frazeologik birlikning o'ziga xos xususiyatini sinxronik nuqtayi nazardan o'rgana turib ham, biz har doim uning genetik

kelib chiqishi erkin yoki nofrazologik birikma sifatida uni tashkil etuvchi unsurlarning barchasi to'liq mavhumlashishi mumkin emasligiga e'tibor qaratamiz" [22. S.8], deb ta'kidlaydi.

Frazeologik birliklarni semasiologik tadqiq etish, albatta bu birlikning kelib chiqishini o'rganishni taqozo etadi. Fransuz tadqiqotchisi A.G.Nazaryan "Istoriya razvitiya fransuzskoy frazeologii" nomli monografiyasida frazeologik birliklarning kelib chiqish manbalarini tahlil qilish zarurligini isbotlab, fransuz tilining milliy-madaniy xususiyatini ifodalovchi frazeologizmlarning tarixiy-semantik jihatlarini tadqiq etadi [22. S.18]. Chunki frazeologik birliklarni tarixiy (diaxron) jihatdan o'rganishda uning semantik omillari ahamiyati katta, chunki frazeologizmlashish jarayonining o'zi, eng avvalo, semantik voqelik bilan bog'liq. Vaholanki, tadqiqotimiz obyekt bo'lgan antroponim va toponim komponentli frazeologizmlarning semantikasini uni tashkil etgan komponentlarning izohisiz tushunish qiyin.

Jahon tilshunosligining frazeologiya sohasidagi yutuqlaridan o'zbek tilshunosligi ham bahramand bo'ldi. O'zbek tilshunosligida frazeologik birliklarning o'rganilishidagi muammolar, maqol va so'z birikmalariga munosabati yuzasidan bir qator izlanishlar olib borildi. Ta'kidlash joizki, o'zbek tilshunosligida Sh.Rahmatullayevning o'zbek frazeologiyasi bo'yicha amalga oshirgan ishlari e'tiborga loyiq. Olim frazeologizmlarning leksik hodisalardan farqli hamda o'xshash tomonlarini nazariy izohladi. U "Nutqimiz ko'rki" risolasida bittadan ortiq leksik birlikdan iborat bo'lgan, tuzilishiga ko'ra so'z birikmasi yoki gapga teng bo'lgan yaxlit ko'chma ma'no anglatadigan turg'un iborani frazeologik birlik sifatida ta'riflaydi. [27. B.56].

A.E.Mamatov ta'kidlaganidek, jahon tilshunosligidagi kabi o'zbek tilshunosligida ham frazeologiya tor va keng ma'noda tushuniladi. Umuman, frazeologizmlarning obrazli ko'chma ma'no anglatishi va tilda oldindan tayyor holda mavjud bo'lishi nuqtayi nazaridan, ularni faqat keng ma'noda tushunish lozim [20. B.109]. Frazeologiyani tor ma'noda tushunuvchilar sichqonning inini ming tanga qilmoq; ko'zi to'rt bo'lmoq; Alixo'ja Xo'ja Ali; To'ytepa nima yo'l kabi ko'chma ma'noli turg'un idiomatik birikmalarni, frazeologiyani keng ma'noda tushunuvchilar esa Xudo buyuriptimi; Ustasi-garang, Shogirdi-farang; Gap desang qop-qop, ish desang Samarqanddan top kabi ko'chma ma'noli maqol-matal, aforizmlarni ham frazeologik birlik tarkibida o'rganish lozim, deb hisoblaydilar.

Frazeologiyani keng ma'noda tushunuvchi lingvistlar frazeologiya obyektini sanalgan murakkab ma'noli turg'un iboraning eng past chegarasi kamida ikki komponentdan, yuqori chegarasi esa murakkab gaplardan iborat bo'lishini ta'kidlashadi. Ular frazeologik birliklar tarkibiga turg'un va ko'chma ma'noga ega birikmalardan tashqari maqol, aforizmlar tipidagi boshqa birliklarni ham kiritishadi. Sh.Rahmatullayev ham frazeologiyani tor ma'noda talqin etadi va frazeologik ibora bilan maqol, matal, aforizmlar, hikmatli so'zlarning farqli tomonlarini ochib beradi.

Turkiyshunos olim Ya.D.Pinxasov fikricha, Sh.Raxmatullayev maqollar hamda aforizmlarning kommunikativ birlik va predikativ xarakterga ega ekanligi, uning asosida leksik tushuncha emas, balki hukm (fikir) yotishini asos qilib olgan. Biroq maqollar ham metaforalar singari ko'chma ma'noga ega. Shu bois tilning bu birliklari ham frazeologik birliklar qatoriga kiritish o'rinli [25. S.109-112]. Ya.D.Pinxasovning mazkur fikriga H.Berdiyev, G'.Salomov, R.Rasulov va B.Yo'ldoshev tadqiqotlarida amal qilinganligini kuzatamiz.

Vaholanki, frazeologik birliklar tadqiqida ularning tuzilishi, obrazlilik, motivlanganligi, emotsional-ekspressivlik xususiyatlari inobatga olinishi, shu asosda frazeologik birliklarning universal va milliy xususiyatlari ochib berilishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Ta'kidlash joizki, o'zbek tilshunosligida hozirgacha frazeologik birliklar tadqiqida akademik V.V.Vinogradov tasnifiga asoslanildi. Biroq mohiyatga faqat semantik nuqtayi nazardan yondashilgan mazkur tasnif serqirra frazeologizmlarning xususiyatlarini to'la ochishga monelik qiladi. V.V.Vinogradovning frazeologizmlarni tarkibidagi komponentlar ifodalagan ma'nosiga ko'ra farqlashga asoslangan tasnifi haqli ravishda tilshunoslarning bahs-munozaralariga sabab bo'ldi. Jumladan, o'zbek tilshunoslari Sh.Shoabdurahmonov, A.Hojiyevlarning "Hozirgi o'zbek adabiy tili" kitobida: "frazeologik birlik tarkibidagi komponentlar ifodalagan ma'noga ko'ra... "frazeologik birlashma", "frazeologik butunlik", "frazeologik chatishma" kabi turlarga ajratiladi. Frazeologizmlarni ko'chma ma'nosini tushunish uchun ularni bu kabi turlarga ajratishning hech qanday ahamiyati yo'q, ular orasida faqat turg'unlik darajasida farq bor, xolos [41. S.142].

Bu xususda N.M.Shanskiy [40. S.109]ning: "Frazeologizmlarni ajratishda faqat ma'noviy tamoyillarga asoslanish frazeologik butunlik va frazeologik chatishma o'rtasida chalkashlik keltirib chiqaradi", degan fikri muhim. Demak, frazeologizmlarning funksional-semantik xususiyatlarini hisobga olgan holda ularni frazeologik butunlik va chatishmaga ajratish hamisha ham kutilgan natijani beravermaydi. Chunki, tuyaning

dumi yerga tekanda; Avliyoga tosh tegdimi; eski tos, eski hammom; Ahmoqqa Quva bir tosh kabi frazeologizmlarning barchasi ko'chma ma'noga asoslanadi.

O'zbek frazeologiyasida olib borilayotgan so'nggi yillardagi ba'zi tadqiqotlar frazeologizmlarning semantik tasnifiga emas, balki semantik tuzilishiga asoslanmoqda. Bunday tahlil yo'lini Sh.Rahmatullayev boshlab berdi. "Hozirgi o'zbek adabiy tili" darsligining uchinchi nashrida frazeologizmlarning uch xil semantik tasnifidan voz kechiladi va frazeologizmlar uch xil semantik tuzilishiga ko'ra tahlili keltiriladi [41, 144].

O'zbek tilshunosligida frazeologizmlarning kelib chiqish tarixini o'rganishga alohida e'tibor qaratilishi ham e'tiborlidir. Masalan, Sh.Rahmatullayevning "O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati" [29], Sh.Shomaqsudov, Sh.Shorahmedovlarning "Ma'nolar maxzani" [41] lug'atlari bu boradagi dastlabki qadamlar, deyish mumkin. Zero, B.Yo'ldoshev ta'kidlaganidek, "O'zbek tilining tarixiy frazeologiyasi" singari fundamental ilmiy tadqiqot ishlarini kelgusida amalga oshirish tilshunoslari oldida turgan amaliy vazifalardan sanaladi [12. B.99].

Bugungi kunda onomastik komponentli frazeologizmlar etimologiyasi, ularning frazeologik birliklar tarkibida motivlashishi xususida garchi fundamental tadqiqotlar mavjud bo'lmasa-da, bu borada ba'zi ilmiy maqolalarda fikrlar aytilganligini kuzatamiz. Jumladan, "Fan va turmush" jurnalining "Tilimiz durdonalari" rubrikasi ostida F.Isoqov "Daqqiyunus" nomli maqolasi chop etildi [11. B.13-14]. Unda daqqiyunusdan qolgan, echkining oti Mulla Abdulkarim kabi frazemalar etimologiyasi haqida mulohaza yuritiladi. "Daqqiyunus" – Rim imperiyasi davridagi hukmdorlaridan biri Diaklotionning nomi. Sharq hikoyatlarida Diaklotionning talaffuzi Doqqiyunus, Daqqiyunus ko'rinishida o'zgarib borgan. Sh.Rahmatullayevning "O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati"da bu ibora arxaiklashgan, taomildan qolgan odat yoki narsaga nisbatan kamsitish ma'nosida qo'llaniladi.

K.Bozorboyev tadqiqotida esa xalq ijodiga taalluqli frazeologik birliklarning yuzaga chiqish sabablari va ularning lisoniy xususiyatlari tahlilga tortilgan [3. B.14]. Olimning fikricha, so'zlashuv nutqiga oid frazeologizmlarning kelib chiqish manbalarini yaratish muhim, mazkur frazeologik birliklarning faqat 10 foizi lug'atlarda o'z aksini topgan, 40 foizi esa so'zlashuv nutqida mavjud.

M.M.Xoshimxo'jayevning "Olamning lisoniy tasvirida fitonimlar (ingliz, rus va o'zbek tillari misolida)" nomli dissertatsiyasining "Olamning lisoniy tasvirini yaratishda ingliz, rus va o'zbek fitokomponentli frazeologizmlarning o'rnini" deb nomlangan uchinchi bobida o'zbek tiliga tegishli fitokomponentli frazeologizmlarga oid misollar tahlilga tortilgan. Masalan, "Abu Jahl tarvuzi" – rivoyatlarga ko'ra, Abu Johil payg'ambar Muhammadning ashaddiy dushmanlaridan biri bo'lgan. Shafqatsizligi va murossasizligi uchun musulmonlar uni Abu Jahl ("johillik otasi") deb atashgan. Eronda shifobaxsh o'simlik – kolotsint (oddiy kolotsint yoki achchiq tarvuz) taxir mazasi uchun "Abu Jahl tarvuzi" deb nomlangan (دنه وجهل وانها) 27, bu nom o'zbek tiliga fors tilidan kalkalash yo'li orqali o'zlashgan [37. B.17].

E'tibor bersak, istalgan tilning frazeologik qatlami, aksariyat hollarda, xalqona metaforalar, metonimiya, maqol va matallar asosida shakllangan. Zero, obrazli iboralar inson ongida borliq, ijtimoiy hayot, geografik muhitni idrok etish in'ikosi sifatida paydo bo'lgan.

Zamonaviy psixologiya fani inson tafakkurida idrok etilgan har qanday voqelik, tushuncha yoki birlik, albatta, voqelanishi, shuningdek, insonning hayotiy tajribalari asosida to'ldirilishi, takomillashib borishini ta'kidlaydi. Shu o'rinda aytilish mumkinki, obrazli iboralar ham inson tafakkurida qayta ishlanadi. Masalan, yuqorida keltirilgan "Daqqiyunusdan qolgan" iborasi frazeologizm sifatida ko'chma ma'noda konkret vaziyatda bir-biriga bog'liq hodisalar borasida idiomatik ma'noni beradi, shuning uchun bu ibora o'zining boshlang'ich ma'nosidan uzoqlashib konnotativ ma'no kasb etgan, ya'ni zamon talabidan orqada qolgan biror buyumga nisbatan eskirgan ma'nosida ishlatiladi.

Binobarin, so'z birikmasi o'z erkin ma'nosini yo'qotsagina yo leksik birlik tarkibiga ko'chadi (tomning orqasi–tomorqa, gulning yaprog'i–gulyaproq kabi), yoki frazeologik birlikka aylanadi (qo'l ko'tarmoq, ovoz bermoq, quloq osmoq). Zero, obrazli tavsif so'z birikmasining o'z o'zanidan chiqib, frazeologizmlar sari siljishini ta'minlaydi, hissiy bo'yoqdorlik baxsh etadi.

Frazeologik birliklarning kelib chiqish tarixini o'rganish xalqning dunyoqarashi, o'y-xayollari, yashash tarzi, urf-odatlarini, milliy qadriyatlarini chuqurroq tushunib olish imkonini beradi. Ana shu jihat tilimizning ekspressiv qatlamini tashkil etuvchi frazeologizmlar etimologiyasini bilishni, bu boradagi tadqiqotlarni ko'lamini kengaytirishni va frazeologik birliklarning etimologik lug'ati yaratishni taqozo etadi.

Quyida frazeologik birliklarning tuzilishiga ko'ra o'ziga xosligi xususida mulohaza yuritamiz.

Frazeologizmlarning struktural o'ziga xosligi ularning bir nechta komponentlarni birlashtirgan murakkab tarkibida aks etadi; bu komponentlar alohida urg'uga ega, biroq birikma tarkibida alohida so'z

ma'nosini saqlamaydi: fr: *Trouver son chemin (yoki sa route) de Damas (o'z yo'lini topmoq)*; o'zb: *So'ragan Makkani topadi kabi*. Fransuz va o'zbek tillaridagi frazeologik birliklar leksik birliklardan tuzilishi va semantikasiga ko'ra keskin farqlanadi.

Frazeologik birliklarning tuzilishiga ko'ra o'ziga xosligi quyidagicha: 1) leksik barqarorlik: frazeologizmlar erkin birikmalardan farqli o'laroq, doimiy (qat'iy) tarkibga ega. Frazeologik birlik tarkibidagi biror komponentni o'ziga yaqin ma'noli so'z bilan almashtirib bo'lmaydi, biroq ayni erkin birikmada shunday munosabat amal qiladi, uning tarkibidagi komponentlar yaqin ma'noli so'z bilan osongina almashtirilishi mumkin. Masalan, *aller à Cracovie (aldamoq) (so'z o'yini: Cracovie so'zi bilan craque yolg'on, craquer, craqueur so'zlari orasidagi o'xshashlik asosiga qurilgan)* iborasi o'rniga *aller à Cachan – yashirinmoq (so'z o'yini se cacher fe'lidan yasalgan)* iborasini qo'llab bo'lmaydi.

Shu o'rinda ba'zi frazeologizmlar o'z variantlariga ega ekanligini ham nazardan qochirish zarur. Masalan, fr. *échappé de Bedlam échappé de Bicêtres, de Charenton, échappé des Petites-Maisons échappé de pensionnaire de Charenton -telba, savdoyi odam; la moderne Babylone (la moderne [ou la nouvelle] Babylone) yangi Vavilon (Parij haqida)*; o'zb. *Gap desang, qop-qop, ish desang, Samarqanddan top/Olatog'dan top/Qoratog'dan top/Ko'fi Qofdan top kabi*. Frazeologizmlarda variantlilik uning tarkibini istalgancha yangilamaydi. Odatda, aksariyat frazeologizmlar uchun qat'iy o'rnatilgan so'z tarkibi xos. Masalan, fr. *avoir un oeil à Paris, l'autre à Pontoise*; - so'zma-so'z.: *Bitta ko'zi bilan senga qarasa, bittasi bilan Arzamasga qaraydi, ya'ni ko'zi g'ilay ma'nosini ifodalaydi. Uning o'zbek tilidagi ekvivalenti qarg'aning bir ko'zi o'qda, bir ko'zi boshqa yoqda. Mazkur ibora XVII asrga taalluqli bo'lib, o'sha davr uchun mustaqil boshqaruv idoralari ega bo'lgan Parij va Pontuaz o'rtasidagi masofa muhim ahamiyat kasb etgan, ikkala shaharni bir vaqtning o'zida nazoratga olib bo'lmasligi yuqoridagi birlikning yuzaga kelishiga sabab bo'lgan. O'zbek tilida Tokni qirqmasang, Qashqarga yetadi frazeologizmi fonetik uslubda yasalgan bo'lib, hamma narsada me'yori bo'lishi kerakligini anglatadi va b.; 2) frazeologizmlarning asliday tasvirlanishi: masalan, fr. *aux audacieux Dieu prête la main – dangal odamning oshig'i olchi*; o'zb. *Mard bo'lsang, Eskiyo'vada hangra kabi*; 3) frazeologizmlar tuzilishining tushunarsizligi: frazeologik birlik tarkibiga istalgan unsurlarni kiritish mumkin emas. Masalan, fr. *Fier comme Artaban – o'ta mag'rur*; o'zb. *Qul qutirsa, Qo'ng'irotdan top kabi*; 4) grammatik jihatdan barqarorlik, turg'unlik: frazeologik birlikning har bir qismi aniq grammatik shaklga ega, ularni ixtiyoriy almashtirish mumkin emas. Masalan: fr. *passer par les fourches Caudines – jabr-zulm ostida qolmoq*; o'zb. *Sog' odamga Suqrotning keragi yo'q kabi*.*

Frazeologizmlarning semantik strukturasi quyidagilardan iborat: 1) semantik bo'linmaslik; frazeologizmlar, odatda, bo'linmas, yaxlit ma'noga ega bo'ladi. Masalan, fr. *boire l'eau du Léthé -o'lmoq, avoir bu de l'eau du Léthé -unutmoq*. Iboraning mazmuni tarkibidagi komponentning ma'nosi bilan bog'liq, ya'ni fransuzlardagi *Lete daryosi qadimda o'zanlari qurib yo'q bo'lib ketgan katta daryolardan sanaladi*. O'zbek tilida, *Alining kekini Validan olmoq – darg'azab bo'lmoq, Tuxumi Bag'doddan kelgan, anqovning urug'i-topilmas, nodir, noyob kabi*.

Bu o'ziga xoslik barcha frazeologizmlar uchun xos emas. Shunday frazeologizmlar borki, ular to'liq tasviriy iboraga yoki iboraning muqobiliga teng keladi: fr. *Rim madaniyatining ta'siri ostida fransuz tilida yuzaga kelgan il faut vivre à Rome comme à Rome PF o'zbek tilida Kimning aravasiga tushsang, shuning qo'shig'ini aytasan; Bo'rilar orasida bo'riga o'xshab uvillash lozim kabi muqobili orqali berish mumkin; komparativ frazeologik birlik être dans les bras de Morphée – mast uyquda bo'lmoq; o'zbek tilida Boyag'i-boyag'i, boy Xidrning tayog'i –Eski hammom, eski tos deyilyapti. Bunday frazeologizmlar erkin birikmalarning obrazli ma'no ko'chishi bilan yasaladi; 2) idiomatiklik: frazeologizmlarning leksik komponentlari ma'nosida idiomatik va semantik siljish ro'y berishi mumkin. Idiomatiklik tarkibidagi komponentlarning ma'no ko'chishi hisobiga frazeologik iboraning ko'chma ma'nosi hosil bo'ladi va yaxlit semantik ma'no ifoda etadi. Masalan, fr. *moutons de Panurge – kimgadir ko'r-ko'rona ergashmoq (so'zma-so'z: Panurg podasi; ko'r-ko'rona ergashuvchilar)*. Ibora F.Rablening "Gargantuya va Pantagryuel" asari ta'sirida paydo bo'lgan; o'zb. *Izlaganga Ezid yor (qadimgi ajdodlarimizning e'tiqodiy tushunchasiga ko'ra Ezid – yaxshilik xudosi)* [42. R.89].*

3) ekspressivlik: semantik kategoriyaning konnotativ darajasini ko'rsatadi. Bunda frazeologik birlik tarkibidagi komponentlar mazmuni o'ziga xos axborotni uzatishga xizmat qiladi. Aynan frazeologik birliklar metaforik ma'no ko'chishiga asoslanganligi uchun ham emotsional-ekspressivlik xususiyatiga ega bo'ladi va ular insonning obyektga nisbatan bergan bahosi bilan bog'liq. V.G.Gak ta'kidlaganidek [8], quyidagi omillar frazeologik birliklar ekspressivlik darajasining yuqoriligiga ta'sir ko'rsatadi: 1) ibora tarkibida obrazli assotsiatsiyaning mavjudligi. Masalan, fr. *boire le Styx (she'riy) hayotdan ko'z yummoq (so'zma-so'z.: Stiks daryosidan ichmoq) Har kimning o'z yurti – o'ziga Misr*; 2) komponent o'z ma'nosida ekspressiv bo'yoq hosil qiluvchi uslubiy vosita – alliteratsiya, rifma, kalamburlar bilan farqlanadi, masalan, fr. *Envoyer à*

*Vatan* (so‘zlashuv uslubiga xos) – haydab chiqarmoq, quvib chiqarmoq (so‘zma-so‘z.: *Vatanga jo‘namoq*)./ *va-t‘en* – *daf bo‘l!*, *ket! ma‘nosidagi so‘z o‘yinidan yasalgan*; o‘zb. *Eshonguzarda it o‘lsa*, “yigirma”sidan quruq qolmaydi *hazil-mutoyiba tarzida «tutun chiqqan yerdan quruq qolmaydigan» odamlarga nisbatan qo‘llanuvchi ibora*. (*Eshonguzar – Janubiy Qozog‘istondagi katta bir qishloqning nomi*); 3) frazeologik birlik komponentlari o‘rtasidagi ma‘no semantik mazmunga asoslanmagan, masalan, fr. *Il a été à Saint-Malo (les chiens lui ont mangé les mollets/ les os)* – (*hazil.*) (so‘zma-so‘z.: *U Sen-Maloda bo‘lgan, itlar uning urug‘ini/suyagini g‘ajidilar*) 1) u juda ozg‘in; 2) uning oyog‘i judayam nozik; o‘zb. “*Xivada moli borning Buxoroda ko‘ngli to‘q*”. Mazkur frazeologizmlar fransuz va o‘zbek xalqining kundalik hayotini, tarixi hamda madaniyatini o‘zida aks ettiradi, shuningdek, ular tilda yorqin uslubiy vositalarga ega bo‘lib, u yoki bu hodisani ifodalashda nutqqa ifodalilik baxsh etadi [41. B.42].

**Xulosa.** Demak, frazeologizm paradigmatic, sintagmatik xususiyatlarga ega. U tilda tayyor holda mavjud bo‘lib, nutqda leksik birliklar bilan barobar qo‘llaniladi. Ularni tashkil qiluvchi komponentlarining ko‘chma ma‘nosi obrazli, emotsional-ekspressivlikka ega bo‘lgan belgi, harakatni ifodalaydi. Semantik tuzilish va uslubiy belgilarga ega milliy-madaniy frazeologik birliklarning xususiyatlarini sinxron va diaxron usulda dinamik rivojlanishida o‘rganish, tadqiqotimiz obyekti bo‘lgan onomastik birliklarning frazeologik birlik hosil qilish jarayonida obrazli, emotsional-ekspressiv va konnotativ darajalarini aniqlashga imkon beradi.

#### ADABIYOTLAR:

1. Амосова Н.Н. Основы английской фразеологии. – Л.: ЛГУ, 1963. – 208.; Архангельский В.Л. О задачах, объектах и разделах русской фразеологии как лингвистической дисциплины // Проблемы устойчивости и вариантности фразеологических единиц. – Тула: 1972. – С.3 – 9.
2. Балли Ш. Общая лингвистика и вопросы французского языка.. – М.: Editorial URSS, 2001. – 416 s.
3. Bozorboyev K.T. O‘zbek so‘zlashuv nutqi frazeologizmlari. Filol. fan. nomzodi diss. – Samarqand, 2001. – 144 b.
4. Berdiyurov H. Frazeologik lug‘atlar tuzish masalasiga doir// frazeologiya masalalari, SamDU asarlari, yangi seriya, 106-chiqishi. – Samarqand, 1961. – B.10; B.21-26.
5. Верецагин Е.М., Костомаров В.Г. Язык и культура. – М.: Русский язык, 1990. – 246 с.
6. Виноградов В.В. Об основных типах фразеологических единиц в русском языке. – М.: Русский язык, 1974. – 364 с.– С.340.
7. Виноградов В.В.Русский язык. Грамматическое учение о слове. – М.: Русский язык, 2001. – С.45 – 69.
8. Гак В. Г. Эмоции и оценки в структуре высказывания // Вестник Московского университета. Сер. 9. Филология. – 1997. – № 3. – С.87 – 93.
9. Giro P. Les locutions françaises. – P.: Presses universitaires de France, 1962. – 232 p.
10. Жуков В.П. Русская фразеология. – М.: Высшая школа, 1986. – 309 с.
11. Is‘hoqov F. Daqqiyunus // Fan va turmush, 1997. –№ 4. – B.13-14.
12. Yo‘ldoshev B. O‘zbek frazeologiyasi va frazeografiyasining shakllanishi hamda taraqqiyoti. – Samarqand: SamDU, 2013.– 166 b. – B.116-120.
13. Кунин А.В. Курс фразеологии современного английского языка: - М.: Высшая школа, 1996. – 381 с.
14. Кунин А.В. Фразеология современного английского языка. – М.: Высшая школа, 1972 –198 с.
15. Курчаткина Н.Н., Супрун А.В. Фразеология испанского языка. – М.: Высшая школа, 1981. – 200 с.
16. Ларин Б.А. Очерки по фразеологии. – Уч.зап. ЛГУ. Серия филол. наук. – Л., 1956, № 24. – С.202 – 224.
17. Лотман Ю. М. Внутри мыслящих миров: Человек – текст – семиосфера – история . – М.: Энциклопедия, 1999. – 323 с.
18. Маматов А.Е. Очерки по французской фразеологической стилистике –Т.: Ўқитувчи, 1989. – 118 с.
19. Mamatov A.E. Frazeologik stilistika masalalari. –Т.: O‘qituvchi, 1991. –115 b.

20. *Mamatov A.E. Hozirgi o'zbek adabiy tilida leksik va frazeologik norma muammolari.* – T.: Fan, 1991.
21. *Мокиенко В.М. Противоречия фразеологии и её динамика. Автореф дисс... докт. филол. наук.* – Л., 1976. – 79 с.
22. *Назарян А.Г. История развития французской фразеологии.* – М.: Высшая школа, 1981. – 189 с.
23. *Назарян А.Г. Фразеология современного французского языка.* – М.: Высшая школа, 1987. – 288 с.
24. *Кириллова Н.Н. Компонент фразеологической единицы и слово. (на материале соматических фразеологизмов современного французского языка. Автореф. дисс...кан. филол. наук.* – Л.: 1975. – 20 с.
25. *Соколова Г.Г. Французская идиоматика XX века (Национально-культурный аспект) // Актуальные проблемы романистики. Язык. Общество. Культура.* – Саратов: Саратовского ун-та, 1999. – С.18.
26. *Тимескова И.Н. Крылатые слова, их значения и происхождения: – Л. : Просвещения, 1974. – 231 с.*
27. *Поливанов Е.Д. Избранные работы. Статьи по общему языкознанию.* – М.: Наука, 1968. – 376 с.
28. *Pinxasov Ya.D. O'zbek tili frazeologiyasining ba'zi masalalariga doir. Frazeologiya masalalari. Ilmiy asarlar // SamDU, Yangi seriya.* – Samarkand, 1961. – B. 109–112.
29. *Райхштейн А.Д. Сопоставительный анализ немецкой и русской фразеологии.* – М.: Высшая школа, 1980. – 143 с.
30. *Rahmatullayev Sh. Nutqimiz ko'rki.* – T.: Fan, 1970. – B.56.
31. *Rahmatullayev Sh. O'zbek frazeologiyasining ba'zi masalalari.* – T.: Fan, 1966. – 131 b.
32. *Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati.* – T.: O'qituvchi, 1978. – 407 b.
33. *Реформацкий А.А. Введение в языкознание.* – М.: Аспект Пресс, 1999. – 536 с.
34. *Ройзензон Л. И, Малиновский Е. А., Хаятин А. Д. Очерки истории становления фразеологии как лингвистической дисциплины.* – Самарканд, 1975. – 165 с.
35. *Salomov G'. Rus tilidan o'zbekchaga maqol, matal va idiomalarni tarjima qilish masalasiga doir.* – T.: O'qituvchi, 1961. – 80 b.
36. *Tagiyev M.T. Glagolnaya frazeologiya sovremennogo russkogo yazika.* –Baku: Maarif, – 1966. – 150 s.
37. *Теля В.Н. Русская фразеология. Семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты.* – М.: Языки русской культуры, 1998. – 288 с.
38. *Умарходжаев М.И. Основы фразеографии.* – Т.: Фан, 1983. – С.21.
39. *Хайруллина Р.Х. Картина мира во фразеологии от мировидения к миропониманию. Монография.* – Уфа: Изд-во БГПУ, – 2001. – 285 с.
40. *Xoshimxo'jayeva M.M. Olamning lisoniy tasvirida fitonimlar (ingliz, rus va o'zbek tillari misolida). Filol. fanl. dokt.... diss. avtoref.* – T., 2017. – 26 b.
41. *Чернышѐва Н.И. Фразеология современного немецкого языка.–М.: М.: Высшая школа, – 1970. – 199 с.*
42. *Черданцева Т.З. Итальянская фразеология и итальянцы – М.: Высшая школа, ЧеРо, 1977. – 304 с.*
43. *Шанский Н.М.Лексикология современного русского языка.* – М.: Просвещение, 1964. – 315 с.
44. *Shoabdurahmonov Sh., Asqarova M., Hojiyev A., Rasulov I., Doniyorov X. Hozirgi o'zbek adabiy tili, 1-qism.* – T.: O'qituvchi, 1980. – 467 b.;
45. *Shomaqsudov Sh., Shorahmedov Sh., Ma'nolar maxzani.* – T.: O'zbekiston milliy davlat ensiklopediyasi, 2001. – 448 b.
46. *Rey A. Chantreau S. Dictionnaire des expressions et locutions.* – P.: Le Robert, 1997. – 1085 p.

**O'ZBEK VA NEMIS TILIDA SHAXS IFODALOVCHI VOSITALAR**

*Jumayev Erkin Boltayevich,*

*Buxoro davlat universiteti katta o'qituvchisi, PhD*

*Nurullayeva Gulshana Xayrullayevna,*

*Buxoro davlat universiteti magistranti*

*jumaev.erkin@inbox.ru*

*Annotatsiya. Maqolada o'zbek va nemis tilida shaxsni ifodalovchi turli usul va vositalar mavjudligi, ular son kategoriyasi, fe'lining qo'llanilishi va tuslanishida, shuningdek, ot so'z turkumida ham muhim rol o'ynashi to'g'risida fikr yuritiladi. Bundan tashqari ot leksema nutqda ikki grammatik forma shaklini oladi. Mazkur grammatik kategoriyalar ot leksemaga birlamchi shakl sifatida mansub bo'lib, ular ot leksemaning nutqda namoyon bo'lish shakli hisoblanadi. Otlarda uchinchi bir grammatik kategoriya ham mavjud bo'lib, u egalik kategoriyasidir. Yuqoridagi ta'riflarni hisobga olib, shaxsni ifodalovchi grammatik strukturaning asosini aynan ot so'z turkumi tashkil qila oladi desak, mubolag'a bo'lmaydi.*

*Kalit so'zlar: leksema, grammatik forma, tejamkorlik, mikromatn, makromatn, kategorial ma'no, morfema, rod, grammatik miqdor.*

**СРЕДСТВА ВЫРАЖЕНИЯ ЛИЧНОСТИ В УЗБЕКСКОМ И НЕМЕЦКОМ ЯЗЫКАХ**

*Аннотация. В статье рассматривается существование различных способов и средств выражения личности в узбекском и немецком языках, которые играют важную роль в разряде числа, употреблении и склонении глагола, а также в группе существительных. Кроме того, именная лексема в речи принимает вид двух грамматических форм. Эти грамматические категории принадлежат именной лексеме как первичной форме и являются формой проявления именной лексемы в речи. Существительные имеют третью грамматическую категорию — притяжательную категорию. Принимая во внимание приведённые определения, не будет преувеличением сказать, что основу грамматической конструкции, представляющей человека, может составить группа существительных.*

*Ключевые слова: лексема, грамматическая форма, экономя, микротекст, макротекст, категориальное значение, морфема, род, грамматическое количество.*

**MEANS OF PERSONAL EXPRESSION IN UZBEK AND GERMAN LANGUAGES**

*Abstract. The article discusses the existence of various methods and means of expressing the person in the Uzbek and German languages, which play an important role in the number category, the use and declension of the verb, as well as in the noun group. In addition, the noun lexeme takes the form of two grammatical forms in speech. These grammatical categories belong to the noun lexeme as the primary form, and they are the form of manifestation of the noun lexeme in speech. Nouns have a third grammatical category, which is the possessive category. Taking into account the above definitions, it is not an exaggeration to say that the basis of the grammatical structure representing a person can be formed by the noun group.*

*Keywords: lexeme, grammatical form, economy, microtext, macrotext, categorical meaning, morpheme, gender, grammatical quantity.*

**Kirish.** Fan va texnika keng ko'lamda rivojlanib borayotgan bir davrda ilm-fan, jumladan, o'zbek adabiy tilining ham sayqallanib borishiga guvoh bo'lmoqdamiz. Tilshunos olimlarimiz ham zamon talabidan kelib chiqib, soha bo'yicha turli xildagi ilmiy izlanishlarni olib bormoqdalar, ayniqsa, mazkur izlanishlarning chog'ishtirma tilshunoslik yo'nalishida olib borayotganligi o'zbek tili milliy ruhining qayta shakllanib va yuksalishiga asos vazifasini o'tab kelmoqda.

**Asosiy qism.** O'zbek tilida shaxsni ifodalovchi turli usul va vositalar mavjud bo'lib, ular son kategoriyasi, fe'lining qo'llanilishi va tuslanishida, shuningdek, ot so'z turkumida ham muhim rol o'ynaydi. Ot – mustaqil so'z turkumlaridan biridir. U boshqa so'z turkumlaridan bir necha belgi-xususiyatlari bilan ajralib turadi. Ot so'zning leksik ma'no tashuvchi qismi ya'ni predmetlik ma'nosini anglatadi. Ot leksema

nutqda ikki grammatik formaning shaklini oladi. Bu grammatik kategoriyalar ot leksemaga birlamchi shakl sifatida mansub bo'lib, ular ot leksemaning nutqda namoyon bo'lish shakli hisoblanadi. Otlarda uchinchi bir grammatik kategoriya ham mavjud bo'lib, u egalik kategoriyasidir. Yuqoridagi ta'riflarni hisobga olib, shaxsni ifodalovchi grammatik strukturaning asosini aynan ot so'z turkumi tashkil qila oladi desak, mubolag'a bo'lmaydi.

*Saida u odamlardan har nima kutish mumkin degan ma'noda jilmayib bosh chayqadi. Arslonbek Qalandarov – “Bo'ston” kolxozining raisi, mashhur raislardan bo'lib, o'tgan hafta kolxozdan rayonga mashina haydab ketayotganida yo'lini to'sgan militsioner bilan janjallashgan, uni urib, yiqitib o'tgan edi. (A.Qahhor “Sinchalak”)*

Son kategoriyasi ham o'zbek tilida shaxsni ifodalovchi muhim vositalardan bo'lib hisoblanadi. Son egalik kategoriyasi shaklidan ham oldin qo'shilib, grammatik miqdor ma'nosini ifodalovchi tuzilishlar sistemasidir. U ikki: birlik va ko'plik shakllaridan iborat so'z birikmasidir.

*Saida telefonga javob beradimi, kelgan – ketgan odamlar bilan muomala qiladimi, qo'lida qog'oz kapalakday uchib, hali u eshikka, hali bu eshikka kirib chiqadimi- boshida xayol arimay qo'ydi: gimnastyorka va etik kiyib dalalarni aylanadi, qayerga borsa kolxozchilar o'rab olishadi. (A.Qahhor “Sinchalak” 13-bet).*

Mantiqiy miqdor bilan grammatik miqdor oz'aro bir-biridan farq qiladi. Mantiqan atoqli ot bo'lib kelgan so'z yakka predmetni atab turadi: *Ali bobo bundan ko'p yillar muqaddam xotinini so'yib tashlagan, Saida ham shu xolasi To'tinisoning qo'lida o'sgan.* Turdosh ot esa, turning nomi sifatida, o'z-o'zidan, mantiqan bittadan ortiq predmetni nomlay oladi. Shu bilan bir vaqtda turdosh ot yakka predmetni ham anglatib keladi. Masalan: *Dalani aylandim* deganda shaxs birlikda, chunki -m qo'shimchasi orqali fe'l tuslanib kelgan, ot esa ham birlik, ham ko'plikni anglatishi mumkin, *dalalarni aylandim yoki dalani aylandim.*

Ko'rinadiki, atoqli otning yakka predmetni atashi leksemaning semantik xususiyatiga bog'liq, turdosh otning yakka yoki ko'p predmetni anglatishi esa, leksemaning semantik xususiyatidan tashqari, nutq situatsiyasiga, kontekstga bog'liq.

O'zbek tilida son kategoriyasining yagona -lar qo'shimchasi ko'plik shaklini tashkil qiladi. Bu morfemaning ish doirasi ancha kengayib, u hozirgi o'zbek tilida ko'plikni, ko'plikka bog'liq ma'nolarni, shuningdek ko'plik va son kategoriyasidan tashqari chiqadigan ma'nolarni ham ifodalaydi. Aslida -lar affiksi asosida paydo bo'lgan, ammo son kategoriyasi doirasida emas, balki egalik kategoriyasi doirasida shakllangan maxsus hurmat shakli mavjud, bu shaklni aytib o'tilgan ikki grammatik kategoriyadan ajratib olib, alohida mustaqil shakl sifatida talqin qilish lozim. Endi esa -lar atoqli otlarda kelishiga bir nazar salsak. Ular orasida -lar qo'shimchasini oluvchilar ham, -lar qo'shimchasini olmaydiganlar ham mavjud. Masalan tabiatda yagona bo'lgan: Yer, Osmon, Quyosh, Oy kabilar -lar qo'shimchasini olmaydi, chunki ular o'z semantik xususiyati asosida yakka mavjudotni anglatib keladi.

Ba'zan shaxsni ifodalovchi otlarni o'zbek tilida kishi otlari deb ham yuritilishi haqidagi farazlar ham uchray turadi. Unga ko'ra otlarni kishi otlari va narsa otlari deb guruhlash keng tasnif nuqtasi bo'lib, atoqli otlarni ham, turdosh otlarni ham qamrab oladi. Son jihatidan atoqli otlarda alohida xususiyat borligi sababli kishi atoqli otlari ham o'sha yerda tasvirlanadi. Ular jam va dona kishi otlariga bo'linib, shaxsni bildiradi. Dona kishi otlarning ko'pi konkret yakka sanaluvchi ma'no turiga to'g'ri keladi. Bunday otlarga ota. Kelin, qiz, chol, direktor, singil, opa, xola, ...kabi qator misollarni keltirish mumkin. Masalan: *Chol yerga qaraganicha, g'am- g'ussaga to'la bir kuyni xirgoyi qilib, Karimaning oldidan o'tib ketdi. (A.Qahhor “Sinchalak” 16-bet)*

Ona tilimizda son bilan ifodalangan shaxsni anglatib keladigan sifatlovchilarga ham duch kelamiz. Bunday holda ular aniqlik miqdoriga urg'u bo'lib keladi.

- *O'zlari nima ish qiladilar? - dedi Saida.*

- *Kolxozda hisobchi...ikki bola ko'rdik. Bolalarimizning kattasi o'n oltiga qadam qo'ydi.*

O'zbek tilida shaxsga ishora qilib keladigan so'zlar ya'ni otlar qatoriga olmoshlar ham kiradi, asosan kishilik olmoshlarini nazarda tutaymiz. Kishilik olmoshlarini shaxs va son ma'nosini ham bildiradi. Shu o'rinda kishilik olmoshlarini tahlil qilib o'tmoqlikni afzal ko'rdik.

**-men:** I-shaxsni anglatib kelib, quyidagi morfologik vositalar bilan birikadi: *-man, -miz, -m, -k, -(a)y* va *-(a)ylik* yordamida yasaladi. Masalan:

- *Hayron bo'lishingizni bilar edim, lekin qo'rqib ketarsiz deb sira o'ylamagan edim*

- *Axir men...qo'limdan kelmaydi.*

- *Qayoqdan bilasiz? Sekretar bo'lib ko'rganmisiz?*

- *Meni Qalandarov pisand qilarmidi?....*



*Qalandarovning kuch va talantini kerakli tomonga yo'naltiramiz.*

**-sen:** II-shaxsni bildirib, quyidagi morfologik vositalar bilan birikadi: *-san, -sanlar, -siz, -sizlar, -ng, -ngiz, -nglar, -ngizlar, -laring, -laringiz, -(i)sh, -(i)ng, -(i)nglar, -(i)ngiz, -(i)ngizlar:* "Jon uka, rahbarga ro'para qilib erkak qaddimni bukma, qancha jarima olsang, ol", deb cho'ntagini tutibdi.

**-u, biz:** III-shaxsda esa aniq va ma'lum qo'shimchalarni ayta olmaymiz. Mayl va zamon qo'shimchalari ayni paytda shaxs ko'rsatkichi vazifasini bajaradi. Masalan: **-di** qo'shimchasi xabar maylining o'tgan zamon ko'rsatkichi bo'lishidan tashqari III-shaxsni ham ko'rsatadi. **-sin** qo'shimchasi buyruq yoki istak bilan birga III-shaxsni ham ifoda etadi. *Pisand qilmasa, cho'qimaydi, demak, biz boshqa narsaga alahsiramasdan ishimizni qilavaramiz: partiya tashkilotini jonlantiramiz. Qalandarovning kuch va talantini kerakli tomonga yo'naltiramiz. Sen-u men o'z toshimizga bir botmon bo'lib yuribmiz-da, buning toshi bilan tortilsak, posangiga yaramaymiz.* (A.Qahhor "Sinchalak" 16-bet).

Demak, shaxsni tasdiqlab keladigan kishilik olmoshlaridan tashqari, gapning kesimi qabul qiladigan qo'shimchalardan ham qaysi shaxsga ishora qilayotganini aniqlab olish mumkin. O'zbek tilida gap bo'lishi uchun aynan fe'l so'z turkumi katta rol o'ynaydi.

*Keldi. Aytmadimmi, mana shunaqa qoqinaman-da...* Shu o'rinda ona tilimiz – o'zbek tilining tejamkorlik xususiyatiga boy til ekanligini ham eslatib o'tishni joiz deb bildik. Garchi yuqoridagi gaplarda aynan shaxsni ifodalab keladigan so'z berilmagan bo'lsada, kesimlar qabul qilgan qo'shimchalar shaxslarga ishora bo'lib kelyapti.

G'.Zikrillayevning ta'kidlashlaricha hozirgi o'zbek adabiy tilida fe'l turkumida shaxs, son va hurmat ma'nolari bir xil shakl tizimi bilan ifodalanadi. Bunda shaxs yetakchi va asosiy hisoblanadi. An'anaviy tilshunoslikda u barcha tadqiqotda olib qaraladi. Son aksariyat ishda shaxs bilan uzviy bog'langan deb chiziqcha qo'yib (shaxs-son tarzida) yoziladi. Hurmat kategorial ma'no deb qaralmaganidan shakllari izchil o'rganilmagan. Holbuki eng kichik shakl (fe'ning o'zagi) da uchala kategorial ma'no mayl va zamon bilan birgalikda o'z ifodasini topadi. Bunday holda tejamkorlik yuqori darajada zarur bo'ladi. Ayrim yasama shaklda ham beshala kategoriya bitta qo'shimcha (masalan *-di*) orqali ifodalanadi. Uchala kategorial ma'noni birgalikda ifodalaydigan qo'shimcha tizimi ham mavjud.

Shaxs ma'nosi mazkur shakllarning barchasida belgilangan bo'lib, predikativlikni (kesimlilik) shakllantirishda zarur unsuri sifatida ishtirok etadi. Shaxs fe'l o'zaginging lug'aviy ma'nosiga ko'ra inson va boshqa jonli, jonsiz mavjudotni anglatadi. Bu uning *lisoniy* xususiyatidir. Nutqiy amal (nutq akti) yoki kommunikatsiya jarayonida fe'ning mazkur shakllari *so'zlovchi, tinglovchi va o'zga* vazifasini bajaradi. Bular grammatikada I, II, III shaxs deb yuritiladi. Fe'l shakllarining morfologik tasnifi shu asosda amalga oshiriladi. Mayl va zamon kategoriyasida ham bu tasnif inobatga olinadi (II-shaxsdagi buyruq mayli shakli kabi)

Nemis tilida shaxs boshqa tillarda bo'lgani kabi olmoshlar bilan ham ifodalaniladi. Nemis tilidagi olmoshlar ob'yektni yoki shaxsni ko'rsatadigan va ularni aytmasdan almashtira oladigan nutq qismidir.

„**Du, ihr, Sie**“ kishilik olmoshlari nutq qaratilgan shaxsni anglatadi. Du kishilik olmoshi senlab gapirish uchun ishlatiladi. U bilan oila a'zolari, qarindoshlar, do'st- birodarlar, tanish- bilishlar, bir korxonalar yoki tashkilotga xizmat qiluvchilar, shuningdek bolalar bir-birlariga murojaat qilishadi.

„**Ihr**“ olmoshi nutq qaratilgan II-shaxs ko'plikni anglatadi. III shaxs ko'plik olmoshi „**Sie**“ birlik va ko'plikda hurmat shakli sifatida ham qo'llaniladi. Bunday paytda u bosh harf bilan yoziladi, biz quyida misollar yordamida ko'rsatib o'tishni joiz deb bildik.

*Tränen, die ich kaum beherrschen kann, drängen sich in meine Augen....Im Vorfrühling trier er immer schöne Blüten, aber nie hatte er Nüsse getragen.*(O'tkir Hoshimov „Kein Himmel auf Erde(Dunyoning ishlari)“).

Fikrimizga batafsilroq e'tobor qaratish maqsadida nemis tilida kishilik olmoshlarining har biriga alohida urg'u berib o'tmoqchimiz.

„**Ich**“ (men) – shaxsiy olmosh bo'lib, 1-shaxs, o'z shaxsi uchun ishlatiladi ya'ni o'zini belgilash uchun: siz va men, ikkalimiz ham buni birgalikda qila olamiz. Men charchadim, men kambag'alman

*Ich antwortete mechanisch....ich antwortete und dachte bei mir.*(O'Hoschimov „Kein Himmel“S.11.)

„**Du**“ (*sen*)– shaxsiy olmosh bo'lib, 2- shaxsga nisbatan quyidagi hollarda ishlatiladi 1. Tanish shaxs salom yo'llashda (masalan bolalarga, do'stga yoki biron bir qarindoshga, hamkasblarga chunki Sen deb murojaat qilish o'zaro yaqinlikni anglatadi) :

*Möchtest du ins Kino gehen? sen ham kinoga borishni xohlaysanmi?*

2. hayvonlar yoki narsa – predmetga qaratilgan murojaatda: Sendek ishlamaydigan moshinaning kimga ham keragi bo'ir

3. muloqot jarayonida shaxssiz olmosh sifatida ishlatiladi: og'zaki imtihonlar juda qiyin – deyarli u haqida hech nima deya olmaysan kishi.

4. Nemis tilida xat yozishda ba'zan sen, senga, sening yozuvlari bosh harf bilan yoziladi, bu esa hurmat ma'nosini bildirib keladi: men Sen bilan yozishganimdan xursandman, Senga oilamni tanishtirsam degandim.

**“Er”(u-mujskoy rod)-** 3-shaxsga ishora qilib, bir necha holatlarda ishlatiladi. 1. shaxsning kimligini yoki nima bilan mashg'ulligini aniqlab beradi: U ishchi, u esa o'qituvchi, u iqtisodchi...

2. shaxsning qayerlik ekanligini yoki qaysi gruppaga tegishli ekaniga ishora qilinganda: U Buxorolik, u Berlinlik,

3. tirik mavjudodlarni yoki narsalarni muhim xususiyatga ko'ra hatto raqam o'lchamiga ko'ra : tuyoqli hayvonlar, to'rt oyoqlilar, ..

**“Es”(u-sredniy rod)-** 3-shaxsni bildirib, 1. ot o'rnida kishi yoki narsani nomlash uchun (grammatik jihatdan sredniy rodga tegishli bo'lsa):

*Das Baby weint, nimm es doch auf dem Arm! Wo ist mein Kaninchen? Hast du es gesehen? Das ist ein grosses Problem, es wird nicht leicht zu lösen sein.*

2. ot fe'lga ergashganda sein yordamchi fe'li bilan er yoki sie o'rnida:

*Ich glaube, ich kenne den Mann da- ja, es (yoki er) ist mein Onkel. Da kommt jemand- es ist Herr Meyer*

3. jumlaning mazmuniga e'tibor qaratish uchun ishlatiladi:

*Er hat sein versprechen nicht gehalten.- Ich habe es leider auch nicht anders erwartet.*

*Die anderen waren alle erkältet- nur Martin war es nicht.*

4. **Es** shaxssiz olmosh sifatida ishlatiladi:

*Es klingelt. Mach doch das Fenster zu- es zieht. Es kommt auf das Wetter an. Es geht um Ihre Bewerbung.*

5. Ob-havoni ifodalaydigan fe'llar bilan birgalikda ishlatiladi:

*Es regnet/ es schneit/ es donnert/ es blitzt/ es dämmert.*

6. Majhul gaplarda otsiz konstruksiyalarda uchratishimiz mumkin:

*Es wurde viel gelacht.*

7. o'zaro gaplar ichida ergash gapning o'rinbosari sifatida ham kela oladi:

*Mir fällt es schwer, nein zu sagen. Yoki Ich kann es nicht verantworten, dass du hier allein bleibst.*

8. vaqtni anglatib kelgan gaplarda quyidagicha ko'rinishga ega bo'ladi: Es ist ein Uhr.

*Es ist schon Nacht.*

**“Sie”(u-jenskiy rod)-** ham 3-shaxsga ishora qilib, sie ham turli ma'nolarda kelishi mumkin. 1. 3-shaxs birlik olmoshi bo'lib, jenskiy rodga tegishli bo'lgan ot o'rnida ishlatiladi:

*“Hast du Gabi gesehen?”- “Ja, sie ist im Garten”. Pass auf, da ist eine Schlange, sie kann dich beissen. “Wo ist die Torte?”, -“Wir haben sie gegessen”.*

2. Bir necha shaxsni ko'rsatish uchun yoki otlar o'rniga keladi:

*Meine Eltern sind da. Sie sind vor einer Stunde gekommen.*

3. Hurmat formasi sifatida qo'llaniladi va bunday hollarda bosh harf bilan yoziladi:

*-Guten Tag, Frau Beier, kommen Sie herein. Möchten Sie etwas zu trinken? Meine Damen und Herren, darf ich Sie ins Nebenzimmer bitten?*

**“Wir”(bizlar)-** ham ko'p ma'nolidir. 1. 1-shaxs ko'plikda, ikki yoki undan ortiq insonga murojaat qilinganda:

*Wir gehen heute Abend ins Kino, weil wir freie Zeit haben.*

2. ba'zi hollarda muallif yoki ma'ruzachi 1-shaxsda gapirmagan holatlarda foydalanishi mumkin: *Im nächsten Abschnitt gehen wir auf dieses Problem noch näher ein.*

3. Ko'pincha kattalar bolaga murojaat qilganlarida yoki shifokorlar mijozlar bilan gaplashganlarida wir dan foydalanadilar:

*O, liebes Kind, wie haben wir heite Nacht geschlafen?*

**“Ihr”(sizlar)** 2-shaxs ko'plikda qo'llaniladi:

*Kommt ihr mit zum Baden?*

**Xulosa.** Muxtasar qilib aytadigan bo'lsak shaxs, son va hurmat shakllari aniqrog'i qo'shimchalarining morfologik xususiyatini turli nuqtayi nazardan o'rganish mumkin. Jumladan, ularning so'z tarkibida boshqa morfemalarga nisbatan qo'llanadigan o'rnini aniqlash, ya'ni distributiv tahlil qilish yoki tuslanishli shakllarni hosil qilishdagi o'ziga xosliklari jihatidan olib qarash mumkin. Bundan tashqari mazkur shakllarning tuzilishi, tarkibi, shaxs, son va hurmat qo'shimchasiga ajralish- ajralmasligi nuqtayi

nazardan ham o'rgansa bo'ladi. Nemis tilshunosligi ham o'zbek tilshunosligidan farqli o'laroq gap tuzilish strukturasi jihatdan anchagina noo'xshashliklarni uchratishimiz mumkin. Ikkala tilda ham shaxsni olmoshlar orqali ifodalay olishimiz bilan, ulardagi farqlarni ham misollar yordamida tushuntirishga harakat qildik. Ushbu maqolada biz o'zbek va nemis tillarida shaxsga ishora qiladigan vositalarga nazar tashladik, xolos.

### ADABIYOTLAR:

1. Tursunov A.X., Tursunov Z.Z., Tojixo'jayev M.M.: *Lingvistika (nemis tili) magistratura mutaxassisligiga kiruvchilar uchun mutaxassislik fanlaridan DASTUR*, Namangan-2021
2. Qahhor A. „Sinchalak“, Toshkent „Global Books“ 2021
3. Professor Dr. Dieter Götz, Professor Dr. Günther Haensch, Professor DR. Hans Wellmann . *Langenscheidt Grosswörterbuch Deutsch als Fremdsprache. 2008- Langenscheidt KG, Berlin und München*
4. Astanov O., „Kein Himmel auf Erden“(O'.Hoshimov „Dunyoning ishlari“ trjimasi) 5. Sh. O. Kuvanova „Nemis tili grammatikasi dan universal qo'llanma“, Toshkent „Akademnashr“- 2013
6. Karimov Sh.. *Nemis adabiyoti tarixi. Toshkent-2010*
7. Saidov S.: *Deutsche Grammatik in Übungen. „O'zbekiston“ Toshkent-2003*
8. [http:// www. Ziyonet](http://www.Ziyonet) – O'zbekiston internet tarmog'i
9. Hoshimov O'. „Dunyoning ishlari“, |Toshkent-2023
10. *O'zbek tili grammatikasi, I tom, Morfologiya, „Toshkent- 1975“*
11. [http:// www. Google. De](http://www.Google.De)
12. [http:// www. Librarybooks.ne](http://www.Librarybooks.ne)
13. [www. google.de](http://www.google.de)
14. [www. Lehrer-online.de](http://www.Lehrer-online.de)
15. [www. Fachdidaktik – ienecke. De](http://www.Fachdidaktik-ienecke.De)
16. [www. Paperball. De](http://www.Paperball.De)

## MATN TILI VA TARJIMA MUAMMOLARI

**Raxmonova Yulduz Xusanovna,**  
*Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika  
universiteti mustaqil izlanuvchisi, assistent  
yulduzrahmonova91@gmail.com*

**Annotatsiya.** Tarjima tushunchasining ma'nosi juda keng. Tarjima deganda biz faqatgina badiiy asar tarjimasini tushunishimiz noo'rin bo'ladi. Tarjimaning ahamiyati turli sohalar rivojida, millatlar muloqoti, hamda ularning madaniyati rivojlanishini o'rganishda va hokazolarda behad kengdir. Tarjima jarayonida ikki holat yuz beradi: tarjima qilinayotgan narsani dastavval tushunish, aniqlash va talqin qilish kerak. Bu ona tilida sodir bo'ladi - bunda tarjima unsurlari yuz beradi. Ikkinchidan, tarjima qilish uchun asar o'girilayotgan tilda muvofiq ifoda vositalarini topish lozim. Tarjima jarayonida tarixiy va madaniy merosga hurmat va e'tibor bilan yondashish, ma'lumotlarni ijtimoiy va madaniy nuqtayi nazaridan farqlay olish, badiiy tarjimani amalga oshirishda mantiqiy ketma-ketliklardan foydalana olishni shakllantirish kerak.

**Kalit so'zlar:** supersintaktik butunlik, leksik-grammatik birlik, asl nusxa, tarjima sohasi, matn ma'nosi, badiiy tarjima.

## ЯЗЫК ТЕКСТА И ПРОБЛЕМЫ ПЕРЕВОДА

**Аннотация.** Значение понятия «перевод» очень широкое. Под переводом было бы неуместно понимать только перевод художественного произведения. Значение перевода чрезвычайно велико в развитии различных отраслей, в изучении диалога народов, их культуры и развития и т.д. В процессе перевода возникают две ситуации: то, что переводится, необходимо сначала понять, идентифицировать и интерпретировать. Это происходит на родном языке - в нём происходят элементы перевода. Во-вторых, для перевода необходимо найти соответствующие средства выражения на языке, на который обращается произведение. В процессе перевода необходимо формировать уважительное и внимательное отношение к историческому и культурному наследию, умение дифференцировать информацию с социальной и культурной точек зрения, умение использовать логические последовательности при осуществлении художественного перевода.

**Ключевые слова:** суперсинтаксическое целое, лексико-грамматическая единица, оригинал, область перевода, значение текста, художественный перевод.

## TEXT LANGUAGE AND TRANSLATION PROBLEMS

**Abstract.** The meaning of the concept of translation is very broad. By translation, it would be inappropriate to understand only the translation of a work of art. The importance of translation is extremely great in the development of various industries, in the study of the dialogue of peoples, their culture and development, etc. Two situations arise in the translation process: what is being translated must first be understood, identified and interpreted. This happens in the native language-the elements of translation occur in it. Secondly, for translation it is necessary to find the appropriate means of expression in the language into which the work is addressed. In the process of translation, it is necessary to approach the historical and cultural heritage with respect and attention, to be able to distinguish information from the social and cultural point of view, to use logical sequences in the implementation of artistic translation.

**Keywords:** supersyntactic whole, lexical and grammatical unit, original, translation area, meaning of the text, literary translation.

**Kirish.** Matn lingvistikasi. Matn mantiqiy ketma-ketlikda rivojlanishni va leksik jihatdan tugallangan ma'noga ega bo'lishni taqozo etadigan og'zaki nutqning qog'ozga tushirilgan yozma variant bo'lib, bunda ma'no jihatdan bog'langanligiga va yaxlitligiga alohida ahamiyat beriladi. Matnning gaplar o'rtasida va gaplaming leksik-grammatik birligi asosida bog'lanishlilik va yaxlitlik yuzaga keladi. Matn lingvistikasining asosiy jihatlaridan biri bu matnda gaplar zanjiri hamda ularning ketma-ket bog'lanishidir. Bu hodisaz matn shakillanolmasligini G'arb tilshunoslari muntazam ravishda ta'kidlaydilar.

Matn deyiladigan butunlik, yaxlitlikni paydo qiladigan gaplar o'rtasidagi barcha jihatlardan, ya'ni semantik, sintaktik, kommunikativ, estetik va yana boshqa barcha jihatlardan uyg'unlikdir, muvofiqlashuvdir. Gaplarning ana shunday uyg'unligi, muvofiqlashuvining natijasi sifatida matn mavjud bo'ladi. Ana shu bir-ikki mulohazadan kelib chiqib, matnning asosiy birligi gapdir.

Ba'zi tilshunoslar gapni uzil-kesil "matnning minimal birligi" deb hisoblaydilar. Bu munosabat bilan M.Y. Bloxning mulohazalari alohida e'tiborga molik. Uning fikricha, yaxlit tekst strukturasi bevosita elementi faqat frazadan katta birlik, ya'ni gaplarning qo'shilmasigina emas, balki ayni paytda matn tuzuvchi tomonidan mazmunan muhim maqomga qo'yilgan alohida gaplar hamdir. Bunday gaplarning ayni maqomi monologik yozma nutqda ulami alohida abzas sifatida ajratishni taqozo etadi.

**Asosiy qism.** Matn abzasining matn tarkibidagi o'rni, mohiyati hamda tabiati matn lingvistikasini, ya'ni matn birliklarini aniqlashdagi eng muhim jihatlari va behad ko'p izlanishlar olib borilgan muammolardan biridir. Tarjimadagi qiyinchilik shundan iboratki, mazmun ham, uslub ham asl nusxada allaqachon mavjud va natijada siz ularni butunlay boshqa tilda bo'lgani uchun takrorlash uchun qo'lingizdan kelganini qilishingiz kerak bo'ladi. Tarjimonlar duch keladigan eng o'ziga xos muammolar: o'qib bo'lmaydigan matn, yetishmayotgan havolalar, grammatikaning bir nechta konstruksiyalari, dialekt atamalari va neologizmlar, irratsional noaniq terminologiya, tushunarsiz qisqartmalar, tarjima qilib bo'lmaydigan so'zlar, ataylab noto'g'ri nomlash, alohida madaniy havolalar va boshqalar. Shunga qaramay, bu yerda "so'zma-so'z tarjima" mumkin emas deb o'ylaydigan ba'zi nazariyotchilar bor. Ular o'z pozitsiyalarini qo'llab-quvvatlovchi uchta asosiy sababni ko'rsatadilar:

1. Chunki bir tildagi ma'lum bir so'z ko'pincha boshqa tildagi bir nechta so'zlarni o'z ichiga olgan ma'nolarni ko'rsatadi;

2. Grammatik tushunchalar (fe'l zamonlari, birlik/ikki/ko'plik, hol belgilari va boshqalar) har bir tilda mavjud emasligi sababli;

3. Chunki bir til va madaniyatga mansub idiomalar boshqa til va madaniyatdan bo'lgan so'zlovchilarni mutlaqo hayratda qoldirishi mumkin.

O.I. Moskalskaya supersintaktik butunlik va abzasni solishtirar ekan, supersintaktik butunlikning sintaktik mohiyatga ega hodisaligini, abzas esa kompozitsion sath birligi ekanligini ta'kidlaydi. Olimaning qarashlaridan shuni anglash mumkinki, supersintaktik butunlik gaplar ishtrokida shakillanadi, bulardan tashqari matnda yakka gaplar ham bo'lib, ular erkin gaplar hisoblanadi, abzaslar esa bu ikkisining yoki bularning alohida ishtrokida tuzilib bitta kompozitsiyani hosil qiladi.

**Tarjimaning til muammolari.** Bugungi kunda tarjima xalqlar o'rtasida do'stlik va hamkorlik o'rnatilishida, ilmiy-texnik taraqqiyotning jadallashuvchida, madaniyat, san'at va adabiyotlarning bir-biriga ta'sirida, tillarning boyishida beqiyos ro'l o'ynaydi.

Tarjima tushunchasining ma'nosi juda keng. Tarjima deganda biz faqatgina badiiy asar tarjimasini tushunishimiz noo'rin bo'ladi. Tarjimaning ahamiyati turli sohalar rivojida, millatlar muloqoti, hamda ularning madaniyati va rivojlanishini o'rganishda va hokazolarda behad kengdir. Jumladan, adabiyotda, sohalariga oid ilmiy va ilmiy ommabob kitoblar tarjimasida, tashqi ishlar hujjatlari, rasmiy qog'ozlar, arboblarning maqolalari va notiqning nutqlari, gazeta materiallari tarjimasida va boshqalarda tarjima sohasining xizmati beqiyosdir.

Har qanday tarjima oldiga ikki talab qo'yiladi: - aslida ifodalangan fikr tarjimada ham to'la, aniq va ta'sirchan tarzda o'z akasini topishi kerak; - tarjima o'ziga o'girilgan til me'yorlariga mos kelishi kerak. Tarjima jarayonida ikki holat yuz beradi: tarjima qilinayotgan narsani dastavval tushunish, aniqlash va talqin qilish kerak. Bu ona tilida sodir bo'ladi - bunda tarjima unsurlari yuz beradi. Ikkinchidan, tarjima qilish uchun asar o'girilayotgan tilda muvofiq ifoda vositalarini topish lozim. Bular: so'z, so'z birikmalari, grammatik shakllar. Tarjima qilinayotgan matn yoki nutqning qandayligidan qat'i nazar, bir tildan boshqasiga o'girilayotgan har qanday tarjima uchun umumiy bo'lgan ikki holat bor:

1. Tarjimonning maqsadi - asl nusxa tilini bilmagan kitobxon (yoki tinglovchi) ni o'sha asar matni (yoki og'zaki nutq mazmuni) bilan iloji boricha to'la, mukammal tanishtirish.

2. Tarjima qilish - muayyan til vositalari bilan bir karra ifoda etilgan narsani boshqa til bilan aniq va to'la ifodalash demakdir (Tarjima - qayta ishlash, qayta hikoya qilib berish, qisqartirib bayon etish, nazira, tatabbu', taqlid, har xil "adaptatsiya" lardan o'zining xuddi ana shu aniqligi va to'laligi bilan farq qiladi).

Muayyan bir matn ma'nosini asl nushasidan qochmasdan tarjima qila olish uchun faqatgina til bilish yetarli emas. Tan olish kerak, tarjimaning eng birinchi shartlaridan biri bu til bilishdir, biroq muallifning matnda ko'zda tutgan maqsadini, hamda uning mazmunini o'ziga tilda ifodalab berish uchun boshqa ko'pgina holatlardan xabardor bo'lish kerak. Bular tarjimashunoslikda g'ayrilisyoniy omillar deyiladi.

Tarjima tarixida qilingan ishlarning ham ijobiy, ham salbiy jihatlari zamonlar o'tishi bilan ro'yobga chiqib kelgan. Badiiy tarjima va adabiy an'ana. Badiiy tarjimoni ilmiy tavsiflash shundan iboratki, bunda so'zni so'z bilan emas, balki ma'noni ma'no bilan, ohangni ohang bilan, obrazni obraz bilan, yumorni yumor bilan berish muhim ahamiyatga egadir. "Badiiy tarjimaning boshqa turdagi tarjimalaridan farqi shundaki, so'z, jumla yoki butun bir asarni to'g'ri o'girish kifoya emas. Bunda tarjimon ham san'atkor bo'lishi lozim" Tarjimonlar o'zga milliy adabiyotlarda mavjud bo'lgan eng sara, katta ijtimoiy, adabiy-estetik va tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan kitoblarni o'z tillariga ag'darishga oshiqadilar. Badiiy tarjima, o'z navbatida, she'riy va nasriy tarjima turlariga bo'linadi. Ular ham badiiy adabiyotning janrlariga qarab she'r, dramatik asarlar, roman, qissa, hikoya va hokazo tarjima yo'nalishlariga bo'linadi. Har bir yo'nalishning yuqoridagi 20 ikki tur talablaridan kelib chiqib, umumiy va farqli jihatlari mavjud. Bu jihatlari aslyat mansub bo'lgan qonun-qoidalarni belgilab beradigan mezonlarga bog'liq yondashuvlar mohiyatidan kelib chiqadi. Badiiy tarjimaning boshqa turlariga qaraganda she'riy tarjima "ko'proq" san'atdir. She'riy tarjima badiiy tarjimaning oliy navi desa bo'ladi.

Nasriy asarlar tarjimasiga yozuvchilardan tashqari professional tarjimonlar ham jur'at etadilar. Ammo she'riy tarjima – bu aksariyat shoirlar, shoir-tarjimonlar ishidir. To'g'ri, ahyon-ahyonda ilgari nasriy asarlar tarjimasiga bilan tanilgan tarjimonlar yoxud olimlar ham nazm tarjimasiga qo'l urganlar. Masalan, atoqli turkolog olim Sergey Nikolaevich Ivanov Alisher Navoiyning "Lisonut-tayr" dostonini qadimgi o'zbek tilidan ruschaga tarjima qildi. Talantli tarjimon Qodir Mirmuhammedov Gomerining mashhur "Illiada" sini, atoqli yozuvchi Oybek A.S. Pushkinning "Evgeniy Onegin" she'riy romanini o'zbek tiliga o'girdilar. Abulqosim Firdavsiyning "Shohnoma" sidan uch jildi Hamid G'ulom, Shoislom Shomuhammedov, Jumaniyoz Jabborov, Nazarmat tarjimasiga tufayli xalqimizning qo'lga tegdi. Badiiy tarjima nazariyasi tarjimonga aniq tamoyillar asosida harakat qilish, o'z mahoratini takomillashtirishga yordam beradi. Tarjima tarixini kuzatadigan bo'lsak, badiiy tarjimada ikki yondashuv – tilshunoslik va adabiyotshunoslik yo'nalishi mavjudligini aytib o'tishga to'g'ri keladi. Tilshunoslar tarjima qonuniyatlarini leksik, grammatik va matniy muvofiqliklar ichidan izlaydilar. Adabiyotshunoslar esa asosiy e'tiborni tarjimaning aksiologik jihatlari, ya'ni matnning g'oyaviyestetik va badiiy fasohatiga qaratadilar. Ular uchun muhimi badiiy matnda estetik ekvivalentlikka erishishdir.

Tarjimada aslyatdagi kabi estetik ta'sirni hosil qilish, badiiy obrazni to'liq gavdalantirish ayrim hollarda tarjimonni jumla qurilishlarini o'zgartirishga, tarjimaning turli usullarini qo'llashga majbur qilishi mumkin. Biroq ekvivalentlik tamoyillarini buzishi va holatli manzaradan uzoqlashishi mumkin emas. Ko'p asrlik adabiy an'anaga ega bo'lgan milliy adabiyotlarning hammasida ham tarjima o'ziga munosib o'rinni ishg'ol qiladi. Binobarin, dadil aytish mumkinki, tarjima tarixini yaratmay, tarjimaning har bir davrda qanday qonuniyatlar asosida rivojlangani, ayni milliy adabiyot taraqqiyotida qanday tarjima maktablari tashkil topganligi va bu tarjimalar jahon madaniyatini rivojlantirishda qanday ro'l oynaganini aniqlamay turib, o'sha milliy adabiyot tarixini to'la, mukammal yoritish mumkin emas. O'zbek klassik adabiyotida ayrim badiiy-estetik hodisalar original ijodga qaraganda ertaroq, badiiy tarjima tufayli sodir bo'lganligi ko'zga tashlanadi. Chunonchi fors-tojik adabiyotida an'ana tarzida shuhrat qozongan xamsachilik o'zbek adabiyotida ilk daf'a tarjima adabiyoti sifatida kirib keldi. Alisher Navoiyning zabardast "Xamsa"si yozulguncha Nizomiy Ganjaviyning "Panj ganj" Tarkibida "Mahzanul asror", "Xusrav va Shirin", "Iskandarnoma" dostonlari o'zbek tiliga XIV asrning o'rtalari va XV asrning boshlarida o'girilgan edi. Bu tarjimalar o'zbek adabiyotida xamsachilik an'anasining qaror topishida muhim omil bo'lganligi shubhasiz. O'zbek-nemis adabiy aloqalarining shakllanishi, ilk tarjima manbalari. Dunyodagi har bir xalq o'z odati, an'analari va madaniyatiga ega.

Aynan bir ijtimoiy haqiqatni yoritayotgan ikki til bir-biridan farqlanadi. Turli jamiyatlarda yashovchi kishilar dunyoni - o'zlariga xos ravishda ko'radilar, - degan edi Edvard Sepir. Sepirning bu g'oyasi keyinchalik Benjamin Li Uorf tomonidan tasdiqlangandi. Ular adabiyot va san'atni umummilikda xuddi 2 tizimi, ya'ni ular tilning 1 yasovchi tizimidan vujudga kelgan va xuddi Sepir yoki Uorf aytganidek, til madaniyatsiz bo'lishi mumkin emas. Til yurak bo'lsa, madaniyat tana va ulaming o'zaro faoliyati hayot energiyasining davomiyligini vujudga keltiradi. Ya'ni yurakni operatsiya qilayotgan jarroh, uni o'rab turgan tanani nazarga olmay iloji yo'q. Tilshunos Roman Yakobson o'zining maqolasida tarjimaning uch turini ko'rsaladi:

1. Til ichida tarjima yoki qayta nomlash (bir tilda og'zaki belgilami boshqa belgilar orqali izohlash);
2. Tillararo tarjima yoki tarjima (og'zaki belgilarni boshqa tilda ifodalash);
3. Ma'nolararo tarjima.

Sinonimlar lug'ati so'zga to'liq sinonim yoki vaziyatga qarab qo'llanuvchi sinonimlarni beradi, ammo har ikki holatda ham absolyut sinonim bo'lishi mumkin emas. Chunki to'liq ekvivalent hech qaysi kategoriyada ishtirok etolmaydi. Yakobson fikrka, barcha she'riy tarjimalar to'liq tarjima emas.

Tarjima san'ati dunyo madaniyati rivojida muhim rol o'ynagan va o'ynab kelmoqda. Tarjima tobora o'sib borayotgan, bir tilning jozibasini boshqa tilga ko'chiruvchi va o'quvchilarning hurmatini qozonishni maqsad qilib qo'ygan aqliy ijodiy faoliyatdir. Madaniyat tushunchasi inson faoliyatining uch turiga qaratilgan:

- biz individual tarzda fikrlaganimiz va harakat qilganimiz uchun shaxsiy;
- biz guruh bo'lib faoliyat yuritganimiz uchun - kollektiv;
- jamiyat o'zini aks ettirgani uchun - ifodaviy.

Til - ijtimoiy bo'lib, usiz ijtimoiy faoliyat yo'q. Tarjima jarayonida xorijiy madaniyat bilan yuzlashamiz. Shu sababdan ham, farjimada muvaffaqiyatimiz xorijiy madaniyatni qanchaJik tushunishimizga bog'liq, zero tarjima madaniyatlararo hodisadir.

Ma'naviy madaniyatning ajralmas bir qismi bo'lgan adabiyot ham shular jumlasiga kiradi. Adabiyot – hayot ko'zguisi ya'ni bu xalqning orzu umidlari, o'y hayollari va turmushdagi real voqe'likni o'zida aks ettirgan bebaho xazinadir. O'zbekiston va Germaniyaning adabiy aloqalari – ikki qardosh xalqni tenglikka asoslangan serqirra aloqalarining muhim sahifalaridan biri bo'lib hisoblanadi. Adabiy va madaniy aloqalar va ularning xalqlarni yaqinlashtirishdagi roli qanday? Hech kimga sir emaski, adabiy va madaniy aloqalar – o'z-o'zidan xalqlarning ma'naviy xazinasining boyishida asosiy manba bo'lib hisoblanadi. Evropaning, jumladan olmon xalqining adabiy me'rosini o'rganish va tadqiq qilish biz uchun qanchalik maroqli va foydali bo'lsa ajdodlarimizning bizga qoldirgan bebaho ma'naviy merosi Evropaliklar uchun ham shunday ahamiyatga egadir. Bu aloqalar tarixiga nazar tashlar ekanmiz, yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, Evropada O'rta Osiyo adabiy merosini o'rganilishi ancha uzoq davrlarga borib taqalganining guvohi bo'lamiz. O'rta Osiyoda esa bu ishlar asosan XX asrning 20 – yillarida jadidlar tomonidan yo'lga qo'yildi va rivojlantirildi. Shu yillarda yashab, faoliyat ko'rsatgan Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitratlarning bu borada olib borgan ishlari albatta diqqatga sazovar va taxsinga loyiqdir. Jumladan yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, Abdurauf Fitratning “Hind ixtilochilari” asari 1923 – yil Berlinda nashr qilinishi ham bu aloqalarning rivojlanishiga muhim hissa bo'lib qo'shildi. Agar jadidlik harakati Sobiq Sovet Ittifoqi tomonidan barham berilmaganda edi, bu borada juda ko'p keng ko'lamlilik ishlar amalga oshirilgan bo'lur edi. Zero, jadidlar boshqa xalqlarning ilmi, jumladan adabiy merosini o'rganish orqali xalqimizning ma'naviy ongi va madaniyatini yuksaltirish va shu yo'l bilan yuksak taraqqiy etgan, ozod va obod davlat qurishni o'z oldilariga maqsad qilib qo'ygan edilar. O'zbekiston Sobiq SSSR tarkibida bo'lgan davrlardagi adabiy aloqalari haqida to'xtaladigan bo'lsak bu davrda ko'pgina nemis yozuvchilari asarlari asosan rus tilidan tarjima qilindi. Bunga misol qilib Erkin Vohidov tomonidan Iogann Volfgang Gyotening “Faust” asarini o'zbek tiliga tarjima qilinganligini ko'rsatishimiz mumkin.

G'. Salomovning yozishicha, “tarjima, shubhasiz, lisoniy boshqa ko'pginay faoliyatga asoslanadi, lekin sof til tafovutlarini bartaraf qilish tarjima jarayonida bosib o'tiladigan bir bosqichdir, xolos. Tarjima ikki grammatika (grammatik sistema), tarixan tarkib topgan ikki uslubiy sistema, ikki tarixiy-adabiy an'ana, ikki she'riy sistema, ikki individual yozuvchi - avtor va tarjimonning qiyos qilinishi yoxud to'qnashuvini taqozo etuvchi ijodiy jarayondir”

Badiiy tarjima bilan shug'ullanadigan tarjimondan nafaqat xorijiy tilni puxta egallashi, balki shu til tarixini, madaniyatini, xalqaro madaniy aloqalarga oid bilimlarni, psixologiya sohasini, xalqlar va dinlar tarixini bilishi ham talab etiladi.

Tarjimon chet tilida yozilgan manbaning ma'nosini tushunib qabul qilish bilan birga, undagi madaniy, milliy ko'rsatgichlarni ham anglay oladigan darajada bo'lishi kerak. Buning uchun tilmochlikka da'vogar shaxs muayyan xorijiy tilni puxta o'rganish bilan birgalikda, uning mamlakatshunosligini, adabiyotini, madaniyatini ham o'rganishga jiddiy e'tibor berishi kerak.

**Xulosa.** Natijada bo'lajak mutaxassis xorijiy tildagi matni har tomonlama baholayoladi, hamda tarjima jarayonida tarixiy va madaniy merosga hurmat va e'tibor bilan yondashadi, ma'lumotlarni ijtimoiy va madaniy nuqtayi nazaridan farqlay oladi, badiiy tarjimani amalga oshirishda mantiqiy ketma- ketliklardan foydalana olishni shakllantira oladi. Bundan kelib chiqadiki, yuqorida sanab o'tilgan ilmlarni o'zida jamlagan tilmoch asl matndagi mohiyatni buzmasdan tarjimada to'g'ri ochib bera oladigan professional darajaga yetadi.

Shu o'rinda tilshunos olim Salomov G'. ni tarjima borasidagi fikrini eslab o'tish joiz: “Asl nusxa bilan tarjima tili bevosita bir-biriga teng emas. Ikki tilning lisoniy imkoniyatlari bir-biriga “ekvivalentlik holatida bo'lmaydi. Shu sababdan ko'r-ko'rona tarjima qilish mumkin emas. So'zlarning aniq mazmuni

bilan estetik sifatlari o'zaro bir-birining o'rnini qoplay olmaydi. Shuning uchun ham matnning tili qanchalik serma'no, badiiy tarafdin serjilo bo'lsa, tarjima shunchalik qiyinlashadi".

### ADABIYOTLAR:

1. Raxmonova, Y. (2023). *Semantik o'zgarishga ta'rif*. *Журнал иностранных языков и лингвистики*, 5(5).
2. Raxmonova, Y. (2023). *Adabiyotda monolog va personajlar kechinmasi ("Chol va dengiz" romani misolida)*. *Журнал иностранных языков и лингвистики*, 5(5).
3. Raxmonova, Y. (2023). *Matn va uslub*. *Журнал иностранных языков и лингвистики*, 5(5).
4. Raxmonova, Y. (2023). *Vadiy matnni struktural tahlil qilish*. *Журнал иностранных языков и лингвистики*, 5(5).
5. Raxmonova, Y. (2023). *Konsept tushunchasi*. *Журнал иностранных языков и лингвистики*, 5(5).
6. Raxmonova, Y. (2023). *Semantik o'zgarishga ta'rif*. *Журнал иностранных языков и лингвистики*, 5(5).
7. Ataeva, G. B., & Kh, R. Y. (2022). *Application of Case Study Technology In Teaching Foreign Languages*. *Экономика и социум*, (4-3 (95)), 802-805.
8. Rahmonova, Y. (2020). *To Teach Vocabulary Through Games*. *Scienceweb academic papers collection*.
9. Khalikova, L., Tashpulatova, M., Ataeva, G., & Rakhmonova, Y. *The effects of assessment approach on learners' performance and collaborative dynamics in computer mediated writing*.
10. Rahmonova, Y. (2021). *Tillarga ixtisoslashmagan oliy ta'lim muassasalarida chet tilini o'qitish maqsadi*. *Таълим тизимида ижтимоий-гуманитар фанлар*.
11. Yuldasheva, D., Rakhmonova, Y., Sevara, A., & Gulchekhra, A. (2022). *Rethinking the Genre of Spiritual Autobiography in Richard Rodriguez's Darling*. *Multidisciplinary International Journal of Research Lines and Projects*, 12, 101-113.
12. Gulchekhra, A., Dilfuza, Yuldasheva, Yulduz, Rakhmonova, & Sevara, Atadjanova (2022). *A case study on approaches to easy-to read discourses*. // *Multidisciplinary International Journal of Research Lines and Projects*, 12, 136-151.
13. Rahmonova, Y. (2019). *How to develop the reading skill*.
14. Sevara, A., Dilfuza, Y., Gulchekhra, A., & Yulduz, R. (2022). *Basic Theoretical Concepts and Notions in Chomsky Hale Phonology*. // *Multidisciplinary International Journal of Research Lines and Projects*, 13, 21-26.
15. Rahmonova, Y. (2019). *Teaching large classes*.



## O'ZBEK VA NEMIS TILLARIDA O'TGAN ZAMONNING VOQELANISHI

**Ro'ziyev Yarash Bozorovich,**

*Buxoro davlat universiteti Nemis filologiyasi  
kafedrasida dotsenti, f.f.f.d.(PhD)*

**Halimova Shohista Sharipovna,**

*Buxoro davlat universiteti  
Lingvistika: nemis tili mutaxassisligi magistranti  
[shohistahalimova443@gmail.com](mailto:shohistahalimova443@gmail.com)*

**Annotatsiya.** Maqolada o'zbek va nemis tillarida o'tgan zamon shakllari va ularning ifodalanish usullari haqida fikr yuritiladi. Tilning kommunikativ mohiyatini o'rganish lingvistik tadqiqotlarning bosh maqsadidir. Jumladan, nemis tilining morfologik sathi doirasida fe'l zamon shakllarini o'rganishga alohida e'tibor berilmoqda. Ushbu maqolada mazkur grammatik kategoriyaning obyektiv zamonni aks ettirish va voqea-hodisalarning asliga muvofiq ifodalay olish imkoniyatlari ko'rsatib o'tilgan. Shuningdek, maqolada nemis va o'zbek tillaridagi bir zamon shakli ikkinchisining vazifasida qo'llanishiga doir ko'plab holatlarga doir misollar keltiriladi.

**Kalit so'zlar:** nutq momenti, zamon kategoriyasi, obyektiv zamon, absolyut zamon, aspektuallik, o'tgan zamon shakllari.

## ПРОШЕДШЕЕ ВРЕМЯ В УЗБЕКСКОМ И НЕМЕЦКОМ ЯЗЫКАХ

**Аннотация.** В статье рассматриваются формы прошедшего времени в узбекском и немецком языках и способы их выражения. Известно, что изучение коммуникативной сущности языка является основной целью лингвистических исследований. В частности, особое внимание уделяется изучению времён глаголов на морфологическом уровне немецкого языка. В данной статье показаны возможности данной грамматической категории для отражения объективного времени и выражения событий согласно происхождению. Также в статье рассмотрено множество случаев с примерами, когда одна временная форма в немецком и узбекском языках употребляется в функции другой формы.

**Ключевые слова:** момент речи, категория времени, объективное время, абсолютное время, аспектуальность, формы прошедшего времени.

## PAST TENSE IN UZBEK AND GERMAN LANGUAGES

**Abstract.** The article discusses the forms of the past tense in the Uzbek and German languages and their expression methods. It is known that studying the communicative essence of language is the main goal of linguistic research. In particular, special attention is paid to the study of verb tenses within the morphological level of the German language. This article shows the possibilities of this grammatical category to reflect the objective time and to express events according to the origin. Also, the article deals with many cases where one tense form in German and Uzbek languages is used in the function of another tense's form, where examples are given.

**Keywords:** moment of speech, time category, objective time, absolute time, aspectuality, past tense forms.

**Kirish.** Hozirgi davr dunyo tilshunosligida zamon shakllarining matniy vazifadoshligi va ma'nodoshligi yetarli o'rganilgan emas. Binobarin, hozirgi kunda zamon shakllari funksional-semantik xususiyatiga oid nazariyaning eng muhim masalalarini hal qilish umumlingvistik va umumgermanistik vazifalardan hisoblanadi. Shu bois grammatik zamon (lisoniy nutq momenti) va obyektiv zamon (nolisoniy nutq momenti)ni qiyoslash jarayonida tayanch zamon shakllarining qo'llanish chegarasini aniqlash, shuningdek, ularning pragmatik va stilistik imkoniyatlarini belgilash, transpozitsiyaning yuzaga kelish sabablari, ushbu hodisaning matnda namoyon bo'ladigan semantik-funksional va uslubiy xususiyatlarini o'rganish zaruriyati mavjud.

Harakat borliqdagi hayotning asosini, mazmun-mohiyatini tashkil etadi. Tabiat va jamiyat qonunlarining ham, falsafiy, fizik va fiziologik jarayonlarning ham asosida doimiy o'zgarishlar, o'sish, rivojlanish – harakat yotadi. Butun borliq va koinotdagi har bir zarraning tabiatini ham u-ndagi shartli muqim va o'zgarishdagi holatlar belgilaydi. Ko'rinib turganidek, olamning lisoniy manzarasini ifodalashda tilning imkoniyatlari cheksiz. Zero, borliqdagi har bir unurning o'z nomi, xususiyatlari, ta'rif-u tavsifi bo'lib, ular til vositasida voqelanadi. Shu nuqtayi nazardan tilshunoslikdagi fe'l so'z turkumini, uning zamon kategoriyasi muayyan, o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. Yetakchi tilshunos olimlar ta'kidlashganidek: "Har qanday narsa va hodisa zamonada mavjud bo'ladi. Zamon materiyaning mavjudlik shakli sanaladi. Dialektik falsafa nuqtai nazaridan zamon materiyadan ajralmasdir. Bu esa zamonning obyektivligini, universalligi va umumiyligini ko'rsatadi. Xususan, bir tup daraxtni olaylik. Bu daraxt zamondan tashqarida mavjud emas. U ma'lum bir joyda o'sadi. Ayni paytda bu daraxt doimo o'sishda, rivojlanishda. Demak, u dinamik belgiga ega. Zamonning ma'lum nuqtasida u unib chiqqan, daraxtga aylangan, ma'lum bir vaqt o'tgandan so'ng qurishi mumkin. Ko'rinadiki, daraxtning daraxtligi ma'lum zamon bilan belgilanadi. Zamon bir-biri bilan almashinayotgan narsa va hodisalarning vaqt nuqtai nazaridan ketma-ketligini bildiradi. Zamon qaytarilmas, takrorlanmaslik belgisiga ega [1, 331]. Mazkur nuqtayi nazar tavsifi ham fe'l turkumining falsafaga daxldor jihatini tasdiqlamoqda. Tildagi fe'l grammatik kategoriyalari ifodalaydigan holat, harakat, voqea-hodisa nafaqat falsafa, balki tabiiy fanlar, fizika, biologiya, jug'rofiya, astronomiya, jamiyatshunoslik, umuman borliq haqidagi barcha bilimlar, hayotning barcha sohalar bilan chambarchas aloqadorlikdadir. Mavjudot yaralganidan toki xoki tuproq bo'lguniga qadar va undan keyin ham o'zgarishda bo'lishi fanda isbotlangan. Shubhasiz, bu jarayon harakat, bir holatdan ikkinchi bir holatga o'tish hisoblanadi. Shu boisdan tilshunoslikdagi asosiy muammolardan biri fe'l so'z turkumiga xos xususiyatlarni yanada mufassalroq o'rganish bugungi kunda dolzarb ahamiyat kasb etmoqdadir [2, 127-128].

**Asosiy qism.** Fe'l bildirgan harakatning bajarilishi, albatta, ma'lum bir vaqtda bo'ladi. Demak, harakat vaqt (zamon) tushunchasi bilan aloqador bo'ladi. Fe'l bildirgan harakat obyektiv harakatning tildagi ifodasi bo'lganidek, fe'llardagi zamon ham harakatning bajarilishi bilan aloqador bo'lgan obyektiv vaqtning tildagi ifodasidir [2, 127-128]. Lekin obyektiv zamonning tildagi ifodasining o'zi grammatik zamon kategoriyasi hisoblanmaydi. Grammatik zamon kategoriyasi harakatning nutq momentiga munosabatini ifodalaydi. Nutq momenti ham subyekt tomonidan belgilanadigan qandaydir vaqt bo'lagi bo'lmay, obyektiv zamon (vaqt)ning so'zlovchi gapi, so'zi (nutqi) to'g'ri kelgan bo'lagidir (so'zlash, nutq ham harakat hisoblanadi va uning bajarilishi obyektiv vaqtning biror qismiga to'g'ri keladi). Harakat bajarilish vaqtining nutq momentiga munosabatiga qarab fe'lning uch xil zamonini farqlanadi: 1) nutq momentigacha bo'lgan harakat — o'tgan zamon; 2) nutq momentida ham davom etayotgan (tugamagan) harakat — hozirgi zamon; 3) nutq momentidan keyin bo'ladigan harakat .kelasi zamon. Zamon ma'nolari maxsus formalar orqali ifodalanadi va bu formalar fe'lning zamon formalari deb ataladi. Ijro maylidagi fe'llarda harakatning nutq momentiga munosabati bevosita ifodalanadi. Bu mayl formasi bildirgan zamon absolyut zamon hisoblanadi. Ayrim fe'l formalari, masalan, sifatdosh va ravishdosh formalari harakatning nutq momentiga munosabatini bevosita ko'rsata olmaydi.

Turli darslik va qo'llanmalar, ayrim monografiyalar, shuningdek qiyosiy-tipologik ishlardan tashqari, o'zbek tilidagi fe'l zamon shakllari mavzusi bo'yicha qator monografik tadqiqotlar amalga oshirilgan. Biroq har bir zamon shaklining o'ziga xos xususiyati haqidagina emas, hatto hozirgi o'zbek adabiy tilida fe'lning qaysi zamonni qanday shakl va semalarga egaligi haqida ham shu vaqtga qadar bir xil fikrga kelingan emas. Misol uchun hozirgi vaqtda oliy o'quv yurtlari uchun qo'llanma vazifasini o'tayotgan ishlarda kelasi zamonni ifodalaydigan shakllar haqidagi fikrlarni olib ko'raylik. Bu ishlarning mualliflari kelasi zamon fe'li yasovchi maxsus shakllar sifatida quyidagilarni ko'rsatadilar:

- 1) -digan (boradigan, ishlaydigan), -(a)r (borar, ishlar) [3, 408-409]
- 2) -(a)r (borar, ishlar), -jak (borajak, ishlajak), -g'u (-ku, -gu, -qu) (borgum, ishlagum)sh;
- 3) -(a)r (borar, ishlar), -jak (borajak, ishlajak) [4, 75-77]
- 4) -(a)r (borar, ishlar), moqchi (bormoqchi, ishlamoqchi), -digan (boradigan, ishlaydigan)
- 5) -jak (borajak, ishlajak), -moqchi (bormoqchi, ishlamoqchi), -(a)r (borar, ishlar), -digan (boradigan, ishlaydigan) [5, 295-300]
- 6) -adi, -ydi (boradi, ishlaydi), -(a)r (borar, ishlar), -jak (borajak, ishlajak), -gu (g'u, -ku, -qu) (borgum), -gay (borgay), -digan (boradigan, ishlaydigan), -moqchi (bormoqchi, ishlamoqchi) Fe'lning o'tgan, hozirgi va kelasi zamon shakllarining har qaysisi, o'z navbatida, yana bir necha turlarga bo'linadi. Chunki bu zamon shakllari, vaqtning alohida katta qismlarini ko'rsatish bilan birga, bu qismlar ichidagi kichik paytlarni ham aks ettiradi.

Masalan, hozirgi zamon fe'lining bir shakli nutq paytiga to'g'ri kelgan, u bilan bir vaqtda bajarilayotgan harakatni anglatsa, uning boshqa bir shakli nutq paytida boshlanib, undan keyin ham davom etadigan harakatni bildiradi: *borayotirman, borib turibman, boryapman, bormoqdaman; o'qiyotirman, o'qib turibman, o'qiyapman, o'qimoqdaman* kabi.

Har bir zamon shakli ma'lum grammatik ko'rsatkichiga ega. Zamon shaklini yasovchi vazifasida asosan sifatdosh va ravishdosh shakllari xizmat qiladi.

Fe'ning zamon shakllari tuzilish jihatidan ikki turga bo'linadi:

a) sintetik shakl. Bunda zamon shakl yasovchi affiks bilan ifodalanadi: *yoz-di-m,*

*yoz-a-man, yoz-gan-man* kabi;

b) analitik shakl. Bunda zamon fe'ning turlicha funksional shakllari bilan to'liqsiz fe'ning birikishi orqali ifodalanadi: *yozgan edim, yozgan ekansan, yozib eding, yozar eding, yozayotgan edi* kabi.

Fe'ning o'tgan zamon shakllari nutq paytidan ilgari bajarilgan harakatni bildiradi. Hozirgi va kelasi zamonga qaraganda o'tgan zamon fe'llari o'z shakllarining ko'pligi va juda xilma-xil ma'no bo'yoqlarini ifodalashi bilan ajralib turadi. O'tgan zamon shakllari sintetik va analitik usullar bilan yasalishi jihatidan ham, bu shakllarda o'tmishdagi harakatning hamda nutq jarayonidan oldingi paytning turli baholanishi tomonidan ham farqlanib turadi.

Ma'lumki tilda zamon uch xil ko'rinishga ega (*hozirgi, o'tgan va kelasi zamon*). Uni ifodalashiga ko'ra xabar mayli shakllari to'rt turga bo'linadi: o'tgan, hozirgi, hozirgi-kelasi va kelasi zamon shakllari.

Zamonni falsafiy tushunish bilan bir qatorda, grammatik vaqtni, fe'ning maxsus zamon shakllari bilan ifodalangan ma'noni ham yodda tutish kerak.[6,163] Faylasuflar lingvistik faktlar bilan hisoblashishi kerak bo'lganidek, zamon yoki vaqt mavzusini falsafadan ajratib bo'lmaydi.

Bizni esa vaqtni til bilan, zamon va shaxsning grammatik kategoriyasi bilan bog'lash qiziqtiradi.

U yoki bu hodisa faqat ushbu o'zgarishlarning boshlanishi qayd etilganda, ya'ni boshlang'ich nuqtasi mavjud bo'lganida yoki shunday holat aniqlanganda o'zgarishlarga uchraydi, deyish odatiy holdir. Dunyoning aksariyat tillari uchun bunday boshlang'ich nuqta nutqning nutq momentiga vaqtinchalik munosabatidir. Faqat nutq momentiga nisbatan bizni o'rab turgan olamga xos bo'lgan zamon kategoriyasidan farqli o'laroq, grammatik zamon kategoriyasining o'ziga xosligi ochiladi. Til grammatikasiga nutq momenti tushunchasining kiritilishi shaxsning obyektiv olamga munosabatini yaxshiroq tushunishga, tabiat va jamiyatdagi sabab-natija munosabatlarining mohiyatini oydinlashtirishga yordam beradi. Nutq momenti tushunchasining kiritilishi til grammatikasida uch komponentli temporal rejani ajratib ko'rsatishga imkon beradi. Bu shuni anglatadiki, zamonning grammatik kategoriyasi bilan ajralib turadigan tillarda vaqtning uchta asosiy komponenti mavjuddir: hozirgi reja, o'tmish rejasi, kelajak rejasi. Zamon kategoriyasi ish-harakatning nutq momentiga munosabatini ifodalaydi. Inson tomonidan ma'lum bo'lgan vaqt tushunchasi tilda, birinchi navbatda, zamonning grammatik kategoriyasi orqali o'z ifodasini topdi. Dunyo tillarining aksariyat qismida zamonning grammatik kategoriyasi fe'lni nutqning bir qismi sifatida tavsiflaydi. Bu juda tushunarli, chunki harakatning ma'nosi fe'l bilan bog'liq.

Har bir jumladagi so'zlar shaklan boshqa zamonni, ma'no jihatdan esa boshqa zamonni anglatishi mumkin. Atoqli adib O'tkir Hoshimovning "Dunyoning ishlari" asaridan olingan ushbu misolga e'tibor qarataylik:

*Hoji buvi boshimni tizzasiga qo'yib chalqancha qilib yotqizdi. Doka o'ralgan barmog'ini og'zimga tiqdi. Ko'nglim ag'darilib, tipirchilagancha yig'lar, ammo Hoji buvining qo'lidan chiqib ketolmasdim. U tomog'imga nimadir qildi. Dod solib qo'lini tishlab oldim. Qiziq, birpasdan keyin ahvolim yengillashdi. Ko'zimni ochsam, Hoji buvi jilmayib turibdi.*

*Ich erkannte undeutlich die Stimme von Hodschi momo. Sie legte meinen Kopf auf ihren Schoß und ließ mich auf dem Rücken liegen. Dann steckte sie mir ihren mit Verbandsmull umgewickelten Finger in den Mund. Mein Herz zersprang beinahe. Ich fühlte mich sehr schlecht. Ich weinte und zappelte mit Händen und Füßen, konnte mich aber nicht von ihrer Hand befreien. Ich schrie laut und biss sie in den Finger. Ich begriff nicht, was sie mit meinem Hals gemacht hatte, aber mein Zustand verbesserte sich danach im Handumdrehen. Als ich die Augen öffnete, entdeckte ich eine schmunzelnde Hodschi Momo vor mir.*

Ushbu misolda kelasi zamonni ifodalovchi (-adi) qo'shimchasi bu yerda o'tgan zamonni ifodalayapti.

Tilshunoslikda zamon ma'nosi esa fe'l tarkibida reallashadi. Zamonni ifodalovchi grammatik shakllarni qabul qilishda va muayyan zamon ma'nosini anglatishda fe'l leksik ma'nosining ham ahamiyatga ega ekanligi jahon tilshunosligida ham, o'zbek tilshunosligida ham qayd qilinadi. Jahon tilshunosligida bu masala fe'llarni aspektual guruhlarga ajratish orqali hal qilinadi. Shu sababli zamon kategoriyasiga bag'ishlangan aksariyat ishlarda zamon aspekt bilan birgalikda o'rganiladi. Bunda grammatik aspekt deganda fe'l lug'aviy ma'nosidagi ma'lum bir semalarning uning zamonda qo'llanilishiga ta'siri tushuniladi.

Xabar mayli shakllarida modal ma'no *bevosita kuzatganlik, bevosita kuzatmaganlik, ishonch, qat'iy ishonch, taxmin, gumon* ko'rinishida namoyon bo'ladi.

Bevosita kuzatganlik deganda so'zlovchi mayl (ayni paytda zamon) shaklidan anglashilgan ish-harakatni bajarilayotgan paytida kuzatadi, shohidi bo'ladi, idrok etadi, undan ogoh, xabardor bo'ladi.

Ish-harakatning bevosita kuzatilganini kuchaytirish, ta'kidlash uchun *o'zim, o'z ko'zim bilan* kabi so'z va birikma ishlatiladi.

**-di shakli** mazkur ma'nolari bilan boshqa zamon va mayl shakllaridan farqlansa qo'shimcha ma'nolari bilan ularning ayrimiga yaqinlashadi. Bu *noqulay kontekst*da turli vosita ta'sirida ro'y beradi.

**-di shakli III** shaxsda bevosita kuzatilmagan ish-harakatni ifodalab *-(i)bdi* shakli bilan yaqinlashadi: *Qarasam onamning yuzidagi tabassumdan asar ham qolmadi* (N. Safarov, Navro'z). Bu misolda *qaramoq* fe'lining *-sa* shaklidan so'zlovchi ish-harakatning amalga oshganligini keyin ko'rganligi anglashiladi. Maqsad uni bevosita kuzatgandek tasvirlash bo'lganidan *-di* shakli qo'llangan.

**-di shakli -gan** shakli o'rnida ko'p qo'llanadi. Gapning egasi tarixiy shaxs yoki tarixiy voqea-hodisani bildirsa *-di* shakli ishlatilaveradi: *Alisher Navoiy 1441 yilda tug'ildi*. Bunday gapda ish-harakatning bevosita kuzatilmaganligini ko'rsatish nazarda tutilsa yoki zarurati bo'lsa *-gan* shakli ishlatiladi.

Bunday vosita vazifasini subyekt (so'zlovchi) va ayrim fe'lining lug'aviy ma'nosi bajaradi: *Shu bolam tirik yetim bo'lmasin, shu bolamning peshonasiga yer bitsin deb kelganman ... Bolam tirik yetim bo'lmasin deb keldim. Bolam darbadar bo'lmasin deb keldim* (A. Qahhor, Qo'shchinor chiroqlari). Bu misolda ish-harakat natijasining nutq momentida mavjudligiga *kelmoq* fe'lining lug'aviy xususiyati hamda subyektning nutq momentida ishtirok etishi imkonini beradi.

**O'tgan zamonning** adabiy tilga xos shakli o'nta: *-di, -(i)bdi, -gan, -gan edi (ekan, emish), -(a)yotgan edi (ekan, emish)* va *-(a)r edi*. Bu shakllardan ayrimi faqat bevosita kuzatilgan yoki bevosita kuzatilmagan ish-harakat va holatni ifodalash uchun xoslangan bo'lsa ayrimi ikkalasini ham ifodalaydi. O'tgan zamon ma'nosini ifodalashiga ko'ra mazkur shakllar bir xil emas. Ulardan bir qismi anglatgan ish-harakat va holat nutq momenti bilan faqat bevosita yoki bilvosita munosabatga kirishadi; bir qismi ikkala munosabatga ham betaraf.

- **di** shakli umuman harakatning nutq momentidan oldin bajarilganligini bildiradi. Hozirgi zamon o'zbek tilida o'tgan zamonning yaqin o'tgan zamon, uzoq o'tgan zamon, o'tgan zamon hikoya fe'li, o'tgan zamon davom fe'li va o'tgan zamon maqsad fe'li farqlanib, ularning har biri o'z ifoda vositasiga ega. Yaqin o'tgan zamon fe'l o'zagiga (Ruh va tildan ma'lumot oling!)

- **di** shakli umuman harakatning nutq momentidan oldin bajarilganligini bildiradi. Hozirgi zamon o'zbek tilida o'tgan zamonning yaqin o'tgan zamon, uzoq o'tgan zamon, o'tgan zamon hikoya fe'li, o'tgan zamon davom fe'li va o'tgan zamon maqsad fe'li farqlanib, ularning har biri o'z ifoda vositasiga ega. Yaqin o'tgan zamon fe'l o'zagiga (Ruh va tildan ma'lumot oling!)

- **di** shakli umuman harakatning nutq momentidan oldin bajarilganligini bildiradi. Hozirgi zamon o'zbek tilida o'tgan zamonning yaqin o'tgan zamon, uzoq o'tgan zamon, o'tgan zamon hikoya fe'li, o'tgan zamon davom fe'li va o'tgan zamon maqsad fe'li farqlanib, ularning har biri o'z ifoda vositasiga ega. Yaqin o'tgan zamon fe'l o'zagiga (Ruh va tildan ma'lumot oling!)

-**di** affiksini qo'shish va tushlash, uzoq o'tgan zamon sifatdosh yasovchi-gan affiksini qo'shish va tushlash, (edi, ekan to'liqsiz fe'llarning

- **gan** affiksini olgan fe'l formasi bilan birikishi natijasida), o'tgan zamon hikoya fe'li fe'l o'zagiga ravishdosh yasovchi

Zamonni aspektga bog'lab o'rgangan olimlardan biri Z. Vendler [7,121] fe'llarning zamonga munosabat jihatdan o'ziga xos ma'noviy farqlarga ega ekanligini aniqlab va ularni tasnifladi. Keyinroq E.Bach, [8,63-81] D.Dovti,[9, 37-61] M. Moens [10,15] va M.Stedman kabi olimlar ham zamon ifodalanishining o'ziga xosligiga ko'ra fe'llar aspektual kategoriyalarga ajratildi. Ular umumiy tarzda fe'llarni turli guruhlarga ajratishdi. Jumladan, holat fe'llari (Zustände), faoliyat-jarayon fe'llari (Prozesse), natijaga yo'naltiruvchi fe'llar (Errungenschaften) va jarayonning oxirgi natijasini ifodalovchi fe'llar (Erfolge)ga ajratadilar.

O'zbek tilshunosligida ham fe'l semantikasi va uning ma'noviy guruhlariga bag'ishlangan salmoqli tadqiqotlar amalga oshirilgan. Fe'llardan o'tgan zamon shakli yasalganda tub va yasama shakl tushunchalariga murojaat qilamiz. Ayrim yasama shakldan qo'shma shakl hosil qilib bo'lmasa (masalan *oldi edi* deb bo'lmaydi) bitta qo'shimcha (*-yotgan*) faqat qo'shma shakl tarkibida keladi.

Xabar mayli shakllarining morfologik xususiyatini jadvalda quyidagicha ko'rsatsa bo'ladi.

Shaxs	Fe'ning o'zak va negizi	Qo'shimcha	To'liqsiz fe'l
III	kel ishla	-di, -gan, -(i)bdi, -yotgan, -(a)r, - yapti, -yotir, -moqda, -adi, -ajak	edi ekan emish

Nazariy fikrlarimizni asoslash maqsadida O'.Hoshimovning „Dunyoning ishlari“ asarining aslyiat va tarjima matnlariga murojaat qildik:

*Onam inqillab-sinqillab eshikni ochib tushdi. Uvishgan oyoqlarini uqalagancha oqsoqlana-oqsoqlana orqaga, bola yig'layotgan tomonga qarab ketdi. Men ham beixtiyor ergashdim. Bola hamon yerga dumalar, har dumalaganda quloqni teshib yuborgudek chinqirar edi. Uning tepasida o'zi ham o'pkasini arang bosib turgan yoshgina juvonga endi e'tibor berdim. (O'. Hoshimov 24-bet)*

*Meine Mutter öffnete die Tür und stieg mit Mühe und Not aus. Erst massierte sie ihre eingeschlafenen Beine, dann humpelte sie mühsam nach hinten zu dem schreienden Kind. Ich folgte ihr. Der Trotzkopf wälzte sich immer noch auf dem Boden und schrie ohrenbetäubend. Erst jetzt bemerkte ich gegenüber dem Kind eine Junge Frau, die kaum ihre ränen zurückhalten konnte (U. Hoschimow, 31-bet)*

*Bolaligimda ko'p kasal bo'lardim: qizamiq, ko'kyo'tal... Shuning uchun oshxonadagi mixda ko'k qarg'aning patidan tortib, gultojixo'rozgacha ilig'lik turardi...*

*In meiner Kindheit litt ich an vielen Krankheiten: Masern, Keuchhusten, Malaria... Deshalb hing an einem großen Nagel in der Küche alles Mögliche, von Federn der Blaurocke bis zur Hahnenkamm-Blume, womit man verschiedene Krankheiten heilen konnte... (U. Hoschimow, 35)*

Nemis tili zamon kategoriyasiga bag'ishlangan qator tadqiqotlar mavjud, jumladan S.Saidov va G'. Zikrillayevning “Nemis tili grammatikasi” nomli qo'llanmaga e'tibor qarataylik. Nemis tilida o'tgan zamonning preterit, perfekt va plusquamperfekt shakllari mavjud. Fe'ning Präteritum formasi o'tgan zamonda ro'y bergan voqea-hodisalarni hikoya tarzida bayon qilishda qo'llaniladi. Sodir bo'lgan ish-harakat bir paytda yoki ketma-ket bajarilgan bo'lishi mumkin [11, 91-93]

*Krämer saß noch über dem Appell für den morgigen Tag, als Höfel eintrat. Er setzte sich eine Zigarette an. Krämer warf einen kurven Blick auf ihn. (B. Apitz, Nacht unter Wölfen)*

Perfekt fe'ning o'tgan zamon qo'shma formalaridan biri bo'lib, qo'llanishi jihatdan Präteritumdan farq qiladi. Perfekt asosan jonli tilda, savol-javobda va qisqa xabarlarida qo'llanadi:

Ali: **Bist** du gestern in der Stadt **gewesen**?

Wali: Ja, ich **bin** gestern in der Stadt **gewesen**.

Ali: Was **hast** du in der Stadt **gemacht**?

Wali: Ich **habe** Bücher **gekauft**. (A. Seghers, Die Entscheidung)

Plusquamperfekt ish-harakatning o'tgan zamonda bo'lganligini bildirib, asosan nisbiy ma'noda qo'llanadi. U nisbiy ma'noda Präteritum bilan birga keladi. Plusquamperfekt orqali ifodalangan ish-harakat Präteritumda ifodalangan ish-harakatdan oldinroq yuz bergan bo'ladi:

*Sie suchten zusammen das Haus, in dem Martin einmal gewohnt hatte (A. Seghers, Die Entscheidung)*

Plusquamperfekt tugallangan ma'noni ham ifodalab keladi. Bunday hollarda u imperfektsiz qo'llangan bo'ladi:

*Butzi war endlich eingeschlafen (B. Kellermann, Der 9. November)*

**Xulosa.** O'zbek tilida xabar mayli shakllarida modal ma'no *bevosita kuzatganlik, bevosita kuzatmaganlik, ishonch, qat'iy ishonch, taxmin, gumon* ko'rinishida namoyon bo'ladi. Bevosita kuzatganlik deganda so'zlovchi mayl (ayni paytda zamon) shaklidan anglashilgan ish-harakatni bajarilayotgan paytida kuzatadi, shohidi bo'ladi, idrok etadi, undan ogoh, xabardor bo'ladi. Bu ma'no xabar maylida hozirgi zamon shakllarining barchasi va o'tgan zamon shakllarining aksariyatiga xos. Transpozitsiyaga uchragan shaklning asosiy ma'nosi gapning zamon ma'nosiga mos kelmasligi tufayli, u jumladagi ish-harakat zamonini ifodalay olmaydi. Bunday gaplarda faqat transpozitsiyaga uchramagan shakl gapning zamonini belgilash imkoniga ega, chunki butun bayon mantig'i, kontekst va vaziyat uning qo'llanishini talab qiladi.

Nemis tilida o'tgan zamonning preterit, perfekt va plusquamperfekt shakllari mavjud. Fe'ning preterit shakli o'tgan zamonda ro'y bergan voqea-hodisalarni hikoya tarzida bayon qilishda qo'llaniladi. Sodir bo'lgan ish-harakat bir paytda yoki ketma-ket bajarilgan bo'lishi mumkin. Perfekt fe'ning o'tgan zamon qo'shma formalaridan biri bo'lib, qo'llanishi jihatdan imperfektdan farq qiladi. Perfekt asosan jonli tilda, savol-javobda va qisqa xabarlarida qo'llanadi. Plusquamperfekt ish-harakatning o'tgan zamonda bo'lganligini bildirib, asosan nisbiy ma'noda qo'llanadi. U nisbiy ma'noda preterit bilan birga keladi. Plusquamperfekt orqali ifodalangan ish-harakat preteritda ifodalangan ish-harakatdan oldinroq yuz bergan bo'ladi.

## ADABIYOTLAR:

1. Зикриллаев Г.Н. Семантико-функциональное исследование системы предикативных категорий узбекского глагола. Дисс. докт. филол. наук. – Т.: 1990. 331 с.
2. Ҳожиев А. Феъл. – Тошкент: “Фан” нашриёти, 1973. 127-128 б.
3. Ҳозирги замон ўзбек тили. – Тошкент: 1957. 408-409 б.
4. Турсунов У., Мухторов Ж., Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Тошкент: 1965. 75-77 б.
5. Ҳозирги ўзбек адабий тили (коллектив). – Тошкент: 1966. 295-300 б.
6. Абдуазизов А.А. и др. Общее языкознание. – Ташкент: НУУ, 2003. 163 с.
7. Vendler Z. *Linguistics in philosophy. (Verbs and times)*. New-York: Cornell university press, 1967. P.97, 121.
8. Bach E. *On time, tense and aspect. An essay in English metaphysics*. New York: Academic Press, 1981. P. 63-81.
9. Dowty D. *The Effects of Aspectual Class on the Temporal Structure of Discourse: Semantics or Pragmatics, Linguistics and Philosophy*. Swets and Zeitlinger, 1986. P. 37-61.
10. Moens M. and Steedman M. *Temporal Ontology and Temporal Reference, Computational Linguistics*. June, 1988. P. 15
11. Саидов С., Зикриллаев Г. Немис тили грамматикаси . – Тошкент: Ўқитувчи, 1973. 91-93 б.
12. Ruziev Y. Немис тили замон шаклларининг публицистик матнларда прагматик мақсадда қўлланиши // Центр научных публикаций (buxdu. uz). – 2020. – Т. 2. – №. 2.
13. Рузиев Я. Б. О соотношении транспонирующих вербальных пар в предложении немецкого языка // Вестник Южно-Уральского государственного гуманитарно-педагогического университета. – 2011. – №. 1. – С. 263-275.

## MUALLIF PUNKTUATSIYASINING YUZAGA KELISHI VA PUNKTUATSION TIZIMDAGI YANGI AN‘ANALAR

*Turayeva Dilbar Meyliyevna,  
Qarshi davlat universiteti katta o‘qituvchisi, PhD  
DilbarTurayeva9977@gmail.com*

**Annotatsiya.** *Tinish belgilaridan muallif uslubiga ko‘ra foydalanish an‘anasining kuchayishi tinish belgilarining me‘yorga bo‘ysunmagan tarzda qo‘llanishiga imkon yaratdi. Bu holat “tinish belgilarining qo‘llanishi yozuvchining “shaxsiy didi”ga bog‘liq bo‘lib qolishi”, deb izohlandi. PunktuatSION muallif punktuation – tinish belgilarining muallif uslubiga ko‘ra okkoZIONAL qo‘llanishi garchi XVIII asrdan kuzatilsa-da, o‘tgan asr oxirlarida o‘z taraqqiyotining oxirgi bosqichiga ko‘tarildi. Ingliz, rus tilida yozilgan badiiy, ilmiy asarlarni o‘zbek tiliga tarjima qilish jarayonida ushbu an‘analar punktuation kalka asosida o‘zbek yozuviga ham kirib keldi.*

**Kalit so‘zlar:** *tilshunoslik, punktuation, muallif punktuation, an‘ana.*

## ПОЯВЛЕНИЕ АВТОРСКОЙ ПУНКТУАЦИИ И НОВЫЕ ТРАДИЦИИ В СИСТЕМЕ ПУНКТУАЦИИ

**Аннотация.** *Укрепление традиции использования знаков препинания в соответствии со стилем автора позволило использовать знаки препинания, не подчиняющиеся норме. В пунктuation авторская пунктuation - периодическое употребление знаков препинания по авторскому стилю, хотя и наблюдается с XVIII века, но окончательной стадии своего развития достигла в конце прошлого века. В процессе перевода на узбекский язык художественных и научных произведений, написанных на английском и русском языках, эти традиции вошли в узбекскую письменность.*

**Ключевые слова:** *языкознание, пунктuation, авторская пунктuation, традиция.*

## THE EMERGENCE OF THE AUTHOR'S PUNCTUATION AND NEW TRADITIONS IN THE PUNCTUATION SYSTEM

**Abstract.** *The strengthening of the tradition of using punctuation marks according to the author's style made it possible to use punctuation marks in a way that does not obey the norm. Author's punctuation - the occasional usage of punctuation marks according to the author's style, although observed since the 18th century, reached its final stage of development at the end of the last century. These traditions entered the Uzbek script through the punctuation kalka in the process of translation of artistic and scientific works written in English and Russian into Uzbek language.*

**Keywords:** *linguistics, punctuation, author's punctuation, tradition.*

**Kirish.** Punktuation muallif punktuation – tinish belgilarining muallif uslubiga ko‘ra okkoZIONAL qo‘llanishi garchi XVIII asrdan kuzatilsa-da, o‘tgan asr oxirlarida o‘z taraqqiyotining oxirgi bosqichiga ko‘tarildi. Ingliz, rus tilida yozilgan badiiy, ilmiy asarlarni o‘zbek tiliga tarjima qilish jarayonida ushbu an‘analar punktuation kalka asosida o‘zbek yozuviga ham kirib keldi. B.Bahriddinova tinish belgilarini individual qo‘llash – muallif punktuationining yuzaga kelishiga sabab bo‘lgan uch omilni ko‘rsatib o‘tadi: 1) punktuation me‘yorlari qat‘iy belgilanmagan davrda yashagan ijodkorlar, yozuvchilar, olimlar asarlarida tinish belgilarining ishlatilishida mavjud umumiy punktuation (ko‘pgina tillar uchun umumiy bo‘lgan) me‘yorlarga amal qilishda ham, o‘zbek tili qurilishidan kelib chiqib xususiy punktuation qonuniyatlarni shakllantirishda ham bir xillik kuzatiladi. Ya‘ni muallif uslubi punktuationining tayanch me‘yorlarini belgilashda asos bo‘lib xizmat qiladi; 2) punktuationida umumiy me‘yorlar ishlab chiqilgan, biroq mualliflarning turli asoslariga ko‘ra tinish belgilarini qo‘llashda individual yondashishi davom etaveradi[1]. Bu punktuationida uzuslarni yuzaga keltiradi. Uzus – qonun-qoidadan chetlashish punktuation istiqbolidagi zamonaviy umumiy g‘oyalarni aks ettiradi va asta-sekinlik bilan me‘yorlarni o‘zgartirish, tilning milliy tabiatiga yaqinlashtirish, mavjud me‘yorlarni isloh qilish uchun zamin yaratadi; 3) ijodkorlarning tinish belgilaridan poetik vosita sifatida foydalanish maqsadida okkoZIONAL qo‘llashi, shuningdek, zamonaviy ijodkorlarning punktuation kompetentlikka ega emasligi, nashriyotlarda tahrir jarayonlarining sustligi.

Birinchi va ikkinchi holatda muallif punktuatsiyasi me'yorlarni shakllantirish va takomillashtirish uchun xizmat qilsa, uchinchi holat tartibga solinmagan, me'yordan tashqari punktuatsiya taraqqiyotiga zamin hozirlaydi. Bu esa amaliyotda joriy me'yorlarga bo'ysunmagan fors-major holatlarga olib keladi. Bu o'z-o'zidan individual yondashuvga zarurat tug'diradi. Shu bilan birga zamonaviy badiiy va publitsistik asarlarda me'yoriy holatlar bilan birga tinish belgilaridan tartibga bo'ysunmagan holda foydalanish an'alarining kuchayishi punktuatsion uzus va punktuatsion okkozionalizmni ajratishni taqozo etmoqda. Bu esa punktuatsion stilistikada turli nutq uslublari xos qo'llanishlarni individual o'rganish zaruratini ham yuzaga keltirmoqda[2].

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Muallif punktuatsiyasi zamonaviy punktuatsiya amaliyotida "sevimli" va "yoqimsiz" belgilar tushunchasining yuzaga kelishiga sabab bo'ldi. Qaysidir ijodkor tirega ko'proq murojaat qilsa, qaysi biri nuqtali vergul yoki ikki nuqtani ko'proq qo'llaydi. Misol uchun, Linn Transs bugungi kunda tirega, xususan, elektron tarjimada matn tarkibidagi ko'plab tinish belgilarini o'rmini almashtirishiga ko'ra "grammatikaning dushmani" deb qaralayotganini ta'kidlaydi: *I saw Jim – he looked gr 8 – have you seen him – what time is the thing 2 morrow – CU there.* Uningcha, tirening bu qadar ommabopligi mazkur belgining doimo to'g'ri qo'llanishi va matnda qoldirib ketib bo'lmasligi bilan bog'liq.

Xuddi shu an'ana rus tilida ham kuzatildi. Xususan, N.S.Valgina shunday deydi: "Hozirgi paytda tire boshqa tinish belgilarini siqib chiqaryapti, xususan, ikki nuqtaning ko'plab funksiyalarini egallab bormoqda. Zamonaviy nashrlarda tirening funksiyalarining kengayib borayotgani ushbu tinish belgisining universallashtirishidan dalolat beradi". N.N.Goncharovanning ta'kidlashicha, "Virjini Vulf prozasi nuqtali vergul bilan to'lib-toshgan[3]. Ko'p nuqta Agata Kristi va Garrold Pinterning sevimli belgisi. Tire Lourens Stern uslubining asosiy belgisi, Jeyn Osten, Emili Dikinson tireni yozuvchining tafakkuri aks etgan tushunchalar mohiyatini xuddi oynadagidek aks ettiradi. Uningcha, aksariyat zamonaviy yozuvchilar nuqtali vergulni yoqtirmaydilar, uni burjuaziyaga xos xarakterini tan oladilar: "keraksiz belgi" (Jorj Oruyell), "jirkanch xunuk, itning qornidagi kana misoli" (Donald Bartelmi). Fey Ueldon va Martin Emis nuqtali vergulsiz matn tuzishga harakat qilmoqdalar. Hillari Mantelning fikricha, nuqtali vergulsiz matnda ikki yuzdan ortiq so'zni davom ettirib bo'lmaydi. Gertruda Steyn vergulni "laganbardor, tobe belgi" ekani, nuqtali vergul esa unga qaraganda qo'llanishi ancha erkin, kuchli, ammo ichki mohiyatiga ko'ra vergul bilan teng ("Poeziya i grammatika", 1935) deydi. Xuddi shuningdek, ikki nuqta atrofida ham ikki xil munosabat yuzaga keldi. Jeyms Joys uni haqiqiy klassik belgi sifatida yaxshi ko'rsa, Pelam Grenvill Vudxaus undan foydalanmaslikka harakat qildi. Biroq undov belgisi eng ko'p tanqidga sabab bo'ldi. Masalan, Mark Tven va Frensis Skott Fitsjeraldlar uning ishlatilishiga qarshi chiqdi. So'roq belgisi bu borada alohida mavqega ega edi. Faqat juda dovyurak ijodkorlar Jeyms Joys va Gertruda Steyn kabilar ularni qo'llamaslikka jur'at qildilar[4].

D.Kristal esa bugungi davrni "internet davri va kuchsizlangan punktuatsiya davri" deb ataydi. U ayni paytdagi matnlarda ishlatiladigan tinish belgilarning 90 % vergul yoki nuqtaga to'g'ri kelishini, aksariyat tinish belgilarining bajaradigan funksiyasi faqat nuqta va vergul zimmasiga yuklanib qolayotgani, ayrim tinish belgilari, masalan, nuqtali vergul deyarli qo'llanmayotganini, Amerika ingliz tilisiga qaraganda britancho variantda juda kam uchratish mumkinligini ta'kidlaydi[5]. Umuman, boshqa olimlar ham, masalan, N.N.Goncharova XXI asrga kelib nuqtali vergulning ko'p vazifalarini ikki nuqta egallab borayotganiga urg'u beradi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Tinish belgilari taraqqiyotining so'nggi bosqichiga kelib, ayrim murakkab qurilishli gaplar tarkibida qo'shtirnoq, qavs, ko'p nuqta kabi tinish belgilarini mavjud me'yorlarga ko'ra qo'llash yozuvning estetik didga mosligiga ta'sir etishi bilan bog'liq holatlarning yuzaga kelishiga sabab bo'la boshladi. Masalan, qoidaga ko'ra har qanday gapdan so'ng gapning ifoda maqsadiga qarab biror tinish belgisi qo'yiladi. Ma'lumki, sarlavha matnning mustaqil komponenti. U ko'pincha atov gap, darak, so'roq, buyruq gap, ba'zan his-hayajon gap bo'lishi mumkin. Masalan, Muhammad Yusuf qalamiga mansub ayrim she'rlarning sarlavhasini keltiramiz: "Tug'ilgan kun", "O'zbekning ayollari", "Tunda she'r aytishdik", "Armonlarning bor", "Kokilingni kim kesdi?", "Ona, meni nega tug'ding?", "Shukur deysan, sen qachon?!", "Kinoga kirmayman!", "Men seni sevaman!..", "Tanish terak...", "O'zim yomon...", "Marhamat tomonga yo'lingiz tushsa...", "Sevgi bu ..." va b. Shu bois nafaqat boshqa tillar, xususan, o'zbek tilida ham punktuatsiyaga bag'ishlangan dastlabki ishlarda sarlavhadan so'ng nuqta qo'yilishi kuzatiladi. Bu shunchaki punktuatsiyaning amalda bo'lgan qoidalariga asoslangan. Davrlar o'tishi bilan dastlab nemis, ingliz, keyinchalik rus tilida va u orqali o'zbekcha matnlarda ham sarlavhadan so'ng gap oxirida qo'llanuvchi belgilardan nuqtaning ishlatilmasligi an'anaga aylandi. Bugungi kunda bu holatga hamma odatlandi. Ammo sarlavha oxirida so'roq, undov, ko'p nuqtaning qo'llanilishida mavjud me'yorlarga amal qilinadi. Gap shundaki, nuqtaning qo'llanilishida ko'p nuqta, undov, so'roqlar kabi mantiqiy (semantik) prinsip emas,



balki intonatsion va struktur-sintaktik prinsiplar ustunlik qiladi. Mantiqan yondashilganda sarlavhani ajratish, chegaralash ehtiyoji yo‘q. So‘roq, undov, ko‘p nuqta matn qismlarini ajratish bilan birga, semantik funktsiya ham bajaradi. Sarlavha so‘ngida kelganda ularning faqat shu funktsiyasi “ishlaydi”. Ma‘lumki, tillarda punktuatsiyaning me‘yoriy qo‘llanishi shu til uchun umumiy tan olingan bo‘lib, mualliflik huquqi bilan himoyalanganmaydi, ya‘ni muayyan muallifgagina xos individual qo‘llanish – anormal (okkazional, noodatiy) holat hisoblanmaydi. Tinish belgilarining noodatiy qo‘llanishi unga intellektual mulk sifatida qarashga olib keldi.

Marina Svetayeva “Sentabr” to‘plamiga kiritilgan “O‘rmon” she‘rida bir misrada tirening bir necha funktsiyasidan foydalanish orqali o‘rmonning badiiy tasvirini berishda o‘rinli foydalaniladi:

*Видел, как рубят? Руб –  
Рубом! – за дубом – дуб.  
Только убит – воскрес!  
Так же, как мёртвый лес  
Зелен – минутой чрез! –  
(Мох – что зеленый мех!)  
Не погибает чех.*

Yoki M.Svetayeva “Стихи к Блоку” deb nomlangan she‘rida ham tirening nutqni ixcham bayon etish vositasi sifatidagi funktsiyasidan unumli foydalanganini kuzatiladi:

*Зверю – берлога,  
Страннику – дорога,  
Мёртвому – дроги,  
Каждому своё.  
Женщине – лукавить,  
Царю – править,  
Мне – славить  
Имя твоё[7].*

Umuman, bu kabi holat o‘zbek punktuatsiyasida ham kuzatiladi. B.Bahriddinovaning ta‘kidlashicha, “Tiredan individual foydalanish, ayniqsa, qisqa, lo‘nda nutqli mualliflarda seziladi. Deylik, Tog‘ay Murot uslubida tirening faolligini oshirish nutq vositalalarini “iqtisod qilish” bilan bog‘liq: *Sizga yolg‘on, menga chin. Manavi barmoqlarim bilan sanab aytaman: ovozlarning ichida cholnikiyam bor – bir! Yoshnikiyam bor – ikki! Momonikiyam bor – uch! Qiznikiyam bor – to‘rt! Chaqaloqnikiyam bor – besh! Xo‘-o‘sh, beshta bo‘ldimi?* (T.M.) X.Do‘stmuhammad esa nutq vositalarini tejashda ko‘p nuqtadan o‘rinli foydalanadi: *Faqat, ko‘pdan buyon ko‘nglimga tugib yurgan orzum-armonim hurmati so‘nggi marta xat yoza qolay.....; Mayli, ularning soni ko‘paygandan-ko‘paysin, ammo Siz yolg‘iz meni ... .., xo‘p?*

*Kel, oqibatli Do‘st, beg‘ubor tuyg‘ularimiz qissasiga g‘oyatda oddiy, lekin bag‘oyat yuksak maqomdagi so‘zsiz savol-javobimiz nuqta vazifasini o‘tasin:*

– ... ..  
– ...-..?  
– ... ..! (“Men – sensiz, Sen – mensiz”)[2]

Boshqa tillarda bo‘lgani kabi o‘zbek tilida ham dunyo tillarining ta‘siri, qolaversa, davlatning ijtimoiy, madaniy, iqtisodiy-siyosiy taraqqiyoti bilan bog‘liq ravishda punktuatsiyaning yangi-yangi muammolari yuzaga kela boshladi. Masalan,

*A.Oripovning qaysi she‘rida shunday jumlar uchraydi: “Sen ona emassan, jallodsan, dunyo!”?  
Sen M.Yusufning quyidagi she‘rini o‘qiganmisan “Kokilingni kim kesdi?”?*

*Sen M.Yusufning quyidagi she‘rini o‘qiganmisan: “Shukr deysan, sen qachon?”?* ko‘rinishidagi gaplarda tinish belgilarining joriy me‘yorlarga muvofiq qator kelib qolishi bilan bog‘liq.

Devid Kristalning nuqtayi nazaricha, ijtimoiy tarmoqlar punktuatsiyasini ikki yo‘nalishda o‘rganish kerak: birinchisi, minimalizm – barcha tinish belgilarini bir-biriga zich joylashtirib qo‘llash; ikkinchi yo‘nalish, maksimalizatsiya – muayyan tinish belgisidan ketma-ket, bir necha marta qator foydalanish. Masalan, ijtimoiy tarmoqlarda so‘roq belgisining faolligi oshdi. Hatto kommunikantlarning kamdan-kam hollarda uni yolg‘iz holda ishlatishi, asosan, kompleks qo‘llashi «????????????????????» kuzatilyapti.[6] Insonning hissiyatini, hayratini yozuvda ifodalash istagida qo‘llangan undov belgilarining soni, berilayotgan savolning muhimligi, unga javobni tezroq olish istagi so‘roq belgilarining soni bilan ko‘rsatildi. Masalan, «У меня есть отличная новость!» «Она как-нибудь связана с новым годом?» «Да, и тебя она касается лично». «Рассказывай!» (спустя время) «Что случилось????????????? Как это касается меня????? ??????» Yoki: «Выходи!!!!!!!!!!!!!!!!!!!!!! Я тебя уже жду!!!!!!!!!!!!!!!!!!!!!!»[8]

Ushbu holat o‘zbek badiiy uslubida ham aks eta boshladi. Masalan, “X.Do‘stmhammad uslubida tinish belgilarining o‘ziga xos tarzda qator ishlatilishi ham muallif individualligini belgilab beradi: – *Qayerdasaannn?????!!!!* – *deya oh chekadi. Tap topmay takrorlayveradi: – Qayerdasaannn?????!!!!* (“Men – sensiz, Sen – mensiz”)[2]

Ingliz va o‘zbek tillarida bo‘lgani kabi rus tilida ham murakkab qurilishli konstuksiyalarda tinish belgilarining qator qo‘llanishi bilan bog‘liq ko‘plab savollar yuzaga keldi. Masalan,

Quyidagi holatda gap oxirida nuqta qo‘yiladimi, yo‘qmi?: *Я читаю роман “Кто виноват?”*. Quyidagi holatda ko‘chirma gapni yopuvchi qo‘shtirnoq qo‘llanadimi, yo‘qmi?: *Профессор указывает, что “в золотой фонд литературы вошли такие произведения русской классики, как “Евгений Онегин””*.

Gapda ichki va tashqi qo‘shtirnoqlar orasida so‘roq yoki undov belgisi qo‘llangan bo‘lsa, bir xil qo‘shtirnoqlardan foydalaniladimi yoki ikki xil?:

Quyidagi holatlarda qaysi tinish belgisi tejaladi?: *Не только песен нет, куда девался сон; всё подозрительно, и всё его тревожит. / Появились в продаже дачная мебель: столы, стулья, диваны и т.д./ У него было три дочери: Вера, Надежда, Любовь.; Вся эта область – дно моря в прошлом[12].*

**Xulosa va takliflar.** Shuni ham ta’kidlab o‘tish kerakki, tinish belgilari tadqiqiga bo‘lgan yondashuvlar har qancha taraqqiy etmasin, rus tinish belgilari taraqqiyotining yangi bosqichida ham an’anaviy qarashlar yetakchi bo‘lib qolmoqda. Sababi an’anaviy me’yoriy punktuatsiya matnni tushunishni osonlashtirsa, me’yordan tashqari – tartibga bo‘ysunmaydigan punktuatsiya hammaning birdek matn mazmunini to‘g‘ri anglashi va tushunishiga to‘sqinlik qiladi. Shu bois barcha davrlarda tilning me’yorlashtirilgan punktuatsiyasi tilshunoslik bo‘limi muammosi doirasida qaraladi. Hozirgi kunga qadar ham rus punktuatsion tizimida tinish belgilarining qo‘llanish prinsiplarini belgilashda uch asosiy yo‘nalish – sintaktik, mantiqiy, intonatsion prinsiplar ustunligicha qolmoqda. XX asrning oxirlarida ushbu sanalgan an’anaviy yo‘nalishlar qatoriga tinish belgilarining kommunikativ – yozma nutqda tinish belgilari orqali axborot uchun muhim zaruriy bo‘laklarni – kommunikativ maqsadni oydinlashtirish jihatiga ham diqqat qaratila boshladi. Kommunikativ vazifani ajratish masalasi tinish belgilarining an’anaviy asosiy vazifasi – og‘zaki nutqni yozuvda to‘g‘ri ifodalash uchun xizmat qiladigan alifbodagi harflardan tashqari belgilar tizimi bilan bog‘liq bo‘lib, u ham o‘quvchiga yozuvchi qanday maqsadda qo‘llagan bo‘lsa, shunday tushunarli bo‘lishini taqozo qilardi.

### ADABIYOTLAR:

1. Кольцова Л. *Художественный текст через призму авторской пунктуации: дисс. докт. филол. наук. – Воронеж, 2007. -377с.*
2. Bahriddinova B.M. *Zamonaviy o‘zbek punktuatsiyasi asoslari. Monografiya. – Toshkent: Akadempnashr, 2015. -66b.*
3. Валгина Н.С. *Актуальные проблемы современной русской пунктуации. – Москва: Высшая школа, 2004. -259с.*
4. Гончарова Н.Н. *К вопросу о современных тенденциях в английской пунктуации // Научный диалог. 2018. № 4. – С.54-64.*
5. Crystal D. *Making a point: the pernicky story of English punctuation – London : 2016. -378p.*
6. Розенталь Д. *Универсальный справочник по русскому языку: Пунктуация. Практическая стилистика / Розенталь Д. – Москва: Мир и Образование, 2013. -704с.*
7. Сафронова И.П. *Эстетические функции пунктуации в поэзии Марины Цветаевой: автореф. дисс... канд. филол. наук. – Ижевск, 2004. – 23 с.*
8. Холодковская Е.В. *Пунктуация как средство реализации просодии при общении в социальной сети facebook (на материале англоязычной версии) // Вестн. Волгогр. гос. ун-та. Сер. 2, Языкозн. 2014. № 5 (24)*
9. Стурикова М.В., Кирпичикова Е. *Пунктуация в текстах социальных сетей//https://rsvpu.ru/filedirectory/8692/Sturikova-Kirpichikova\_Doklad.pdf*
- 10.Щевцова О.Н. *Стилистические функции знаков препинания: На материале прозы В.Маканина: дисс. канд. филол. наук. – Ростов-на-Дону, 1998. – 243 с.*
- 11.Нашихоева М.Р. *Особенности пунктуации в сетевых текстах форумов и блогов (на материале английского языка): Дисс... канд. филол. наук. – Москва, 2012, - 248 с.*
- 12.Шавлукова Б.Ю. *Знаковые качества пунктуации в текстах художественного и научного регистров: “авторская пунктуация”: автореф. дисс. ... к.ф.н. – Махачкала, 2008. – 23 с.*

## LINGVODIDAKTIK TERMINOLOGIYA TADQIQOT OBYEKTI SIFATIDA

*Xodjayeva Dilafro'z Izatilloevna,*  
Buxoro davlat universiteti dotsenti, PhD  
[d.xodjaeva@buxdu.uz](mailto:d.xodjaeva@buxdu.uz)

**Annotatsiya.** Mazkur maqola tilshunoslikning terminologiya sohasiga bag'ishlangan bo'lib, unda, asosan, lingvodidaktik terminologiyaning tilshunoslikda va til o'qitishdagi ahamiyati, sohada keyingi o'n yillikda amalga oshirilgan tadqiqotlar va tadqiqotning yangi yo'nalishlari haqida fikr yuritilgan. Maqolada termin va unga qo'yilgan asosiy talablar, terminologiyaning xususiy belgilari haqida ham ma'lumotlar keltiriladi. Shuningdek, muallif ingliz va o'zbek tillarida lingvodidaktika termini va u bilan bog'liq bo'lgan metod, metodologiya va shu kabi boshqa tayanch tushunchalarning turli manbalardagi izoh va ta'riflarini keltirib, tahlilga tortadi. Ma'lumki, lingvodidaktika terminining ingliz tili terminologiyasida to'liq mos keladigan tushunchasi mavjud emas va shu sababli uning talqin va tarjimai qo'shimcha izohlarni talab qilishi haqida ham fikr-mulohazalar keltiriladi.

**Kalit so'zlar:** termin, terminologiya, lingvodidaktika, metod, metodologiya, yondashuv, texnologiya, ta'lim texnologiyasi

## ЛИНГВОДИДАКТИЧЕСКАЯ ТЕРМИНОЛОГИЯ КАК ОБЪЕКТ ИССЛЕДОВАНИЯ

**Аннотация.** Данная статья посвящена области терминологии языкознания, в которой, главным образом, обсуждается значение и роль лингводидактической терминологии в лингвистике и преподавании языков, исследования, проводимые в этой области в ближайшее десятилетие, и новые направления исследований. Также в статье приведены сведения о термине и его основных требованиях, а также специфические признаки терминологии. Автор анализирует термин лингводидактика на английском и узбекском языках и связанные с ним термины, метод, методологию и другие основные понятия из источников узбекского, русского и английского языков. Известно, что термин лингводидактика не имеет полностью соответствующего понятия в терминологии английского языка, в связи с этим также предполагается, что его толкование и перевод требуют дополнительных комментариев.

**Ключевые слова:** термин, терминология, лингводидактика, метод, методология, подход, технология, образовательная технология.

## LINGUODIDACTIC TERMINOLOGY AS AN OBJECT OF RESEARCH

**Abstract.** This article is devoted to the field of terminology of linguistics, in which, mainly, the importance of lingvodidactic terminology in linguistics and language teaching, the recent researches carried out in the field of terminology and the new directions of research were discussed. The article also provides information about term, terminology and basic requirements, as well as specific signs of terminology. Also, the author analyzes the term linguodidactics in English and Uzbek languages and related notions, such as method, methodology and other basic concepts from various sources. It is known that the term linguodidactics does not have a completely corresponding concept in the terminology of the English language, and therefore it is also suggested that its interpretation and translation require additional comments.

**Keywords:** term, terminology, linguodidactics, method, methodology, approach, technology, educational technology

**Kirish.** Chet tillarini o'qitishga kommunikativ yondashuv zamonaviy tillarni chet tili sifatida o'qitishga jiddiy ta'sir ko'rsatdi. Keng ilmiy almashinuv va xalqaro hamkorlikning rivojlanishi tufayli dunyoda chet tillarini o'qitishning turli metodlari faol integratsiyalashmoqda. Bu lingvodidaktik terminologiyada yuzaga keladigan o'zgarishlarda ham o'z aksini topadi. Lingvodidaktik terminologiya doimiy ravishda rivojlanib, yangi termin va tushunchalar bilan yangilanib boradi. Buni yangi sohaviy lug'atlarning nashr etilishi va ommalashib borayotgan monografik tadqiqotlar tasdiqlaydi.

Chet tillarini o'qitish nazariyasi va metodologiyasida eng muhim tushuncha va terminlarni tanlashda ham, ularga ta'rif berishda ham umumiy qabul qilingan yagona yondashuvlar hali ham mavjud emas. Bu bir qator sabablar bilan bog'liq: chet tilini o'rganish va o'zlashtirish jarayonlarini tavsiflashning murakkabligi; til o'qitish sohasida yangi nazariya va metodlarning paydo bo'lishi; uslubiy tushunchalar va nazariyalarning bir qator tashqi omillar (ta'lim sohasidagi davlat siyosati, hukmron mafkuraviy munosabatlar, mamlakatda mavjud bo'lgan o'qitish an'analari, shartlari va maqsadlarining o'zgarishi va b.) bilan shartlanishi shular jumlasidandir. Metodika doimiy ravishda rivojlanmoqda, yangi tushunchalar va uslubiy yechimlar paydo bo'lmoqda, til o'rganish shartlari va uning maqsadlari, chet tilini bilish darajasini tavsiflash va nazorat qilish metodlari o'zgarib bormoqda. Bularning barchasi o'qitishning yangi metodlarini izlash, yangi darslik va lug'atlar yaratishni taqozo etadi.

Ma'lumki, *termin* deganda maxsus tushunchalarni aniq ifodalash uchun yaratilgan (qabul qilingan) va ilmiy ta'rifga asoslangan maxsus sohaga oid so'z yoki birikma tushuniladi. Boshqacha aytganda, termin - tilning ma'lum maxsus bilim yoki faoliyat sohasi tushunchalarini ifodalash uchun qo'llanadigan so'z yoki so'z birikmalari hisoblanadi. Gumanitar fanlar terminlarining, shu jumladan, lingvodidaktik terminologiyaning o'ziga xosligi ularning ijtimoiy-madaniy shartlanishidadir. Gumanitar fanlar terminologiyasining xarakterli xususiyatlari, ma'lumki, tarixiy va ijtimoiy-madaniy xususiyatga ega bo'lgan bir qator omillar tufayli madaniyatlararo yoki milliy jihatdan aniqlangan polisemiya va sinonimiyadir.

**Asosiy qism.** Lingvodidaktik terminologiya tizimi leksik birliklarning uch qatlamini o'z ichiga oladi: umumilmiy leksik qatlam, fanlararo qatlam, hamda sohaga oid va tor tarmoq qatlamlari. Lingvodidaktik terminlar bilan ifodalangan lingvodidaktik tushunchalarning ta'riflari ilmiy ta'riflarga qo'yiladigan talablarga, ya'ni: qisqalik, to'liqlik, izchillik va monosemiyaga moyillik talablariga javob berishi kerak.

Ma'lum til metodikasiga oid terminologiyani tartibga solishning muhim bosqichi uni boshqa tillar bilan taqqoslashdir. Biz uchun ingliz va o'zbek tillaridagi metodikaga oid terminlarni qiyoslash ham muhim ilmiy, ham dolzarb ta'limiy vazifadir.

*Lingvodidaktika* termini tilde nisbatan yaqinda paydo bo'lgan bo'lib, XX-asrning 80-yillarida rus akademigi N.M. Shanskiy tomonidan ta'lim maqsadlarida tilni tavsiflash muammolarini ishlab chiqish bilan bog'liq holda kiritilgan. Biroq, shuni ta'kidlash kerakki, mutaxassislar tomonidan ushbu terminning mazmuni va hatto uning mavjudligi zarurati to'g'risida keyinchalik biror fikr bildirilgani yo'q. Ba'zilar bu termini til o'rgatishning nazariy va amaliy masalalari majmuini bildiruvchi va aslida "metodika" terminining o'rnini bosuvchi tushunchaning keng talqini sifatida qabul qilsalar, boshqalar *metodologiya* va *lingvodidaktika* terminlarini ekvivalent deb hisoblashadi. Yana boshqalari esa *lingvodidaktika*ni til o'qitishning umumiy nazariyasi sifatida tavsiflaydi.

Ingliz terminologiyasida ushbu termin bilan to'liq mos keladigan tushuncha yo'q, uning talqini va tarjimasi qo'shimcha izohlarni talab qiladi. Bu termin ingliz tilidagi *applied linguistics*, *language teaching methodology (theory)*, *language pedagogy*, *theory of language acquisition* kabi terminlarga qisman mos keladi. Masalan, chet tillarini o'qitish metodikasi bilan bog'liq terminologiyani ko'rib chiqaylik. Metodlar muammosi hamisha metodistlarni ham, o'qituvchilarni ham, talabalarni ham qiziqtirgan. Ba'zida metodlar tanlashda nazariyadan amaliyotga yoki oddiydan murakkabga qarab rivojlanish tamoyili namoyon bo'ladi, lekin bunday yondashuv har doim ham o'zini oqlamaydi: u yoki bu metodni tanlash asosan o'qitish shartlari va maqsadlari bilan belgilanadi. Biz o'sha davrdagi til o'rganishning qabul qilingan shart va maqsadlarini inobatga olishimiz kerak bo'ladi. Masalan, grammatik-tarjima metodining asosiy maqsadi chet tilida o'qish ko'nikmasini rivojlantirish, nafaol leksik va grammatik bilimlarga ega bo'lish edi. Chet tilini tez fursatda o'rganish zarurati va o'rganish maqsadlarining o'zgarishi turli xil intensiv metodlarning paydo bo'lishiga olib keldi. Hozirgi davrda til o'qitishda, asosan, kommunikativ til o'rgatish metodi ustunlik qiladi. Chet tillarni o'qitish metodlarining ko'pgina inglizcha nomlari o'zbek tilida to'liq ekvivalentlariga ega emas, masalan: *the silent way* (darsda o'qituvchi nutqi minimal darajada bo'lib, talabalarning faol nutqini tashkil etishni nazarda tutuvchi "sokin o'qitish metodi"); *total physical response* (jismoniy harakatlarga tayanish metodi); *data-driven learning* (ma'lumotlar bazasi yordamida tilni o'rganish - bunda o'quv jarayoni induktiv kognitiv jarayonlarga va autentik og'zaki va yozma matnlar to'plamini o'z ichiga olgan til ma'lumotlari bazasiga asoslanadi).

Zamonaviy ilmiy-uslubiy adabiyotlar va uslubiy jurnallarga murojaat qiladigan bo'lsak, metodlar muammosi odatda tarixiy nuqtai nazardan ko'rib chiqilishining guvohi bo'lamiz. Til o'qitishning zamonaviy metodlari ta'limda asosiy e'tiborni o'qituvchi faoliyatiga emas, balki o'qitish jarayoniga, ya'ni talabanning kognitiv faoliyatiga qaratadi. Shuning uchun ham motivatsiya, tilni bilish darajasi, o'quv maqsadlari, nazorat qilish vositalari kabi tushunchalar bugungi kunda dolzarb hisoblanadi. Kommunikativ metodologiya til o'rganishning fundamental nazariyasi sifatida *metod* tushunchasidan tashqari *yondashuv*, *o'qitish*

*texnologiyalari* tushunchalarini ham ilgari suradi. Chet tilini o'rganishning maqsad va vazifalari o'qituvchi tomonidan emas, balki ta'lim xizmatlari iste'molchisi sifatida o'quvchilardan kelib chiqishi kerak.

Soha mutaxassislari *metod, yondashuv, texnologiya* terminlari o'rtasidagi munosabat haqida bahslashmoqda. Shu o'rinda N.D. Galskovaning bu masaladagi fikrini keltiramiz: "*Texnologiya* termini zamonaviy bo'lmasa ham, eng ko'p ishlatiladigan terminlardan hisoblanadi. *Ta'lim texnologiyasi* termini o'rniga *o'qitish metodikasi* terminini ishlatgan kishiga nisbatan ta'limdagi innovatsion jarayonlardan orqada qolgan, zamonaviy ilmiy terminologiya haqida hech qanday tasavvurga ega emas, kabi fikrlar bildirilishi mumkin" [6, 9]. Mazkur terminlar talqiniga chuqurroq nazar tashlash maqsadida ba'zi manbalarga murojaat qilamiz:

**Method** *n.* (in language teaching) a way of teaching a language which is based on systematic principles and procedures, i.e. which is an application of views on how a language is best taught and learned and a particular theory of language and of language learning.

Different methods of language teaching such as the DIRECT METHOD, THE AUDIOLINGUAL METHOD, TOTAL PHYSICAL RESPONSE result from different views of:

- a. the nature of language
- b. the nature of second language learning
- c. goals and objectives in teaching
- d. the type of syllabus to use
- e. the role of teachers, learners, and instructional materials
- f. the activities, techniques and procedures to use.

see also APPROACH [8]

**Метод.**

1. Направление в обучении, реализующее цели, задачи и содержание обучения языку и определяющее цели, задачи и содержание обучения языку и определяющее пути и способы их достижения. 2. Способ обучения аспектам языка или видам речевой деятельности [1].

**Metod** termini "ta'lim usullari yig'indisi" va "ta'limning yo'nalishi" ma'nolarida qo'llanadi. Birinchisi ta'lim nazariyasida ishlatilsa (mas. og'zaki nutq o'rgatish metodlari, talaffuz o'rgatish metodlari), ikkinchi ma'noda uni o'qitish metodikasi tarixiga oid asarlarda uchratamiz. Mas. *chet til o'qitishning tarjima metodi, to'g'ri metod, ongli-qiyosiy metod, an'anaviy metod, intensiv metod, audiovizual metod* va h.k. Prof. Yefim Izrailevich Passov fikricha, *metod* o'quv ja- rayonida qo'yilgan maqsad sari yo'naltirilgan va nutq faoliyati turlari bilan bog'liq prinsiplar sistemasidir. Demak, prinsiplar metodni shakllantiradi. Bu yerda keng ma'nodagi metodik yo'nalish haqida so'z boryapti [9].

**Metod** (yunoncha *metodos* – bilish yoki tadqiqot yo'li, nazariya, ta'limot) – ta'lim jarayonida taqdim etilgan amaliy va nazariy bilimlarni egallash, o'zlashtirish, o'rgatish, o'rganish, bilish uchun xizmat qiladigan yo'l-yo'riqlar, usullar majmui [10, 45].

Yuqorida keltirilgan ta'riflardan shuni aytish mumkinki, har to'rttala berilgan manbalarda *metod* terminining asosiy mohiyati ochib berilgan. Ammo shuni ham ta'kidlash joizki, ingliz tilidagi manbada keltirilgan ta'rif, bizning fikrimizcha, to'liqroq berilgan, ya'ni metodni tanlash, asosan, til tabiati, til o'qitishning maqsad va vazifalari, o'qituvchi, o'quvchi hamda ta'lim materiallarining roli, mashq turlari va b. faktorlarni inobatga olib tanlanishi ham yuqoridagi fikrlarni tasdiqlagan holda qayd etilgan.

E'tiborimizni *yondashuv* termini izohlariga qaratamiz:

**Approach** *n.* in language teaching, the theory, philosophy and principles underlying a particular set of teaching practices. Language teaching is sometimes discussed in terms of three related aspects: **approach**, **method**, and **technique**. Different theories about the nature of language and how languages are learned (the approach) imply different ways of teaching language (the method), and different methods make use of different kinds of classroom activity (the technique). Examples of different approaches are **the aural-oral approach** (see audiolingual method), **the cognitive code approach**, **the communicative approach**, etc. Examples of different methods which are based on a particular approach are the **audiolingual method**, **the direct method**, etc. Examples of techniques used in particular methods are **drills**, **dialogues**, **role-plays**, **sentence completion**, etc. [8].

**Подход** - это базисная категория методики, определяющая стратегию обучения языку и выбор метода обучения, реализующего такую стратегию [1].

**Yondashuv:** til o'rgatish yondashuvlari; *kommunikativ/kognitiv yondashuvlar* [9].

Yondashish – ta'limga yondashish turi; pedagogik tamoyilga ko'ra, pedagogik jarayonda pedagogning talabalar bilan o'zaro munosabati, ularning shaxsiy xususiyatlarini hisobga olgan holda quriladi va butun guruh hamda har bir alohida talabani rivoji uchun psixologik-pedagogik muhit yaratiladi [10, 21].

Yuqorida berilgan *yondashuv* termini izohlaridan ham ko'rinib turibdiki, ingliz tilida berilgan ta'rif termin ma'nosini to'laqonli ochib beradi. Shuningdek, mazkur ta'rifda, *metod* va *texnika* terminlari ham izohlanadi va misollar bilan to'ldiriladi.

### **Methodology** *n*

1. (in language teaching) the study of the practices and procedures used in teaching, and the principles and beliefs that underlie them. Methodology includes:

a. study of the nature of language skills (e.g. reading, writing, speaking, listening) and procedures for teaching them;

b. study of the preparation of lesson plans, materials, and textbooks for teaching language skills;

c. the evaluation and comparison of language teaching method (e.g. the audiolingual method).

2. such practices, procedures, beliefs themselves. One can for example criticize or praise the methodology of a particular language course.

see also CURRICULUM, SYLLABUS

3. (in research) the procedures used in carrying out an investigation, including the methods used to collect and analyze data.

see also EXPERIMENTAL METHOD, SCIENTIFIC METHOD [8, 363].

**Metodologiya.** O'qitish metodikasi - bu o'qituvchi va talabalarning o'zaro tartibli bog'langan faoliyatlari orqali metodlarni o'rganadigan fanlar majmuasidir. Metodologiya - ta'lim muammolarini hal qilishga qaratilgan, hamda o'qituvchining maqsadli harakatlar tizimi asosida o'quvchilarni maqsadlariga erishishga yetaklaydigan ta'lim faoliyati hisoblanadi [2]. Metodika bir qancha o'qitish usullarini o'z ichiga oladi, ular quyidagilar: an'anaviy, innovatsion va boshqalar. Chet tilini o'rgatish metodologiyasi biron bir fanga bir tomonlama yo'naltirishdan qochgan holda, o'qitishning nazariy va amaliy masalalarini hal qilishda asosiy va tegishli fanlar ma'lumotlarini o'z ichiga oladi [3]. Metodologiya fan sifatida ta'lim jarayoniga asoslangan holda, tarkibiy qismlarga bo'linadi, bular: o'qituvchining o'quv faoliyati, mashg'ulotlarni tashkil etish (maqsadlari, mazmuni, texnikalari, usullari va vositalari), talabalarning ta'lim faoliyati [11].

*Metodologiya* termini izohiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, ingliz tilidagi manbada terminning uchta ma'nosi alohida va izchil berilgan hamda misollar bilan boyitilganligining guvohi bo'lamiz.

Ma'lumki, o'zbek tiliga chet tillarini o'qitish nazariyasi va amaliyotining rivojlanishi bilan bog'liq holda, *test, tilni o'zlashtirish psixologiyasi* va *tilni bilish darajalarining tavsiflari* sohasidagi ko'plab ingliz tilidagi terminlar kirib kelgan. Shu bilan birga, o'zbek tili ham o'zining kontseptual apparatini shakllantirmoqda, u boshqa tillarga har doim ham mos kelavermaydi.

Ma'lumki, hozirgi kunda o'qituvchining asosiy maqsadi nafaqat o'quvchiga bilim berish, balki o'quvchining mustaqil izlanishini ham zamonaviy AKT (axborot-kommunikatsiya texnologiyalari)dan foydalangan holda shakllantirish hisoblanadi. AKTdan foydalanish xorijiy tillarni o'qitish samaradorligini oshirish yo'lidagi izlanishning asosiy ko'rsatkichlaridan biriga aylandi. AKTdan foydalanish bilan bog'liq holda, mavjud o'qitish metodlarini o'zgartirish va kognitiv faoliyatni tashkil etishning yangi metodlari haqida gapirish mumkin. Zamonaviy darsliklar, asosan, internet bilan bog'liq vazifalarni o'z tarkibiga oladi va bu ko'p hollarda ma'lumot qidirish yoki yangi matnlarni yaratishni talab qiladi.

Lingvodidaktik adabiyotlarda *internet-loyiha, blog, veb-konferentsiya, podkast* va h.k.z. terminlar keng tarqalgan. Til o'rgatish amaliyotida kompyuter texnologiyalariga oid yangi termin va tushunchalar faol qo'llanila boshlandi. Bularga *veb-elementni o'z ichiga olgan bir qator terminlar* kiradi: *veb-test, veb-resurs, darslikka veb-ilova, vebinar, veb-kvest* va boshqalar. Boshqa tomondan qaraladigan bo'lsa, *fonogramma, videogramma, lingafon* kabi terminlar kam qo'llaniladigan bo'ldi. Til o'qitishda AKTdan foydalanish bilan bog'liq yangi terminlar ham paydo bo'ldi: *elektron lingvodidaktika, elektron pedagogika, kompyuter yordamida til o'qitish, elektron til o'qitish formati* va boshqalar.

Mutlaqo yangi terminlar orasida quyidagilarni qayd etish mumkin: *massive open online courses-ommmaviy ochiq onlayn kurs (MOOC)* - bu maxsus ta'limiy internet-kurs bo'lib, til o'rganishni xohlaganlar uchun bepul foydalanish imkoniyatini beradi. Maxsus kompyuter dasturlari yordamida tashkil qilingan bunday o'quv kurslar Amerikaning yuqori reytinglarida o'rin egallaydigan Garvard, Stenford va shu kabi boshqa universitetlar tomonidan taklif qilinmoqda. O'zbek tilida ham inglizcha imloga asoslangan MOOC qisqartmasi yoki o'zbek tiliga o'girilgan qisqartma OOOK shakllari ishlatila boshlandi.

Ingliz tilidagi terminlarning ma'lum qismi chet tilini o'zlashtirishning psixologik xususiyatlari bilan bog'liq, jumladan, chet tilini o'zlashtirishning ma'lum psixologik va fiziologik bosqichlari, masalan: *critical period, critical period hypothesis, sensitive period, fossilization, stabilization*. O'zbek tilida bunday terminlar lingvodidaktika bo'yicha mavjud bo'lgan ilmiy tadqiqotlarda alohida ta'kidlanmagan, ya'ni ushbu tematik guruhga oid maxsus lingvodidaktik terminologiya endi shakllanmoqda.

**Xulosa.** Lingvodidaktik terminologiya doimiy ravishda rivojlanib boradi, yangi terminlar paydo bo'ladi, ba'zi terminlar ommalashib boradi, boshqalari esa muomaladan chiqadi. Bu terminlarning faolligi ularning o'sha davrdagi til o'rganish maqsadlari va shartlaridan kelib chiqadi. Masalan, XX-asrning 60-70-yillarida tilning fonetik jihatini o'rganishga, til modellari va namunalariga ustuvorlik berilgan bo'lsa, keyingi yillarda, asosan, o'quvchining ta'limdagi roli, matn xususiyatlari, til o'rganish strategiyalari, o'quv dasturlari kabilarga e'tibor ko'proq qaratilganligi kuzatiladi. Bu kabi o'zgarishlar o'zbek tilidagi lingvodidaktik terminlarning qo'llanilishini o'rganishda ham yaqqol namoyon bo'ladi. Hozirgi davrda o'zbek lingvodidaktik terminologiyasida, bizning fikrimizcha, eng ko'p uchraydigan terminlar: *ko'nikma*, *kompetentsiya*, *diskurs*, *munosabat*, *baholash*, *feedback* va h.k.z. Sohaviy adabiyotlarda ma'lum termin va tushunchalarning tez-tez qo'llanilishi ilmiy paradigmalarning o'zgarishi, lingvistik va uslubiy tadqiqotlar yo'nalishining o'zgarishini ko'rsatuvchi muhim faktor bo'lib xizmat qiladi. Lingvodidaktik terminologiyani o'rganish va taqqoslash o'zbek lingvodidaktik terminologiyasining o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash va uning rivojlanishining asosiy yo'nalishlarini aniqlash imkonini beradi. Uch til doirasida terminologik va kontseptual tizimni solishtirish chet tili o'rganishdagi muammo va qiyinchiliklarni qayta ko'rib chiqish, tillarni o'qitish sohasidagi individual milliy an'analarning o'ziga xos jihatlari, afzalliklari va qiyinchiliklarini aniqlash imkonini beradi. Chet tillarini o'qitish sohasidagi terminologiya va tushunchalarning standartlashtirilgan va taqqoslanadigan tavsiflari o'zbek o'quvchilarining xorijiy tillarni o'rganish amaliyotiga ijobiy ta'sir ko'rsadi.

### ADABIYOTLAR:

1. Азимов Э.Г., Щукин А.Н. *Новый словарь методических терминов и понятий (теория и практика обучения языкам)*. - М.: Икар, 2009.
2. Колесникова И.Л., Долгина О.А. *Англо-русский терминологический справочник по методике преподавания иностранных языков*. - М.: Дрофа, 2008.
3. Ловцевич Г.Н. *Кросскультурный терминологический словарь как словарь нового типа (на материале английских и русских терминов лингводидактики): Автореф. дисс. ... д-ра филол. наук.* - М., 2010.
4. Федюнина С.М. *Англоязычная и русскоязычная лингводидактическая терминология в лингвистическом и экстралингвистическом аспектах исследования*. - Саратов, 1988.
5. Щербина С.И. *Развитие русской терминологии сравнительно-исторического языкознания: Автореф. дисс. ... д-ра филол. наук.* - М., 2004.
6. Гальскова Н.Д. *Новые технологии обучения в контексте современной концепции образования в области языков // Иностранные языки в школе.* -2009. - № 7. - С. 9 - 15.
7. Hunter D., Smith R. *Unpackaging the past: 'CLT' through ELTJ keywords // English language teaching journal.* - 2012. - 66 (4). - P. 430-439.
8. Jack C.Richards, Richard Schmidt. *Longman Dictionary of Language Teaching and Applied Linguistics.* – Pearson Education Limited, 2010. – 654 p.
9. Jamol Jalolov. *Chet tili o'qitish metodikasi.* – Toshkent: O'qituvchi, 2012. – 430 b.
10. Jurayev R.X., Tolipov O'.Q. va b. *Pedagogik atamalar lug'ati.* – Toshkent, 2008. – 136 b.
11. Xoliqulov I.B. *Chet tili o'qitishning metodikasi va nazariyasi//Iqro jurnali/2023*  
CrossrefDoi:<https://doi.org/10.37547/iqro-volume04-issue01-41>

## TARJIMA JARAYONIDA ASL MATNNING SEMANTIK VA PRAGMATIK JIHATLARINI SAQLASH MASALALARI

*Yaqubova Mahbubaxon Mamatismailovna,  
Andijon davlat chet tillari instituti o'qituvchisi  
mahbubahon270@gmail.com*

**Annotatsiya.** Mazkur maqola tarjima jarayonida kompressiya va dekompressiya hodisalarini o'rganishga bag'ishlangan. Kompressiya tarjima paytida asl matnni siqilishini anglatadi, dekompressiya, aksincha, asl xabarni kengaytirishni nazarda tutadi. Maqolada ushbu hodisalarning sabablari, mexanizmlari va tarjima sifatiga ta'siri rus va ingliz tillaridagi badiiy asarlar, publitsistik va ilmiy-ommabop matnlar hamda ularning tarjimalari misolida atroflicha tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, kompressiya va dekompressiya tillar o'rtasidagi tizimli farqlar tufayli yuzaga keladi va til tizimining barcha darajalariga ta'sir qiladi. Haddan tashqari kompressiya yoki dekompressiya tarjima sifatini pasaytirishi mumkin, shu bois tarjimon bu hodisalarni yengish uchun maxsus strategiyalarni qo'llashi lozim. Maqolada tarjima ekvivalentligi va adekvatligiga erishish uchun asl matnni chuqur tahlil qilish va tarjima tili me'yorlarini hisobga olish zarurligi ta'kidlanadi. Umuman olganda, maqolada tarjimashunoslikning dolzarb muammolaridan biri har tomonlama yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** kompressiya, dekompressiya, tarjima, ekvivalentlik, adekvatlik, yengish strategiyalari.

## ВОПРОСЫ СОХРАНЕНИЯ СЕМАНТИЧЕСКИХ И ПРАГМАТИЧЕСКИХ АСПЕКТОВ ОРИГИНАЛЬНОГО ТЕКСТА В ПРОЦЕССЕ ПЕРЕВОДА

**Аннотация.** Данная статья посвящена изучению явлений сжатия и декомпрессии в процессе перевода. В то время как сжатие относится к сжатию исходного текста во время перевода, декомпрессия, с другой стороны, относится к расширению исходного сообщения. В статье подробно проанализированы причины, механизмы и влияние этих явлений на качество перевода на примере художественных произведений, публицистических и научно-популярных текстов на русском и английском языках, а также их переводов. Результаты исследования показывают, что сжатие и декомпрессия вызваны структурными различиями между языками и влияют на все уровни языковой системы. Чрезмерное сжатие или декомпрессия могут снизить качество перевода, поэтому переводчик должен использовать специальные стратегии для преодоления этих явлений. В статье подчёркивается необходимость глубокого анализа исходного текста и учёта языковых норм перевода для достижения эквивалентности и адекватности перевода. В целом статья всесторонне осветила одну из актуальных проблем переводоведения.

**Ключевые слова:** компрессия, декомпрессия, перевод, эквивалентность, адекватность, стратегии преодоления.

## ISSUES OF PRESERVING THE SEMANTIC AND PRAGMATIC ASPECTS OF THE ORIGINAL TEXT IN THE PROCESS OF TRANSLATION

**Abstract.** This article is devoted to the study of the phenomena of compression and decompression in the translation process. While compression implies compression of the original text during translation, decompression, in contrast, implies expansion of the original message. The article analyzes the causes, mechanisms and impact of these phenomena on the quality of translation in detail on the example of works of art in Russian and English, publicistic and popular science texts and their translations. The results of the study show that compression and decompression are caused by systematic differences between languages and affect all levels of the language system. Excessive compression or decompression can reduce the quality of translation, so that the translator must apply special strategies to overcome these phenomena. The article emphasizes the need to thoroughly analyze the original text and take into account the norms of the translation language in order to achieve translation equivalence and adequacy. In general, the article has comprehensively covered one of the pressing problems of translation.

**Keywords:** compression, decompression, translation, equivalence, adequacy, coping strategies.



**Kirish.** Tarjima jarayoni murakkab aqliy faoliyat bo'lib, unda tarjimon yakuniy natija sifatiga ta'sir qiluvchi ko'plab lingvistik va ekstralingvistik omillarga duch keladi. Ushbu omillardan biri manba va tarjima tillari o'rtasidagi tafovutlar natijasida yuzaga keladigan kompressiya va dekompressiya hodisalaridir.

Kompressiya tarjima paytida asl matnning siqilishini o'z ichiga oladi, bu tarkib kamayadi yoki shaklning bir qismini yo'qotishiga olib keladi [1]. Dekompressiya, aksincha, asl xabarni kengaytirishni o'z ichiga oladi, bu ma'lumotlarning ko'payishiga yoki tarjima tilining stilistik me'yorlarining buzilishiga olib kelishi mumkin [2]. Ushbu hodisalar grammatik tuzilish, leksik tizim va tillarning stilistik normalaridagi farqlar bilan bog'liq.

Masalan, rus tilidan ingliz tiliga tarjima qilinganida, ingliz tilida jins toifasi yo'qligi sababli kompressiya tez-tez sodir bo'ladi, bu esa sifatlar va kesimlarning tegishli sonlarining qoldirilishiga olib keladi [3]. Bundan tashqari, rus tilida ko'p qismli konstruksiyalar keng tarqalgan bo'lib, ular ingliz tiliga tarjima qilinganda ko'pincha ixcham ekvivalentlar bilan almashtiriladi.

Boshqa tomondan, ingliz tilidan rus tiliga tarjima qilishda dekompressiya zarurati paydo bo'lishi odatiy hol emas, chunki rus tilida ingliz tiliga xos bo'lgan ba'zi grammatik tuzilmalar, masalan, gerund, qatnashuvchi burilishlar yoki mutlaq qatnashuvchi konstruksiyalar mavjud emas.

Shunday qilib, kompressiya va dekompressiya tarjima jarayonining muqarrar hodisalari bo'lib, ular yakuniy mahsulot sifatiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin. Tarjimon ushbu hodisalarni hisobga olishi va tarjimaning ekvivalentligi va yetarililigi erishish uchun tegishli strategiyalarni qo'llashi kerak.

Kompressiya va dekompressiya muammosini o'rganishning ahamiyati bir necha omillarga bog'liq. Birinchidan, ushbu hodisalar asl matn tarkibini uzatishning aniqligi va to'liqligiga bevosita ta'sir qiladi, bu huquqshunoslik, texnik hujjatlar, rasmiy hujjatlarni tarjima qilish va boshqalar kabi sohalarda alohida ahamiyatga ega. Ikkinchidan, kompressiya va dekompressiya asl nusxaning stilistik xususiyatlarini saqlab qolish masalalariga ta'sir qiladi, bu badiiy adabiyot, jurnalistika va badiiy adabiyotni tarjima qilishda juda muhimdir. uslub asosiy rol o'ynaydigan boshqa janrlar ham mavjud. Uchinchidan, kompressiya va dekompressiya mexanizmlarini o'rganish umumiy tarjima nazariyasini rivojlantirishga va bir tildan boshqasiga tarjima qilishda sodir bo'ladigan jarayonlarni yaxshiroq tushunishga hissa qo'shishi mumkin.

Ushbu **mavzuning dolzarbligi shuki**, bugungi kunda tarjima jarayonida kompressiya va dekompressiya hodisalarini har tomonlama tahlil qilishga bag'ishlangan keng qamrovli tadqiqotlar mavjud emas. Ushbu maqola bu kabi bo'shliqni to'ldirish va ushbu hodisalarning tizimli tavsifini, ularning sabablarini, mexanizmlarini va tarjima sifatiga ta'sirini taklif qilish, shuningdek kompressiya va dekompressiyaning salbiy oqibatlarini bartaraf etish yo'llarini belgilash uchun mo'ljallangan.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Tarjima jarayonida kompressiya va dekompressiya hodisalarini o'rganish uchun rus va ingliz tillaridagi asl matnlarning qiyosiy tahlili va ularning boshqa tilga tarjimalari o'tkazildi. Tadqiqot materiallari sifatida tanlanganlar:

- Rus va ingliz tilidagi mualliflarning badiiy asarlari va ularning tarjimalari.
- Rus va ingliz tillarida publitsistik matnlar (gazeta va jurnallardan maqolalar) va ularning tarjimalari.
- Rus va ingliz tillarida turli bilim sohalari bo'yicha ilmiy-ommabop matnlar va ularning tarjimalari.

Tahlil qilingan materialning umumiy hajmi taxminan 500 sahifa matnning tashkil etdi.

Tahlil uchun material tanlashda quyidagi mezonlar hisobga olingan:

- Matnlarning janr xilma-xilligi (badiiy, publitsistik, ilmiy-ommabop).
- Matnlarning turli xil mavzulari va stilistik ranglari.
- Professional tarjimonlar tomonidan yuqori sifatli tarjimalarning mavjudligi.
- Turli til juftliklarining vakili (rus-ingliz, ingliz-rus).

Materialni tanlash ochiq manbalardan, shu jumladan bosma nashrlar va Internet-resurslardan uzluksiz namuna olish usuli bilan amalga oshirildi. Mualliflar ham rus, ham xorijiy yozuvchilar, jurnalistlar va olimlar.

Tahlil bir necha bosqichda o'tkazildi:

1. Tarjima qilingan matnlarda kompressiya va dekompressiya holatlarini asl matnlar bilan taqqoslash orqali aniqlash.
2. Aniqlangan holatlarni turlari bo'yicha tasniflash (grammatik, leksik, stilistik).
3. Har bir holatda kompressiya va dekompressiya sabablarini tahlil qilish.
4. Kompressiya va dekompressiyaning tarjima sifatiga ta'sirini baholash (ekvivalentlik va adekvatlik).
5. Tarjimaning ekvivalentligi va yetarililigi erishish uchun kompressiyaning va dekompressiyaning yengish strategiyasini ishlab chiqish.

Tadqiqot natijalari miqdoriy va sifatli tahlil usullari yordamida qayta ishlandi.

**Natijalar va ularni muhokama qilish.** Tadqiqot materialining tahlili shuni ko'rsatdiki, kompressiya va dekompressiya hodisalari tarjima jarayonida juda keng tarqalgan va til tizimining turli darajalariga ta'sir qiladi.

Grammatik darajada kompressiya ko'pincha quyidagi hollarda rus tilidan ingliz tiliga tarjima qilinganida kuzatiladi:

- Jins toifasini bildiruvchi sifatlar va kesimlarning oxirlarini tashlab yuborish (красивая девушка - a beautiful girl).
- Ko'p qismli tuzilmalarni yanada ixcham ekvivalentlar bilan almashtirish (Лицо его было бледным - His face was pale).
- Egalik olmoshlarining qoldirilishi (Его книга - The book).
- Infinitiv burilishlar (То err is human - Ошибаться свойственно человеку).
- Elliptik jumlarlar (Silence! - Тишина!; No smoking - Не курить).

Ingliz tilidan rus tiliga tarjima qilishda grammatik darajadagi dekompressiya, xususan, uzatishda sodir bo'ladi:

- Gerund aylanishlari (Reading books is my hobby - Чтение книг является моим хобби).
- Ishtirok etish burilishlari (The man standing over there is my friend - Человек, стоящий там, является моим другом).
- Mutlaq ishtirokchi konstruksiyalar (The weather being fine, we went for a walk - Так как погода была хорошей, мы пошли на прогулку).

Leksik darajada kompressiya ko'pincha quyidagilar tufayli yuzaga keladi:

- Tarjima qilingan tilda semantik jihatdan ortiqcha bo'lgan so'zlarning qoldirilishi (Он остановился посередине комнаты - He stopped in the middle).
- Ta'riflovchi iboralarni bir so'zli ekvivalentlar bilan almashtirish (Человек, который работает в полиции - Полицейский).

Leksik darajadagi dekompressiyaga quyidagilar sabab bo'lishi mumkin:

- Tarjima qilingan tilda ma'lum bir tushunchani yetkazish uchun bir so'zli ekvivalentning yo'qligi (The wallpaper - Обои на стене).
- Ma'noni to'g'ri yetkazish uchun aniq so'zlarni qo'shish zarurati (They were playing chess - Они играли в шахматы).

Uslub jihatidan kompressiya ko'pincha quyidagilar uchun ishlatiladi:

- Tautologiya va pleonazmani yo'q qilish (Он выглядел бледным цветом лица - He looked pale).
- Haddan tashqari emfatiklikdan qochish (Я абсолютно уверен - I'm sure).

Dekompressiya stilistik maqsadlarda quyidagilar uchun ishlatilishi mumkin:

- Gapni yumshatish (You are wrong - Вы не совсем правы).
- Ekspressivlikni kuchaytirish (It was fun - Это было очень весело).

Tahlil shuni ko'rsatdiki, kompressiya va dekompressiya o'z-o'zidan salbiy hodisalar emas. Ular ma'lum kontekstlarda asosli va hatto zarur bo'lishi mumkin. Biroq, haddan tashqari kompressiya yoki dekompressiya tarjimaning ekvivalentligi va yetarililigining buzilishiga olib kelishi mumkin.

Joe Black: I have the feeling, all in all, what I made this voyage for has served its purpose.

Bill: What are you saying? It's time to go? I'm ready.

(Meet: Joe Black, 1:32:16 min.)

Ўзбекча:

Жо Блэк: Бир нарсани ҳис қилдим. Нима мақсадда келган бўлсам, бажариб бўлдим шекилли.

Билл: Нимага ишора қиялсан? Паймонам битдими? Мен тайёрман.

(Танишинг, Жо Блэк, 1:29:56 дақ.)

Аслиятда қўлланган *It's time to go?* жумласи тўғридан-тўғри вақт бўлди ми? Кетамизми? тарзида таржима қилинади, ваҳоланки, мазкур контекстда *It's time to go?* ибораси контекстуал эвфемизм бўлиб, фоний дунёдан боқий дунёга рихлат қилмоқ, бир макондан иккинчисига кўчмоқ маъносини изоҳлаб келган. Ўз навбатида мазкур жумланинг ўзбек тилига таржимаси сифатида тақдим этилган Паймонам битдими? ибораси суҳбатнинг прагматик жиҳатини тўлақонли очиб беришга хизмат қилган.

Куйидаги суҳбатда оғир хаста аёл рўпарасида турган инсон қиёфасидаги номаълум кишининг шахсини аниқлашириш мақсадида у билан мулоқотга киришади.

Инглизча:

A sick woman: What are you then?

Joe Black: I am from that next place.

(Meet: Joe Black, 1:03:44 min.)

Ўзбекча:

Бемор аёл: Кимсан?

Жо Блэк: Ўзга оламданман.

(Танишинг, Жо Блэк, 1:02:56 дақ.)

Биз бошқа ўринларда ҳам that кўрсатиш олмошининг контекстуал эвфемизм сифатида қўлланиш ҳолатларига тўхталиб ўтганмиз. Хукмингизга ҳавола этилган юқоридаги суҳбатда ҳам бу ҳолатга гувоҳ бўлишингиз мумкин. That олмоши - “сиз билган ўша” маъносини англатиб, that next place бирикмаси эса “англаганингиздек, мен ўша ерликман...” деган фикрни ифодалайди. Ҳар икки тилда келтирилган эвфемизмлар ҳақиқатни ғилофлаш мақсадида ишлатилган деган хулосага келдик.

*Окказионал эвфемизмлар.* Одатда сўзловчи томонидан тор доирада фойдаланиш учун яратилган, нутқ momentiда фақатгина бир марта қўлланадиган ва эвфемизацияга аниқ прагматик муносабат билан алоҳида нутқ актига қаратилган бўлади. Окказионал эвфемистик бирликлар сўзлар семантикасидаги ўзгаришлар натижасида юзага келади. Тилда окказионал эвфемистик бирликларни қўллашнинг прагматикаси мулоқот иштирокчиларининг коммуникатив-прагматик вазият параметрларига мувофиқ лингвистик белгиларнинг тизимли имкониятларидан онгли равишда фойдаланишида ётади, бунинг натижасида окказионал эвфемизмлар бир вазиятда ўринли бўлса, бошқасида ўринсиз бўлиши мумкин. Шунга кўра, окказионал эвфемистик номинация нутқ субъектларининг лингвистик ва коммуникатив компетенциясини белгилайдиган мутлақ табиий жараёндир. Окказионал эвфемизмлар, аввало, ноодатий ҳосил бўлиш механизмига кўра фарқланади. Айни пайтда, уларнинг семантик ўзига ҳослиги ҳам яққол кўзга ташланади, окказионал эвфемизмлар кўп ҳолларда ҳали тилда муҳрланмаган янги маънони ўз ичига олади. Окказионал эвфемизмлар ўзининг ноодатий шакли, сирли маъноси билан озми-кўпми мулоқот иштирокчилари эътиборини ўзига қаратади. Бундай эвфемизмларга мисоллар фақат эвфемизмга бағишланган махсус тадқиқотларда ёки ўзига хос муаллиф услубига эга бўлган адабий асарларда учрайди. Турли хил услублар, адабий йўналишлар ва жанрларга оид асарларда окказионал эвфемизмларни кўплаб учратиш мумкин: уларни ёрқин прагматик йўналтирилганлик ва сусайган ғилофлаш функцияси орқали таниб олиш имконияти мавжуд. Масалан, Форрест Гамп фильмида балиқ сотувчи аёл пештахтага бакир балиғини (осётр) териб қўяди. Балиқ сотиб олишга келган Форрест балиқни аввал хидлаб кўради ва шундан сўнг унга ўз баҳосини беради. Бундай ҳолатда балиқ “эскирган, хидланган” дейиш ўрнига Форрест “харидорини кутиб қолган” балиқ дея ўз норозилигини билдиради. Келтирилган мисолда окказионал эвфемизмларининг ҳосил бўлиш табиати ҳақида тасаввурга эга бўла оламиз.

Шундай қилиб, мутаржим, аввало, ўз кучи ва вақтини ниманинг таржимасига сарфлаётганини аниқлаб олиши керак: миллий-маданий кодни ўзида мужассам этган тил бирликларини ёки универсал ибораларни. Шундагина у тўғри таржима стратегиясини танлай олади ва натижада асар аслият тили ўқувчиларига қандай ҳиссий таъсир кўрсатса, реципиентга ҳам худди шундай таъсир кўрсатишига эришилади.

Эвфемизмлар таржимаси билан боғлиқ қийинчиликлар таржима жараёнининг исталган босқичида намоён бўлиши мумкин: уларни матнда таниш (аниқлаш) дан тортиб, матнда ифодалаётган мазмунни англаш ва услубий жиҳатдан ҳамохангликка эришишгача бўлган жараён таржимондан кучли билим ва кенг дунёқарашни талаб қилади. Баъзида таржима тилида муайян бир эвфемизмнинг эквиваленти мавжуд бўлмаслиги ёки муқобил варианты мавжудлигига қарамай, мазкур эвфемик бирлик муайян бир контекстга мос келмаслиги ва ғилофлаш вазифасини тўлақонли юзага чиқара олмаслиги ҳолатлари учрайди.

Тилшуносликда эвфемик бирликларнинг табиатини ўрганиш анча олдин бошланганига қарамай, уларнинг таржимаси билан боғлиқ муаммолар ҳали хануз ўз ечимини кутмоқда, айниқса контекстда эвфемизмни таниш (аниқлаш) ва таржима жараёнида уларнинг адекват муқобилини танлаш мутаржим учун бирмунча қийинчилик туғдиради. Тилда истифода этиладиган эвфемизмларнинг ҳар бири ҳар доим ҳам изоҳли луғатларга киритилмаслиги ва улар икки тилли луғатларда нисбатан камроқ учрашини ҳисобга олган ҳолда, эвфемизмлар таржимасида энг асосий муаммо уларни аслият тилига асосланиб талқин қилиш заруратида намоён бўлади. Айнан шунинг учун ҳам эвфемизмлар таржимасини ижодий жараён деб ҳисоблаш мумкин ва бу контекстни англаб етишда ва уни талқин қилишда таржимондан яхшигина маҳоратни талаб қилиши муқаррар. Таржима жараёнида эвфемизмларнинг адекват эквивалентини танлаш жараёни икки босқичдан иборат:

контекстда эвфемизмларни аниқлаш ва уларнинг мазмунини қайта тиклаш. Контекстда эвфемизмларни аниқлаш жараёни деганда эвфемик бирликнинг уч турдаги мазмунини белгилаш тушунилади [2]. Н.К. Гарбовскийнинг таъкидлашича, дастлаб объектнинг фақат асосий хусусиятларини акс эттирувчи нейтрал (денотатив) маъно - нейтрал синонимни топиш муҳим ҳисобланади. Шундай қилиб, "ногирон" (invalid, cripple) ҳақоратли сўзи учун "қобилияти чекланган одам" сўз бирикмаси нейтрал синоним бўла олади. Шундан сўнг, лингвистик белгининг ички шакли-мазмуни белгилаб олинади. Бунда, invalid сўзини "someone who cannot use their legs or arms in a normal way" бирикмаси тўлақонли изоҳлагани ҳолда, "ўз оёқ-қўлларинидан тўлиқ фойдалана олмайдиган одам" бирикмаси ҳам ўз навбатида invalid сўзинининг ички мазмунини очиб беришга хизмат қилади. Кейинги босқичда таржима қилинаётган бирликнинг стилистик синонимлари орасидаги ўрнини аниқлаш муҳим аҳамиятга эга. *People with special needs, a person who has a congenital disability, physically/intellectually/vertically challenged, differently abled* юқорида келтирилган invalid сўзинининг стилистик синонимларидир. Таржимоннинг маҳорати ҳам айнан мавжуд синонимлар орасидан контекстга мос ва адекват бўлганини танлай олишида яққол кўринади. Эвфемизмлар мазмунини қайта тиклаш босқичи уларнинг муқобил эквивалентларини қидириш ва саралаш жараёнини назарда тутати. Аввало, контекстда эвфемизмни аниқлаш босқичида танланган нейтрал синонимга денотатив эквивалентни белгилаш керак бўлади. Синонимик қатордан бошқа услубга мансубларини чиқариб ташлаш, шундан сўнг ажратиб олинган синонимлар орасидан таржима тилига айнан мос тушадиган эквивалентни танлаб олиш мақсадга мувофиқ. Стилистик парадигмадан ўхшаш метафорик асосга эга бўлган сўзни танлаш бу жараённинг охириги босқичи ҳисобланади. Эвфемизмларни ўрганиш соҳасида аллақачон маълум назарий ишланмалар мавжудлигига қарамай, тилшунослар уларни таржима қилишнинг самарали усуллари юзасидан ҳали ҳам бир фикрга келишмаган.

Эвфемизмларнинг лингвистик бирлик сифатида яна бир муҳим хусусияти уларнинг кўп функциялилигидир. «Большой энциклопедический словарь» да келтирилган таърифга кўра, лингвистик бирликнинг вазифаси "унинг моҳиятини белгилайдиган мақсад, ушбу мақсадни доимий равишда бажариш қобилияти ва ушбу қобилиятнинг намоён бўлишининг амалга оширилган натижаси" деб тушунилади [3].

Ҳозирги кунда эвфемизм нафақат лингвистик, балки бир қатор бошқа йўналишларда ҳам тадқиқ қилинмоқда. Шуни таъкидлаш керакки, эвфемизмларнинг функцияларини тадқиқ қилаётганда, маҳаллий ва хорижий тилшунослар биринчи навбатда "эвфемизм" атамасига тадқиқот натижалари асосида келинган хулоса ва изоҳларга таянадилар. Бундан келиб чиқадиган нарса, биринчи навбатда, атаманинг этимологияси унинг асосий функциясини акс эттиради. Шундай қилиб, Д.Н.Шмелев, эвфемизмларни маълум шароитларда тингловчи учун номақбул кўринадиган, ўта кўпол туюладиган белгиларни алмаштиришга хизмат қиладиган сўзлар ёки иборалар деб таърифлаб, "ахлоқий, юмшатувчи" функциясини асосий вазифа сифатида белгилайди [5]. Эвфемизмларнинг функцияларини аниқлашда турли хил ёндашувлар мавжуд. Масалан, В.П. Москвин "Эвфемизмлар: тизимли алоқалари, функциялари ва усуллари" мақоласида эвфемизмларнинг асосий функциялари ва функционал турларини уларнинг фойдаланиш соҳаларига асосланиб таъкидлайди:

- 1) кўрқинчли нарсалар ва ҳодисаларнинг номларини алмаштириш;
- 2) нохуш нарсани тўғридан-тўғри номи билан чақиришни истамаслик;
- 3) маълум бир даврда ва маълум бир жамиятда номақбул деб ҳисобланган сўзларни ёки ибораларни алмаштириш;
- 4) суҳбатдошни ёки учинчи томонни хафа қилишдан кўркиб, тўғридан-тўғри аташдан қочиш (одоб-ахлоқ эвфемизмлари);
- 5) нарса ёки ҳодисанинг асл моҳиятини бузиб кўрсатиш ёки никоблаш;
- 6) муайян ижтимоий гуруҳнинг фикрига кўра, обрўли бўлмаган касблар ва ташкилотларнинг нуфузини кўтариш [6].

Иккинчидан, "эвфемизм" тушунчасининг ноаниқлиги ва уни талқин қилишнинг кўплаб ёндашувлари мавжудлиги сабабли, олимлар томонидан эвфемизмнинг индивидуал функцияларини белгилашда турлича қарашлар мавжуд. Л.П. Крысин "Эвфемизмы в современной русской речи" асарида эвфемизмлардан фойдаланишнинг учта асосий функциясини ажратиб кўрсатган:

- 1) кўпол ва тингловчи учун ёқимсиз туюладиган сўзни юмшатиш;
- 2) ҳақиқатни ғилофлаш, камуфляж;
- 3) ҳақиқатни яшириш.



Л.П.Крысинга кўра эвфемизмларнинг *юмшатиш функцияси* ижтимоий ва шахслараро муносабатларда асосий мақсад бўлиб хизмат қилади. Бу ерда асосий кўзланган мақсад суҳбатдошда коммуникатив ноқулайлик хиссини яратмаслик, коммуникатив тўқнашувлар ва муваффақиятсизликлардан қочиш кабиларда намоён бўлади.

*Ҳақиқатни ғилофлаш.* Ушбу мақсадда эвфемизмлардан объект, ҳаракат ва воқеликка тўғридан-тўғри ишора қилиш ҳамда номлаш оқибатида номақбул ижтимоий таъсирга, оммавий мурожаатнинг салбий реакциясига, қоралашга ва бошқаларга олиб келиши мумкин бўлган ҳолларда фойдаланилади. Бундай эвфемик иборалар маълум даражада адресат учун ёқимсиз бўлган тушунчалар ва ҳаракатларнинг моҳиятини яширади. Улар оммавий ахборот воситаларида, айниқса, сиёсий, иқтисодий ва дипломатик нутқларда кенг қўлланилади.

*Ҳақиқатни яшириш.* Бу фақат адресатгагина тушунарли бўладиган нарсаларни етказиш истагидан иборат. Шу нуқтаи назардан қараганда, эркаклар ва аёллар ўртасидаги муносабатларга оид турли хил шахсий муносабатлар ушбу функция учун жуда характерлидир. Бундай ҳолларда сўзлар ва иборалар луғатдаги маъноларида эмас, балки адресат етказмоқчи бўлган маъноларда ишлатилади [7].

**Таҳлил.** Н.Ц.Босчаева кундалик мулоқотда асосий функция сифатида тингловчида ноқулайлик хиссини уйғотмаслик, коммуникатив безовталиқнинг олдини олиш функциясини қайд этади. Бундан ташқари, муаллиф қадимги табулар таъсири остида юзага келган эвфемизмлардан фойдаланишнинг ҳимояловчи ва риторик (таъсир қилувчи) функциялари аниқлаб, ушбу функциялар кундалик алоқа учун иккинчи даражали эканлигини таъкидлаган [8]. Кенг маънода, эвфемизмлар ёқимли ёки энг камида беозор ифодалардир. Ушбу тил ҳодисасини чуқур тадқиқ қилиш жараёнида эвфемизмларнинг камида олти хил вазибаларини аниқладик ва таҳлил қилдик.

1. ҳимоялаш функцияси (эвфемизмдан қалқон сифатида фойдаланиш);
2. ғилофлаш функцияси (ҳақиқатни яшириш);
3. бўрттириш функцияси (иккинчи томоннинг руҳини кўтариш, ҳурматини ошириш);
4. провокацион (ошқор қилиш ва илҳомлантириш);
5. бирлаштириш функцияси (бирдамликни кўрсатиш ва ижтимоий гуруҳни аниқлашга ёрдам бериш);
6. ҳазил, мутойиба эвфемизмлари (завқланиш ва кўнгили очиш).

1. Эвфемизмлар ўзининг қочиримли тили ва ярим махфий ҳамда ярим ошқора табиати билан ажралиб туради. Биз ундан одатда қалтисроқ вазиятга дуч келганда ҳар бир сўз ёки жумлани ҳали тилда воқеланмасдан олдин цензурадан ўтказамиз. Ушбу функцияда эвфемизмларга табу-таъқиқларга жавобан яратилган “нозик мавзулар” дан қочиш воситаси сифатида қараш ўринлидир. Буларга – жинсий аъзолар, танамизда кечадиган биологик жараёнлар, жинсий алоқа, ғазаб, инсофсизлик, мастлик, ақлдан озиш, касаллик, ўлим, хавфли ҳайвонлар, кўрқув, Худо ва бошқалар мисол бўла олади. Табу сўзи илк марта инглиз тилига XVIII асрда Тонга тилидан кириб келганида, у маълум шахслар ёки бутун жамият учун хавфли деб ҳисобланган ҳатти-ҳаракатларни назарда тутган. Шу нуқтаи назардан, табуларга риоя қилмаслик даҳшатли оқибатларга олиб келишидан асосли равишда кўрққанлар ва эвфемизмларнинг тилда истифода этилиши том маънода ҳаёт ва мамот масаласи ҳисобланган. Ғарб дунёсидаги ижтимоий конвенциянинг табулари одоб-ахлоқ анъаналарига асосланади ва шунинг учун ёш, жинс, маълумот, ижтимоий мавқе каби параметрлар билан белгиланади. Кўпол, одобсиз ва ғайриижтимоий деб топилган бу мавзулар кундан-кунга ҳаддан зиёд ҳақоратли ва ўта долзарб дея баҳоланмоқда, чунки тил доимий равишда ўзгариб туради. Шундай экан, эвфемизмлар хушмуомала ва одобли нутқни яратишга хизмат қилади, дисфемизмлар эса аксинча ижтимоий конвенцияни бузиш орқали намоён бўлади. Масалан, ҳозирги кунда Ғарбда бегона одамлар олдида *my wife* ёки *my husband* каби ибораларни ишлатмасликка ҳаракат қилишмоқда. Бунинг ўрнига, улар расмий тил доирасида хотин ёки эрнинг ҳурматини ошириш ёки уларни мақташ мақсадида ҳар иккала томон *my partner* ибораларни ишлатадилар. Қолаверса, ўзбек халқи орасида *сансер* (ўсма касаллиги) сўзини тилга чиқаришдан олдин сўзловчи, одатда, табуга асосланган бир неча ҳаракатларни амалга ошириши, яъни тингловчининг қулоғини тортиб қўйиши ёки бир неча (*be it far from you*) ёки (*be it far from your head*) хитоблари билан суҳбатни бошлаш одати мавжуд. Бу орқали сўзловчи Худонинг ўзи суҳбат иштирокчиларининг барчасини бундай кўрқинчли касалликдан асрашига умид боғлайди.

2. Ҳар қандай эвфемизмда яширин ифода ётади. Табулашган лексика ўрнида қўлланилаётган эвфемик бирлик ҳеч қачон контекстда англашилаётган “ёқимсиз” тушунчани тўғридан-тўғри номламайди. Аксинча, ҳарбий, сиёсий ва тиббий жаргонлар учун эвфемистик бўёқдан фойдаланган ҳолда асл тушунча ниқобланади, ғилофланади. Бу ерда эвфемизм ҳақоратни яшириш учун эмас,

балки мавзунни атайлаб ғилофлаш ва шу орқали тингловчини “алдаш, чалғитиш” мақсадида ишлатилади. Бошқача қилиб айтганда, оддий ва нокулай фактларни чалғитишга ва яширишга мўлжалланган жаргон ёки бир пайтлар Жорж Орвел таърифлаганидек, “expressions “designed to make lies sound truthful and murder respectable, and to give an appearance of solidity to pure wind” [8].

а) ҳарбий жаргонлар:

1. “The Taliban remains a force to be reckoned with, determined to reestablish its power base in Afghanistan”

[The forgotten war (01 Okt 2012)/The Telegraph].

Аслини олганда бу контекстда “to reestablish its power base” ибораси “to invade” “босиб олмоқ” маъносини англатади. Бу ерда эвфемизм қарама-қарши томоннинг тажовузкор ниятларини яширишга интилиш, шунингдек, айни пайтдаги ҳақиқатни “юмшатиш” учун қўлланилган.

2. Оммавий ахборот воситаларида “nuclear bomb” тушунчасини ифодалаш учун қўлланилган эвфемистик иборалар: device, unit, special weapon, modern weapon.

б) сиёсий жаргонлар:

1. Israel fears that if Syrian President Bashar Assad’s regime is toppled, the country could fall into the hands of Islamic extremists or descend into sectarian warfare, destabilizing the region [Israel fires at Syria for first time after mortar strikes military base.

(11 Nov 2012)/ The Washington Post].

Контекстда “can fall into the hands of Islamic extremists” ибораси “Islamic extremists can get hold Syria” ибораси ўрнида қўлланилган.

2. “It shows it’s not just lads from council estates putting their lives on the line for this country” [Harry’s staying put ... he won’t run from the Taliban.

(16 Sept 2012)/ The Sun].

“To put their lives” иборасини “to die” феъли ўрнида қўлланиганини кузатишимиз мумкин.

в) тиббий жаргонлар:

1. Your baby is born sleeping.

“Born sleeping” ибораси “born dead” (ўлик туғилган) иборасининг нисбатан беозорроқ шаклидир.

- falling sickness – epilepsy;  
social disease - venereal disease;  
terminal patient - death sick;  
hot flashes – menopause.

Бу борада олиб борилган тадқиқотлар шуни кўрсатадики, “ғилофланган тил” ҳақиқатан ҳам инсоннинг хотираси, идроки ҳамда руҳиятига сезиларли даражада таъсир қилиши мумкин.

Ғилофлаш функцияси юклатилган эвфемизмлардан жамиятнинг зиддиятли фаолият билан боғлиқ соҳаларида самарали фойдаланилади. Бунда махфийлаштирилиши талаб этилаётган тушунчанинг жирканч табиатини яшириш функциясига эга бўлган эвфемистик синонимларга эҳтиёж сезилади. Бунга гиёҳванд моддаларнинг ноқонуний турлари ёки гиёҳвандлик фаолиятига тегишли кўча атамалари мисол бўла олади. Масалан: get snotty (“to use heroin”); candy sticks (“marijuana cigarettes laced with powdered cocaine”); lipton tea / lemonade (“poor quality drugs”).

3. Бўрттириш функциясидаги эвфемизмлар ҳақида гапирганимизда шубҳасиз, касб, ҳунар ёки бошқа гуруҳга хос бўлган тил, яъни жаргонлар билан тўқнашамиз. Бу каби эвфемизмларни ишлатишдан асосий мақсад бу “нуфузли бўлмаган ташкилот ва касб турлари” нинг жамият аъзолари олдида, ҳеч бўлмаганда мулоқот иштирокчилари орасида бир поғона бўлсада нуфузини оширишдан иборат. Барриж таъкидлаганидек, бу функцияни бажарадиган сўз ёки иборалар “бироз бўрттирувчи” табиатга эга бўлади [9]. Бошқача қилиб айтганда, ҳатто шу функция доирасида ҳам эвфемизм барибир мавжуд ифодалар орасидан энг мақбулини танлашни назарда тутати. Масалан, агар чиқиндини қайта ишлаш компаниясининг ходими телевидение ёки радио дастурида қайта ишлаш ҳақида олиб борилаётган суҳбатда rubbish сўзини қўлланиганини асло тарғибот деб тушунмаслик керак. Аслида унинг ўрнига нисбатан беозорроқ ва эшитилиши ёқимли бўлган trash ёки garbage сўзларидан фойдаланиш мақбулроқ ҳисобланади. Municipality сар эвфемистик бирлиги ҳам ўз навбатида мазкур соҳага тегишли ахлат ташувчи машина ўрнида ишлатилади. Sanitation engineer/worker ҳамда waste-reduction manager касб эгалари хозирги кунда нисбатан қўпол ҳисобланган garbage man ёки trash worker ўрнида қўлланилмоқда.

Job title	Possible euphemism
trash collectors	sanitation engineers
headhunter	talent acquisition specialist
paperboy	media distributor
museum tour guide	co-ordinator of interpretive teaching
undertaker	funeral director
stripper	exotic dancer

Undertaker (гўрков) сўзи ўрнига funeral director ифодаси қўлланила бошлади. Бу каби ўзгаришларда табунинг иштирокини инкор қилиб бўлмайди. Дафн маросими бевосита ўлим билан боғлиқ бўлганлиги учун уни ифодаловчи жаргонлар эвфемистик муқобилни талаб қилади.

4. Провокацион эвфемизмлар қаттиқ танқид остига олинган ҳаётий вазиятларда жуда кенг тарқалган. Умуман, мамлакатни, ўзлари мансуб бўлган ҳукуматни, давлат институтлари ёки ташкилотларини ёки сиёсий партияларни танқид қилмоқчи бўлган одамлар, айниқса ёзувчилар, табу мавзуларни омма олдида очиб бериш учун эвфемистик иборалардан фойдаланадилар. Шундай қилиб, Барриж бундай эвфемизмлар "очиб бериш ва илҳомлантириш" табиатига эга эканлигини таъкидлайди [10].

Турли маданиятларда кўплаб эвфемистик иборалар асосан тасалли бериш мақсадида қўлланилади. Мисол учун, ўғрилиқнинг ҳақиқий моҳиятини яширмоқчи бўлаётган инсон to steal ўрнига унинг бошқа муқобиллари, яъни to borrow, to take ёки to get билан алмаштирилиши мумкин. Ёқимсиз ҳақиқатни яшириш бундай эвфемизмлар табиатига хос эмас, улар аксинча тилда ўз аксини топган нотўғри қарашларга қарши туришга ундаш орқали салбий ижтимоий стереотиплар стигмасини олиб ташлашга ёрдам беради. Сиёсий жиҳатдан тўғри атамалар гуруҳнинг ўзига хос томонларини атайлаб таъкидлайди. Қора танлилар ҳамжамиятининг аъзоларини афро-америкаликлар деб аташ ислохотини ёқлаб чиқишганда, бу ирсият ёки тана рангига эмас, балки АҚШнинг бир қисмини ташкил этувчи гуруҳнинг тарихий илдизларига эътибор қаратиш лозимлигини кўрсатди, бу эса номни бошқа этник гуруҳларга мослаштиришни тақозо этди, яъни Japanese Americans ва Italian Americans.

Шубҳасиз, провокацион эвфемизмларда шунчаки хушмуомалалик ва ҳурматни сақлашдан кўра кўпроқ масъулият бор. Бироқ, ҳатто суҳбатдош олдида аввало ўз ҳурматини сақлаш юзни химоя қилиш вазифасини бажарадиган энг кенг тарқалган эвфемизмлар ҳам кўпинча аччиқ ҳақиқатни яширмайди; ўлимни ифодаловчи эвфемизмлар турли нуқтаи назарларни юзага келтиради, масалан, a journey- саёҳатга кетиш ёки go to a better place-янги ҳаётнинг бошланиши сифатида қабул қиладилар. Бу каби қарашлар ўлим мавзуси учун юпатувчи, тасалли берувчи образни юзага чиқаради.

А.Вайсбергнинг таъкидлашича, кўплаб тилларда провокацион эвфемизмлар сўзларга инкор ясовчи олд кўшимча қўшиш орқали ясалади ва улар ифодани 'юмшатиш' учун хизмат қилади [11].

<i>Undisired word</i>	<i>Euphemisms with negative prefixes</i>
blind	visually impaired
laid-off	less developed
illiterate	without knowledge
coward	without courage

5. Бешинчи функцияда бирдамликни кўрсатиш ва ижтимоий гуруҳни аниқлашга ёрдам бериш асосий мақсад қилиб белгиланган, демак, бу турдаги эвфемизмлар бир гуруҳга мансуб кишиларнинг маълум эвфемик жаргонни қўллаши ўша гуруҳни танишга ёрдам берувчи ҳамда уларни бошқа гуруҳлардан ажратиб турувчи ўзига хос хусусият сифатида намоён бўлади.

Табулар жамиятдаги инсонларни бир-бирига боғлайдиган умумий қадриятлардандир, улар ижтимоий ҳамжиҳатлик белгисига айланади. Сўзсиз риюя қилинадиган бу каби қадриятларнинг аксарияти чет элликлар учун ҳайратланарли ва аҳмоқона туюлиши мумкин. Ҳатто шу жамият ичидагилар ҳам кўпинча уларнинг пайдо бўлишига олиб келган сабабларни билишмайди. Натижада бир гуруҳ инсонлар бу қадриятга ҳурмат билан ёндашса, бошқаси назар-писанд қилмайди. Умумий табулар ва бизнинг эвфемистик ҳатти-ҳаракатларимизга ҳамроҳ бўлган маросим ва қадриятлар

маълум гуруҳнинг ўзига хослик ҳиссини оширади, ундан ташқари табулар ижтимоий тузилмани мустаҳкамлайди.

Жамиятдаги одамлар ўзларини бир ижтимоий ҳамжамиятга тегишли деб билишади, бу ерда улар учун эвфемик ва таъқиқланган сўз ва ибораларни бирдек қўллай олишлари ва тушунишлари ижтимоий ҳамжиҳатликнинг белгиси сифатида намоён бўлади. Бу шуни англатадики, жамият аъзоларининг муайян гуруҳлари орасидаги маълум бир вазиятларда (масалан, кафедрадаги йиғинлар, касалхонадаги шифокорлар ва ҳамширалар, суд залидаги адвокатлар, университетдаги ўқитувчилар ва бошқалар) мулоқотидаги эвфемизмларнинг барча гуруҳ аъзолари учун бирдек тушунарли бўлишининг ўзиёқ гуруҳнинг ўзига хослиги ва бирдамлигини оширади [12]. Ҳар куни касаллик, ўлим билан курашадиган касалхона ходимлари тилида табулашган лексика ўрнида қўлланиши тавсия этиладиган эвфемизмлар ёқимсиз ёки аччиқ ҳақиқатни яшириш орқали қалтис вазиятни енгиллаштиради. Масалан, касалхона ходимлари орасида *to revive the patient* ўрнига ECU (Emergency Care Unit) дейиш жуда кенг тарқалган ва шуниси аҳамиятлики, барча ходимлар учун бу эвфемистик бирлик бирдек тушунарлидир.

6. Эвфемизмларнинг олтинчи функцияси уларнинг ўйин-кулги ва кўнгил очиш мақсадида истифода этилиши билан намоён бўлади. Бунда сўзловчининг сўз ўйини маҳоратини кузатиш мумкин, чунки бу сўзловчининг тилни бошқариш қобилиятини кўрсатади. Инсонлар илк болалик давридан кексаликка қадар одатда суҳбатдан завқ олиш ва кўнгил очиш мақсадида товушлар, харфлар, сўзлар ҳамда иборалар билан том маънода “ўйнайдилар”, яъни тилдан моҳирона фойдалана олиш каби истеъдодларини намоёниш этадилар. Кўплаб эвфемизмлар асосан кўнгил очиш, ўйин-кулги учун яратилгани маълум. XVIII асрда аёллар жинсий аъзосини англатувчи амалда бўлган *vagina* сўзи ўрнига *miraculous pitcher, that holds water with the mouth downwards* (сувни пастга қаратиб ушлаб турадиган мўъжизавий кўза) ибораси қулгили, ҳазиломуз тарзда қўлланган.

**Муҳокама.** Ж.Айто баланд овозда ва мириқиб қулишни ифодалаш учун ҳам бир қатор эвфемизмлар мавжудлигини таъкидлаб ўтади [13]. Ҳаддан зиёд ҳазил-мутойибали вазиятда ҳар иккала инглиз ва ўзбек тили ташувчилари шунчаки “мириқиб қулдим” ибораси ўрнида *I laughed, I died, I exploded, I suffocated, Bring me water!* (кулгидан ўлдим, кулгидан думаладим, кулавериб бўғилиб қолдим, ўлдим, ичагим узилди) каби сўз бирикмалари ишлатилади. Инглиз тилида ахмоқ, дангаса сўзи ўрнида “*He will not invent a gun powder*” иборасидан кенг фойдаланилади. Шуни таъкидлаш жоизки, бундай иборалар маданий жиҳатдан ўзига хосдир, яъни улар бир маданиятдан иккинчисига лингвистик ва тематик жиҳатидан фарқ қилади. Масалан, “*He/she cannot even get flies away from him/her*” иборасидаги лексик бириклар юқоридаги мисолдаги сўзлардан тубдан фарқ қилади (*inventing a gun powder*), шунга қарамай ҳар иккала ибора ҳам киноя билан дангаса, ялқов, тепса-тебранмас табиатга эга инсонларни ифодалаш учун хизмат қилади.

Дисфемизмнинг социо-психологик аспекти ҳисобга олган ҳолда, муайян коммуникатив жараёнда яққол кўзга ташланадиган қуйидаги функциялари аниқланди:

1. Айблов функцияси (айблаш, бировнинг устидан ҳукм чиқариш).
2. Дисфемия қарши томоннинг ижтимоий мавқеига путур етказиш воситаси сифатида (тахқирлаш).
3. Таҳдидни ифодаловчи дисфемиянинг прагматик функцияси.
4. Ҳақорат қилиш функцияси.
5. Ўз фикрини, позициясини жамиятда қабул қилинган қарашларга қарама-қарши қўйиш функцияси.
6. Дисфемия орқали ўз-ўзини тасдиқлаш.
7. Учинчи шахсни таҳқирлаш орқали ижобий алоқа ўрнатиш.
8. Дисфемиядан санъат сифатида фойдаланиш (маданиятли шахслар ўртасида).
9. Дисфемия турли хил ёки тенг мақомдаги одамлар ўртасида алоқа ўрнатиш, рағбатлантириш воситаси сифатида.

1. Қарши томонга унинг хатти-ҳаракатлари салбий баҳоланганлиги ҳақида айтилади, шунга кўра унинг томонидан пушаймонлик, узр сўраш кутилади ҳамда ҳар қандай жавоб реакциясини тўхтатиши талаб этилади.

Кўп ҳолларда дисфемиянинг нутқда воқеланиши замирида қасос олиш ва қарши томонни жазолаш ётади.

2. Ушбу функциянинг асосий мақсади, биринчи навбатда, қарши томоннинг шахсияти, хатти-ҳаракатлари, шунингдек табиатига хос фазилатлари ҳақида салбий фикр билдириш орқали

оппонентнинг шахсиятига тегиш ва фаровонлигини бузишдир. Мисол сифатида тадқиқот объектими бўлган “Форрест Гамп” бадиий фильмидан олинган бир суҳбатни олишимиз мумкин.

Инглизча:

LT. Dan: They gave you the Congressional medal of Honor!

Forrest: Yes sir, they sure did.

LT Dan: They gave you an imbecile, a moron who goes on television and makes a fool out himself in front of the whole damn country, The Congressional Medal of Honor.

Forrest: Yes, sir.

Ўзбекча:

Лейтенант Ден: Конгресснинг фахрий медали билан тақдирлашдими?

Форрест Гамп: Ҳа, сэр.

Лейтенант Ден: Сенга, нотавон, овсар, тентакка, телевизор орқали бутун мамлакатни кўзи олдида ўзини жинниликка солган нусхага медал беришдими?

Форрест Гамп: Ҳа, сэр.

(Форрест Гамп. 57:13 дак.)

3. Бу контекстда таҳдид “қарши томон бирор бир ҳаракатни бажармаса ёки аксинча, уни амалга оширса, салбий оқибатларга олиб келиши мумкинлиги ҳақидаги огоҳлантириш” маъносида тушунилади.

Умуман, таҳдиднинг нутқий ҳаракати тартибга солувчи нутқий ҳаракатлар сирасига киради. Унинг асосий вазифаси конфликтли ўзаро таъсир чегараларини қайта белгилашдан иборат. Яъни, сўзловчи келажакда адресат учун номақбул бўлган ҳаракатни содир этиш ниятини билдириш орқали улар орасидаги ижтимоий-психологик масофани ўзгартиради.

4. Семантик нуқтаи назардан ҳақорат функциясидаги дисфемизмлар иккита муҳим компонентни ўз ичига олади. Биринчидан, ҳақиқатга мос келадими ёки йўқлигидан қатъий назар, қарши томонга қандайдир салбий хусусият нисбат берилади. Иккинчидан, бу салбий хусусият одобсиз шаклда тилда вокелантирилади.

Инглизча:

Forrest: Earl, what's going on?

Earl: Coons are trying to get into school.

Forrest: Coons? When raccoons try to get on our back porch, Momma just chase them off with a broom.

Earl: Not raccoons, you idiot, niggas. And they want to go to school with us.

Ўзбекча:

Форрест: Нима бўляпти ўзи?

Дўсти: Сувараклар ўқишмоқчи.

Форрест: Сувараклар? Агар уйимизда сувараклар пайдо бўлиб қолса, ойим уларни дорилаб ўлдирардилар.

Дўсти: Эээ, тўнка. Негрларни айтяпман. Биз билан бирга ўқишмоқчи.

(Форрест Гамп, 21:41 дак.)

5. Бунда сўзловчи ўз фикрини кескин шаклда ифодалайди, ўзи тўғри деб баҳолаган нуқтаи назарини бошқаларга ҳам сингдиришга ҳаракат қилади, ҳеч қандай муқобил фикрлар ва мулоҳазаларни тан олмайди. Боз устига, коммуникант мулоқотда доимо ҳукмронлик қилишга интилади, суҳбатдошининг фикрини бўлиб, унга гапиришга имкон бермайди ва атайлаб унинг у ёки бу мулоҳазаларини эътибордан четда қолдиради.

6. Ўз-ўзини тасдиқлаш функцияси, шубҳасиз, аввалгиси билан боғлиқ, чунки кўпинча бошқаларни айблаш орқали биз ўзимизни янада ҳақ эканлигимизни кўрсатишга ҳаракат қиламиз. Умуман олганда, нутқ орқали ўзини ўзи тасдиқлаш функцияси жуда яхши ўрганилган. Бу ходиса, айниқса, шахс психологияси ва социологиясида чуқур ўрганилган (П.С.Немов, А.А.Леонтьев, В.С.Виготский ва бошқалар). Ушбу фанлар маълумотларига таянган ҳолда айтиш мумкинки, ҳар қандай нутқда сўзловчининг асосий мақсади ўзи яшаб турган ижтимоий доираси ёки ундан ташқарида ҳам ўз фикр-мулоҳазасини кескин ифода этиш ва ўз мавқеини тасдиқлашдир.

7. Шубҳасиз, бундай функция тез-тез учрамайди, аммо мазкур функция қўлланилган коммуникатив вазиятларда биз унинг оппонент билан ижобий алоқани шакллантиришдаги юқори самарадорлигини кўришимиз мумкин.

8. Замонавий жамиятда кўпинча дисфемиядан нутқга эмоционал бўёқ бериш, унинг “ўткирлигини” ошириш мақсадида сўкинч ва ҳақоратли иборалардан фойдаланиш тенденцияси мавжуд. Бунда оддий, сийқаси чиққан сўзлардан эмас, балки “жозибатор, энг сара” ифодалардан фойдаланилади, натижада биз кўп ҳолларда сўз ўйинини кузатишимиз имконига эга бўлаемиз.

9. Дисфемиянинг бундай қўлланилиши нутқда кенг тарқалган. Кўпинча бу ерда юқори ижтимоий мақомга эга бўлган коммуникантнинг пастроқ мавқега эга бўлган оппонентга мурожаатида дисфемизмлардан фойдаланиши назарда тутилади. Шунга кўра, биринчи коммуникант ўз даражасидан "пастроққа тушиб", суҳбатдоши билан умумий тил топишга ҳаракат қилади.

**Хулоса.** Эвфемизмларни ўзининг ижтимоий-дискурсив табиатига кўра лингвистик (умумлисоний, кенг тарқалган), нутқий эвфемизмлар ҳамда окказионал каби турларга ажратиш мумкин. Барқарорлик, муайян бир тилга мансуб кишилар ва лингвомаданият вакиллари томонидан фаол тарзда қўлланиши каби хусусиятлар лингвистик эвфемизмларга хос бўлса, нутқий ёки контекстуал эвфемизмлар контекстда нисбатан беқарор ва тилда ҳосил бўлиш имконияти чекланган контекстуал бирликлар воситасида ясаилиши билан хосланади. Бу каби бирликларнинг муваққат табиатга эгаллиги боис нутқда қўлланиш кўлами кенг бўлмаса-да, вақт ўтиши билан лингвистик эвфемизмлар мақомига ўтиши мумкин. Окказионал эвфемизмлар сўзловчи томонидан тор доирада фойдаланиш учун яратилган, нутқ momentiда фақатгина бир марта қўлланиладиган ва эвфемизацияга аниқ прагматик муносабат билан алоҳида нутқ актига қаратилган бўлиб, окказионал эвфемистик номинация нутқ субъектларининг лисоний ва нутқий лаёқатини белгилайдиган мутлақ табиий жараён сифатида воқеланади.

### АДАБИЁТЛАР:

1. Жельвис В.И. Грубость как регулятор коммуникативного поведения. Сборник научных трудов к 80-летию В.И.Жельвиса. – Ярославль: изд-во ЯГПУ. – 2011. – С. 258-289.
2. Гарбовский Н. К. Теория перевода. – Москва: Изд-во Моск. ун-та, 2004. – С. 383-388.
3. Большой энциклопедический словарь под ред. Прохорова А. М. // БЭС. – Москва: Большая энциклопедия. 1998. – С. 1256.
4. Шмелёв Д. Н. Эвфемизм: Русский язык: Энциклопедия / Д. Н. Шмелёв. – Москва, 1979. – С. 467.
5. Москвин В. П. Эвфемизмы: системные связи, функции и способы образования // Вопросы языкознания. 2001. – С. 58–70.
6. Крысин Л. П. Эвфемизмы в современной русской речи //Русский язык конца XX столетия (1985-1995). – Москва, 2000. – С. 384-408.
7. Босчаева Н. Ц. Контекстуальная эвфемия в современном английском языке: Автореф. дис... канд. филол. наук. – Ленинград, 1989. – С. 21.
8. *Politics and the English Language*, 1946.
9. К.Аллан и К. Барридж. Запрещённые слова: табу и цензура языка. Издательство Кембриджского университета, 2006. – С. 97.
10. Allan, Keith and Burridge, Kate. *Euphemism and Dysphemism: Language Used as Shield and Weapon*. – New York: Oxford University Press. 1991.
11. Veisbergs, Andrejs. “Euphemisms in General (Monolingual and Bilingual) Dictionaries”. *Proceedings of the Ninth EURALEX International Congress, EURALEX*. – Stuttgart, Germany, 2000. – P. 773-780.
12. Throne, Sara. *Mastering Advanced English Language*. – China: Palgrave, 1997.
13. Ayto, John. *The Oxford Dictionary of Slang*. – Oxford: Oxford University Press. 1998.

## THE POWER OF IDIOMS IN BUSINESS ENGLISH: COMMUNICATING WITH IMPACT

*Ataeva Gulchekhra Bakhtiyorovna,*

*Doctoral student, Foreign languages department*

*Tashkent State Transport University, Uzbekistan*

*gulchexra.ataeva@gmail.com;*

*orcid.org/0000-0001-8754-2168*

**Abstract.** *This article highlights the benefits of incorporating idioms in business English communication. It discusses how idioms enhance language fluency by providing insight into cultural nuances and facilitating personal connections. Idioms also enable professionals to convey complex ideas succinctly, streamline communication, and make their messages more memorable and engaging. Moreover, idioms contribute to building rapport and fostering relationships by bridging cultural gaps and creating a sense of camaraderie. They demonstrate cultural awareness, promote inclusivity, and leave a lasting impression on clients, partners, and colleagues. By incorporating idiomatic expressions appropriately, professionals can enhance their language skills, strengthen business relationships, and stand out in the competitive business landscape.*

**Keywords:** *idioms, business English, language fluency, cultural nuances, personal connections, conveying complex ideas, business relationships, competitive business landscape.*

### СИЛА ИДИОМ В ДЕЛОВОМ АНГЛИЙСКОМ: ЭФФЕКТИВНОЕ ОБЩЕНИЕ

**Аннотация.** *Даная статья подчёркивает преимущества внедрения идиом в деловое общение на английском языке. В ней обсуждается, как идиомы способствуют легкости владения языком, предоставляя понимание культурных тонкостей и облегчая личные связи. Идиомы также позволяют профессионалам лаконично выражать сложные идеи, упрощать коммуникацию и делать свои сообщения более запоминающимися и увлекательными. Более того, идиомы способствуют созданию доверительных отношений и укреплению связей, преодолевая культурные разрывы и создавая ощущение товарищества. Они демонстрируют культурную осведомлённость, способствуют инклюзивности и оставляют неизгладимое впечатление у клиентов, партнёров и коллег. Внедряя идиоматические выражения правильно, профессионалы могут улучшить свои языковые навыки, укрепить деловые отношения и выделиться в конкурентной бизнес-среде.*

**Ключевые слова:** *идиомы, деловой английский, владение языком, культурные тонкости, личные связи, передача сложных идей, деловые отношения, конкурентная бизнес-среда.*

### INGLIZ TILIDA BIZNES IDIOMLARINING SAMARADORLIGI: SERMAHSUL MULOQOT

**Annotatsiya.** *Maqola iqtisodiy idiomalar qo'llanilishining afzalliklari, madaniyatlararo muloqotda ishbilarmonlik aloqalarini osonlashtirish va ulardan amaliyotda samarali foydalana olish haqida ma'lumot beradi. Idiomalar mazkur sohada faoliyat yuritayotgan mutaxassislariga murakkab g'oyalarni qisqacha ifodalash, muloqotni soddalashtirish va o'z xabarlarini esda qolarli shaklda yetkazib berish imkonini yaratadi. Bundan tashqari, idiomalarning qo'llanilishi ishbilarmonlik aloqalarini mustahkamlashga, madaniy mafkuraviy bo'shliqlarni bartaraf etishga va o'zaro munosabat olib borayotgan ikki tomon xalq an'analari va urf-odatlarini tushunishga yordam beradi. Idiomalar jamiyatdagi munosabat va vaqt o'tishi bilan sodir bo'ladigan o'zgarishlarni aks ettiradi, xususan, ishbilarmonlikka oid idiomalar tarixiy iqtisodiy sharoitlarni, ijtimoiy tuzilmalarni va jamoaviy tajribalarni aks ettiradi. Undan tashqari ushbu maqolada til va iqtisodiy tushunchalar o'rtasidagi o'zaro ta'sir yanada to'liqroq yoritib berilgan.*

**Kalit so'zlar:** *idiomalar, ingliz tilining ishbilarmonlik muloqoti, til bilish, madaniy munosabatlar, shaxsiy aloqalar, murakkab g'oyalar ifodasi, biznes aloqalari, raqobatbardosh biznes muhiti.*

**Introduction.** In the vast realm of business communication, language plays a crucial role in establishing connections, conveying ideas, and fostering relationships. While mastering the fundamentals of grammar and vocabulary is essential, incorporating idioms into business English adds depth, nuance, and a touch of authenticity to one's language proficiency. Idioms are expressions that hold a figurative meaning

beyond their literal interpretation. In this article, we explore the need for using idioms in business English and why they can be invaluable tools for effective communication in professional settings.

The use of idioms in business English has garnered attention from various authors and researchers who have recognized the benefits they offer in terms of effective communication and relationship-building. Several articles and studies have explored this topic, shedding light on the significance of incorporating idioms in business language. Let's take a look at some notable viewpoints and research findings.

The importance of idioms in business communication. He argues that idioms not only enhance language fluency but also contribute to building rapport and establishing connections with clients and partners. Smith further highlights how idiomatic expressions can help professionals convey complex ideas succinctly, making their messages more memorable and engaging [10].

Linguist S. Johnson in his article delves into the cultural aspect of idioms in business English. She argues that idiomatic expressions are integral to understanding a culture's values, traditions, and history. By incorporating idioms appropriately, professionals demonstrate cultural awareness and foster inclusivity in cross-cultural business interactions. Johnson's article emphasizes the role of idioms as cultural markers and their impact on establishing positive business relationships and entrepreneurship among stakeholders [4].

The role of idioms specifically in business negotiations. He suggests that idiomatic expressions can serve as powerful negotiation tools, enabling professionals to convey complex ideas and influence decision-making. Brown discusses how idioms can create a shared understanding and build trust between negotiating parties, leading to more successful outcomes [2].

Roberts [8] in his work investigates the impact of idioms on business networking and relationship-building. Her study reveals that incorporating idiomatic expressions in networking conversations helps professionals establish connections more easily and fosters a sense of camaraderie. Roberts highlights how idioms can break the ice, create memorable interactions, and leave a positive impression on potential clients and partners.

Thompson's article focuses on the role of idioms in enhancing communication and professional image. He argues that using idiomatic expressions appropriately showcases language fluency and cultural understanding, positioning professionals as competent and knowledgeable in their field. Thompson emphasizes how idioms can make communication stand out, leaving a lasting impression on business associates [12].

These authors and studies collectively support the notion that incorporating idioms in business English communication offers numerous benefits. From enhancing language fluency and conveying complex ideas to building rapport, demonstrating cultural awareness, and leaving a lasting impression, idiomatic expressions serve as invaluable tools for effective and impactful communication in professional settings.

**Methods.** Learning and incorporating idioms into business English can be approached through a systematic method. Here are some steps that help to effectively learn and use idioms:

**1.1. Familiarize Yourself:** Start by building a foundation of idiomatic expressions commonly used in business contexts. There are numerous online resources, idiom dictionaries, and language learning platforms that provide lists of idioms and their meanings. Begin by selecting a few idioms that resonate with you or seem relevant to your professional goals.

**1.2. Understand the Meaning and Context:** Once you have chosen idioms to learn, delve deeper into their meanings, origins, and usage. Understand the literal and figurative interpretation of each idiom, as well as the context in which it is typically used. This will help you grasp the subtleties and nuances associated with each expression.

**1.3. Study Examples and Usage:** To solidify your understanding of idioms, study examples of how they are used in real-life business scenarios. Pay attention to the context in which the idioms are employed and the impact they have on communication. Reading business articles, books, and case studies can provide valuable examples of idiomatic expressions used in professional contexts.

**1.4. Practice in Context:** Once you have a good grasp of the idioms and their meanings, practice incorporating them into your own business English communication. Start by using them in written correspondence, such as emails, reports, or presentations. Gradually incorporate them into your spoken communication during meetings, presentations, or networking events. Seek feedback from native speakers or language instructors to ensure proper usage.

**1.5. Expand Your Repertoire:** As you become more comfortable with idioms, continue expanding your repertoire by learning new expressions. Explore idioms specific to your industry or field of expertise, as well as those commonly used in international business settings. Regularly expose yourself to idiomatic



expressions through reading business literature, watching relevant movies or TV shows, and engaging in conversations with native English speakers.

**1.6. Use Idioms Judiciously:** While idioms can enhance your communication, it's important to use them judiciously. Overusing idioms or using them inappropriately may lead to confusion or misinterpretation. Be mindful of the cultural and professional context in which you are communicating, and gauge the level of familiarity your audience has with idiomatic expressions.

**1.7. Continual Learning and Refinement:** Idioms are a dynamic aspect of language, and new expressions emerge over time. Stay updated with new idioms and their usage by engaging in continuous learning. Attend language workshops or courses, participate in language exchange programs, and stay connected with English-speaking communities to refine your idiomatic skills.

Time and practice are required for the mastery of idioms. Let yourself be patient and opportunities to use idioms naturally in your business English communication should be embraced. Through consistent effort and a methodical approach, idiomatic expressions can be gradually incorporated into your professional language repertoire, thereby adding depth and impact to your business communication.

### **2. Results of incorporating idioms in business English.**

**2.1. Enhanced Language Fluency:** By incorporating idioms into their vocabulary, professionals can demonstrate a deeper level of language fluency. They gain a better understanding of cultural nuances and connect with counterparts on a more personal and relatable level, enhancing their overall language skills.

*For example:* a scenario where a business negotiation is taking place between an English-speaking professional and a counterpart from a different cultural background. Instead of sticking to straightforward language, the English speaker incorporates idioms relevant to the context. For instance, when discussing a challenging aspect of the deal, they might say, "Navigating this issue is like walking on a tightrope, but we're determined to find common ground [3]."

In this situation, the use of the idiom "walking on a tightrope" adds a layer of expressiveness and cultural understanding. The English speaker not only communicates the difficulty of the situation but also implies the shared challenge both parties are facing. This not only enhances language fluency but also establishes a more personal and relatable connection with the counterpart, fostering better understanding and collaboration.

**2.2. Improved Conveyance of Complex Ideas:** Idioms provide professionals with a concise and impactful way to express complex concepts and ideas. By utilizing idiomatic expressions appropriately, they can streamline their communication, making their message more memorable and engaging for their audience.

*For example:* in a business presentation where a marketing professional is explaining a new, innovative strategy to a diverse audience. Instead of using lengthy and technical language, the presenter incorporates an idiom to convey the uniqueness and boldness of the approach. They might say, "Our new marketing strategy is really thinking outside the box – it's like turning conventional wisdom on its head [11]."

In this instance, the use of the idiom "thinking outside the box" succinctly communicates the idea of innovation and breaking away from traditional methods. This not only simplifies the explanation of the complex strategy but also adds a memorable and engaging element to the presentation. The audience is more likely to grasp and remember the concept due to the vivid and relatable imagery provided by the idiomatic expression.

**2.3. Strengthened Rapport and Relationships:** Idioms, rooted in cultural contexts, enable professionals to bridge gaps and establish connections with colleagues, clients, and partners. By using idiomatic expressions appropriately, they convey a shared understanding, creating a sense of camaraderie and fostering stronger and more productive business relationships.

*For example:* a multinational team working on a complex project that involves members from different cultural backgrounds. To strengthen rapport and build a cohesive team spirit, a team leader might use an idiom during a team meeting. For instance, they could say, "In this project, we're all in the same boat. Let's row together and reach our destination collaboratively."

Here, the idiom "we're all in the same boat" communicates a shared situation and mutual responsibility, fostering a sense of unity and camaraderie among team members. By incorporating this expression, the team leader not only acknowledges the challenges but also emphasizes the collective effort required for success. This use of idiomatic language helps bridge cultural gaps, establishing a stronger connection and promoting a collaborative and harmonious work environment.

**2.4. Demonstrated Cultural Awareness:** Incorporating idioms into business English demonstrates genuine interest and understanding of the local culture. This cultural awareness fosters goodwill, respect, and trust, enhancing communication and promoting inclusivity in a globalized business landscape.

For example: a business executive is attending a meeting with international partners, including representatives from a country known for its rich cultural heritage. To demonstrate cultural awareness and respect, the executive may use an appropriate idiom during the conversation. For instance, when discussing the importance of patience in negotiations, they might say, "As they say in your culture, 'good things come to those who wait.' Let's approach this with the patience it deserves [1]."

In this example, the use of the idiom aligns with the cultural values of the partner's country, showcasing an understanding of their customs and expressions. This not only acknowledges the cultural nuances but also reflects a genuine effort to connect on a deeper level. By incorporating idioms that resonate with the local culture, the business executive enhances the atmosphere of the meeting, fosters goodwill, and builds a foundation of trust with their international counterparts.

**2.5. Leaving a Lasting Impression:** Idioms add a touch of creativity, wit, and personality to business conversations. When used appropriately and sparingly, they make communication stand out and be remembered. This leaves a positive impression on clients, partners, and colleagues, setting the stage for future collaborations and opportunities.

For example: a business networking event where professionals from various industries are mingling and exchanging ideas. During a conversation about overcoming challenges in the business world, a seasoned entrepreneur might use an idiom to leave a lasting impression. They could say, "In entrepreneurship, sometimes you have to roll with the punches and turn lemons into lemonade. That's what sets us apart."

In this instance, the use of the idioms "roll with the punches" and "turn lemons into lemonade" adds a touch of creativity and resilience to the conversation. It not only conveys the entrepreneur's adaptability and positive mindset but also makes the message more memorable and engaging. The use of idiomatic expressions in a professional setting can leave a lasting impression on those involved in the conversation, making the speaker stand out and creating a favorable impression for potential future collaborations and partnerships.

Incorporating idioms in business English yields tangible results by enhancing language fluency, improving the conveyance of complex ideas, strengthening relationships, demonstrating cultural awareness, and leaving a lasting impression. Professionals who embrace idiomatic expressions in their communication gain a competitive edge in the business world and foster meaningful connections with others.

**Conclusion.** The power of idioms in business English communication cannot be overstated. Incorporating idiomatic expressions into professional language repertoire offers numerous benefits, ranging from enhanced language fluency and improved conveyance of complex ideas to strengthened rapport, demonstrated cultural awareness, and leaving a lasting impression on clients, partners, and colleagues.

By incorporating idioms, professionals demonstrate a deeper level of language fluency, as they gain insight into cultural nuances and connect with others on a more personal and relatable level. Idioms provide a concise and impactful way to express complex concepts, allowing professionals to streamline their communication and make their messages more memorable and engaging.

Moreover, idiomatic expressions facilitate the establishment of strong and productive business relationships. By bridging cultural gaps and creating a sense of camaraderie, idioms contribute to building rapport with colleagues, clients, and partners. They convey a shared understanding and foster mutual trust, setting the stage for successful collaborations and opportunities.

Incorporating idioms also demonstrates cultural awareness and promotes inclusivity in a globalized business landscape. Professionals who use idiomatic expressions appropriately show genuine interest and understanding of local cultures, fostering goodwill, respect, and trust in their interactions.

Idioms add a touch of creativity, wit, and personality to business conversations. When used sparingly and appropriately, they make communication stand out and leave a positive and lasting impression. This creates a favorable impression on clients, partners, and colleagues, paving the way for future collaborations and opportunities.

To effectively incorporate idioms into business English communication, professionals can follow a systematic approach. They can familiarize themselves with idiomatic expressions, understand their meanings and usage in context, study examples, and practice incorporating them into written and spoken communication. Continual learning and refinement are essential to stay updated with new idioms and refine idiomatic skills.

In conclusion, incorporating idioms in business English communication enhances language fluency, improves the conveyance of complex ideas, strengthens relationships, demonstrates cultural awareness, and leaves a lasting impression. By embracing idiomatic expressions, professionals gain a competitive edge in the business world and foster meaningful connections with others.

### REFERENCES:

1. Ataeva G.B. (2023). *Linguistic Innovations and Fresh Expressions in A Plagued World*. *International Journal of Research Lines and Projects*, 13, Special issue, 5-17. <https://rlap.org/article/view/77.html>
2. Brown, M. (2019). *The Power of Idioms in Business Negotiations*. // *Journal of Business Negotiation*, 12(4), 456-478.
3. Handford, M. (2010). *The Language of Business Meetings*. Pearson.
4. Johnson, S. (2018). *Idioms as Cultural Markers in Business English*. // *International Journal of Applied Linguistics*, 25(3), 267-289.
5. McCarthy, M., & O'Dell, F. (2012). *Idioms and Phrases for Business Professionals*. // Oxford University Press.
6. Mustaeva, G., & Ataeva, G. (2023, May). *The role of business English in modern logistics*. In *E3S Web of Conferences* (Vol. 402, p. 08008). <https://doi.org/10.1051/e3sconf/202340208008>
7. O'Dell, F., & McCarthy, M. (2005). *English Idioms in Use: Advanced*. // Cambridge University Press.
8. Roberts, E. (2021). *Idioms and Business Networking: A Study on Relationship Building*. // *Journal of Applied Communication Research*, 38(1), 87-105.
9. Saydivaliyeva B., Yuldasheva D., Ataeva G. (2023). *Unveiling Motivations and Benefits: A Case Study Analysis of Foreign Language Teachers' Pursuit of National Board Certification*. // *Multidisciplinary International Journal of Research lines and Projects* Vol. 13, special issue May-June, 2023: 99-109 <https://rlap.org>
10. Smith, J. (2020). *The Role of Idioms in Business Communication*. // *Journal of Business Communication*, 45(2), 123-145.
11. Sullivan, L. L. (2017). *Idiomatic Mastery for Business Professionals*. // Cambridge University Press.
12. Thompson, D. (2017). *Idioms in Business English: Enhancing Communication and Professional Image*. // *Business Communication Quarterly*, 80(3), 234-251.

## TARJIMADA VARIANTLILIK HODISALARINING ASOSIY BELGILARI XUSUSIDA (Aka-uka Grimm ertaklarining o‘zbekcha tarjimalari misolida)

*Karimova Dilafro‘z Halimovna,*  
*Buxoro davlat universiteti*  
*Nemis filologiyasi kafedrasida dotsenti*  
[dilafroz.karimova.1975@mail.ru](mailto:dilafroz.karimova.1975@mail.ru)

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada tarjimada variantlilik va invariantlilik hodisalari, ularning kelib chiqish sabablari, spetsifik xususiyatlari, aka-uka Grimm ertaklarining bevosita va bilvosita o‘zbekcha tarjima variantlarini, variantlashish omillarini, ertaklarni tarjima qilishda variantlilik va invariantlilik hodisalari yuzaga kelishining sabab va asoslari yoritilgan.

**Kalit so‘zlar:** variatsiya, invariant, variantlilik, lingvokulturologik xususiyatlar, syujet, perifraza, folklor, motiv.

## ОСОБЕННОСТИ ОСНОВНЫЕ ПРИЗНАКИ ВАРИАЦИОННЫХ ЯВЛЕНИЙ ПРИ ПЕРЕВОДЕ (на примере узбекских переводов сказок братьев Гримм)

**Аннотация.** В данной статье описаны явления вариативности и инвариантности в переводе, их причины, особенности, прямые и косвенные узбекские варианты перевода сказок братьев Гримм, факторы вариации, причины и основания вариативности и инвариантности в переводе сказок.

**Ключевые слова:** вариация, инвариант, вариантность, лингвокультурологические признаки, сюжет, перифраза, фольклор, мотив.

## THE MAIN SIGNS OF VARIATION PHENOMENA IN TRANSLATION (on the example of the Uzbek translations of the Grimm brothers' fairy tales)

**Abstract.** This article describes the phenomena of variation and invariance in translation, their reasons, peculiarities, direct and indirect Uzbek variants of translation of Grimm brothers' fairy tales, factors of variation, reasons and grounds of variation and invariance in translation of fairy tales.

**Keywords:** variation, invariant, variant, linguocultural features, plot, periphrasis, folklore, motive.

**Kirish.** Dunyo tarjimashunosligida hozirgacha nemis ma’rifatchilik adabiyotining g‘oyaviy-badiiy takomiliga katta hissa qo‘shgan aka-uka Grimm ertaklari qator xorijiy tillarga, jumladan, o‘zbek tiliga ham bevosita va bilvosita ko‘p tarjima qilingan. Natijada ularning tarjima variantlari, invariantlari paydo bo‘lganki, tarjimashunosligimiz bu hodisalarning nazariyasini puxta o‘zlashtirishni, har biriga xos paradigmatic va kognitiv, lingvokulturologik xususiyatlarni aniq yoritib berishni taqozo etadi. Jahon tarjimashunosligida turli tizimli tillarda so‘zlashuvchi hamda har xil muhit va sharoitda yashovchi xalqlarning milliy madaniy an’analari, qadriyatlarini tarixini, betakror urf-odatlarini, turmush tarzini o‘ziga xos yuksak badiiy mujassam etgan ertaklar tarjimasiga hamisha alohida e’tibor qaratilgan. Barcha xalqlarning ma’naviy merosida qadimdan hozirgacha mustahkam o‘rin tutib kelayotgan ertaklarga oid ilmiy tadqiqotlar ko‘lami tarjimashunoslik, tilshunoslik, adabiyotshunoslik sohalarida yanada ortib bormoqda. Ma’lumki, nemis ertaklari tarjimasida jahon adabiyoti sahifasining kengayishi uchun, unda adabiy ertak janrining shakllanishi va taraqqiy topishi uchun o‘ziga xos ta’sir ko‘rsatgan. Bunday tarjima ishlari, avvalo, ertaklarni qiyosiy-tipologik o‘rganish, ulardagi o‘xshash obraz va motivlarni aniqlash, milliy urf-odatlardagi o‘xshash va farqli xususiyatlarni yorqinroq ko‘rish imkoniyatini berishi sir emas. Nemis ertaklari jahon epik folklorning bir qismi sifatida o‘zbek tarjimon olimlariyu adiblarining katta e’tiborini qozongan va bu ishga qo‘l urganlar, ularni bevosita aslyatdan yoki vosita tillar orqali tarjima qilishni maqsad qilganlar ko‘pchilikni tashkil qiladi. Bu ish, asosan, o‘tgan XX asrning 30-yillaridan boshlangani ko‘rinadi. Xususan, tarjimonlarimiz sa’y-harakati bilan o‘zbek kitobxonlari o‘sha davrdan boshlab ko‘proq olmon ertaknavislari aka-uka Grimm ertaklaridan bahramand bo‘lishgan.

**Asosiy qism.** Variantlilik tarjima jarayonlarining spetsifik xususiyatlaridan biridir. U muayyan bir asarning (ertakning) barcha tarjima variantlari majmui haqida bahs etadi. Bir so‘z bilan aytganda, bir ertakning har bir tarjima namunasi variantlarida tarqalishi va bir-biri bilan yonma-yon yashab kelishiga

tarjima variantligi deyiladi. Keyingi paytlarda variantlilik va invariant atamaları juda ko‘p fanlar doirasida keng qo‘llaniladigan bo‘lib qoldi. Bu ko‘pincha tilshunoslik va adabiyotshunoslikda kuzatiladi. Aslida falsafaning gnoseologiya bo‘limi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan “mohiyat” va “hodisa” tushunchalari zamirida paydo bo‘lgan variantlilik va invariant tushunchalari har bir fanning spesifikasidan kelib chiqqan holda turlicha o‘rganiladi. U haqda tadqiqotlarda turlicha fikrlar, yo‘nalishlar vujudga kelgan. Bu tushuncha va hodisalar tarjimashunoslik sohasiga ham daxldordir. “Variant” deganda, bir matnning boshqa bir matni inkor etmagan holda yonma-yon yashashi tushuniladi. Variantlar bir-biridan katta farq qilmaydi. Bu tushuncha bilan bog‘liq holda “variant”, “variantdosh”, “variantlilik” atamaları qo‘llanadi. Tarjima variant ma‘lum bir asarning aniq ko‘rinishi bo‘lib, ba‘zan ularda ayrim so‘z, ifoda yoki ibora tushurib qoldirilishi yoki mutarjim biladigan tilda yoki anglagan xolatda o‘zgartirilishi mumkin. Bir asar tarjimasining ozmi-ko‘pmi farqlarga ega bo‘lishiga qaramay, ular baribir syujet, kompozitsiya, obraz va motivlar tuzilishidagi umumiy belgilarini saqlab qolaveradi. Tarjima variantlarida badiiylik darajasi qay darajada saqlanganligi uning axamiyatini, nufuzini belgilaydi. Tarjima varianti hajm jihatdan bir xil bo‘lmaydi. Bu tarjimonning so‘z bilish va uni tarjimada keltirish mahorati bilan bog‘liq. Tarixiy asarlarning tarjima tarixiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, ba‘zi asarlarning bir til ichida yoki bir necha tillardagi tarjimalari uchraydi. Bu hodisa tarjimashunoslikda “variantlilik” deb ataladi. “Variantlilik” tushunchasi nafaqat yirik bir asar tarjimalari, balki bitta asar tarkibida muayyan so‘z va iboralarning bir necha xil tarzda berilishiga ham daxldordir. Invariant deganda, shuni aytish mumkinki, variantlar o‘zaro qiyoslansa, dastlab ularning ikki turini farqlash imkoni paydo bo‘ladi. Birinchisi, asliyat matni. U haqiqiy, an‘anaviy, ijodiy variant bo‘lib, tili va ifoda uslubi o‘zi mansub xalqning qadriyati sifatida ko‘rinadi. Fonema va tovush munosabati invariant-variant dialektikasini o‘zida aks ettiradi. Darhaqiqat, umumiylik-xususiylik, mohiyat-hodisa, imkoniyat-voqelik dialektikasining tilda namoyon bo‘lishini ifodalash uchun tilshunoslar ko‘pincha invariant-variant atamalaridan foydalanadilar [1]. Invariantlilik tushunchasi tilshunoslikka falsafadan kirib kelgan bo‘lib, “barqaror, o‘zgarmas belgilar yig‘indisi” degan ma‘noni bildiradi. Falsafiy tushuncha sifatida “invariant” ko‘rinishi “variant” atamasiga zid qo‘yiladi. Bunday zidlantirish L.Elmslev asarlarida yorqin ifodasini topgan [3.135]. Uning ta‘kidlashicha, matnning ko‘p joylarida “ayni bir xil qo‘shma gaplar”, “ayni bir xil sodda gaplar”, “ayni bir xil” so‘zlar va hokazolar uchraydi. Boshqacha aytganda, har bir qo‘shma gapning, har bir sodda gapning, har bir so‘zning bir qancha namunalari uchraydi. Ana shu bir qancha namunalar variantlar, bu variantlar ortidagi mohiyat esa invariant sanaladi. Demak, har bir invariant bir qancha variantlar orqali voqelanadi, yuzaga chiqadi. Invariant nazariyasining vujudga kelishi gnoseologiya uchun katta ahamiyatga ega bo‘ldi. Chunki u in‘ikos nazariyasini chuqurlashtirdi va unga aniqlik kiritdi. Invariantlilik tushunchasining hamda invariantlilik tamoyillarning atroflicha o‘rganilishi qator fanlar doirasida kuzatiladi. G.S.Shur ta‘kidlashicha, bir-biriga o‘xshash g‘oya va tushunchalar bir vaqtning o‘zida alohida-alohida birlik bilan nomlanadi. Shuning uchun barcha soha tadqiqotchilarining izlanishlari ma‘lum bosqichda alohida soha yoki fan uchun xos bo‘lgan qonunlarga nisbatan umumiyroq bo‘lgan qonuniyatlarning vujudga kelishi bilan muhimdir. Bunday tamoyillarga muayyan ob‘ektda u yoki bu xossalarning boshqa xossalari o‘zgarishidan qat‘iy nazar, uzoq vaqt o‘z xususiyatini saqlab qolish tamoyili bo‘lgan invariantlilik tamoyili kirishini ham ko‘rsatadi [4; 48].

Tarjimashunos J.Sharipovning “O‘zbekistonda tarjima tarixidan” deb nomlangan doktorlik dissertatsiyasida o‘zbek adabiyotiga oid bir necha asarlarning tarjima variantlari borasida fikr yuritilganligiga guvoh bo‘lish mumkin. Invariant deganda, shuni aytish mumkinki, variantlar o‘zaro qiyoslansa, dastlab ularning ikki turini farqlash imkoni paydo bo‘ladi. Birinchisi, asliyat matni. U haqiqiy, an‘anaviy, ijodiy variant bo‘lib, tili va ifoda uslubi o‘zi mansub xalqning qadriyati sifatida ko‘rinadi. Fonema va tovush munosabati invariant-variant dialektikasini o‘zida aks ettiradi. Darhaqiqat, umumiylik-xususiylik, mohiyat-hodisa, imkoniyat-voqelik dialektikasining tilda namoyon bo‘lishini ifodalash uchun tilshunoslar ko‘pincha invariant-variant atamalaridan foydalanadilar .

Invariantlilik tushunchasi tilshunoslikka falsafadan kirib kelgan bo‘lib, “barqaror, o‘zgarmas belgilar yig‘indisi” degan ma‘noni bildiradi. Falsafiy tushuncha sifatida “invariant” ko‘rinishi “variant” atamasiga zid qo‘yiladi. Bunday zidlantirish L.Elmslev asarlarida yorqin ifodasini topgan. Uning ta‘kidlashicha, matnning ko‘p joylarida “ayni bir xil qo‘shma gaplar”, “ayni bir xil sodda gaplar”, “ayni bir xil” so‘zlar va hokazolar uchraydi. Boshqacha aytganda, har bir qo‘shma gapning, har bir sodda gapning, har bir so‘zning bir qancha namunalari uchraydi. Ana shu bir qancha namunalar variantlar, bu variantlar ortidagi mohiyat esa invariant sanaladi. Demak, har bir invariant bir qancha variantlar orqali voqelanadi, yuzaga chiqadi. Invariant nazariyasining vujudga kelishi gnoseologiya uchun katta ahamiyatga ega bo‘ldi. Chunki u in‘ikos nazariyasini chuqurlashtirdi va unga aniqlik kiritdi. Invariantlilik tushunchasining hamda invariantlilik tamoyillarning atroflicha o‘rganilishi qator fanlar doirasida kuzatiladi. G.S.Shur ta‘kidlashicha, bir-biriga

o'xshash g'oya va tushunchalar bir vaqtning o'zida alohida-alohida birlik bilan nomlanadi. Shuning uchun barcha soha tadqiqotchilarining izlanishlari ma'lum bosqichda alohida soha yoki fan uchun xos bo'lgan qonunlarga nisbatan umumiyroq bo'lgan qonuniyatlarning vujudga kelishi bilan muhimdir. Bunday tamoyillarga muayyan obyektida u yoki bu xossalarning boshqa xossalarga o'zgarishidan qat'iy nazar, uzoq vaqt o'z xususiyatini saqlab qolish tamoyili bo'lgan invariantlilik tamoyili kirishini ham ko'rsatadi.

Bir so'z bilan aytganda, har bir tarjima varianti o'zicha mustaqildir. Ularning biriga asosiy, boshqa yana biriga ikkinchi darajali o'rin berib bo'lmaydi. Ammo ulardan qay biri asliyatga juda yaqinligi mutarjimning matnga professional yondashganligi, ma'lum ustunliklari sifatida yaqqol ko'rinadi. Tarjima variantlarini bir-biriga solishtirilganda, ularga xos ustun tomonlar yaqqol ko'zga tashlanadi.

Demak, tarjima variantlilikini tor va keng ma'noda tushunish mumkin. Birinchisi, tor ma'noda u yoki bu ertakning ba'zi so'zlari, satrlari, obrazlari, o'rtasidagi farqlar, o'zgartirishlar tushuniladi. Ikkinchisi, keng ma'noda bir ertakning yonma-yon turuvchi, ammo bir-birini inkor etmaydigan har xil tarjima matnlari anglaniladi. Variantlar bir-biridan katta farq qilmaydi. "Variant" so'zining o'zi ham lotincha "Varius" [2; 176] so'zidan olingan bo'lib, "har xil", "turlicha", "xilma-xil" degan ma'nolarni bildiradi. Variant ma'lum bir asarning tarjima jarayonida vujudga keltirilgan, bir-biridan sal bo'lsada farq qiluvchi turli tarjima matnlari bo'lib, ko'p jihatdan bir-biriga o'xshash va yaqin bo'ladi. Variant ma'lum bir asarning aniq ko'rinishi bo'lib, ba'zan ularda ayrim so'z, ifoda yoki ibora tushirib qoldirilishi mumkin yoki mutarjim biladigan tilda yoki anglagan xolatda o'zgartirilishi mumkin. Bir asar tarjimasining ozmi ko'pmi farqlarga ega bo'lishiga qaramay, ular baribir syujet, kompozitsiya, obraz va motivlar tuzilishidagi umumiy belgilarni saqlab qolaveradi.

Tarjima variantlarida badiiylilik darajasi qay darajada saqlanganligi uning ahamiyatini, nufuzini belgilaydi. Tarjima varianti hajm jihatdan bir xil bo'lmaydi. Bu tarjimonning so'z bilish va uni tarjimada keltirish mahorati bilan bog'liq. Tarjimada variantlashuv kelib chiqishiga tildagi ortiqchalik tamoyillarining muayyan darajadagi ta'sirini kuzatish mumkin. Sababi shuki, mutarjim o'zi uchun notanish realiyalarni ko'pincha izohli tarjimada ifoda etadi. Shuningdek, ba'zi tarjimalarda, aksincha, tejamkorlik tamoyiliga [5; 79] asoslanish kuzatiladi. Aytaylik, mutarjim keltirilgan frazeologik birlikni yoki tasviriy ifoda (perefraza)ni tarjimada qayta yarata olmasa, uni tashlab ketadi yoki bir necha so'zdan iborat bo'lgan frazeologizmni, aniqlovchili birikmalar, metaforali birikmalarni oddiy so'z bilan ifodalab ketaverishi mumkin. Har bir xalqning ertaklari, avvalo, o'sha millatning o'ziga xos poetik an'analari, qadimiy madaniy hayotini, milliy qadriyatlarini o'zida aks ettirishi jihatidan e'tiborlidir. Ayni shu jihati uning boshqa tillarga tarjima qilinishi jarayonini qiyinlashtirsa-da, muayyan millat ruhiyatini, millat mentalitetini ifodalashi jihatidan ahamiyatlidir. Shu sababli ertaklarning bir tildan boshqa tillarga tarjima qilinishi holati ko'p kuzatiladi. Jumladan, nemis xalqining aka-uka Grimmlar tomonidan yozib olingan va ommalashtirilgan ertaklari o'zbek tiliga ham turli yillarda juda ko'p shoiru olimlar tomonidan tarjima qilingani kuzatiladi. Shu jarayon bilan bog'liq tarixni, bunda o'zbek tarjimonlarining mahoratini, bir ertakning bir necha bor turli yillarda, har xil mutarjimlar tomonidan tarjima qilinish tarixini, sabab va natijalarini, taraqqiyot belgilarini, mahorat masalalarini o'rganish o'zbek-nemis adabiy aloqalari barobarida folkloriy munosabatlari, madaniy-ma'naviy hamkorligi tarixini o'rganishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Nemis va o'zbek xalqlarining folklor hamda yozma adabiyotdagi badiiy-estetik tajribalarini o'zaro qiyosiy o'rganishga qiziqish bir necha asrlardan buyon davom etib kelmoqda. Nemis va o'zbek xalqining o'ziga xos milliy qadriyatlari tarkibida ertaklarning alohida o'rni bor. Ular tarixan har xil makonda shakllangan bo'lsa-da, bir-biridan uzoqroq bo'lishiga qaramay, ularning ertaklarida ayrim yaqinliklar bor, ko'p jihatdan ular o'xshashlik, mushtaraklik kasb etadiki, folklor an'analari nuqtai nazaridan ularni aniqlash muhim ahamiyatga ega. Mana shuni inobatga olib, nemis va o'zbek ertaklarining o'zaro tarjima tarixini, xususan, nemis ertaklarining o'zbek tiliga tarjimalari variantlashgani, bu tarjimalarning o'ziga xos xususiyatlari, paydo bo'lish omillarini o'rganish folklorshunoslikda tadqiq qilinishi zaruriyatga aylangan muammolardan biridir.

Aka-uka Grimmlarning nomi nafaqat nemis o'quvchilariga, balki jahondagi barcha xalqlarga tanishdir. Chunki ularning ertaklari juda ko'p tillarga tarjima qilingan. Albatta, aka-ukalarning nomi bu tarzda jahonga keng tanilishida ularning ertaklari turli tillarga tarjima qilinishi muhim ahamiyat kasb etganini inkor etib bo'lmaydi. Jumladan, ularning ertaklari bilan o'zbek xalqi ham o'tgan asrning 30-yillari oxirlariga kelib tanisha boshlagan. Aka-uka Yakob va Vilgelm Grimmlar nemis xalqining eng sevimli ertakchi-yozuvchilari bo'lib, ular yaratgan ertak butun jahon kitobxonlarning e'tiboriga tushgan. Bunda, albatta, ularning turli tillarga tarjima qilinishi muhim ahamiyat kasb etgan. Ular yaratgan ertaklarning birinchi to'plami "Bolalar va oila" ("Kinder und Familie") nomi bilan 1812-yilda, 1815-yilda ikkinchisi, 1822-yilda esa uchinchi kitoblari nashr qilingan. Bu kitoblar aka-uka Grimmlarning nomini dunyoga tanitdi va tez orada jahonning ko'pgina boshqa tillariga ham tarjima qilina boshlandi.

Bugungi kunda jahonning biror go‘shasi yo‘qki, aka-uka Grimmlar ertagi bormagan bo‘lsa, birorta madaniy til yo‘qki, ular tarjima qilinmagan bo‘lsa. Ular jahonning boshqa tillariga tarjima qilinganligidek, bizning ona tilimiz – o‘zbek tiliga ham o‘g‘irilgan. Mualliflarning ertaklari bilan o‘zbek xalqi o‘tgan asrning 30-yillari oxirlariga kelib yaqindan tanisha boshlagan. Aniqrog‘i, nemis xalq ertaklariga bo‘lgan qiziqish O‘zbekistonda o‘tgan asrning birinchi choragidan kuchaygan. Ular 30-yillarning o‘rtalaridan boshlab tarjima qilina boshlangan va qayta-qayta nashr qilingan, hozir ham nashr etilmoqda.

“Bremen musiqachilari” ertagining o‘tgan asr boshlari va ikkinchi yarmida ko‘p bor tarjima qilinishi tasodif emas edi. Chunki bu ertak g‘oyasi turli toifadagi katta-kichik, kuchli-kuchsiz jonivorlarning o‘z yashab turgan joyini o‘zgartirib, boshqa bir ahil jamoa tuzgan holda yashash g‘oyasini ifodalab kelgan. Unda inson farzandi jonivorlarni boshqaradi. Nazarimizda, sho‘ro mafkurasi hukmronligi davrida ushbu ertak g‘oyasi 15 ta alohida-alohida davlatlar va xalqlarni yagona “hamdo‘stlik”, “ittifoq” g‘oyalari bilan birlashtirish tushunchasini ilgari surishda o‘ziga xos ahamiyat kasb etishi e‘tiborga olingan. Ertakda “Birlashgan o‘zar birlashmagan to‘zar” maqolining mazmun mohiyati aks ettirilgan.

“Bremen musiqachilari” sho‘ro jamiyat kishisini tarbiyalashda muhim vosita sifatida qaralgani uchun, juda ko‘p xalqlari orasida tarjima vositasida keng tarqalgan. Natijada uning turli tildagi tarjima variantlari paydo bo‘lgan. Demak, bir tilda yaratilgan ertakning yana boshqa tilda qayta yaratilishidan uning tarjima variantlari paydo bo‘ladi. Masalan, “Bremen musiqachilari” ertagining quyidagi tarjima variantlari mavjud: a) rus tili tarjima varianti; b) o‘zbek tili tarjima varianti; v) turk tili tarjima varianti; g) xitoy tili tarjima varianti; d) ingliz tili tarjima varianti; ye) arab tili tarjima varianti va hokazo.

Ertaklar qaysi tilga tarjima qilinmasin, imkon qadar uning asliyatiga xos xalqchilligini, g‘oyaviy mazmunini, badiiy xususiyatlarini, asosiy rolini va obrazlarini saqlab qolishga harakat qilinadi. Shunday bo‘lsada, uning leksik, grammatik, stilistik jihatlarini to‘liq saqlab qolishning imkoniyati chegaralangan bo‘ladi. Lekin ular versiya hisoblanmaydi. Asliy matning tarjima matnga aylantirilishida mutarjim mahoratidagi individual xususiyatlar o‘z ta‘sirini namoyon etadi.

Aka-uka Grimm ertaklarining tarjima variantlarini yaratilish davriga, tarqalish sharoitiga qarab belgilash lozim. Chunki bu ulardan qaysi biri asliyatga yaqin, badiiyati yuqori darajada ekani yagona syujetini saqlab qolishdagi umumiy va xususiy tomonlarini ochish imkoniyatini beradi. Bu o‘rinda ushbu tarjima variantlarini qiyosiy tarixiy, qiyosiy-tipologik jihatdan nazar o‘tkazish muhim ahamiyat kasb etadi.

Birinchi, tarjimachilikda variatsiya muammosini hal etishda bir matnning qachon, qanday, qay usulda nima maqsadda tarjima qilinganligini e‘tiborga olish lozim hisoblanadi.

Ikkinchi, ularning g‘oyaviy yo‘nalish va motivlarini qiyosiy aspektida tahlil qilishga to‘g‘ri keladi.

Uchinchi, tarjima asarining barcha variantlari umumiy tavsiflanadi.

To‘rtinchi, til, nutq, yozuv jarayonida yuz berayotgan o‘zgarishlar birgina matn tarjimasi misolida asoslanadi. Davr talabi, jamiyatdagi o‘zgarishlar, ijtimoiy muhit ta‘siri, insoniyat tafakuridagi yangilanishlar tarjima matnidagi ayrim o‘zgaruvchanliklarga ta‘sir ko‘rsatganligi dalillanadi.

Beshinchi, ertak janri badiiy xususiyatlarining ayrim jihatlari asosida fikr yuritiladi.

Ko‘pincha variantlilik folklorga xosligi aytiladi. Lekin variantlilik tarjima jarayonida ham yuz berishini inkor qilib bo‘lmaydi. Chunki bir matn faqat bir kishi tomonidan emas, bir necha kishi tomonidan tarjima qilinishi mumkin. Masalan, aka-uka Grimmlarning “Botir tikuvchi”, “Bir xumcha shovla”, “Bremen musiqachilari”, “Oppog‘oy va yetti gnom”, “Mitti odamchalar”, “Yalqov Geyns”, “Oqoyim va Guloyim”, “Asalarilar qirolichasi”, “Kuloyim (Zolushka)” kabi ertaklari bir necha mutarjimlar tomonidan hozirgacha goh bevosita, goh bilvosita o‘g‘irilganligi ma‘lum. Nemis ertakchilari aka-uka Grimmlarning ijod namunalari turli yillarda bir necha bor bevosita nemis tilidan hamda bilvosita rus tili orqali o‘zbek tiliga tarjima qilingan bo‘lib, ayni paytda, ana shu tarjima ishlarini yig‘ib o‘rganishga, ularni qiyoslagan holda yutuq va kamchiliklarini aniqlashga to‘g‘ri keladi. Ayniqsa, uning mustaqillik yillarida amalga oshirilgan variantlarini aniqlab, qiyosiy jihatdan chuqurroq o‘rganish lozim. Negaki, nemis ertakchilari aka-uka Grimmlarning ijod namunalari tarjimalari shoir, yozuvchi yoki mutarjimlar tomonidan amalga oshirilgani sababli turlicha darajada namoyon bo‘ladi. Aka-uka Grimmlarning ertaklari boy syujeti, barkamol badiiyati, barqaror kompozitsion qurilishga egaligi va ommaviyligi bilan jahon folklorida o‘z o‘rniga ega. Ulardagi obraz va personajlar tavsifining tarjimada aniq aks etishi o‘quvchining tasavvurini kengaytiradi. Ularning o‘zbekcha tarjimalari xalqimiz vakillarini nemis xalqining milliy an‘analari, turmush tarzi, kiyim-kechaklari, milliy taomlari, yashash o‘rni, muhiti, mehnat sharoiti, o‘ziga xos axloq-odob qoidalari bilan tanishtiradi. Ba‘zan tarjimalar asosida nemis tilidagi ayrim so‘zlarning o‘zbek tiliga o‘zlashtirilgani ham ko‘zga tashlanadi. Aka-uka Grimmlar o‘z adabiy ertaklari orqali nemis xalqining o‘zligini tanitishga, xalqining dilidagi orzu-istaklarini topib, sodda, xalqchil uslubda, yuqori badiiy shaklda ifodalashga muvaffaq bo‘ldilar. Grimmlar

yaratgan ertaklar nihoyatda rang-barang bo'lib, ularning tematik doirasi keng, mazmuni inson faoliyati, hayvonlar va jonivorlar, tabiiy hodisalarning juda ko'p tomonlarini qamrab olgan.

O'zbek folklorshunosligida "Alpomish" dostonining o'zbek variantlari to'g'risida monografik tadqiqot olib borgan T.Mirzayev fikricha, variantlilikning asosiy spesifik xususiyatini ko'rsatuvchi belgilaridan biri jamoaviylikdir [5]. Darhaqiqat, olim ta'kidlaganidek, bir asar bir necha kishi tomonidan tarjima qilinadi ekan, o'z-o'zidan bir guruh tarjimonlar jamoasi shakllanib qoladi. Masalan, aka-uka Grimm ertaklarining X.Raximov tarjimalari, yoki S.To'raxonova variantlari tarzida ularni nomlash mumkin.

Tarjima variantlarining yuzaga kelishi tarjimashunoslikda ham yozma adabiyotga, ham folklor asariga xosdir. Bu o'zining sub'ektiv va ob'ektiv sabablari orqali izohlanadi. Sub'ektiv sababning ildizi mutarjimning asiyat matniga katta e'tibori, qiziqishi, u haqdagi bilimi, professionallik darajasi, mehnati, ijodiy yondashuvi bilan belgilansa, ob'ektiv sababi davr taqozosi, ijtimoiy muhit bilan oydinlashadi.

Shunday qilib, bir ertakning asiyati yonida uning boshqa bir tildagi tarjima varianti ham paydo bo'ladi. V.M.Solnsev fikricha, bunday variantlilik namunasi "mustaqil ahamiyatga ega bo'lgan badiiy fakt" [4; 271] hisoblanadi.

Biroq tarjima variantlarining har birini mustaqil sanab, bir-biridan farqlash kerak. Chunki tarjima har doim ham professional mutarjim tomonidan amalga oshirilavermaydi. Uning paydo bo'lishida ko'ngilli mutarjim ham ishtirok etish mumkin. Masalan, Merlin Peterson shunday tarjimonlardan edi. Demak, biror asarni professional mutarjim bo'lmagan inson bir tildan boshqa tilga o'g'irganda, ijodiy holatlar ko'proq ko'rinishi mumkin. Professional tarjimon esa matnni deyarli o'zgartirmaydi, ijodiy yondashmaydi, u ko'proq adekvat tarjimani rejalashtiradi. So'z ustida jiddiy ishlaydi. Uning denotativ, konotativ ma'nolariga alohida e'tibor qaratadi, syujetga o'zgartirishlar kiritmaydi. Tarjima prinsiplari va metodlariga jiddiy yondashib ish yuritadi.

Tarjima variantlarining yuzaga kelishning obyektiv sabablaridan yana biri, tarixiy sharoit bilan izohlanadi. Negaki, boshqa folklor namunalari qatori ertaklar ham ma'lum bir tarixiy, iqtisodiy-ijtimoiy sharoitda yaratilganligi uchun ayrim motivlari mavjud tuzum voqealariga mos keladi. Shu muvofiqlikdan uni tarjima qilishiga omil bo'ladi. Olimlar ta'kidlaganidek, variant, variantlilik, variatsiya terminlari har doim xam bir xil tushunilmaydi. Ularning bir-birlaridan ajratish, ma'nolarini differensiya qilish va farqini ko'rsatish kerak bo'ladi [5].

**Xulosa.** Xullas, har bir tarjima varianti o'zicha mustaqildir. Ularning biriga asosiy, boshqa yana biriga ikkinchi darajali o'rin berib bo'lmaydi. Ammo ulardan qay biri asiyatga juda yaqinligi mutarjimning matnga professional yondashganligi ma'lum ustunliklari sifatida yaqqol ko'rinadi. Tarjima variantlarini bir-biriga solishtirilganda ularga xos ustun tomonlar yaqqol ko'zga tashlanadi. Aka-uka Grimm ertaklari tarjimalari orqali o'zbek mutarjimi ham ulardagi milliy koloritni, olam manzarasini aks ettirishda tarjimashunoslikda o'ziga xos qonuniyat darajasiga ko'tarilgan talablar asosida ish yuritishgani ayonlashadi. Har bir tarjimon mahorati o'ziga xos individual belgilarga ega ekanligi kuzatiladi. Bir ertakning bir necha tarjimon yoki bir tarjimon tomonidan amalga oshirgan nusxalari yonma-yon yashab, tarjima variantlarini yuzaga keltirganini inkor qilib bo'lmaydi.

### ADABIYOTLAR:

1. Абузалова М., Назарова С. Систем тилишунослик асослари. – Бухоро, 2008.
2. Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. – 2-е изд., стер. – М: УРСС: Едиториал УРСС, 2004.
3. Ельмслев Л. Метод структурного анализа лингвистике. – М., 1960. – С.52;
4. Солнцев В.М. Язык как системно-структурное образование. – М., 1961. – С. 217-218.
5. Тўра Мирзаев. Алпомии дostonининг ўзбек вариантлари. Ўзбекистон ССР "Фан" нашриёти, Тошкент-1968.
6. Halimovna K.D. On the history of the creation of grimm brothers' fairy tales and their translations into uzbek //euro-asia conferences. – 2021. – m. 3. – №. 1. – c. 85-87.
7. Каримова Д. Х. Вариантность в переводе (на примере произведений братьев Гримм) //Вестник науки и образования. – 2019. – №. 4-2 (58).
8. Halimovna K. D. Variability and invariability in fairy tales (As the example of the translation of grimm's fairy tales) //International Journal of Psychosocial Rehabilitation. – 2020. – T. 24. – №. 1. – C. 138-144.
9. Halimovna K. D. The Influence of Language and Principles of Translation on the Origin of Variation and Invariance in Translation //Web of Scholars: Multidimensional Research Journal. – 2022. – T. 1. – №. 4. – C. 137-140.



## O‘ZBEK XALQ PAREMALARIDAGI ETNONIMLARDA OMONIMIK MUNOSABAT

*Nurova Yulduz Ubaydullayevna,*  
*Buxoro davlat universiteti o‘qituvchisi,*  
*filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)*  
*y.u.nurovabuxdu@gmail.com*

**Annotatsiya.** *Etnolingvistika nisbatan yangi fan bo‘lib, ba‘zida yangi gumanitar bilim sohalarida sodir bo‘lgani kabi uning predmeti va qamrov doirasi hanuz aniq belgilanmagan, ya‘ni voqelikning qanday elementlarini o‘rganishi mavhumligicha qolmoqda. Shu ma‘noda aytish mumkinki, etnolingvistika – bu tutashuvdagi fan. So‘nggi o‘n yilliklarda bilimning bunday chegaraviy sohalarini ko‘plab paydo bo‘ldi, “tutashuvdagi fanlar”ning yuzaga kelishi hozirgi zamon fanining ham gumanitar, ham tabiiy fanlariga xos xususiyatdir. Etnolingvistika xalq hayotining ruhiy, madaniy, etnik xususiyatlari va ularning tilda aks etishini o‘rganuvchi tilshunoslik yo‘nalishi hisoblanadi.*

**Kalit so‘zlar:** *etnolingvistika, etnos, tilshunoslik, moy nomi, mahsulot, til, madaniyat, maqol.*

## ОМОНИМИЧЕСКИЕ ОТНОШЕНИЯ В ЭТНОНИМАХ УЗБЕКСКИХ НАРОДНЫХ ПАРЕМ

**Аннотация.** *Этнолингвистика - относительно новая наука, и её предмет и сфера применения, как это иногда бывает в новых областях гуманитарного знания, ещё не определены, т.е. остаётся неясным, какие элементы действительности она изучает. В этом смысле можно сказать, что этнолингвистика – это наука на стыке дисциплин. В последние десятилетия появилось много таких пограничных областей знания, возникновение “наук на стыке” является характерной чертой как гуманитарных, так и естественных наук современности. Этнолингвистика - это направление лингвистики, изучающее духовные, культурные, этнические особенности жизни народа и их отражение в языке.*

**Ключевые слова:** *этнолингвистика, этнос, лингвистика, название масла, продукт, язык, культура, этнолингвистика, пословица.*

## HOMONYMIC RELATIONS IN ETHNONYMS OF UZBEK FOLK PAREMS

**Abstract.** *Ethnolinguistics is a relatively new science, and its subject and scope, as is sometimes the case in new fields of humanities, have not yet been determined, i.e. it remains unclear which elements of reality it studies. In this sense, we can say that ethnolinguistics is a science at the junction. In recent decades, many such borderline fields of knowledge have appeared, the emergence of “sciences at the junction” is a characteristic feature of both the humanities and natural sciences of our time. Ethnolinguistics is a branch of linguistics that studies the spiritual, cultural, and ethnic characteristics of the life of a people and their reflection in language.*

**Keywords:** *ethnolinguistics, Ethnos, linguistics, Oil name, product, language, culture, proverb.*

**Kirish.** *Etnolingvistika nisbatan yangi fan bo‘lib, ba‘zida yangi gumanitar bilim sohalarida sodir bo‘lgani kabi uning predmeti va qamrov doirasi hanuz aniq belgilanmagan, ya‘ni voqelikning qanday elementlarini o‘rganishi mavhumligicha qolmoqda. Shu ma‘noda aytish mumkinki, etnolingvistika – bu tutashuvdagi fan. So‘nggi o‘n yilliklarda bilimning bunday chegaraviy sohalarini ko‘plab paydo bo‘ldi, “tutashuvdagi fanlar”ning yuzaga kelishi hozirgi zamon fanining ham gumanitar, ham tabiiy fanlariga xos xususiyatdir. Etnolingvistika xalq hayotining ruhiy, madaniy, etnik xususiyatlari va ularning tilda aks etishini o‘rganuvchi tilshunoslik yo‘nalishi hisoblanadi. O‘zida maqol, matal va maqol-matal tipidagi birliklarni qamrab oluvchi paremlarning etnolingvistik xususiyatlari jahon tilshunosligida ham, turkiy tilshunoslik va uning tarkibiy qismi bo‘lmish o‘zbek tilshunosligida ham chuqur tadqiq qilingan emas. O‘zbek xalq paremlari tarkibidagi etnik birliklar xilma-xil va turli-tuman bo‘lib, ularda kiyim-kechak nomlari, jumladan, bosh kiyim (bo‘rk, lachak, qasava); ust kiyim va ularning qismi (guppi, yarg‘oq, kishan yoqa); ich kiyim va ularning qismi (yaxtak, jiyak, baloq); oyoq kiyim, ularning qismi va o‘rinlari (paytava, ulton, ukpa); kiyimga yordamchi buyum (qayish, qiyiq(cha), pushton); mato nomlari (beqasam, shoyi, movut);*

ozuq-ovqat nomlari, chunonchi, quyuq (*ko'mma, qo'g'irmoch, qurtava*), suyuq ovqat (*yorma, umoch, og'iz, yovg'on, bulamiq*); ichimlik (*bo'za, zardob*); mahsulot (*to'qoch, oqliq, jig'in*); Shirinlik (*shinni*), don mahsulotlari (*arpa*), moy nomi (*zig'ir yog'i*) kabi etnik birliklar qo'llangan.

Tilshunoslik ilmda barchaning e'tiborini tortayotgan til va madaniyat tushunchasi bilan bog'liq etnolingvistika masalalari hozirga qadar to'laqonli o'z yechimini topganicha yo'q. Shunday muammolardan biri paremlar tarkibida uchrovchi etnik birliklarning leksik-semantik xususiyatlari sanaladi. Ushbu maqolada o'zbek xalq paremlaridagi etnonimlarda mavjud bo'lgan semantik jihatlardan biri, ya'ni omonimlik hodisasi haqida fikr yuritiladi. Chunonchi, "Atlas kiysang bo'zingni unutm, kimxob kiysang alagingni" maqoli tarkibida mavjud bo'lgan "atlas" etnonimi quyidagi birliklar bilan (**Atlas I.** (arab *الحرير* – tekis, silliq) – tanda ipi ham, arqoq ipi ham tabiiy ipakdan to'qiladigan bir yuzlama silliq mato. Tanda ipi abrbandi usulida bo'yab bezatiladi. Alohida ishlov berib atlasga jilo beriladi, shunga ko'ra u tovlanib turadi. Atlasning tabiiy ipakdan to'qilgan eng a'lo navi sakkiz tepkili xonatlas deb ataladi. Xonatlasning barcha siri uning tuzilishi va to'qilish usulidadir. Atlasning to'qilish jarayoni: atlas to'rt tepkili dastgohda, sakkiz tepkili atlas sakkiz tepkili dastgohda to'qiladi. Tandaga gullar tandaning har sakkiz naxi to'qilishda ustma-ust keladigan qilib ko'tariladi, naxlar tepkilarga muvofiqlashtirilib, gullar o'ynag'ichlarga ulanadi. **Atlas II.** Albom yoki kitob shaklida tartiblangan jug'rofiy xaritalar, chizmalar majmuyi. Iqtisodiy atlas. **Atlas III.** – [yun – mifologiyada Liviya podshosining nomidan; go'yo u birinchi bo'lib osmon globusini yaratgan emish]. 1. Muayyan maqsadlarda va muayyan tizim asosida tanlab olingan kartalarda iborat bo'lgan va tushunish matnlari bilan albom shaklida nashr etilgan to'plam. Anatomik atlas. Botanika atlas. Zoologiya atlas.) omonimlik munosabatida turadi. Xuddi shu tarzda maqolada *oqliq, bo'z, parcha; kul, tom* leksik birliklarining omonimik munosabatlari haqida atroflicha ma'lumot beriladi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Tilshunoslikda til va madaniyat, til va inson omili, til va tarix masalalariga dastlab V. fon Gumboldt, A.Vaysgerber, L.Blumfeld, E.Sepir, Boduen de Kurtene, A.A.Potebnya, A.A.Shaxmatov kabi Yevropa va rus tilshunoslari e'tibor qaratgan. Dunyo tilshunosligida matnni antropotsentrik paradigma asosida o'rganish etnolingvistika, lingvistik semantika, lingvokognitologiya, psixolingvistika, lingvokulturologiya, pragmatikaga oid tadqiqotlarda ko'zga tashlanadi. Xususan, Xomskiy, U.Cheyf, B.A.Serebrennikov, L.V.Shcherba, Y.N.Stepanov, I.R.Galperin N.I.Karaulov, N.I.Jinkin, A.A.Leontyev, J.Lakoff, A.Vejbiskaya, E.S.Kubryakova, E.Rosh, V.P.Belyanin, V.Z.Demyankov, V.A.Maslova, M.Dridze, K.F.Sedov, A.Nurmonov, N.M.Mahmudov, E.A.Begmatov, Sh.Safarov, S.Boymirzayeva, I.Azimova kabi tilshunoslarning ishlarida til tizimi antroposentrik tamoyillar asosida tadqiq etilgan [10]. Professor N.Mahmudovning "Tilning mukammal tadqiqi yo'llarini izlab..." nomli maqolasida etnolingvistika, lingvokulturologiya, umuman, antropotsentrik paradigmanning mohiyatini va bu boradagi muammolar chuqur va asosli yoritib beriladi. Til sohasida omonimiyani o'rganish borasida bir nechta ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirilgan bo'lib, odatda, omonimiya matnda aniqlanadi (B.N. Golovin, A.M.Babkin, E.M.Galkina-Fedoruk, L.A.Bulaxovskiy, R.A.Budagov, S.Axmanova, N.M.Shanskiy kabi), ammo ba'zi hollarda bu tushunishni qiyinlashtiradi. L.V.Malaxovskiy "tabiiy tillarda omonimlarning mavjudligi zarur va tabiiy" deb hisoblaydi. B.A.Plotnikov nisbatan barqaror va tilga mansub noaniqlik toifasiga omonimiyani kiritadi [14]. Maqol va matallarni qiyosiy-tipologik xususiyatlariga oid muammolar I.Begmurodov, R.A.Latipova, I.K.Mirzaev, Ye.V.Ivanova, B.T.Kasharokov, V.V.Pavlov, Z.A.Yusupova, Y.A.Osheva, L.A.Babitova, O.Sh.Igbo'lov, M.Temirova, R.U.Majidova kabi olimlar tomonidan tadqiq qilingan. Bu kabi ilmiy ishlar, maqol va matallar tadqiqotning nazariy jihatdan mustahkam asosga ega ekanligini ko'rsatadi. O'zbek tilshunoslari X.Abdurahmonov, G.N.Sindibaeva, N.B.Saparova, P.U.Bakirov, M.Djusupov, K.E.Alibekova, Sh.Majitaeva, B.Jo'raeva, D.S.Turdalievlar maqol va matallarining qiyosiy, g'oyaviy-badiiy, leksik, leksik-stilistik, grammatik tahliliga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlar olib borishgan[19].

Ammo o'zbek xalq paremlaridagi etnonimlar omonimiyasini ifodalovchi maqollarning milliy-madaniy xususiyatlari etnolingvistik yondashuv asosida maxsus tadqiq etilmagan.

#### **Tahlil va natijalar:**

– Agar bo'lsa **oqlig'ing**, bilinmaydi yo'qlig'ing.

I. Oqlik – sut, qatiq, pishloq, suzma, qurut, qimron, qimiz va sh.k. Bu mahsulotlarning kishi salomatligiga foydasi katta. Xalqda tuyog'i bor, ya'ni chorvasi bor oilada baraka bo'ladi, degan gap bor [21, 5]. Buyuk hakim Abu Ali ibn Sinoning yozishicha, turli hayvonlar (qo'y, echki, tuya, biya, ayniqsa sigir)ning "suti xiltlarni mo'tadillashtiradi, badanni baquvvat qiladi, semirtiradi,...ichki yaralarni quyuq xiltlardan tozalaydi, ularni yetiltiradi va yuvadi,...teridagi xunuk izlarni ketkazadi, (terining rangini yaxshilaydi,...yuzning rangini, ayniqsa xotinlarni chiroyli qiladi,...ko'z og'rig'iga, yo'talga va qon

tupurishga, astma va nafas qisishiga, sariq kasalliklariga qarshi foyda qiladi” Sigir-buzog’i bor oila, to’q oila hisoblangan[2].

**Izoh. “Oqliq sotgan oqarmas”.**

Bu maqolning kelib chiqishi ota-bobolarimizning qadimiy odatlarga borib taqaladi: o’tmishda deyarli har bir xonadon(ayniqsa, ko’chmanchi chorvadorlar xonadonida) sigir, qo’y, echki, tuya, biya va sh.k sut beruvchi hayvonlar boqilardi. Sutni, qatiqni, qimizni, umuman “oqliq”ni birovga pulga sotmas edilar yo biror narsa evaziga bermasdilar, tekinga, yo juda bo’lmaganda – qarzga berardilar. (Qarzga vaqtincha oqliq berib turish holatini “novador” deb atardilar. Bu shunday: bir idishga sutni va oqliqni qo’yardilar-da, ichiga bir cho’pni tikkasiga solib, sut qayergacha kelsa, o’sha yerini biror narsa(ip,latta va sh.k) bilan o’rab, belt qilib qo’yardilar. Qaytib olarda shu “o’lchov” bilan o’lchab olardilar. Natijada ikki tomonning ham bir-biriga haqi ketmas, bir-birining ko’nglida hech qanday shubhaga o’rin qolmas edi. Oqlikni sotmaslik to’g’risidagi fikrni davom ettirib yana shuni aytish kerakki, o’tmish avlod-ajdodlarimiz: “oqlik sotgan odamning kosasi oqarmaydi” deb qattiq irm qilardilar. Hatto biror odamning oqlik sotganini bilib qolguday bo’lsalar, undan hazar qilib, “bordi-keldi”, “oldi-berdi”ni uzib, uni yakkalab qo’yardilar, qabila-urug’ boshliqlarni bunday odamga “to’qqiz ayb” qo’yib, jarima soladilar [7, 308].

**Izoh: oq+liq** I.Qaynatilgan sutni qatiq qilish uchun solinadigan ozgina qatiq tomizg’i. Mana kolxoz bo’lgandan buyon... mol-hol ko’rib og’zimiz oqliqqa tegdi. Sh. Sulaymon. Ota, o’g’il.

**Oqlik. II.**Pishirilgan sutni ivitish (qatiq qilish) uchun unga solinadigan ozgina qatiq; tomizg’i.– *Hozir sut soqqandirsiz, axir.–Sog’indim...– Pishirib oqlik solib qo’ygan edim.* A.Haqqor. Sarob.

**Oqlik. III.** To’yga rozilik alomati sifatida sovchilarga beriladigan oq yoki och rangdagi mato, ro’mol, biror kiyim. *Sovchilar xursand bo’lib oqliq olib ketishdi.* **Eshon qo’ynidagi bir kiyim chitni Surxonboyni oldiga qo’yidida, gap boshladi:** –Mana bu xamir uchidan patir, hojim...Oqliq...Quda bo’lmoqchimiz. I.Rahim Taqdir.

**Oqlik. IV.** Azaga ko’mish marosimiga kelgan ta’ziyachilarga bo’lib beriladigan gazlama yirtish. *Oqliq bermoq* [7, 259].

**Atlas kiysang bo’zingni unutm, kimxob kiysang alagingni.**

**Atlas. I.** Ipakdan to’qilgan gulli gazlama. **Atlas ko’ylak** [7. 114].

**Atlas** (arab ال حرير - tekis, silliq) – tanda ipi ham, arqoq ipi ham tabiiy ipakdan to’qiladigan bir yuzlama silliq mato. Tanda ipi abrbandi usulida bo’yab bezatiladi. Alohida ishlov berib Atlasga jilo beriladi, shunga ko’ra u tovlanib turadi. Ilgari mato yuziga kudung urilgan, hozirgi kunda Atlas issiq satxli baraban – kalandrdan o’tkaziladi. O’zbek Atlaslari rang-barang nafis gullarga boy, bu gullar bir-biri bilan uyg’unlashib, matoda yaxlit go’zal bir naqshni hosil qiladi. Atlasning tabiiy ipakdan to’qilgan eng a’lo navi sakkiz tepkili xonatlas deb ataladi. Xonatlasning barcha siri uning tuzilishi va to’qilish usulidadir. Atlasning to’qilish jarayoni: Atlas to’rt tepkili dastgohsa, sakkiz tepkili Atlas sakkiz tepkili dastgoxda to’qiladi. Tandaga gullar tandaning har sakkiz naxi to’qilishda ustma-ust keladigan qilib ko’tariladi, naxlar tepkilarga muvofiqlashtirilib, gullar o’ynag’ichlarga ulanadi. Tepki bosilganda gulning biri pastga tortilib, ustma-ust yotgan naxlardan birining komi ochiladi va orasidan birinchi arqoq ipi o’tadi, ikkinchi tepki bosilsa, ikkinchi komi ochilib, ikkinchi arqoq ipi o’tadi. Shu tariqa sakkiz nax orasiga sakkiz arqoq ipi ustma-ust tushib, tanda ipi matoning ustiga tomon joylana borib to’qima bir yuzlamaga aylanadi [7, 114].

**Atlas II.** Albom yoki kitob shaklida tartiblangan jug’rofiy xaritalar, chizmalar majmui. Iqtisodiy atlas [7, 114].

**Atlas III.** - [yun- mifologiyada Liviya podshosining nomidan; go’yo u birinchi bo’lib osmon globusini yaratgan emish] 1.Muayyan maqsadlarda va muayyan tizim asosida tanlab olingan kartalarda iborat bo’lgan va tushunish matnlari bilan albom shaklida nashr etilgan to’plam. Anatomik atlas. Botanika atlas. Zoologiya atlas [7. 114].

**bo’z I** [asli arab مجددا – “mato, ip mato”; shundan bazzoz-“mato bilan savdo qiluvchi”] ot. Oq-sargish rangli dag’al ip gazlama. Gazlama, ip, xom pishiriilgan paxta ipidan qo’l dastgohida to’qilgan mato. Malla bo’z. *So’z emgak bo’lar, bo’z ko’ylak.* **Maqol.** *Shu maqsadga yetish uchun qop ko’targan, yirtiq-yamoq,bo’z choponli otasining orqasidan shoshib-pishib odimlar edi.* Parda Tursun, O’qituvchi [1, 38].

**bo’z II** *Sho’rxok yer, ekinsiz dala. Bo’z yerlar.*

**bo’z III** Ko’kka moyil oq rang (asosan, ot haqida). St. Bo’zdan tayyorlangan, tikilgan. *Bo’z yaktak qichitar, yaxshi xotin tinjitar.* Maqol. *Noz-ne’matning ko’pligidan bo’z dasturxonning yamog’i ko’rinmay ketdi.***S.Siyayev, Avaz. Nigor oyim bo’z to’nni tekshirib ko’rdi. A.Qodiriy, Mehrobdan chayon.**

**Bo’z** ot, bo’z to’rg’ay, bo’z qarchig’ay, bo’z eshak, bo’z to’ya. – *O’ktam yosh*

*bo’z otda iljayib, turar edi. Oybek, O.v.shabadalar. Chorbog’ chetidan bo’z otni choptirib chiqdi-yu, birdan jilovini qo’yib yubordi. P. Qodirov, Yulduzli tunlar. Safidan adashgan bo’z turna*

bo'zlar...**A.Suyun.** *Olis tonglar katta, kuchli bo'z eshakni bolalariga tutqazib, dastasini yo'g'on qamchini katta, juda kir sallasiga qistirdi.* **Oybek, O.v. shabadalar.** *Ko'ldan bir kishi chiqib kela boshladi, qo'lida bo'z qarchig'ay.* **“Intizor”.**

Rangi bo'z bo'lib ketmoq, yoki bo'zday oqarmoq. Rangi oppoq bo'lib ketmoq. *Nazokatning yuzi bo'zdek oqardi.* **A.Muxtor. Opa-singillar.** *Uning rangi bo'zdek oqarib ketgan, a'zoyi badani qalt-qalt titrar edi.* **K.Yashin, Hamza.** *Ajabo, bu odam nega kuladi, deb aftiga qarasam...rangi bo'z bo'lib ketibdi!* **A.Qahhor. Asarlar** [1, 38].

Bo'z yer, ekin ekishga yaroqli, lekin uzoq vaqt ishlanmay, ekilmay yotgan yer.

*Bo'z yerga qadalgan chigit bag'rida bahor nafasi tegdi.* **R.Fayziy.** *Cho'lga bahor keldi. Bo'z yerlarga suv chiqadi, qishloq atroflari, qaqur-ququr bo'z ko'kalamzor ekinzor bo'ladi.* **M.Ismoilij.Farg'ona t.o.**

**Bo'z tuproq.** Subtropik hududlar va yarimcho'l yerlarga xos tuproq. *Poylab dehqon yo'lini bo'rsillaydi bo'z tuproq.* **A.Suyun. Olis tonglar.** *Gul bog'im, bog'im-bog'im, bog' bo'lgan bo'z tuprog'im.* Mirtemir. Asarlar.

**Bo'z bola yoki yigit.** *Endigina kuchga to'lib kelayotgan, turmush achchiq-chuchugini totmagan, turmush tajribasiga ega bo'lmagan, bo'z yigit edik.* **B.Ismoilov, Hormang, quoldoshlar.** *Bo'z yigit emasmanmi, qon gup etib miyaga urdi.* **“Mushtum”.** *Suluv qizing bor bo'lsa, bo'z bolaga yoqarsan.* **“Sharq yulduzi”.** *Shu kichkinagina bo'z yigit dilida so'ngsiz umidlar bor ekan.* **H.G'ulom. Mash'al.**

**Bo'z-** o'tsimon cho'l o'simligi, chalov. Bo'z qattiq uvvos yig'i. *Unitmoq ham shumchami, dunyo to'ldi bo'zimga.* **M.Yusuf. Uyqudagi qiz** [7,398].

**Xulosa va takliflar.** Til madaniy ahamiyatga ega axborotlarni saqlash va to'plash vositasi hisoblanadi. Xalqning mentalitetini o'zida aks ettirgan, madaniyatning ajralmas qismi va tilning muhim qatlamini tashkil etuvchi, bebaho ma'naviy boylik sanalgan maqollar asrlar davomida hayotiy tajribalar asosida sayqallanib, turli vositalar bilan avlodlardan avlodlarga meros qilib qoldirilgan.

### ADABIYOTLAR:

1. Абдурахмонов Х., Махмудов Н. Сўз эстетикаси. – Тошкент, 1981. – 92 б.
2. Абу Али ибн Сино. Тиб қонунлари. – Т., 1992. – 316 б.
3. Артеменко М., Фольклорное текстообразование и этнический менталитет // Традиционная культура. Научный альманах. 2001. №2 (4). С. 11-17.
4. Бромлей Ю.В. Очерки теории этноса. – М.: “Наука”, 1983. – 412. С 57-58.
5. Булатова Н.Д., Этнолингвистика в системе профессиональной подготовки специалистов по народной художественной культуре. Москва. 2003. 162 с.
6. Bekmatova D.A. Do'stlik hamda qarindosh- urug'chilik mavzusi bilan bog'liq turkcha maqollar semantikasi. T.,- 2012.- 47 b.
7. Бегматов Э. Мадвалиев Н. Маҳкамов Н в.х. Ўзбек тилининг изоҳли лугати. Москва. 1981.140 б.
8. Гумбольдт В. Язык и философия культуры. - М., 1985. – 452 с
9. Жўраева Б.М. Ўзбек халқ мақоллари шаклланишининг лингвистик асослари ва прагматик хусусиятлари. - Самарқанд, 2019. – 83 б.

## INGLIZ VA O'ZBEK LINGVOMADANIYATIDA EMOTSIONALLIK KONSEPTLARINING IFODALANISHI ("Baxt" va "xursandchilik" konseptlari misolida)

*Jumayeva Ozoda Ilhomjonovna,*  
Buxoro davlat universiteti o'qituvchisi  
*ozodajumayeva2020@gmail.com*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada ingliz va o'zbek lingvomadaniyatida emotsionallik konseptlarining ifodalanishi yoritilgan. Zamonaviy tilshunoslik va lingvokulturologiyada inson his-tuyg'ularining tilga qay darajada ta'sir etishi va ularni til orqali aniq aks ettirilishini o'rganish dolzarb masala hisoblanadi. Xilma-xil yondashuvlar til nazariyasi va amaliyotida emotsionallik konseptlarining kognitiv va madaniy jihatdan o'ziga xosligini o'rganadi.

**Kalit so'zlar:** emotsionallik, emotivlik, konsept, lingvomadaniyat, nutq, hissiyot, tadqiqot, hissiy hodisalar, kommunikativ jarayon.

## РЕПРЕЗЕНТАЦИИ КОНЦЕПТОВ ЭМОЦИОНАЛЬНОСТИ В АНГЛИЙСКОЙ И УЗБЕКСКОЙ ЛИНГВОКУЛЬТУРАХ (на примере концептов "счастье" и радость)

**Аннотация.** В данной статье освещается выражение понятий эмоциональности в английской и узбекской лингвокультурах. В современной лингвистике и лингвокультурологии актуальным является изучение того, в какой степени человеческие эмоции влияют на язык, и как именно они выражаются языком. Разнообразные подходы исследуют когнитивную и культурную специфику концепций эмоциональности в теории и практике языка.

**Ключевые слова:** эмоциональность, мотивность, концепт, лингвокультура, речь, эмоция, исследование, эмоциональные явления, коммуникативный процесс.

## THE EXPRESSION OF THE CONCEPTS OF EMOTIONALITY IN ENGLISH AND UZBEK LINGUISTIC CULTURE (On the example of the concepts "happiness" and "joy")

**Abstract.** This article highlights the expression of the concepts of emotionality in English and Uzbek linguistics. In modern linguistics and linguaculture the study of the extent to which human feelings affect language and their exact reflection through language is an urgent issue. Diverse approaches explore the cognitive and cultural identity of concepts of emotionality in language theory and practice.

**Keywords:** emotionality, concept, linguaculture, speech, emotion, research, emotional phenomena, communicative process.

**Kirish.** Bizga ma'lumki, kognitiv lingvistika va lingvomadaniyatning muhim birliklaridan biri konsept hisoblanadi. Bugungi kunda u ko'plab tadqiqotchilarning diqqatini o'ziga qaratib kelmoqda. Konsept terminini tadqiq qila turib, ko'plab xulosalarga kelishgan. Konsept insonning bilim va tajribasida nomoyon bo'ladigan va u bilan o'z faoliyatini ko'rsatadigan abstrakt birlikdir.

XX asr oxirida V.I.Shaxovskiy tilshunoslikning o'ziga xos tarmog'i - emotiologiya (V.I.Shaxovskiy atamasi) yaratilganini e'lon qildi, bu esa emotivlik kategoriyasini nazariy tushunishning yangi darajasiga olib chiqdi. U yaratgan ta'limot yangi pozitsiyalardan til kodining hissiyotlilik haqida tilshunoslarga uzoq vaqtdan beri ma'lum bo'lgan hodisalarga yangicha e'tiborni qaratdi. Masalan, sof kognitiv vazifa paydo bo'ladi-til bizning his-tuyg'ularimizni qay darajada aniq aks ettirishini, tilning ifoda etuvchi salohiyati umuman bizning his-tuyg'ularimizni aks ettirishga qodirligini aniqlashdir.

Emotsionallik konseptlari nima? Ularning mohiyatini aniqlash uchun biz, avvalo, "emotsionallik" va "emotivlik" atamalarini bir-biridan ajratib olishimiz lozim. Mazkur tushunchalar birinchi marta Sh.Balli, rus tilshunosligida B.A.Larin (1974) va V.I.Shaxovskiy (1983) kabi tilshunoslar tomonidan o'rganilgan. [1; c. 227]. Emotsionallik- bu shaxsning psixologik xususiyatlari, uning hissiy holati va uning rivojlanish darajasi. Emotivlik esa lingvistik xarakterga ega birlik hisoblanib, hissiy ta'sir ko'rsatishga qodir so'z yoki gap, ya'ni hissiyotlarimizning tilda nomoyon bo'lishidir.

Emotsionallik konseptlari mohiyatini shaxs va uning hissiy sohasi to'g'risidagi psixologik bilimlarni jalb qilmasdan tushunish mumkin emas. Bu haqida K.Vilyunas o'zining "Hissiy hodisalar psixologiyasi" (Moskva davlat universiteti, 1976-yil) asarida batafsil yozib qoldirgan. [1; c. 228].

Til nafaqat madaniyat quroli, balki his-tuyg'ularni ifodalovchi vosita hamdir. Hissiyotlar insonning dunyoga bo'lgan munosabatining o'ziga xos shakli bo'lib, bizni ushbu hodisaning lingvistik talqini qiziqtiradi. Kontseptsiyani o'ziga xos madaniy qiymatga ega bo'lgan va aks ettirish va muloqot jarayonida odamlar uchun dunyo elementlarini ifodalovchi aqliy shakllanish sifatida ko'rish mumkin. Hissiyot kontseptsiyasining tuzilishi va lingvistik amalga oshirilishini o'rganishga integrativ kognitiv-lingvistik-madaniy yondashuv bilan asoslanadi.

Kommunikativ faoliyat jarayonida fikrlar va hissiyotlar birlashadi va bu holda his-tuyg'ular hatto ustunlik qilishi mumkin. Har bir tilning o'ziga xosligi va madaniy farqlardan qat'i nazar, bir xil asosiy his-tuyg'ularni boshdan kechiradi va bu turli madaniyatlardagi odamlarni birlashtiradi. Ammo davrlar o'zgarishi va intensivligi turli xalqlardagi his-tuyg'ularning har xil bo'lishiga sabab bo'ladi, bu har bir insonni o'ziga xos qiladi.

Turli davrlarda o'zbek xalqida turlicha his-tuyg'ular hukmronlik qilgan, masalan, 20-yillarda – qo'rquv hissiyoti; ulug' Vatan urushi davrida - vatanparvarlik, g'urur, ilhom; 70-yillarda - umidsizlik, ishonchsizlik, 90-yillar oxirida -ijobiy hissiy tushunchalar hukmronlik qilgan - mustaqillik, "qayta qurish", keng tarqalgan demokratiya va boshqalar o'zbek madaniyati uchun juda muhim bo'lib, ular oddiy o'y-fikrlardan konseptlarga aylangan.

Ushbu maqolada biz asosiy emotsional konseptlar - baxt va xursandchilikning ma'nolarini ko'rib chiqamiz. Garchi V.I.Shaxovskiy hissiyotlar va tuyg'ular nomlarini emotsional so'zlar deb hisoblamasa ham, bizga ko'rinadiki, ularning semantikasi va matndagi qo'llanishi ham emotsional til kodining mohiyatini tushunishning kalitidir.

**Tadqiqot metodi.** Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, o'zbek tilidagi "Baxt" va ingliz tilidagi "Happiness" konseptlarini lingvomadaniy nuqtayi nazaridan qiyosiy tahlil qilsak, garchi bu so'zlar umumiy jihatdan bir xil ma'noni ifodalasa ham, ularning tarkibidagi nozik emotsional-semantik komponentlar to'liq mos kelmaydi.

O'zbekcha izohli lug'atga ko'ra, "Baxt –bu hayot (turmush) dan to'la mamnunlik va bearmonlik holati, hayotdan eng yuqori qoniqish holati."

*Masalan: - Inson baxt uchun yaratilgan (Korolenko);*

*Ajab emas, baxti ochilib, gulnor ham yaxshi, obro'li joylarga kelin bo'lsa. (Oybek, Qutlug' qon)*

Etimologiya nuqtai nazaridan, baxt tojikcha so'z bo'lib, "mamnunlik holati" ma'nosini ifodalaydi. Bu otdan o'zbek tilida baxtli, baxtsiz sifatlari, baxtsizlik oti yasalgan. Bundan tashqari, o'zbek tilida baxti ochilsin, baxti kulgan, baxti qora kabi iboralar; baxt-saodat, baxt-iqbol kabi juft otlar mavjud.

*El boqsa, baxting kular;*

*El boqmasa, taxting qular. (Maqol)*

Ingliz tilidagi "happiness" so'zi esa etimologik jihatdan tahlil qilinganda, "hap"-kutilmagan tasodifiy hodisa so'zidan kelib chiqqan bo'lib tasodif, insonning omadi, nasibasi, taqdiri, kutilmagan hodisa ("tasodif, omad, boylik (boylik), taqdir, kutilmagan hol") ma'nosida ishlatiladi. 14-asr oxiridan boshlab ingliz tilidagi "happy" so'zi "juda xursand" ma'nosida ishlatilgan, 1520-yildan boshlab esa "juda mamnun va xursand" ma'nosida berilgan.

Keyinchalik, "happy" sifatidan "happiness" ot so'z turkumiga oid yangi so'zi hosil bo'lib, u 1590-yildan boshlab "yoqimli va mamnun ruhiy holat" ma'nosida qo'llangan.

*"Happiness is when what you think, what you say, and what you do are in harmony." (Mahatma Gandhi)*

*Happiness is a form of courage. (Proverb)*

«Baxt» konseptining izohlari: "the quality or state of being happy" (baxtli bo'lishning sifati yoki holati), "good fortune"(omad), "pleasure"(zavq), "contentment "(mamnunlik), "joy"(baxt); "A state of well-being characterized by emotions ranging from contentment to intense joy"(farovonlik holati, mamnunlikdan tortib to quvonchgacha), "emotions experienced when in a state of well" -being "(farovonlik holatida bo'lgan his-tuyg'ular); out of date. "Good fortune: prosperity"(omad, farovonlik), "a state of well-being and contentment: joy"(farovonlik va mamnunlik holati: quvonch), "a pleasurable or satisfying experience" (yoqimli yoki qoniqarli tajriba), "felicity, aptness "(baxtilik, moslik).

"Baxt" tushunchasini faqatgina so'zlar bilan voqealanib qolmay, turli frazeologik birliklar, aytimlar va maqollar kabi boshqa lisoniy birliklar bilan ifodalanishi mumkin. "Baxt" va "baxtli" so'zlari-bu odamlar his qiladigan, o'ylaydigan va gapiradigan hissiy so'zlardir. Bu frazeologik birliklar, aytimlar va maqollar

xalqning, u yoki bu mamlakatning his-tuyg'ulari, hayot tajribasi, urf-odatlar va an'analar natijasi o'laroq vujudga kelgan.

Kunning «Англо-русский фразеологический словарь» lug'atida «Baxt» konsepti bilan bog'liq quyidagi frazeologik birlik keltirilgan:

«As happy as a clam» -juda baxtli, xursand ma'nosini ifodalaydi.

*"It never occurred to him to be discontented... He was as happy as a clam."*

The Harpe's Head - A Legend of Kentucky, 1833:

Ushbu iboraning dastlabki varianti «as happy as clam at high water» bo'lib, agar uni o'zbek tiliga so'zma-so'z tarjima qilsak, *suv toshganidagi moluskadek xursand* ma'nosini ifodalaydi. Ushbu iboraning tarixiga nazar salsak, u ilk bora 19 asr boshlarida AQSHning shimoliy –sharqiy shtatlarida dengizchilar tomonidan foydalanilgan. Nega aynan ikki pallali molususkadek baxtli iborasi qo'llanilgan? Sababi molyuskalar faqatgina suv satxi yuqoriga ko'tarilgandagina suv yirtqichlari va dengizchilar ta'qibidan ozod bo'lishgan. Shu sababli ham amerikalik dengizchilar orasida ushbu ibora juda mashhur bo'lgan va keyinchalik u oddiy xalq tiliga ko'chgan. Bundan tashqari ingliz tilida «happiness» konsepti bilan bog'liq quyidagi mashhur frazeologik birliklarni ko'rishimiz mumkin:

«Over the moon, happy clappy, happy slapping, happy hour, happy family» Ushbu inglizcha frazeologik birliklarning barchasida insonning hayotdan manunligigi, hissiyotga boy damlari kuchli emotsional bo'yoqlar orqali ifodalangan. [3; c. 305].

O'zbek tilining etimologik lug'atida xursandchilik so'zi quyidagicha tahlil qilingan [4; c. 245]: «Xursand» bu tojikcha sifat bo'lib, «shod», «mamnun» ma'nosini anglatadi. Keyinchalik bu sifat o'zbek tiliga o'zlashib, affikatsiya usuli bn «xursandchilik» mavhum oti yasalgan.

**Muhokama.** Izohli lug'atda «xursandchilik» so'ziga vaqtini shod, xursand, o'yin-kulgi bn o'tkazish, vaqtichog'lik ta'riflari berilgan.

*Bu — boshlariga tushgan fojidan ke-yingi birinchi xursandchilik edi. Mirmuhsin, „Me'mor“ . ...shu kunlarning birida Xayri acha uyida kichkina xursandchilik bo'ldi. D. Nuriy, „Osmon ustuni“ .*

Xursandlik, shodlik. -Men senga ayt-sam, do'stim, — dedi Elmurod, — xursandchiligim ichimga sig'maydi. P. Tursun, O'qituvchi.

Ingliz tilida «Joy» so'zi tub so'z bo'lib, Oksford etimologik lug'atida «zavq va zavq hissi» (V. 1200), «zavq yoki baxt manbai» (V. 1300) kabi ma'nolar bilan hosil bo'ladi. Bu so'z ingliz tiliga qadimgi fransuz tilidan (eski fransuzcha-joie «zavq, zavq, erotik zavq, baxt, quvonch») o'zlashgan bo'lib, fransuz tiliga esa bu so'z lotincha «gaudia» dan («zavq hissi; shahvoniy zavq», gaudium-gaudia so'zining ko'plik shakli bo'lib, xursandchilik, ichki quvonch, shodlik, zavq; zavq yoki zavq manbai ) o'zlashgan.

Onlayn etimologiya lug'atiga ko'ra,1580-yillarga kelib ingliz tilidagi joy so'zi semantikasi quvonch ma'nosidan sevgi, muhabbat ma'nosiga kengaygan. Shunday qilib, biz quvonch so'zi ingliz tilida birinchi marta ingliz tiliga kirgan 13-asrning boshlaridan boshlab ma'no jihatidan sezilarli o'zgarishlarga uchraganini kuzatishimiz mumkin.

«Joy»-xursandchilik, quvonch so'zi ta'riflari 5 xil lug'atda (1) Oxford Advanced Learner's Dictionary; 2) New Webster's Dictionary and Thesaurus of the English Language; 3) Cambridge Advanced Learner's Dictionary and Thesaurus; 4) Longman Dictionary of Contemporary English; 5)Collins English Dictionary (Collins Thesaurus) taqqoslangan va tahlil qilingan [5] :

Tahlil qilingan barcha lug'atlar quvonchning ma'nosini katta baxt hissi sifatida ko'rsatadi va birinchi navbatda bu eng ko'p ishlatiladigan ma'no ekanligini anglatadi. Bu ma'noda quvonch sanalmaydigan mavhum ot sifatida ishlatiladi.

Xursandchiliclikning ikkinchi ta'rifi ham barcha lug'atlarda mos keladi: quvonch/ baxt keltiradigan / keltiradigan narsa yoki insondir. Bu ma'noda quvonch sanaladigan ot hisoblanadi. Biroq Yangi Webster lug'ati (New Webster's Dictionary and Thesaurus of the English Language)da joy- xursandchilik, quvonch so'zining yanada kengroq ta'rifi berilgan: «Quvonch -bu hissiyotni keltirib chiqaradigan yoki hissiyot markazlari».

Shuni ta'kidlash kerakki, Longman (Longman Dictionary of Contemporary English) lug'atida «joy» so'zi ko'proq badiiy uslubda qo'llanilishi ta'kidlangan, ayniqsa adabiyotda, badiiy asarlarda. So'zlashuv ingliz tili uslubida esa ular quvonch bilan biror narsa qildim deb aytishdan ko'ra, odamlar odatda buni qilishdan mamnun / baxtli /xursand bo'lganliklarini aytishadi, ya'ni «joy»o'rnida ko'pincha «pleased / happy /glad» so'zlari qo'llaniladi.

Ingliz tilida «joy» oti bilan derivatsiya usuli orqali yasalgan quyidagi so'zlar mavjud: 12ta ot: joylessness, joyfulness, enjoyment, joyance, joyancy, joydom, joyment, joyousness, joyhood, joygasm,

killjoy, joystick; 6 ta sifat: joyless, joyful, joyant, joyous, unjoyous, joysome; 3 fe'l: enjoy, overjoy, rejoice; 3 ta ravish : joylessly, joyfully, joyously;

Barcha lug'atlarda "joy" so'zining sanab o'tilgan umumiy sinonimlari: delight, pleasure, happiness. Bundan tashqari, Kambridj lug'ati (Cambridge Advanced Learner's Dictionary and Thesaurus) da "joy" so'ziga sinonim sifatida yana "elation"; Longman (Longman Dictionary of Contemporary English)da "felicity, bliss, exultation" kabi so'zlar sinonim sifatida kiritilgan.

"Joy" so'zi ishtirok etgan idiomalar: full of the joys of spring –juda xursand, somebody's pride and joy- birovning faxri va quvonchi, dance / jump / shout for joy –xursandchiligidan raqsga tushmoq, baqirmoq, sakramoq, be transported with delight / joy or be in a transport of joy –juda mamnun, xursand bo'lmoq; glow with joy –quvonchdan yuzi porlamoq; huge yourself with joy (British English)- o'zidan juda mamnun bo'lmoq.

**Xulosa** qilib aytganda, xursandchilik leksemasi asosiy ijobiy hissiyotni anglatadi, ya'ni uni boshqa odamlar bilan bo'lishish mumkin. "Xursandchilik" konsepti "baxt" qisqa muddatli hissiyotga qaraganda kuchliroq va hayajonli tuyg'u sifatida hisoblanadi. Uning umumiy tushunchasi uchta prototipik kognitiv modelga va uchta prototip atrofida to'plangan ko'plab prototip bo'lmagan modellarga ega deb ta'riflanadi: 1) xursandchilik darhol javob sifatida; 2) xursandchilik baho, qiymat sifatida; 3) xursandchilik mamnun bo'lish kabi.

Nihoyat, leksikografik manbalarni tahlil qilib, ingliz tili madaniyatida xursandchilik leksemasi ijobiy tuyg'u / hissiyot, hissiy holat, hissiyot sababi, intensivlik, hissiyotning ifodasi / tashqi namoyishi, muvaffaqiyat kabi semantik xususiyatlari bilan shakllanadi. Kontseptsiyaning periferik zonasi quvonch zavq, baxt, zavq, zavq, zavq, quvonch, quvonch kabi eng ko'p ishlatiladigan sinonimlar va hosilalarni o'z ichiga oladi. "Baxt" konsepti esa ingliz va o'zbek lingvomadaniyatida ham ijobiy, ham salbiy hissiyot hisoblanadi. Masalan: Baxti kulgan –ijobiy konnotatsiya. Birovning baxti, birovning ko'zini chiqaribdi.- salbiy konnotatsiya.

### ADABIYOTLAR:

1. Маслова В.А. Когнитивная лингвистика: Учебное пособие. - Мн.: ТетраСистемс, 2004. - 227 с.
2. Ольхович М. The emotion concept of joy in the English linguaculture.статья (allbest.ru)
3. Lakoff, R. The logic of politeness, or minding your p's and q's. In: C. Corum et al., eds., Papers from the 9 th Regional Meeting of the Chicago Linguistic Society. Chicago Linguistics Society. 1973, 9:292-305.
4. Rasulov, Z. (2021). Reduction as the way of the language economy manifestation. [http://journal.buxdu.uz/index.php/journals\\_buxdu/article/view/2943](http://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/2943)
5. Rasulov, Z. (2022). Об объекте исследования когнитивной семантики. [http://journal.buxdu.uz/index.php/journals\\_buxdu/article/view/4346](http://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/4346)
6. Yuldasheva, F. (2023). Politeness research in modern linguistics. Scientific Journal of the Fergana State University, 29(1), 99. [https://doi.org/10.56292/SJFSU/vol29\\_iss1/a100](https://doi.org/10.56292/SJFSU/vol29_iss1/a100)
7. Yuldasheva Feruza Erkinovna. (2021). Politeness markers in spoken language. Euro-Asia Conferences, 37–40. Retrieved from <http://papers.euroasiaconference.com/index.php/eac/article/view/528>
8. Jumayeva, O. (2021). Linguistic Culture Expressing Happiness and Contentment in The English And Uzbek Languages. [https://journal.buxdu.uz/index.php/journals\\_buxdu/article/view/2623](https://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/2623)
9. Jumayeva, O. (2021). Ingliz va Ozbek lingvomadaniyatida "Happiness va Baxt konseptining" ifodalanishi. Центр научных публикаций (buxdu. uz), 5(5).
10. Jumayeva, Ozoda. "The implementation of the concept" happiness" in Uzbek language." International Engineering Journal For Research & Development (2021): 104-107. <http://iejrd.com/index.php/%20/article/view/1844>
11. Jumayeva, O. (2020). Expression of the lingua-cultural concept "happiness" in proverbs and phraseological units. [https://journal.buxdu.uz/index.php/journals\\_buxdu/article/view/2623](https://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/2623)
12. Jumayeva, O. (2020). Language is a means of cognition and communication. [https://journal.buxdu.uz/index.php/journals\\_buxdu/article/view/2623](https://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/2623)
13. Jumayeva, O. (2020). Expression of the lingua-cultural concept "happiness" in proverbs and phraseological units. [https://journal.buxdu.uz/index.php/journals\\_buxdu/article/view/2623](https://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/2623)



14. Naimova, A. (2020). *The main peculiarities of herbert wells and hojiakbar shaykhov's famous science fiction works. Theoretical & Applied Science*, (3), 417-420. <https://elibrary.ru/item.asp?id=42658883>
15. Namozova Kamola Bobir qizi. (2021). *wedding ceremony phrases of and their importance in improving communicative skills in foreign language. Central asian journal of literature, PHILOSOPHY.* <https://cajipc.centralasianstudies.org/index.php/CAJLPC/article/view/149>
16. Shukurova Madina Askarovna. (2021) *General linguistic theories in English linguistics of the XVI-XVII centuries and the practice of norms in vocabulary // European Scholar Journal (ESJ). ISSN (E): 2660-5562, Vol. 2 No. 4. 504-506.* [https://uniwork.buxdu.uz/resurs/13178\\_1\\_FC7F3832054BDE0BF0094D59CC15376C172E4EE4.pdf](https://uniwork.buxdu.uz/resurs/13178_1_FC7F3832054BDE0BF0094D59CC15376C172E4EE4.pdf)
17. Paxmamova, M. M. *Cross-cultural understanding of values in language.* <http://www.inter-nauka.com/issues/2017/1/1908>
18. Yunusova, A. (2023). *Thinking, reading and writing critically.* [http://journal.buxdu.uz/index.php/journals\\_buxdu/article/view/8733](http://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/8733). [http://journal.buxdu.uz/index.php/journals\\_buxdu/article/view/8733](http://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/8733).
19. . Djumayeva, N. *Comparative analysis of magical jewellery and ornaments in English and Uzbek fairy tales. JournalNX- A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal ISSN No: 2581 - 4230.VOLUME 7, ISSUE 6, June. -2021,138-142.* <https://media.neliti.com/media/publications/347771-comparative-analysis-of-magical-jeweller-8838f05c.pdf>
20. Kobilova Aziza Bakhridinovna. *Semantic and lingua-cultural features of English and Uzbek medical periphrases // International Journal on Integrated Education. ISSN (Online): 2620-3502, Vol.5, Issue 6, 6-June 2022. P.162-167.* <https://journals.researchparks.org/index.php/IJIE/article/view/3144>
21. Bakhodirovna, D. Z. (2021). *Description of Human Features and Feelings through Flora in English Poetry. Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture*, 2(10), 6-9. <https://doi.org/10.47494/cajipc.v2i10.209>
22. Akhmedova, S. H. (2020). *Analysis of general characteristics of the most studied fairy tale genre in english and uzbek folklore. Theoretical & Applied Science*, (6), 134-136. [https://elibrary.ru/page\\_404.asp?qx=https%3A%2F%2Felibrary%2Eru%2Fitem%2Easp%3Fid%3D43852728](https://elibrary.ru/page_404.asp?qx=https%3A%2F%2Felibrary%2Eru%2Fitem%2Easp%3Fid%3D43852728)
22. Ikromovich, A. I. (2022). *Linguistic Simplicity of Aphorisms in English and Uzbek. Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture*, 3(12), 39-43. <https://www.cajipc.centralasianstudies.org/index.php/CAJLPC/article/view/633>.
23. Usmonova Zarina Habibovna. (2022). *The Implementing Author's Vivid Speculation of the Technologically Advanced Era in the "I Robot" By Isacc Asimov. Eurasian Research Bulletin*, 7, 63–65. <https://geniusjournals.org/index.php/erb/article/view/1019>
24. Zarina Habibovna Usmonova. (2021). *The peculiarity of fantastic works (on the example of the works of ray bradbury, isaac asimov and stephen king). // European Scholar Journal*, 2(4), 499-503. Retrieved from <https://scholarzest.com/index.php/esj/article/view/684> <https://www.indianjournals.com/ijor.aspx?target=ijor:aca&volume=11&issue=3&article=148>
25. Nargiza Bobojonova Jumaniyozovna. (2022). *Categorization in Modern Linguistics. Miasto Przyszłości*, 28, 351–356. <http://miastoprzyszlosci.com.pl/index.php/mp/article/view/653>
26. Zarifovna, R. N. (2022). *Types of euphemisms used in everyday life. Integration Conference on Integration of Pragmalinguistics, Functional Translation Studies and Language Teaching Processes*, 86–89. Retrieved from <http://conferenceseries.info/index.php/online/article/view/52>
27. Nazarova Navbahor Ahrorovna. (2022). *Semantic Properties of Anthroponyms. // Indonesian Journal of Innovation Studies*, 18. <https://doi.org/10.21070/ijins.v18i.626>

**JAHON VA O‘ZBEK LEKSIKOGRAFIYASIDA MAXSUS LINGVISTIK LUG‘ATLAR,  
ULARDAN SEMANTIK KENGAYTMADA FOYDALANISH IMKONIYATLARI**

*Axmedova Dildora Bahodirovna,  
Buxoro davlat universiteti doktoranti (DSc), f.f.f.d. (PhD), dotsent  
daxmedova77@gmail.com*

**Annotatsiya.** Dunyo tilshunosligida maxsus lug‘atlar yaratish tajribasi keng yo‘lga qo‘yilgan. Shuning barobarida, turli sohaga oid lug‘atlarni tuzish prinsiplari borasidagi turli xarakterdagi ilmiy ishlar ham ko‘pchilikni tashkil etadi. Maxsus filologik lug‘at tor o‘quvchi ommasi – tilshunoslik bilan shug‘ullanuvchi va boshqa ilmiy tadqiqotchilarga mo‘ljallangan bo‘ladi. O‘zbek tilining morfem, chastotali, ters, o‘zlashma so‘z, frazeologizm, sinonim, antonim, omonim, sheva so‘zlari, terminologik, etimologik lug‘atlari mavjud.

**Kalit so‘zlar:** maxsus lug‘atlar, semantik izoh, semantik kengaytma, frazeologik lug‘at, etimologik lug‘at, dialektal lug‘at, terminologik lug‘at, o‘quv lug‘atlari.

**СПЕЦИАЛЬНЫЕ ЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ СЛОВАРИ В МИРОВОЙ И УЗБЕКСКОЙ  
ЛЕКСИКОГРАФИИ, ВОЗМОЖНОСТИ ИХ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ В СЕМАНТИЧЕСКОМ  
РАСШИРЕНИИ**

**Аннотация.** В мировой лингвистике широко распространён опыт создания специальных словарей. В то же время существует множество научных работ различного характера по принципам создания словарей для различных областей. Специальный филологический словарь предназначен для узкого круга читателей – лингвистов и других научных исследователей. В узбекском языке имеются морфема, частотность, отрицательное, притяжательное слово, фразеология, синоним, антоним, омоним, диалектные слова, терминологический и этимологический словари.

**Ключевые слова:** специальные словари, семантическая аннотация, семантическое расширение, фразеологический словарь, этимологический словарь, диалектный словарь, терминологический словарь, учебные словари.

**SPECIAL LINGUISTIC DICTIONARIES IN WORLD AND UZBEK LEXICOGRAPHY,  
POSSIBILITIES OF USING THEM IN SEMANTIC EXPANSION**

**Abstract.** In world linguistics, the experience of creating special dictionaries is widespread. At the same time, there are many scientific works of various nature on the principles of creating dictionaries for various fields. The special philological dictionary is intended for a narrow readership - linguistics and other scientific researchers. The Uzbek language has morpheme, frequency, negative, possessive word, phraseology, synonym, antonym, homonym, dialect words, terminological and etymological dictionaries.

**Keywords:** special dictionaries, semantic annotation, semantic extension, phraseological dictionary, etymological dictionary, dialectal dictionary, terminological dictionary, educational dictionaries.

**Kirish.** Dunyo tilshunosligida maxsus lug‘atlar yaratish tajribasi keng yo‘lga qo‘yilgan. Shuning barobarida, turli sohaga oid lug‘atlarni tuzish prinsiplari borasidagi turli xarakterdagi ilmiy ishlar ham ko‘pchilikni tashkil etadi.

Maxsus filologik lug‘at tor o‘quvchi ommasi – tilshunoslik bilan shug‘ullanuvchi va boshqa ilmiy tadqiqotchilarga mo‘ljallangan bo‘ladi. O‘zbek tilining morfem, chastotali, ters, o‘zlashma so‘z, frazeologizm, sinonim, antonim, omonim, sheva so‘zlari, terminologik, etimologik lug‘atlari shular jumlasidan. Maxsus lug‘at sirasiga kiruvchi morfem, chastotali, ters, o‘zlashma so‘zlar lug‘atidan semantik kengaytma tayyorlashda foydalanish imkoni yo‘q, ammo frazeologik, etimologik, dialektal va terminologik lug‘atlardan esa semantik izoh va semantik kengaytma ishlab chiqishda axborot manbai sifatida foydalanish mumkin. Quyida o‘zbek tilida mavjud ushbu maxsus lug‘atlarga qisqacha to‘xtalamiz.

Frazeologik lug‘at maxsus filologik lug‘atning bir turi bo‘lib, Sh.Rahmatullayev tomonidan tuzilgan “O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati” (Toshkent, 1978) uning mukammal namunasi. 2007-yilda “Yangi

asr avlodi” nashriyotida B.Mengliyev, O.Boymatova va M.Xudoyberdiyevaning maktab o‘quvchisi uchun “O‘zbek tili iboralarining o‘quv izohli lug‘ati” chop etilgan.

Etimologik lug‘atda so‘zning kelib chiqishi izohlanadi. O‘zbek tilida Sh.Rahmatullayevning to‘rt jilddan iborat “O‘zbek tilining etimologik lug‘ati” (Toshkent, 2008) nashr etilgan.

Dialektal lug‘atda o‘zbek tilining shevaga xos so‘zlari qayd etiladi. Bunday lug‘at o‘zbek tilining barcha yoki ma‘lum bir shevasiga xos so‘zni izohlashga mo‘ljallangan bo‘lishi mumkin. 1971-yilda mualliflar jamoasi tomonidan “Fan” nashriyotida chop etilgan “O‘zbek xalq shevalari lug‘ati”ni bunga misol qilish mumkin.

Terminologik lug‘at ma‘lum bir sohaga oid terminni izohlaydi. Terminologik lug‘at izohli yoki tarjima ko‘rinishiga ega. Demak, bunday lug‘atlar ham bir yoki ikki tilli lug‘atga bo‘linadi. A.Hojiyevning “Lingvistik terminlarning izohli lug‘ati” (Toshkent, O‘qituvchi, 1985) shunday lug‘atga misol bo‘ladi.

**Tadqiqot obyekti va qo‘llanilgan metodlar.** Maxsus lingvistik lug‘atlarga o‘quv lug‘atlari ham kiradi, chunki bunday lug‘atlar ma‘lum yoshdagi bolalarga mo‘ljallanadi. B.Bahriddinova jahon o‘quv leksikografiyasi tajribasini o‘rganar ekan, uning atroflicha tadqiq etilganligini aniqlaydi va quyidagi ma‘lumotlarni taqdim etadi: “O‘quv lug‘atlarini ilmiy asosda o‘rganish XVII asrda birinchi ingliz leksikografi S.Jonson, XIX asrda fransuz tilshunosligida J.Dyubua, K.Dyubua, G.Matore, B.Kyumada, Amerika tilshunosligida K.D.Bak, ispan tilshunosligida J.Malkil, rus tilshunosligida P.N.Denisov, V.G.Gak, L.A.Novikov, V.V.Morkovkin, S.G.Barxudarov, Y.N.Karaulov, M.A.Skopina, R.A.Budagov, N.M.Shanskiy, Z.A.Potixa, V.N.Sergeyev, A.E.Suprun, L.G.Sayaxov, L.A.Yankova, Y.A.Yagovkina, U.Sh.Tursunova, T.A.Kadirbayeva, S.T.Pallekande, M.Y.Kazak kabi tilshunos va pedagoglarning ishlaridan boshlanadi”. [B.Bahriddinova, 31]

XX oxiri – XXI asr boshlarida jahonning AQSh, Buyuk Britaniya, Fransiya, Germaniya, Rossiya, Ukraina kabi ilg‘or mamlakatlarida o‘quv lug‘atlarining zamonaviy avlodlarini yaratish, mavjud lug‘atlarni elektronlashtirishning nazariy va amaliy masalalari yuzasidan ilmiy izlanishlar olib borildi. Jumladan, V.V.Dubichinskiy, S.V.Lebedova, I.L.Voronsova, Y.Y.Balayeva, A.I.Olxovskaya, I.Fedorov, M.A.Shaxmatov va boshqalarning tadqiqotlarini keltirib o‘tish o‘rinli. Shuningdek, Markaziy Osiyo davlatlarida ham o‘quv lug‘atchiligining nazariy masalalariga bag‘ishlangan tadqiqotlar olib borilgan. Xususan, G.I.Boboyevaning ikki tilli o‘quv lug‘atlarini yaratish masalalariga bag‘ishlangan ishlarini misol sifatida keltirish mumkin.

O‘zbek tilshunosligida o‘quv lug‘atchiligining nazariy va amaliy masalalari monografik ko‘lamda o‘rganilmagan bo‘lsa-da, sobiq sho‘ro davrida milliy maktablarda rus tilini samarali o‘qitish maqsadida yaratilgan ikki tilli ruscha-o‘zbekcha o‘quv lug‘atlari M.X.To‘xtaxo‘jayeva, L.M.Odinayeva, K.A.Sharofiddinova, S.F.Akobirov, M.S.Soliyev kabilarning ishlari uchun tadqiq manbai bo‘lib xizmat qiladi. Istiqloq yillarida A.Nurmonov, A.Madvaliyev, H.Ne‘matov, R.Sayfullayeva, E.Qilichev kabi tilshunoslar o‘zbek tilshunosligida leksikografiyaning o‘quv lug‘atchiligi tarmog‘i paydo bo‘lganini e‘tirof etishadi. B.Mengliyev, S.Karimov, B.Yo‘ldoshev, N.Uluqov kabilarning maqolalarida ona tili – o‘zbek tilini o‘qitish vositalariga yordamchi axborot manbai bo‘lgan zamonaviy lingvodidaktik lug‘atlarni yaratishning nazariy va amaliy masalalari kun tartibiga olib chiqiladi.

E.G.Shimchuk maxsus lug‘atlarni quyidagicha ta‘riflaydi: “Maxsus lug‘atlar leksik birliklarning ma‘lum bir tomoni, ma‘lum bir leksik sohani yoki morfema, ibora, gapning boshqa darajadagi muhim til birliklarini tavsiflaydi. Maxsus lug‘atlar izohli, sinonimik, ideografik, frazeologik, imlo va boshqa ko‘plab lug‘at turlari kiradi. Izohlanayotgan mutaxassislik keng yoki tor bo‘lishi mumkin. Izohli lug‘atlarning asosiy maqsadi so‘zlar va frazeologik birliklarning ma‘nolarini ko‘rsatish, tavsiflash bo‘lsa, qo‘shimcha maqsadi so‘zlarning fonetik, orfoepik, grammatik va stilistik xususiyatlarini aks ettirishdir. Shunday qilib, izohli lug‘atlar keng ixtisoslashuvi yoki ko‘p tarmoqliligi bilan ajralib turadi. Maxsus ixtisoslikdagi leksikografik asarlarga orfoepik, imlo, chastotali lug‘atlar misol bo‘la oladi”. [Shimchuk E., 12]

E.G.Shimchukning ta‘kidlashicha, ixtisoslashuvni tavsiflash obyekti bilan bog‘lanishi mumkin: bugungi leksikografiyasi, yuqorida aytib o‘tilganidek, morfemalar, iboralar, turli semantik guruhga mansub birliklar va hatto imo-ishoralar lug‘atlari bilan to‘ldirildi. Grammatik lug‘atlarda so‘zlarning flektiv (morfologik) va sintaktik xususiyatlari haqida ma‘lumotlar, orfoepik lug‘atlarda esa so‘zlarning to‘g‘ri adabiy talaffuzi va shakllari haqida ma‘lumotlar mavjud. Etimologik lug‘atlar leksik birliklarning kelib chiqishini tushuntiradi. Leksikografik tavsif til leksikasining ma‘lum bir sohasining (masalan, dialekt, jargon lug‘atlar), ma‘lum bir muallifning so‘z boyligi (yozuvchi va shoirlar tili lug‘atlarida), ma‘lum bir turdagi so‘zlar, sinonim, antonim, omonim, neologizm, arxaizm, tegishli ismlar va boshqalar tavsifi bo‘lishi mumkin. [E.Shimchuk, 12]

Lug‘at-ma‘lumotnoma faol tipdagi lug‘atdir. Matnda notanish so‘z yoki birikma bilan uchrashganda foydalanuvchi mos yozuvlar lug‘atiga murojaat qiladi. Bu passiv lug‘at, matndan (yoki so‘zdan) u ifodalagan ma‘noga o‘tishni ta‘minlaydigan lug‘at. Ma‘lumot beruvchi bunday lug‘atlarga barcha tarixiy lug‘atlar kiradi. Biroq har bir zamonaviy lug‘at ham faol lug‘at bo‘lolmaydi. Nodir va eskirgan so‘zlarning lug‘atlari ham ma‘lumotnoma-lug‘at turiga misol bo‘la oladi.

Faol so‘zlar lug‘ati ma‘lum tilda matn yaratishga yordam beradi. L.Shcherbaning so‘zlariga ko‘ra, akademik lug‘atlar bu turiga yaqin.

Shuningdek, so‘zning ma‘nosini izohlashda uning etimologik xususiyatlarini ifodalash nihoyatda muhim. Shunday ekan, o‘zbek tili leksik birliklari semantik kengaytmalarini ishlab chiqishda o‘zbek tilining etimologik lug‘ati axborot manbai sifatida xizmat qiladi. Ma‘lumki, jahon leksikografiyasida etimologik lug‘at tuzish tajribasi keng ommalashgan bo‘lsa-da, o‘zbek tilining etimologik lug‘atini tuzish ishlari o‘zbek leksikografiyasi rivojining ilk yillariga to‘g‘ri kelmaydi. XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab turli umumiy va maxsus lingvistik lug‘atlar nashr etilganligiga qaramay, o‘zbek tili etimologik lug‘ati ustidagi ishlar kechikayotgandi. O‘zbek tilining etimologik lug‘ati nashri xususida muallifning o‘zi shunday yozadi: «O‘zbek tilining etimologik lug‘atini tuzishga intilganlar bo‘ldi, lekin ilmiy ishlarda ayrim so‘zlarga tarixiy-etimologik izoh berishdan nariga o‘tilmadi. Dahrning kajraftorini qarangki, bunday lug‘at tuzish mening zimmamga yuklandi. Men bu ishga akademik To‘rabek Dolimovning ToshDU ilmiy ishlar bo‘yicha prorektori davridagi qat‘iy da‘vatidan keyingina rozi bo‘ldim: «Boshqa tillar, shu jumladan, rus tili bo‘yicha etimologik lug‘at tuzilgan-u, nimaga bunday lug‘at o‘zbek tili bo‘yicha tuzilmagan?! Albatta tuzish kerak. Mayli, qisqa bo‘lsin, sodda bo‘lsin, lekin boshlab bering». Bir qancha manbalarni o‘rganib, o‘zbek tili lug‘atining tarixiy tadrijini ozmi-ko‘pmi anglay boshlaganimdan keyingina bu savobli ishni bajarishga jazm qildim. Bajartilgan ishning natijasi 1997-1999-yillarda «O‘zbek tilining qisqa etimologik lug‘ati» nomi bilan chop qilingan to‘rt kitobchada o‘z aksini topdi». Ma‘lum bo‘ladiki, o‘zbek tilining dastlabki etimologik lug‘ati XX asrning so‘nggi yillariga to‘g‘ri keladi. Muallifning ta‘kidlashicha, lug‘atdagi barcha maqolalarni bevosita o‘zi tuzgan. Bajargan ishini sinovdan o‘tkazish maqsadida boshqa mutaxassislarni jalb qilgan. Maqolalarning ma‘lum bir qismini **a, i** harflari bo‘yicha prof. M.Mirtojdiyev, **u, e, o‘, g, d, j, k, t** harflari bo‘yicha dotsent M.Qodirov tuzgan. Sh.Rahmatullayev esa bularning maqolalarini o‘zi tuzgan maqolalarga taqqoslagan, lug‘at maqolasini shakllantirishda ulardan foydalangan.

Kompyuter inqilobi va tilga kompyuter yondashuvi zamonaviy lug‘at tuzuvchilari uchun yangi imkoniyatlarni ochib beradi. Kompyuterlarning keng qo‘llanilishi filologga kompyuter konkordanslari (kontekstdagi so‘zlarning ko‘rsatkichlari) va turli xil kompyuter matnlarini qayta ishlash protseduralaridan foydalanish imkonini beradi. Zamonaviy leksikografiya elektron ma‘lumotlar bazalaridan tobora ko‘proq foydalanmoqda. Zamonaviy fanda matnlarni mashina bilan qayta ishlash asosida leksikografik tavsifning yangi turlari – korpus asosidagi tavsif shakllantirilmog‘da. So‘nggi o‘n yilliklarda nashr etilgan lug‘atlarning vazifalari, shuningdek, ulardagi materiallarni izohlash usullari va ularni yaratish texnikasi jiddiy farqlar bilan izohlanadi. Bugungi kunda bir tomondan, an‘anaviy tamoyillarga asoslangan lug‘atlar nashr etilishi davom etsa, ikkinchi tomondan, til tavsifiga yangicha yondashuvlarni ifodalovchi leksikografik mahsulotlar paydo bo‘lmoqda. Aniq leksikografik tavsiflar o‘rtasida sezilarli farqlar mavjudligiga qaramay, lug‘atlar va ularning guruhlarini birlashtiradigan xususiyatlarni o‘rnatish mumkin. Shu asosda lug‘atlarning tipologiyasi tuziladi.

Ta‘riflangan materialni tanlash xususiyatiga ko‘ra, tezauruslar (xazina lug‘atlari) differensial lug‘atlarga qarama-qarshi turadi. Tezaurus, odatda, barcha lingvistik materiallarni qamrab oladi. Ideal tezaurus ma‘lum bir tilda yozilgan va aytilgan hamma narsani qamrab oladi. Tezaurus g‘oyasi faqat o‘lik tillarga nisbatan amalga oshirilishi mumkin. Tirik tilning lug‘ati to‘liq ma‘noda tezaurus bo‘la olmaydi, chunki tirik til doimo o‘zgarib turadi. Biroq so‘z va ularning shakllarini tanlash prinsipiga ko‘ra, yozuvchilar tilining lug‘atlari yoki ularning alohida asarlari tezaurusi bo‘lishi mumkin.

Differensial lug‘atlar esa chap tomonidagi ma‘lumotni farqlashga asoslangan. Ko‘pgina dialekt lug‘atlari differensial deb tasniflanadi.

**Olingan natijalar va ularning tahlili.** Fan sohalarining rivojlanishi, yangi fan tarmoq va yo‘nalishlarining vujudga kelishi mavjud terminlar sistemasining takomillashuviga, yangi terminlarning paydo bo‘lishiga olib keladi. Bu esa, o‘z-o‘zidan, terminologik lug‘atlarni mukammallashtirish ehtiyojini tug‘diradi. Ma‘lumki, terminologik lug‘at maxsus lug‘atlar turiga kiradi. Bunday lug‘atlardagi ta‘riflar umumiy lingvistik lug‘atlar, xususan, izohli lug‘at ta‘riflaridan farq qiladi. Buni X.Narxodjayeva quyidagicha izohlaydi: “Hamroh mohiyatli terminlarni lug‘atlarda berish va tavsiflash ma‘lum qiyinchiliklarni tug‘diradi. Birinchidan, hamroh mohiyatli terminlarning leksikografik talqinini berishda umumiste‘mol va terminologik ma‘nolarning izohini tartiblash muammosi asosiy masalalardan bo‘lib, ayrim

hollarda dastlab terminologik ma'no berilib, so'ngra umumiste'mol ma'nolar keltiriladi. [Narxojayeva, 74] Masalan, *so'z* leksemasini olaylik. O'zbek tilining 5 jildli izohli lug'ati 3-jildida qayd etilgan bu so'zning 8 ta leksikografik ma'nosi berilgan bo'lib, ulardan birinchisi, ya'ni tilshunoslik pometasi bilan berilgan va qolganlari umumiste'mol ma'nosi sifatida talqin qilingan:

“SO‘Z 1 tish. O‘z tovush qobig‘iga ega bo‘lgan, narsa-hodisalar, jarayonlar, shaxslar, belgi va miqdorlarni, xususiyatlarni, harakat va holatni, aloqa va munosabatlarni nomlash uchun xizmat qiladigan, mustaqil lug‘aviy ma‘noga ega bo‘lgan, shuningdek, turli grammatik ma‘no va vazifalarda qo‘llanadigan eng muhim til birligi; gapning qurilish materiali.

2 Biror ma'no turiga, uslubga oid shunday birlik (tilda, nutqda ifoda vositasi sifatida).

3 So‘zlashuvda, gapda, nutqda shunday vositalardan foydalanish qobiliyati, san‘ati.

4 Maqol; matal; ibora.

5 Gap, gap-so‘z, nutq.

6 Mish-mish gap, ovoza; ig‘vo.

7 O‘git, pand-nasihati, ta‘lim-tarbiya, iltimos yoki buyruq mazmunidagi gap.

8 Va‘da, lafz; azm-qaror”.

**Xulosa** sifatida aytish mumkinki, hamroh mohiyatli terminlar talqinidagi muhim holatlardan biri umumiste'mol va terminologik ma'nolarni birlashtirgan holda talqin qilish bo'lib, bunda terminologik mohiyatga ishora qiluvchi tegishli pometa berilmaydi, biroq izoh ilmiy tusda bo'ladi.

### ADABIYOTLAR:

1. Баҳриддинова Б.М. Ўзбекистонда ўқув лугатчилиги: лингвистик асослари, тарихи ва истиқболлари: Филол. фан. доктори (DSc) дисс. автореф. – Самарқанд. 2020.

2. Шимчук Э.Г. Русская лексикография: учеб. пособие для студ. филол. фак. высш. учеб. заведений / Э.Г.Шимчук. - М.: Издательский центр «Академия», 2009.

3. Нарходжаева Х.Ш. Ўзбек тилида жараён англаторувчи терминларнинг лингвистик тадқиқи: Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс., – Тошкент, 2007. – 154 б.

4. Ўзбек тилининг изоҳли лугати. 5 жилдли. Учинчи жилд. Н – Тартибли. – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий наириёти, 2007. 608-б.

5. Ҳамроева Ш. Корпус лингвистикаси атамаларининг қисқача изоҳли лугати. – Тошкент: Камалак, 2018. – 96 б.

6. Захаров В.П., Богданова С.Ю. Корпусная лингвистика. – Иркутск: ИГЛУ, 2011.

7. Axmedova D.B. Semantik kengaytma tushunchasi va uning til korpusidagi ahamiyati // Urganch davlat univesitetining “Ilm sarchashmalari” nomli ilmiy-nazariy, metodik jurnali. Urganch, 2022. №9. – B. 66-69.

РОЛЬ СТРУКТУРЫ ЖАНРА В РАЗГРАНИЧЕНИИ ФУНКЦИОНАЛЬНЫХ СТИЛЕЙ  
СОВРЕМЕННОГО РУССКОГО ЯЗЫКА

Саидкулова Мунира Саидкуловна,  
преподаватель кафедры русского языка и литературы  
Каршинского государственного университета

**Аннотация.** Статья посвящена анализу взаимосвязей между структурными компонентами жанров и функциональными стилями современного русского языка. Автор исследует, как выбор функционального стиля влияет на жанровую структуру текста, и как эта структура, в свою очередь, способствует стилистической маркированности коммуникации. В статье рассматриваются одиннадцать ключевых компонентов жанра, включая структуру, форму, тематику, способы передачи информации, и внеязыковые факторы. Основное внимание уделяется двунаправленной зависимости между структурными элементами жанра и функциональным стилем, подчёркивая, как это взаимодействие формирует уникальные особенности текстов в разных коммуникативных контекстах. Анализ показывает, что комплексное понимание жанровых компонентов позволяет более глубоко понять механизмы функционирования языка в социокультурном пространстве, что является ключевым для эффективной коммуникации и стилистической адаптации текстов. Результаты исследования могут быть применены в лингвистической практике и теории для определения и классификации текстов в зависимости от их функционального назначения и стилистических особенностей.

**Ключевые слова:** функциональные стили, жанровая структура, современный русский язык, стилистическая маркированность, жанровые элементы, коммуникативная эффективность, взаимосвязь стиль и жанр, лингвистическая классификация, внеязыковые факторы, текстовая конструкция.

THE ROLE OF GENRE STRUCTURE IN DIFFERENTIATING FUNCTIONAL STYLES OF  
MODERN RUSSIAN LANGUAGE

**Abstract.** This article is devoted to analyzing the interrelationships between the structural components of genres and the functional styles of contemporary Russian language. The authors examine how the choice of functional style influences the genre structure of texts and how this structure, in turn, contributes to the stylistic marking of communication. The paper discusses eleven key genre components, including structure, form, themes, methods of information transmission, and extra-linguistic factors. Particular attention is paid to the bidirectional dependency between the structural elements of the genre and the functional style, highlighting how this interaction forms unique text features in different communicative contexts. The analysis demonstrates that a comprehensive understanding of genre components enhances our grasp of language operation mechanisms within the socio-cultural space, which is crucial for effective communication and stylistic adaptation of texts. The research findings can be applied in linguistic practice and theory for the identification and classification of texts based on their functional purposes and stylistic features.

**Keywords:** functional styles, genre structure, contemporary Russian language, stylistic marking, genre elements, communicative effectiveness, interrelation of style and genre, linguistic classification, extra-linguistic factors, textual construction.

ZAMONAVIY RUS TILINING FUNKTSIONAL USLUBLARINI FARQLASHDA JANR  
TUZILISHINING ROLI

**Annotatsiya.** Ushbu maqola zamonaviy rus tilining funktsional uslublari va janrlarning tuzilish komponentlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqliklarni tahlil qilishga bag'ishlangan. Mualliflar funktsional uslub tanlovi matning janr tuzilishiga qanday ta'sir qilishini va bu tuzilish, o'z navbatida, kommunikatsiya uslubiy belgilanishiga qanday hissa qo'shishini o'rganmoqdalar. Maqolada tuzilish, shakl, mavzular, ma'lumotlarni uzatish usullari va tashqi til omillari kabi o'n bir asosiy janr komponentlari muhokama qilinadi. Janrning tuzilish elementlari va funktsional uslub o'rtasidagi ikki tomonlama bog'liqlikka alohida e'tibor qaratiladi,

*bu o'zaro ta'sir turli kommunikativ kontekstlarda matnlarning noyob xususiyatlarini shakllantirishini ta'kidlaydi. Tahlil shuni ko'rsatadiki, janr komponentlarining to'liq tushunilishi tilning ijtimoiy-madaniy maydondagi ishlash mexanizmlarini yaxshiroq tushunishga yordam beradi, bu esa matnlarning samarali kommunikatsiyasi va uslubiy moslashuviga muhimdir. Tadqiqot natijalari matnlarni ularning funktsional maqsadlari va uslubiy xususiyatlari asosida aniqlash va tasniflash uchun lingvistik amaliyot va nazariyada qo'llanilishi mumkin.*

**Kalit so'zlar:** funktsional uslublar, janr tuzilishi, zamonaviy rus tili, uslubiy belgilanish, janr elementlari, kommunikativ samaradorlik, uslub va janr o'rtasidagi bog'liqlik, lingvistik tasniflash, tashqi til omillari, matn tuzilishi.

**Введение.** В последнее десятилетие наблюдается заметное усиление внимания к изучению лингвистических аспектов жанров, что обусловлено не столько интересом к прагматическим особенностям языка, сколько к анализу дискурса [10, с. 18]. Отдельно стоит выделить расширение спектра текстов в разнообразных функциональных стилях, что, по нашему мнению, связано с двумя основными тенденциями: первая тенденция заключается в выработке и активной интеграции в функциональную парадигму языка нового понятия «религиозный стиль», дефиниция которого находится в стадии активных научных дискуссий (вместе с ним используются термины церковно-религиозный и религиозно-проповеднический стили). Вторая тенденция обусловлена распространением интернет-коммуникаций, что привело к увеличению числа жанров и изменению их традиционных характеристик, поскольку условия интернет-беседы значительно отличаются от обычных бесед.

Необходимо подчеркнуть, что, хотя термин «жанр» подвергается широкому и многогранному исследованию, его окончательное определение остаётся довольно неопределённым. Существующие в научной литературе определения жанра можно свести к одной обширной формуле: «жанр – это устойчивый, тематический, композиционный и стилистический тип текста» [8, с. 104], который способствует эффективной социальной коммуникации [9]. Эта широкая интерпретация позволяет скрыть под собой многообразие специфических характеристик и критериев, каждый из которых играет не только роль самостоятельной единицы, но и вносит вклад в формирование более обширного и многогранного понимания жанра как такового.

В контексте исследования функциональных стилей, важно отметить, что процесс определения конкретного стиля основывается на четко выстроенной логической последовательности основных критериев, которые включают следующие ключевые этапы:

- Определение сферы деятельности, связанной со стилем.
- Формулирование целей, которые предполагаются в данном стиле.
- Выявление языковых особенностей, служащих маркерами стиля.
- Анализ жанрового разнообразия, характерного для стиля.

Каждый из этих этапов вносит в определение стиля уникальный набор критериев и характеристик, которые взаимодействуют между собой, одновременно дополняя друг друга и демонстрируя проникновение черт между различными стилями. Это подчёркивает, что ни один функциональный стиль не существует в изоляции; скорее, они находятся в состоянии постоянного диалога и обмена чертами.

В частности, жанровое своеобразие, последний элемент в нашей серии критериев, представляет собой не просто завершающий этап в создании уникального текста, но также и является сложной языковой загадкой, включающей в себя множество ещё не полностью изученных особенностей. Именно это разнообразие и становится предметом нашего детального анализа.

В рамках данного исследования мы стремимся ответить на вопросы о том, из каких компонентов состоит конкретный жанр, какие уникальные и отличительные черты он содержит. Цель нашего исследования заключается в определении чётких критериев, которые позволяют разграничить один жанр текста от другого в рамках одного функционального стиля, тем самым способствуя более глубокому пониманию структурных и содержательных аспектов текстовых единиц.

**Литературный обзор.** Для создания литературного обзора на тему изучения жанров и функциональных стилей современного русского языка, можно рассмотреть следующие работы:

John Swales в 1990 году в своей работе «Genre Analysis: English in Academic and Research Settings», изданной Cambridge University Press, описывает, как академические и исследовательские жанры формируются и изменяются под влиянием различных дискурсивных сообществ. Swales подчёркивает, что понимание структуры жанра способствует более глубокому пониманию

коммуникативных целей в академической среде. Amy Devitt в 2004 году в своей книге "Writing Genres", выпущенной Southern Illinois University Press, исследует, как жанры влияют на процессы написания и чтения текстов, указывая, что жанровые соглашения оказывают значительное влияние на текстовую продукцию и восприятие.

А. Д. Шмелев в 2002 году в своей работе «Текст и его функциональные аспекты», изданной в Москве, Языки славянской культуры, рассматривает, как функциональные стили русского языка отражаются в структуре текста, анализируя, как стилистические и жанровые особенности влияют на текстовую организацию. В. В. Демьянков в 2009 году в статье «Жанры речи в современном русском языке», опубликованной в Вестнике Московского университета, исследует, как новые медиа формируют и изменяют традиционные жанры русского языка, особенно под влиянием интернет-коммуникаций.

З. М. Шакирова в 2018 году в работе «Жанры русской речи в узбекском контексте», изданной в Ташкенте, Издательство Узбекского государственного университета, анализирует адаптацию и функционирование русскоязычных жанров в условиях многоязычия Узбекистана, делая акцент на влиянии культурных и языковых особенностей на использование и развитие различных жанров. М.С.Назарова в 2020 году в исследовании «Особенности русского делового письма в Узбекистане», опубликованном в Вестнике Ташкентского университета, изучает, какие специфические требования и формы принимает деловое общение на русском языке в узбекском бизнес-контексте.

Исследования показывают, что структура жанра и функциональные стили языка тесно связаны с культурными, социальными и технологическими контекстами использования языка. Так, зарубежные ученые акцентируют внимание на динамичность и адаптивность жанров в ответ на изменяющиеся коммуникативные потребности. В странах СНГ исследования фокусируются на влиянии функциональных стилей на текстовую структуру и жанровое разнообразие. В Узбекистане особое внимание уделяется влиянию многоязычной среды на русскоязычные жанры, что подчеркивает необходимость учёта межкультурных особенностей в лингвистической практике.

**Материалы и методы.** В данном исследовании применяются описательный метод и метод наблюдения, которые опираются на анализ текстов, относящихся к различным стилям литературного языка. Основу корпуса текстов составляют произведения в следующих стилистических направлениях: научный стиль, официально-деловой стиль, публицистический стиль, религиозный стиль и разговорный стиль. Эти стили были выбраны в силу их представительности и разнообразия, позволяющих обеспечить всесторонний анализ языковых особенностей, что способствует более точному и глубокому пониманию структурных и функциональных характеристик жанров в рамках каждого из указанных стилей.

Исследование основывается на анализе разнообразных текстов на современном русском языке, включая литературные произведения, научные статьи, официально-деловые документы, публицистические материалы, религиозные тексты и разговорные записи. Эти материалы представляют широкий спектр жанров и стилей, что позволяет всесторонне изучить структуру жанра и функциональные стили.

Используются контент-анализ для определения стилистических особенностей и жанровой принадлежности, сравнительный анализ для исследования взаимосвязей между стилями и жанрами, корпусный метод для анализа частотности стилистических и жанровых маркеров. Статистический анализ применяется для обработки данных о частоте использования различных элементов и их корреляции с коммуникативной эффективностью, а квалиметрический анализ помогает оценить качество текстовой коммуникации на основе структурных и стилистических характеристик.

Эти методы обеспечивают глубокий анализ структурных и функциональных аспектов жанров, позволяя выявить основные тенденции в их использовании и оценить влияние социокультурных факторов на стилистические изменения в современном русском языке.

U tabarruk havoni shimir Va boshlagil yangidan umr. A.Saidov fikricha, shoir yashagan davrda, G'arbda ijtimoiy-davlat tuzumi tanazzulga yuz tutayotgan bir sharoitda, o'zi nafas olayotgan muhitda ma'naviy tirgak bo'lguli biron narsa topolmagan Gyote xayolan Sharqqa "hijrat" qiladi. Sharq she'riyatidan ilhom oladi va "G'arbu Sharq devoni"ni yozish bilan mashg'ul bo'ladi.<sup>1</sup> Nemis xalqining buyuk adibi Y.V.Gyotening Sharqqa, Sharq xalqiga, uning she'riyatiga, shuningdek, islom diniga bo'lgan ixlosu ehtiromi namunasi sifatida yaratilgan "G'arbu Sharq devoni" yoki "Mag'ribu Mashriq devoni" Sadridin Salim Buxoriy tomonidan ham nemis tilidan o'zbek tiliga bevosita tarjima qilingan. Shoir va tarjimon sifatida tanilgan Sadridin Salim Buxoriy chorak asr davomida ushbu asarning ayrim boblarini bevosita aslyatdan tarjima qilib, ularni turli gazeta-jurnallarda e'lon qilib bordi. Jumladan, shoir bu boradagi tarjimalarini "Mag'ribu Mashriq" devonidan,<sup>2</sup> "Mag'ribu Mashriq" devonidan parcha,<sup>3</sup> "mag'riblik Hotami Zulayho",<sup>4</sup> "Hofiz Sheroziyga payrov",<sup>5</sup> "Behishtnoma",<sup>6</sup> "Muhammad Alayhissalom",<sup>7</sup> "Tasavvuf va Gyote",<sup>8</sup> "G'arbning Sharqqa hijrati"<sup>9</sup> nomlari bilan peshma-pesh nashr qilib bordi. Yana shoir tarjimalari ayrim she'riy to'plamlari tarkibida, "Jahon adabiyoti" jurnalida ham berib borildi.<sup>10</sup> Shoir o'z "Yodnoma"sida tarjima jarayoni haqida shunday yozadi: "Gyotening «G'arbu Sharq devoni» tarjimasi og'ir kechdi. Gyote Qur'ondan, hadisdan, Xoja Hofiz, amir Navoiylardan ta'sirlanib, bu asarini yozgan. Shunday bir holat menda paydo bo'ldiki, shuni tarjima qilmasam, o'zimni kechirolmayman. Lekin bir yerda ishlab turib uni tarjima qilib bo'lmadi-da. Keyin ishdan bo'shadim. Ikki yil davomida uyda o'tirib qattiq ishladim. Uyda o'tiribman, ishlamayman, oylik olmayman. Ro'zg'or kattagina, Xudoga shukur. Hamma narsa ayolimning gardanida. Ikki yil badalida, biror marta bo'lsin, ayolim ortiqcha gap qilmadi, nolimadi, chidadi, sabr qildi. Mana, alhamdulillah, nek kunlar bo'ldi. Tarjimalarim chop etildi".<sup>1</sup> S.Salim Buxoriy "Mag'ribu mashriq devoni" tarjimasi ustida ko'proq 1985–1990- yillarda qattiq ishlagan. Nihoyat, 1999- yilda "Ma'naviyat" nashriyoti tomonidan chop etilgan "Buxoroga Buxoro keldi" nomli lirik, falsafiy, so'fiyona, ayniqsa, Buxoroyi sharif, mustaqil yurtni madh etuvchi she'rlari o'rin olgan she'riy to'plamiga buyuk nemis allomasi I.V.Gyotening "G'arbu Sharq devoni"dan tarjima qilgan ayrim boblarini ham kiritib, kitobxonlarga tuhfa qildi. S.Salim Buxoriyning bu tarjima asari 2011- yilda "Yangi asr avlodi" nashriyoti sakkiz bosma taboqda chop etgan "Yohann Volfgang Gyote. Zakovat durdonalari" kitobidan ham o'rin olgan. Asar alohida kitob holida taniqli olim A.Saidovning kirish so'zi bilan 2010 - yilda Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyatida chop qilindi. Asar mundarijasini A.Saidovning "Gyote. "G'arbu Sharq devoni": Sharqshunoslikka kirish" nomli so'zboshi maqolasi, undan so'ng S.S.Buxoriyning Gyote qalamiga mansub "G'arbu Sharq devoni"dan she'riy tarjimalari hamda buyuk adibning "Muhammad sallolohu alayhi vasallam" maqolasining tarjimasi, "G'arbning Sharqqa hijrati" bo'limida esa mutarjimning "G'azalnavis nemis shoirlari", "Gyote va Hofiz", "Gyote va tasavvuf" singari maqolalari tashkil etadi.<sup>2</sup> Ko'rinadiki, mazkur kitob ikki qismdan iborat. Shoir-tarjimon uni tartib berishda, A.Saidov ta'kidlaganidek, Gyote nuqtai nazaridan yondashgan. Ya'ni, kitobning boshlang'ich qismida "G'arbu Sharq devoni"ning she'rlari tarjimalari, ikkinchi qismida esa tarjimonning shu asar yuzasidan badiiy-falsafiy va ilmiy sharhlari keltirilgan. S.S.Buxoriy mazkur kitobning sharhlar qismini mantiqan ikkiga ajratib, uning dastlabki qismida Gyote ijodidan tarjimalarini bergan. So'ngra esa Gyotening Sharqqa, tasavvuf ta'limotiga, Hofiz ijodiga munosabati, keyinchalik unga ergashib g'azallar yozgan nemis shoirlari haqidagi ilmiy maqolalarini keltirgan. Lekin, afsuski, Sadridin Salim Buxoriy o'z tarjimasida chop etilgan bu kitob nashrini ko'ra olmay, o'sha yili (2010- yil 11- martda) olamdan erta ketdi. S.S.Buxoriy tarjimalari nafaqat kitobxonlar, balki adabiy jamoatchilik tomonidan iliq kutib olindi. Ular haqida G'aybullay Salomov, Najmiddin Komilov, Yanglish Egamova, Salim Jabborov, Kamola Bobojonova kabi mashhur adabiyotshunos va tarjimashunos olimlar iliq munosabat bildirib, o'zlarining ilmiy asar va maqolalarida tarjimon mahoratini yuqori baholadilar.<sup>3</sup> Sadridin Salim Buxoriyning Gyote qalamiga mansub "G'arbu Sharq devoni"ni nemis tilidan o'zbek tiliga tarjima qilishiga shoirning nafaqat nemis tilini yaxshi bilishi, u bo'yicha mutaxassis ekanligi, balki buyuk olmon shoirining qalban Sharqqa hijrat qilib, xayolan Sharq gavhari darajasiga ko'tarilgan Buxoro, Samarqand, Balx kabi qadimiy va mashhur shaharlarning ko'chalarini kezishi, ulardagi ma'naviy olamga havas qilishi, intilishi va ruhan oziqlanishi, xususan, Buxoroni o'zgacha shukh bilan tarannum etgani ham sabab bo'lgandir, ehtimol. Chunki Sadridin Salim Buxoriy ham umri davomida Buxoroni sevib, ardoqlab, uning ma'naviy olamidani kuch va zavq olib yashadi. Qolaversa, bundan quyidagi misralar ham darak berib turganday go'yo:

Buxoro-yu, Samarqand – qulluq!

Biyiklarni biyik sezadi.

"Devon"ini javohir bilan

Piri dono Gyote bezadi.



Bizningcha, yana Sadridin Salim Buxoriy tabiatiga xos soʻfiyona ruh, shoiru olim sifatida qalbini, ongu shuurini, oʻy-kechinmalarini zabt etgan tasavvufona qarashlar, Hofizu Navoiy singari soʻz dargʻalariga chin muhabbat bilan ergashish tuygʻusi uni Gyote bilan ruhan va maʼnan yaqinlashtirdi. U Gyote devonining oʻzbekcha (Maqsud Shayxzoda nusxasi) va ruscha tarjimalarini mutolaa qilib, shoirga ehtirom va muhabbatini “Gʻarbu Sharq devoni”ni tarjima qilish orqali ifoda etishga muyassar boʻladi. Maqsud Shayxzoda tarjimasi bilan Sadridin Salim tarjimasi oʻrtasida baʼzi mushtarakliklar borligi barobarida anchagina farqliklar ham mavjud. Ularga xos mushtarakliklar, asosan, quyidagilarda koʻrinadi:

◆birinchidan, har ikkala tarjimon katta tajriba, bilim va koʻnikmaga ega shoir sifatida devonning gʻoyaviy-badiiy xususiyatlarini shoirona yuzaga chiqara olishgan;

◆ikkinchidan, har ikkala tarjimon ham oʻz tarjimasida asar nomini “Gʻarbu Sharq devoni” deb emas, “Magʻribu Mashriq devoni” deb atashgan. Ikkala tarjimaga xos farqlar esa quyidagilarda namoyon boʻladi:

◆birinchidan, Maqsud Shayxzoda oʻz tarjimasini rus tili vositasida amalga oshirgan boʻlsa, Sadridin Salim Buxoriy devonni bevosita nemis tilidan oʻzbek tiliga tarjima qildi. Natijada devon asliyatdan toʻppadan-toʻgʻri tarjima qilingani uchun asarning bu tarjima varianti boshqalaridan aniqligi, mazmunan mukammalligi, badiiyatining kuchliligi bilan ajralib turadi;

◆ikkinchidan, Maqsud Shayxzoda devonni shoir sifatida tarjima qilgan boʻlsa, Sadridin Salim Buxoriy bu ishni nafaqat shoir, balki tarixchi va tasavvufshunos olim, yetuk tarjimon-mutaxassis sifatida amalga oshirdi. Shuning uchun Maqsud Shayxzoda tarjimasi badiiy tarjima boʻlsa, Sadridin Salim Buxoriy tarjimasini ilmiy-ijodiy tarjima deyish mumkin;

◆uchinchidan, Sadridin Salim Buxoriy nemis tilini yaxshi bilganligi uchun nemis adabiyoti tarixiga oid manbalarni asliyatdan oʻqib tushunish imkoniyatiga ega edi. Shu boisdan u “Gʻarbu Sharq devoni” tarjimasiga qoʻl urishdan oldin mazkur asarga hamda uning muallifi Gyote hayoti va ijodiga oid nemis tilidagi ilmiy-adabiy va tarixiy maʼlumotlar bilan chuqur tanisha oldi. Shu tariqa, Sadridin Salim Buxoriy gyoteshunos olim sifatida ham shakllanib, Gyote va uning falsafasini, ijodiga xos sharqona hamda tasavvufona ruhni toʻgʻri anglab, toʻgʻri sharhlay oldi. Bu haqdagi ilmiy qarashlarini maqolalar koʻrinishida matbuotda eʼlon qilib bordi. Shuning uchun Sadridin Salim Buxoriyning “Magʻribu Mashriq devoni” tarjimasi oddiy tarjima emas, shoirona va olimona ilmiy-ijodiy tarjimadir. Toʻrtinchidan, Sadridin Salim Buxoriy koʻproq soʻfiyona ruh va ohangga ega sheʼrlar tarjimasiga eʼtibor qaratgan boʻlsa, Maqsud Shayxzoda esa, aksincha, oʻz davri hukmron mafkurasining bunday asarlarga keskin qarshiligidan kelib chiqib, umuminsoniy qarashlar talqinidagi sheʼrlarni tanlab tarjima qilgan. Shuning uchun Maqsud Shayxzodaning “Magʻribu Mashriq devoni” tarjimasi birmuncha qisqa boʻlib qolgan. Beshinchidan, Maqsud Shayxzodaning “Gʻarbu Sharq devoni” tarjimasi asarni toʻligʻicha qamrab olgan emas.

U asardan parcha koʻrinishida tarjima qilingan boʻlsa, Sadridin Salim Buxoriy devonning tarjima matnini va unga oid ilmiy tadqiqotlarini yagona kitob holidagi eʼlon qilishga imkon va jurʼat topdi. Lekin shu oʻrinda Sadridin Salim Buxoriy ham Gyote “Devon”ida asliyatida mavjud boʻlgan sheʼrlarning barchasini oʻz tarjima kitobiga toʻliq kiritmaganligini taʼkidlash lozim. Tarjimonning oʻzi bu haqda: “Ayrim tarjimalarim oʻzimga maʼqul boʻlmagani uchun, ularni kitobga kiritmadim”, degan kamtarona izohni berib oʻtgan. Oltinchidan, Sadridin Salim Buxoriy “Gʻarbu Sharq devoni” tarjimasiday murakkab va katta ishga katta tayyorgarlik bilan jiddiy yondashganini uning “Devon” tarjimasiga qoʻl urishdan oldin Gyote ijodi va devoniga oid manbalar bilan nafaqat yaqindan tanishish, balki shoir uymuzeyini ziyorat qilib, uni ruhan anglash maqsadida maxsus Germaniyaga borib kelishi ham tasdiqlaydi. Shu tariqa, Sharq va Gʻarb adabiy aloqalari tarixini puxta oʻrgangan shoir-olim-tarjimon Germaniya safaridan qaytgach, avval, Gyotening ijodidan ayrim namunalarni, jumladan, uning “Oʻrmon shohi”, “Sayyohning tungi qoʻshigʻi”, “Qoʻshiqchi” kabi qator sheʼr va balladalarini nemischadan oʻzbekchaga oʻgirib, oʻzining qalami ohangini “Gʻarbu Sharq devoni” usuliga sozlaydi.

Mana shu tarzda “Devon” tarjimasining oʻta murakkabligi va bu ishning katta masʼuliyatini his qilgandan soʻng shoir-tarjimon hech qaerda ishlamasdan, ikki yil oʻz ijodxonasiga yashirib, uning tarjimasi bilan shugʻullangan. Yettinchidan, Hofiz ijodini Gyotedan kam sevmagan Sadridin Salim Buxoriy uchun yoshligidan fors-tojik tili ona tili – oʻzbek zaboni kabi soʻzlashuv tili boʻlib kelgani sababli u boshqa forsiyazon shoirilar qatorida Hofiz ijodini asliyatdan oʻqib-tushunib, anglab olish salohiyatiga egaligidan Gyotening “Gʻarbu Sharq devoni”dagi Hofizga ergashib yozilgan misralarni qiynalmay, keragicha maromiga yetkazib oʻzbekchalashtirishda aziyat chekmadi. Xullas, Gyote ijodida oʻzining gʻoyaviy-badiiy xususiyatlari bilan alohida mavqega ega boʻlgan “Gʻarbu Sharq devoni”ni taniqli shoir Maqsud Shayxzoda bilvosita, buxorolik ijodkor, tarjimon Sadridin Salim Buxoriy esa bevosita nemis tilidan oʻzbekchaga tarjima qilishgan. Sakkizinchidan, Sadridin Salim Buxoriy olmon shoiri Gyote ijodidan Gʻaybullas-Salom rahbarligida ilmiy izlanishlar olib bordi. Toʻqqizinchidan, u nemis tili mutaxassisligi boʻyicha oʻqishni

bitirgach, shahar sayyohlik idorasida tarjimon sifatida ish boshlaydi. Vazifasi, asosan, Germaniyadan kelgan mehmonlarni Buxoro bilan tanishtirish, ularga diqqatga molik joylar, obidalar tarixini soʻzlab berishdan iborat boʻlgan. Lekin u bu ishdan tez voz kechadi. Bunga sayyoh mehmonlardan birining unga: “Urush bizda, Germaniyada boʻlgan, lekin Buxoro nega buncha vayrona, 1941–1945- yil bombalari Buxoroga tushmagan-ku?”deb soʻragani, Sadridin Salimov esa bunga roʻy-rost javob berishga qiynalgani sabab boʻladi.

**Xulosa.** Yuqoridagi omillardan koʻrinadiki, Sadridin Salim Buxoriyning tarjimalari tilini va mavzu yoʻnalishini ikkiga boʻlib oʻrganish mumkin: 1. Nemis ijodkorlarining, xususan, I.V.Gyote sheʼrlari hamda “Gʻarbu Sharq” (“Magʻribu Mashriq”) devoni tarjimasini. 2. Tasavvuf olimlarining fors-tojik tilida bitilgan asarlari tarjimasini. Xullas, sharqona hayot tarzi bilan yashagan, Sharq adabiyotini chuqur bilgan, targʻib etgan va imkon qadar boyitgan ziyoli Sadridin Salim Buxoriy Gʻarb adabiyotini ham chuqur oʻrgangandi va targʻib eta oldi.

### ADABIYOTLAR:

1. Makhmudova M.M. *Fundamentals and ideological content of the creation of Y.V. Goethe's "West-east collection of poems"* // *Scientific reports of Bukhara state University*. 2021/5-6(87/88). (Scopus)
2. Makhmudova Muattar. *Sadridin Salim Bukhariy's Role in the Development of the literary Environment of Bukhara in the Late xx and Early xxi Centuries*. // *Euro-Asia Conferences 2021*. – P.92-94.
3. Makhmudova M.M. *"Skill of Translating Mystical Ideas in Sadridin Salim Bukhari's "Gʻarbu Sharq Devoni (West-East Devon)"*. // *Pindus Journal Of Culture, Literature, and ELT*. 2021/1. – P.153-157.
4. Makhmudova M.M. *Preservation of Originality in the Translation of Goethe's Work*. // *International Journal of Psychosocial Rehabilitation*, 2020.
5. Махмудова М.М. *Эффективные методы перевода (на примере перевода Гёте)*. // *Вестник науки и образования*. 2019/2/25. ISSN 2541-7851.
6. Makhmudova M.M. *The Mystical Ideas in the "West – East Office" are Translated by Sadridin Salim Bukhari*. // *Indonesian Journal of Innovation Studies*. Vol. 18 (2022): April 2022.
7. Махмудова М.М. *Гёте ижодида шарқона мавзуларнинг бадиий талқини* // *Ilm sarchashmalari*. – Ургенч. – № 10. – 2019. – Б. 139-142.
8. Mahmudova M.M. *Y.V.Gyote "Gʻarbu Sharq devoni"ning Maqsud Shayxsoda va S.S.Buxoriy tarjimalariga xos xususiyatlar* // *Ilm sarchashmalari*. – Ургенч. – №1. – 2021. – Б.166-171.
9. Machmudowa M.M. *Zur Frage der Analyse des gegenwärtigen Zustandes des deutschen Wortschatzes* // «Чет тилларни ўқитишнинг долзарб масалалари» Республика илмий-амалий конференция материаллари. - Бухоро – 2017й. Б. -175-177.
10. Machmudowa M.M. *Johann Wolfgang Goethe und sein West-Ostlicher Divan* // *Тилнинг лексик-семантик тизими, қиёсий типологик изланишлар ва адабиётшунослик муаммолари материаллари бўйича илмий амалий мақолалар тўплами*. – Бухоро “Дурдона” нашриёти, 2020. – Б.133-137.
11. Махмудова М.Садриддин Салим Бухорийнинг немис тилидан бадиий таржималари. // *Қиёсий адабиётшунослик, чоғиштирма тилишунослик ва адабиётшунослик: муаммо ва ечимлар. Халқаро илмий-амалий анжуман*. – Бухоро – 2020. – Б. 273-277.
12. Махмудова М.М. *Sadridin Salim Buxoriyning tarjimon boʻlib shakllanish omillari* // *Qiyosiy adabiyotshunoslik: oʻtmishi, buguni, istiqbollari*. – Бухоро – 2020. – Б. 126-130.
13. Махмудова М.М. *С.С.Бухорийнинг Гёте ижодидан таржималарида аслиятнинг сақланиши* // *Таълим тизимида чет тилларни ўрганишнинг замонавий муаммолари ва истиқболлари*. – Бухоро, 2020. – 5-6 март. – Б.264-266.
14. Makhmudova Muattar. *Sadridin Salim Buxoriyning tarjimon boʻlib shakllanish omillari* // *Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat oʻzbek tili va adabiyoti universiteti. Qiyosiy adabiyotshunoslik: oʻtmishi, buguni, istiqbollari*. – Toshkent, 2020. – 6-noyabr. – Б. 126-128.
15. Махмудова М.М. *“Гарбу Шарқ девони”даги тасаввуфий гоёлар Садриддин Салим Бухорий таржимасида*. // «Тил, адабиёт, таржима, адабий танқидчилик: замонавий ёндашувлар ва истиқболлар» халқаро илмий-амалий анжумани материаллари. – Бухоро, 2022. – Б. 190-193.
16. Махмудова М.М. *“Гарбу Шарқ девони”даги тасаввуфий гоёларни таржимада беришда Садриддин Салим Бухорий маҳорати* // *Қиёсий адабиётшунослик, чоғиштирма тилишунослик ва таржимашунослик: муаммо, ечим ва истиқболлар. Халқаро илмий-амалий анжумани*. – Бухоро, 2021. – Б 277-282.

## SA'DULLA HAKIM SHE'RLARIDA XALQONA OHANGLAR

*Nodirova Feruza Xolmurod qizi,  
Guliston pedagogika instituti o'qituvchisi  
feruzanodirova20@gmail.com*

**Annotatsiya.** *Shoir inson ruhiyati manzaralarini aks ettiradigan hunar egasi hisoblanadi. Shoirning shoirligi shundaki, u olam hodisalarini boriday emas, balki, o'ziga ko'ringanday anglaydi va bu tasvirga kitobxonlarni ishonтира biladi. Ushbu maqolada faylasuf shoir Sa'dulla Hakim she'rlarining xalqchilligi, xalqona ruh bilan ziynatlanganligi haqida fikr yuritiladi.*

**Kalit so'zlar:** *faylasuf, xalqona, hodisa, poetik ruh, ijod, namuna, najot, naql, olam va odam.*

## НАРОДНЫЕ МЕЛОДИИ В СТИХОТВОРЕНИЯХ САДУЛЛЫ ХАКИМА

**Аннотация.** *Поэт – обладатель ремесла, отражающего картины человеческой психики. Поэзия поэта в том, что он понимает мировые события не такими, какие они есть, а такими, какими они ему кажутся, и способен убедить читателей в этом образе. В данной статье стихи поэта-философа Садуллы Хакима рассматриваются народными и украшенными народным духом.*

**Ключевые слова:** *философ, народный, явление, поэтический дух, творчество, образец, спасение, повествование, вселенная и человек.*

## FOLK MELODES IN SA'DULLA HAKIM'S POEMS

**Abstract.** *The poet is the owner of the craft that reflects the scenes of the human psyche. The poet's poetry is that he sees world events not in reality, but as they appear to him, and he is able to convince readers of this image. In this article, the poet-philosopher Sa'dulla Hakim's poems are considered popular and decorated with a folk spirit.*

**Keywords:** *philosopher, folk, phenomenon, poetic spirit, creativity, pattern, salvation, narrative, universe and man.*

**Kirish.** *Shoir zoti inson ko'nglining tarjimoni sifatida qalam tebratishi barchaga yaxshi ma'lum. Bu adabiyot ilmida ko'p bora ta'kidlab o'tilgan. Shu man'noda: "Shoir bo'lsang, shoirlikning aytay ma'nisin, beshikdagi go'daklar ham sutday tanisin!" - deb yozadi Sa'dulla Hakim (1,110). Shoir ushbu talabni o'z ijodiga to'la-to'kis tadbiiq ham qilgan.*

*Bu adabiy avlod zimmasidagi mahobatli missiya zamirida "Yuragimda armonim ko'p, bori gap, Bir tilagim- o'zbekona oriyat Dunyo kezsini, kamol topsin pok niyat." (Sadulla Hakim 2, 26) deya bong urgan, umuminsoniy g'oyalarni, o'zbekning milliy o'zligini anglashidek, xalqni erkinlikka, qolaversa, istiqboldagi istiqbol kunlariga hozirlashdek ulkan fikrlar mijassam edi. Sa'dulla Hakim ijodi tabiiy zarurat, "Ko'hna naql" sifatida maydonga keldi. "Badiiy asar bizning ko'z oildimizda ruh va erkin manfaatlarini namoish qilishi zarur" (2,286). Shoir Sadulla Hakimning boy ijodiy merosini o'zining teran mazmundorligini, nihoyatda serqirraligi bilan ajralib turadi.*

*Sa'dulla Hakim ilk izlanishlaridayoq xalqimiz nazariga tushdi; milliy ruh xususiyatlarini, o'zbek xalqi dilidagi orzu-armonlarini badiiy tasvirlab, inson ruhiyatini jami murakkabliklari bilan ifodalash yo'lidan bordi. Bu esa uning xalqona poetik tafakkurining jozibali hosilasi sanaladi. Ilk she'rlari bilan kitobxonlar qalbiga kirib brogan Sa'dulla Hakim she'rlarida shaxs va jamiyat ruhiyatini, olam va odam g'am-tashvishlarini, orzu-umidlarini, baxt-soaditini kuylaydi. Shu bois ham shoir asarlarida ezgulik, adolat, go'zallik singari umuminsoniy qadriyatlar talqini asosiy o'rin tutadi.*

*Shoir o'z iste'dodini millat va Vatan manfaatlarini uchun xizmat qilishga qaratadi. Xususan, insonsevarlik, vatanparvarlik g'oyalari o'zaro mushtaraklikda shoir ijodiyotining negizini tshkil etadi. Zero, Sa'dulla Hakim she'riyati ona xalqi va Vataniga bo'lgan otashin muhabbatining yorqin ko'rinishlaridir. Ushbu jarayonda xalqona poetik tafakkur, milliylik ruhi, badiiy-estetik pafos sifatida bo'y ko'rsatadi. Buning zamirida insonga muhabbat-insonparvarlik tuyg'ulari yotadi. Zero, Sa'dulla Hakim she'riyatida, barcha buyuk adiblar ijodida bo'lgani kabi milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unlashib, yaxlit bir butunlikni tashkil etadi.*

**Tadqiqot metodologiyasi.** Millatning kelajagi o'tmishi va buguni bilan uyg'un holda badiiy idrok etiladi. Xalq dardini badiiy talqin etgan asarlar millatning yuksak ma'naviy intellektual madaniyatini o'zida mujassamlashtiriladi; milliy va umumbashariy qadriyatlarini e'zozlash, himoya qilish va ulug'lash yo'lida kurashishga ilhomlantiradi. Rus adibi A.Ostrovskiy takidlaganidek, "... xalq yozuvchisi bo'lish uchun xalqni yaxshi bilish kerak. Shu xalq bilan chambarchas bog'langan bo'lishi, uzviy birlashib ketishi kerak. O'z elini o'rganish, bilish badiiy talant uchun eng yaxshi maktabdir. Uni badiiy aks ettirish esa ijodiy faoliyat uchun eng yaxshi maydondir"[6. 558].

Xalqona poetik tafakkur tamoyillari negizini, xalq manfaatlarini, dard-alamini va sururini, o'sha xalq istiqomad qiladigan muqaddas makon - go'zal vatan ulug'vorligini teran, samimiy, sodda, mazmundor, falsafiy tarzda badiiy mahorat bilan aks ettirish tashkil qiladi. Xalqona poetik tafakkur asoslari badiiy adabiyotning jamiyatda ado etadigan ijtimoiy, ma'naviy-axloqiy fazilatlarini bilan chambarchas bog'liq albatta. Shu ma'noda chinakam xalqning bir ziyolisi sifatida Sa'dulla Hakim "xalqim", "ona xalqim" ta'birlarini qo'llashga, xalqqa shu tarzda murojaat etishga, shoirona tarzda xitob qilib hayqirishga, o'zini ma'nan haqli sanaydi.

*El dardicha o'zga g'am er yigitga g'am emas,  
El dardini yozmagan qalam ham qalam emas.*

*Odam bo'lib odamga qilcha naft tegmasa,  
Odam odam bo'ldimi, ul odam odam emas.*

*Ezgu damdir ushbu dam, o'zga damni dam dema,  
Ishqqa hamdam bo'lmasa dom zoe, dam dam emas.*

*Ey ona xalqim, o'zing mehribonim, munisim,  
So'zki, sendan so'z demas, ko'nnglima mahram emas.*

*Ne juvonmardlar hali ulg'ayur beshigingda,  
Chorlasang Alpomish deb, Hakimbeklar kam emas!*

Alisher Navoiy lutf etganidek, so'z-gavhar. Uning qimmatini kalom yoki lutf bo'lib qo'llangandagina bilinadi. Har qanday yozuvchining qo'lga tushgan, qalbida aks sado bergan mana shu so'z ahorini topgandagina kitobxon ko'nngliga ham borib yetadi, uni hayratlantira oladi.

So'z - qaysar ot. Uni egarlash uchun chavandoz bo'lishning o'zi kamlik qiladi. Otning ham o'z ruhiyati bor. Nazarimizda, Sa'dulla Hakim – ana shu ruhiyatni, so'z jilovini o'ziga bo'ysindira olgan ijodkor. U har bir so'zga o'ta talabchan. Mana so'z haqida shunday yozadi shoir:

*So'zni yaxshi ko'rdim qiz kabi,  
Qizni yaxshi ko'rdim so'z kabi.  
Ne so'zlarga qoldim qizni deb,  
Ne o'ylarga toldim so'zni deb.  
Qizni yorim deya sayladim,  
So'zni orim deya o'yladim...*

Sa'dulla Hakimov davr bilan hamnafas – hozirjavob shoir edi deb bilaman. Chunki xalqimizning bugungi kayfiyatini, zamon nafasini juda tez ilg'aydi va uni she'riy satrlarda darhol qog'ozga tushirardi. Natijada butun boshli kitob dunyoga keladi. U yaratgan o'ndan ortiq kitoblarida ana shunday zavq ufurib turadi va kitobxon o'zini yengil his etadi. Sa'dulla Hakimning she'riyat bo'stoni turfa gullar bilan bezanganligini har bir kitobidagi yangicha ohang va tashbehtar orqali kuzatamiz. Ustozlardan ilhomlanib, ularning an'alarini davom ettirgan holda o'zi ham alohida she'riy uslublar, qaytarilmagan so'z va atamalar, eng asosiysi, aniq bir mazmun kashf etgan go'zal she'riyat bilan bog'langanligi uning she'riyatning yorqin yo'liga chiqib olganligidan dalolat edi. Bunda shoirning quyidagi to'rtligini misol keltirish mumkin:

*Hikmatu ifronga kimki tobi yo'q,  
Qush bo'lib qanoti yo'q, kitobi yo'q.  
Hayot ummonida bilimsiz kishi  
Holati andoqki, u kitobi yo'q.*

She'riyat - qalb tuyg'oni, yurakning tub-tubi, qa'ridan yuksakliklar sari qaynab, jo'shib chiqayotgan misli buloq. Bu buloq suvlarida simirmagan, chanqog'ini qondirmagan, undan bahramand bo'lmagan muxlis armonda. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, Sa'dulla Hakim she'riyati butun borlig'i, mavzu

doirasining kengligi, rang-barangligi bilan buloq suvlari yanglig' shaffof va haroratli. Shoir she'rlarini mutolaa qilar ekanmiz, unda Vatan mavzusi yetakchi va alohida o'rin egallaganligining guvohi bo'lamiz. Uning manzumalarida aziz diyorumizning bepayon, sarhad bilmas kengliklari, sahro-yu cho'llari, azim daryolari, qirg'og'idan toshib oqayotgan ariq va soylari, qir-u adirlari, purviqor, sarbaland tog'lari qalamga olinadi. Shoirning Vatan haqidagi she'rlari sizni tabarruk va fusunkor maskanlar bag'riga chorlaydi, ular tomon yetaklaydi, maftunkor, fayziyob go'shalardan bahra olishga undaydi. Shoirning "Nurota tog'lari" she'ri bunga yorqin misoldir:

*Bunda soqitlikni sevmas tabiat,  
Jam etmoq istaydi hamma narsani.  
Jo'shqin soy bir lahza bulutga turbat,  
Bir lahza zarkokil quyosh maskani.  
Bulutlar besharpa soylari-la  
Barra maysalarni siypar g'ivirlab.  
So'ngra mag'rur tog'ning qoyalariga  
Hayot maktubini bitar shivirlab.*

Sa'dulla Hakim she'rlarini sinchiklab o'qiganimizda yana qalbi sevgi, muhabbatga limmo-lim to'la yosh yigit-qizlarning ehtirosli ishq, his-tuyg'ulari, shodlik va quvonchi, orzu-umidlari, ichki kechinmalari o'ziga xos yo'sinda talqin etilganligiga amin bo'lamiz. Shu bilan birgalikda shoirning dostonlari bilan tanishganimizda istiqloq sharofati ila cheksiz imkoniyatlarga ega bo'lgan, Yaratgan Olloh taologa shukronalik bildirib, yurtimiz ahliga tinchlik, baxt-saodat, iqbol tilab, qo'llari doimo duoda bo'lguvchi mo'tabar otaxon-onaxonlarimizning nurli chehralari, siymolari ko'z oldimizda gavdalanadi. Bu qalblarimizni g'urur, iftixorga to'ldiradi. Shu ma'noda, shoirimizning 2019-yilda chop etilgan "Yurt o'g'loni" dilmoma-dostoni she'riyatimizda alohida bir yangilik bo'ldi, desak mubolag'a qilmagan bo'lamiz. "Mazkur asarimga "Yurt o'g'loni" deya nom qo'ydim. Tarix va uning shonli siymolariga mehr-muhabbat, sadoqat, ulardan faxr va iftixor tuyg'usi, Vatan tuprog'ining har zarrasida o'tmish yodi, bugungi kun ruhi va kelajak qiyofasini yaxlit tasavvur etish, xalq dard-u tashvishlari bilan yonib yashash, odamlarni hayotdan rozi qilishdek ezgu ishlarga umrining har lahzasini baxsh eta bilish kabi yuksak xislatlar ayni Yurt o'g'loniga xos muayyan jihatlarni o'z shaxsida ko'rsa, his etsa ajab emas.",-deb yozadi shoir.

**Natijalar va uning muhokamasi.** O'zbekiston Milliy Universiteti dotsenti Abdulla Ulug'ov "Sharq yulduzi" jurnalining 2014-yil 3-sonida "Ruhning shirin ozig'i" maqolasida: "Har bir kishining quvonchi va qayg'usi uning bolaligida ko'rgan-kechirganlari, eshitganlari bilan bevosita bog'lanadi. XXI asrda kishilarda tuyg'ular quruqshab, ko'pchilik sovuqqon, hissiz bo'lib qolayotgan bo'lsa-da, hamma ota-bobolaridan eshitgan o'git-nasihati, rivoyatlarni goh-gohida eslab qo'yadi, maqol, hikmatlarni aytib, bir-biriga tanbeh beradi. Sa'dulla Hakim "Bola Botir" ("Sharq yulduzi", 2013 №2) dostonida so'zni qadrlagan, olamning yaralishini so'zda deb bilgan, sohibjamollar chehrasidan g'oyat mutassir bo'lib, ishq o'tida yongan ajdodlarimiz to'grisida eshitganlarini naql qiladi. Muallif garchi: "Bu voqealarning bari olis bolalikda bo'lib o'tgan. Dala dashtga o'zgacha chiroy baxsh etuvchi, oydin kechalarni yaxshi ko'rganim uchun ularni ahyon-ahyonda eslab yuraman. Shu voqealar sabab bo'libmi, Bola Botir qismati haqida yozgim kelar" desa-da, ushbu dostonida H. Olimjonning "Zaynab va Omon", Oybekning "Temirchi Jo'ra", "Dilbar – davr qizi" dagi kabi syujet ko'rinmaydi. Shoirning "Bola Botir"i Ikrom Otamurodning "O'rin", Halima Ahmadning "Yashil", Shahnoza Nazarxonning "Ruhimda chalingan musiqa"si kabi zamonaviy o'zbek dostonchiligining shakl-shamoyili tamoman o'zgarganligi, u endilikda yangicha qiyofa kasb etganidan dalolat beradi.",-deb to'g'ri ta'kidlaydi. Bu fikrlar shubhasiz, Sa'dulla aka ijodining munosib e'tirof etilganligidan dalolatdir.

O'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan xalqona poetik tafakkur va milliy ma'naviyat tushunchalari o'zaro uzviy yaxlitlikka ega bolgan tushunchalardir. "Shaxs va millat ruhiyatini ma'naviyat bilan tutash bo'lib, asosiy farqlardan biri – ruhiyat murakkab voqealik sifatida o'zida ham rahmoniy, ham shaytoniy hislatlarini, ham fazilat, ham qusurlarni, ham tabiiy, irsiy, ham atrof-muhit ta'siridagi holatlarni aks ettirsa, ma'naviyat shaxsning, millatning insoniy fazilatlarini, uning qalbidahi ilohiy nurni namoyon qiladi" [5,168].

Xalq donishmandligi, donologining she'riy misralar qatiga mahorat bilan singdirilishi ham xalqona poetik tafakkur tamoyillaridan biri sanaladi. Sa'dulla Hakim mutafakkir shoir sifatida xalq qalbini, ming yillar davomida o'zbek xalqi hayot tajribalarida o'tib, ma'naviy qoliplashgan hikmatlardir, maqollar, matallar, hikoya va rivoyatlarni yaxshi biladi. Shoir xalqimiz yaratgan ma'naviy xazinaga, xalq qalbining diltortar ohanglarga shunchaki erishmaydi; uning mazmun-mohiyatini to'la o'zlashtirib, o'z badiiy tafakkur mezonlari, o'zi yashayotgan davr muammolari, hamnafas vatandoshlari va millatdoshlari ko'ngli bilan bog'laydi. Shoir xalqning istiqboli uchun qayg'uradi; o'zing yo'lini qismatini "xalq yo'lga tutash"gan holdabayon etadi. So'ngra o'z xalqiga bo'lgan ehtiromini shunday yozadi:

*Istiqlol ko'zlari tiyrak boladir,  
Asrlik tarixdan saboq oladir.  
O'zbek omon bo'lsa, u ham qoladir,  
Chong tarix o'g'loni muborak, yurtim. [1.5]*

O'zbek xalqining ma'naviy-axloqiy fazilatlarini o'z tashvishidek badiiy ta'sirchan bo'yoqlarda betakrot tasvirlashga erishadi. Shunday vaziyatlar bo'ladiki, butun dunyo tashvishini o'ylaydi, o'zi mansub butun bir xalq g'am-tashvishini "yog'dek og'ir yukni " zimmasiga olib," qushdek yengil bo'lib yuradi shoir ". Tabiiyki, bu shoir qismati, Sa'dulla Hakimning ijodkorlik taqdiridir. Shoir ruhan, ma'nau, jisman o'zini bunyod etgan xalq bilan, kindik qoni to'kilgan vatan bilan birga xis etgan. Ortiqcha so'zlamolik, no'rin g'iybat mashmashalari unga ortiqcha.

*Qara, tur, qora tun – istilo,  
Paydo u qayda nur istisno.  
Olamga oftob bir issiq non,  
Vatanga non kabi istiqlol.  
Yurtiga yuqtirmas gard-asar,  
Kim o'sha bo'lsa gar mard agar.  
Ayt desang, aytay ming martaba,  
Vatanday yo'q buyuk martaba. [1.25]*

**Xulosa.** Sa'dulla Hakimning xalqona poetik tafakkurida donishmandlik, faylasuflik shoir ijodining barcha mavzu ko'lamida yetakchilik qiladi. Shoir uchun eng tabarruk tushuncha – Vatan. Ona Vatan xususida she'r bitmagan shoir kamdan-kam topiladi. Xususan, Sa'dulla Hakim ijodida Vatan mavzusi yetakchilik qiladi. O'zbekiston xalq shoiri Abdulla Oripov ta'kidlagandek, "Sa'dulla Hakim ijodiga doir taassurotlarimning ikkinchi jihati quyidagicha; "Har qanday fikrni, har qanday g'oyani, tashbihni uddasidan chiqib ayta olish, tasvirlay bilish san'atkorlarning eng muhim xususiyatidir. Yo'qsa, har qanday kuchli fikr ham oddiy axborotga aylanib qolishi hech gap emas. Shoir she'rlarini mutolaa qila turib, yangi-yangi ranglarga, quyma fikrlarga duch kelasiz. Betakrorlik, topqirlik, teran fikr e'tiboringizni tortadi. Bular, albatta, ijodkorning boy ichki dunyosidan, nozik tuyg'ular egasi ekanidan, mahoratidan dalolat beradi". [3.5]

Bevatanlikda ko'ngil aslo yashamaydi. Shoir bu holatni Alisher Navoiyning mashhur ruboiysida aytilgan "Oltun qafas ichra gar qizil gul bitsa, Bulbulg'a tikandek oshno bo'lmas emish" misralariga hamohang tarzda bulbul obrazi vositasida bayon qiladi. Bandilikda, qafasda bulbul sayramaydi. Bulbu uchun qafasdan ko'ra tikonli oshiyon muhim. Bu hikmatni yozish uchun, albatta, ulkan shoirona iste'dod va qalb zarur. Sa'dulla Hakim boshqa bir sakkizligida to'g'ridan-to'g'ri hikmatning o'ziga ikki bor urg'u bergan. Vatan ma'lum bir xalqning mavjudlik belgisi. Shu bois, Vatan mavzusiga, Vatan qayg'usiga ijodkor xalq ham, xalq ichidan chiqqan ijodkor ham beparvo- loqayd bo'la olmaydi. Hikmat shuki, vatandan judo bo'lish – bu baxtdan judo bo'lishdir. Vatan tinchligi eng ulkan saodat. Yana bir ta'kidlangan hikmat shuki, lozim bo'lsa, Vatan uchun jon fido qilish ham baxt. Sa'dulla Hakimning bir qator she'rlarini tahlil qilar ekan, adabiyotshunos Abdulla Ulug'ov: "shoir barcha mavzudagi she'rlarida ma'naviy go'zallik, insoniy barkamollik da'vat etadi", deb xaqli fikrini yozadi [5.130]. Zero, shoirning xalq va vatan taqdiriga oid she'riy kashfiyotlarni ham bu fazilatdan mustasno emas.

### ADABIYOTLAR:

1. *Sadulla Hakim. Tanlangan asarlar. – Toshkent, 2022.*
2. *Sadulla Hakim. Yurt o'g'loni. – Toshkent, 2019.*
3. *Sharaf bilan yashalgan umr. Sa'dulla Hakim zamondoshlari xotirasida. – Toshkent, 2022.*
4. *Imomnazarov M. Milliy ma'naviyat nazaryasiga chizgilar. – Toshkent: Sharq. 1998. – b.168.*
5. *Ulug'ov A. Asl asarlar sehri. – Toshkent, G'afur G'ulom nomidagi nashriyot matbaa ijod uyi, 2007. – B. 130.*
6. *Островский А. Русские писатели о литературном труде. – С.558.*

## DUNYO VA O'ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGIDA RAMZ TADQIQI

*Norova Mexri Baxtiyorovna,*  
*Buxoro davlat universiteti tayanch doktoranti*  
*m.b.norova@buxdu.uz*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada jahon va o'zbek adabiyotshunosligidagi ramzga bo'lgan qarashlar, ramz-simvolning lug'atlardagi turli tar'riflari, simvolizm va simvol o'rtasiga o'xshashliklar va farqlar, adabiyot va san'atda ramzning bir necha bosib o'tgan bosqichlari, ramzning bir necha ko'rinishlari haqida ma'lumotlar berilgan. Ramziy tahlil uchun ranglar, predmetlar, narsallar, flora va fauna dunyosi tanlandi. Tanlangan obyekt asosida ifodalangan ko'chma – timsoliy ma'no aniqlandi, shunigdek, obyektlar, so'zlar yoki tushunchalar muayyan assotsiatsiyalarni keltirib chiqarishi o'rganildi.

**Kalit so'zlar:** ramz, ramziy tahlil, ramz ta'riflari, ramz turlari, ramz bosqichlari, ramz ko'rinishlari, poetik obraz, arxitep.

## ИЗУЧЕНИЕ СИМВОЛА В МИРОВОМ И УЗБЕКСКОМ ЛИТЕРАТУРОВЕДЕНИИ

**Аннотация.** В данной статье рассмотрены взгляды на символы в мировой и узбекской литературе, различные определения символов в словарях, сходства и различия символики и символов, несколько этапов развития символа в литературе и искусстве, представлена информация о нескольких репрезентациях символа. Для символического анализа были выбраны цвета, предметы, вещи, мир флоры и фауны. Определялось переносное значение, выраженное на основе выбранного предмета, и изучалось, вызывают ли предметы, слова или понятия те или иные ассоциации.

**Ключевые слова:** символ, символический анализ, определения символов, типы символов, стадии символов, проявления символов, поэтический образ, архетип.

## STUDY OF THE SYMBOL IN WORLD AND UZBEK LITERARY STUDIES

**Abstract.** In this article, views on symbols in world and Uzbek literature, different definitions of symbols in dictionaries, similarities and differences between symbolism and symbols, several stages of symbols in literature and art, information is provided on several representations of the symbol. Colors, objects, things, the world of flora and fauna were selected for symbolic analysis. The figurative meaning expressed on the basis of the selected object was determined, and it was studied whether objects, words or concepts cause certain associations.

**Keywords:** symbol, symbolic analysis, definitions of symbols, types of symbols, stages of symbols, manifestations of symbols, poetic image, archetype.

**Kirish.** She'r – lirik kechinma mahsuli. Uni kuchli, ta'sirchan ifodalashning o'ziga xos vositalari mavjud. Ramz shu qatorda turadi. Dunyo adabiyotshunosligida ramz nazariyasi ancha keng ishlangan. Jumladan, ingliz va rus she'rshunosligidagi qarashlar mulohazalarimizni tasdiqlaydi. Avvalo, terminning adabiyotshunoslik lug'atlaridagi ta'rifiga e'tibor qaratsak. Adabiyotshunoslikda simvolizm va simvol termin sifatida farqlanadi. Simvolizm adabiy oqim nomini bildirsa, simvol poetik ko'chim sifatida talqin etiladi. Ayni choqda, bu tushunchalar bir-birini taqozo etadi. Chunki simvolizm asosida simvol yotadi. Ingliz olimi **Tochukwu Ezebunining** yozishicha: "She'riyatdagi simvolizm shoirlar tomonidan o'zlarining tom ma'nosidan tashqari ahamiyat kasb etuvchi predmetlar, harakatlar yoki tushunchalar bo'lgan timsollar yordamida chuqurroq ma'nolarni yetkazish va his-tuygularni uyg'otish uchun qo'llaniladigan adabiy uslubdir". [8] Demak, ramzlar ko'pincha mavhum g'oyalar, his-tuyg'ular yoki mavzularni ifodalaydi, she'rdagi ma'no serqatlamligini ta'minlaydi. Ko'p qatlamli adabiyot yaratishga imkoniyat beradi.

Ramz-simvol ta'rifi bilan bog'liq turli lug'atlarni kuzatganimizda, quyidagi talqinlarga duch keldik. Ramzning lug'aviy ma'nosi Meriam-Webster lug'atida shunday izohlangan: "Ramz – (lotincha symbolum, so'ng yunoncha symbolon) belgi, ramz; yunoncha symbolon, so'zma-so'z, uning ikkinchi yarmini solishtirish yo'li bilan tasdiqlangan o'ziga xoslik belgisidir". Zero, ramzda solishtirish, qiyos orqali obraz yaratiladi.

**Asosiy qism.** Badiiy ijodda ramz: “uch xil shaklda ifodalanadi: asar qahramonlari, predmetlari yoki hodisalari orqali” ifodalanadi [9]. **“Ramzning ma’nolari.** 1. Boshqa narsa uchun ishlatiladigan yoki ifodalovchi sifatida qaraladigan narsa; biror narsani, ko‘pincha ahamiyatsiz narsani ifodalovchi moddiy obyekt; emblema yoki belgi. 2. Biror narsani belgilash uchun ishlatiladigan harf, raqam yoki boshqa belgi yoki harflar birikmasi yoki shunga o‘xshash narsalar. 3. O‘zaro bog‘langan ma’nolar majmuasiga ega bo‘lgan va ramziy ma’nodan ajraladigan, timsollangan narsaning bir qismi bo‘lgan va o‘zining normal vazifasini bajaruvchi sifatida qabul qilinadigan so‘z, ibora, tasvir yoki shunga o‘xshash narsalar ramzlashtirilgan narsani ifodalaydi. Odatda o‘z ma’nosini asosan u paydo bo‘lgan tuzilishdan kelib chiqadi va odatda belgidan ajralib turadi” deb Collins lug‘atida berilgan. Bu fikr ramzning belgi asosida shakllanganligini asoslab turadi. Haqiqatan, ikki narsa yoki tushuncha o‘zaro bog‘langan ma’nolar bilan bog‘lanadi. Aytaylik, she’riyatda qush erkinlik ramzi hisoblanadi. Shu jihatdan qushning havolarda bimalol qanot qoqishi erkinlik bilan aloqador. Boshqa “Meriam-Webster” lug‘atida “ongdagi biror mavhum narsani ifodalovchi obyekt yoki harakatni ifodalash” ramz deb yuritiladi. Binobarin, simvol ongdagi mavhum tushunchaning obrazli ifodasidir. “Simvolizm – bu shaxs, obyekt yoki g‘oya yordamida bir narsani boshqa narsa uchun ifodalash” deb “The writers” lug‘atida berilgan dir. Adabiyotda simvolizm oqimi bo‘lib, buning asosiy talabi – hayotni, undagi insonni tasvirlashda faqat ramzlarga tayanishdir. Ramz esa, umuman, badiiy adabiyotga xosdir. Shu ma’noda Wikipediada: “Ramz – bu o‘zidan boshqa narsani anglatuvchi obyekt, harakat yoki g‘oya, ko‘pincha mavhumroq xususiyatga ega”. Demak, ramz uchun ranglar, predmetlar, narsalar, flora va fauna dunyosi tanlanadi. Tanlangan obyekt asosida ifodalangan ko‘chma – timsoliy ma’no aniqlanadi. “Oq kaptarni ko‘rganingizda xayolingizga nima keladi? Bu shunchaki qushmi yoki balki tinchlik va erkinlik belgisimi? Ba’zi obyektlar, so‘zlar yoki tushunchalar muayyan assotsiatsiyalarni keltirib chiqaradi. Ular biz tushuna oladigan qo‘shimcha ma’noga ega. Bunday narsalar ramzlar deb ataladi”. Oq kaptar bunda obyekt bo‘lib, u tinchlik, erkinlik tushunchasiga muvofiq keladi. Ya’ni oq kaptar va tinchlik tushunchalari o‘zaro bog‘langan. “Ramz – bu to‘g‘ridan-to‘g‘ri yoki bilvosita boshqa narsani ifodalovchi har qanday narsa. San’at va adabiyotda ramz ko‘pincha obyekt orqali uzatiladigan mavhum g‘oyani bildirib keladi. Bu o‘simlik, bino, hayvon yoki hatto odam bo‘lishi mumkin. Masalan, qizil atirgul sevgi, qarg‘a esa o‘lim va halokat ramzidir”. Ko‘rinadiki, ramz uchun har qanday narsa tanlanishi mumkin. U o‘simlik, hayvon, odam, bino bo‘lishi mumkin. Tanlangan obyekt mohiyatidan kelib chiqib uning ramziy ma’nosi aniqlanadi. Ko‘z oldimizda o‘sha obyekt turli assotsiatsiyalarni uyg‘otadi. Adabiyotdagi ramz ham shunga uyg‘unlanadiki, ramz uchun har qanday narsa tanlanishi mumkin. U o‘simlik, hayvon, odam, bino bo‘lishi mumkin. Tanlangan obyekt mohiyatidan kelib chiqib uning ramziy ma’nosi aniqlanadi. Ko‘z oldimizda o‘sha obyekt turli assotsiatsiyalarni uyg‘otadi. Adabiyotdagi ramz ham shunga uyg‘un: “Adabiyotdagi ramz – bu o‘quvchilarga, kitobxonlarga voqeani yaxshiroq tushunishga yordam beradigan to‘g‘ridan-to‘g‘ri va ko‘chma ma’noga ega tushunchadir. Ushbu adabiy qurilma o‘quvchilar e’tiborini xabarga qaratish uchun muallif matnda ishlatadigan so‘z, obyektidir”.[2] Demak, badiiy ijoddagi ramz ifoda etilgan poetik fikrni tushunishga yordam beradi. Masalan, V.X.Devisning “Yomg‘ir” she’rida yomg‘irdan ijtimoiy tabaqalanishning poetik ramzi sifatida foydalanadi. Ya’ni yomg‘ir birinchi navbatda yuqori barglarga tushadi, so‘ngra tomchilar pastga tushadi. Bu shuni anglatadiki, yuqori sinf ko‘proq foyda oladi, quyi sinf esa kamroq oladi.

Rus olimasi N.I.Snejko ramzga quyidagicha ta’rif beradi: “Ramz ko‘p o‘lchovli tushuncha bo‘lib, har bir bilim sohasi o‘rganish objekti asosida o‘z ma’nosini ochib beradi”. Bu fikr faqat ramzning adabiyotga emas, balki turli sohalarda qo‘llanilishini ko‘rsatadi. O‘lia fikrini davom ettirib, yozadi: “Ramz she’riyatida umumiy, milliy o‘ziga xos, maxsus xususiyatlarni aniqlashda mazmun tahlili usuli, bunda eng ko‘p uchraydigan birliklar alohida ajratiladi va mahsuldor hisoblanadi. Ular she’riy matnning ramziy makonini tartibga solib, timsol hosil qiluvchidek tuyuladi. Ular har xil tabiatga ega. Dunyo rasmining koordinatalari sifatida tushuniladigan makon va vaqtni dunyoning fizik tasviri tushunchalariga asoslanib, ekzistensial deb atash mumkin”. [2] Haqiqatan, ramzlar milliy va umuminsoniy mazmunga ega bo‘ladi.

San’at va adabiyotda universal, madaniy, shaxsiy, allegorik, arxetipal, kontekstual, siyosiy-ijtimoiy, tabiat va atrof-muhit ramzlari ajratiladi. She’riyatda ham bu kabi ramzlar qo‘llanilgani kuzatiladi. She’riyatdagi ramziylik bir qancha muhim vazifalarni bajarib, she’riy tajribani boyitib, shoirlarga tom ma’nodan tashqarida chuqurroq ma’no va tuyg‘ularni yetkazish imkonini beradi. Shu jihatdan quyidagilarni ko‘rsatish mumkin: 1. Simvollar shoirlarga mavhum va murakkab g‘oyalarni ta’sirchan tarzda yetkazish imkonini beradi. Ramzlardan foydalangan holda shoirlar to‘g‘ridan-to‘g‘ri ifodalash qiyin bo‘lishi mumkin bo‘lgan his-tuyg‘ularni, tushunchalarni va mavzularni yoritib beradilar. 2. Ramzlar she’rga chuqurlik va ma’no qatlamlarini qo‘shib, uni oddiy tavsif yoki hikoyadan o‘quvchilarni intellektual va hissiy darajada jalb qiladigan ko‘p o‘lchovli asarga aylantiradi. 3. Ramzlar kuchli his-tuyg‘ularni va yorqin tasvirlarni uyg‘otish



kuchiga ega. Ular o'quvchilarda assotsiatsiyalar va xotiralarni uyg'otib, she'r bilan yanada chuqurroq va shaxsiy aloqani yaratishi mumkin. 4. Ba'zi ramzlar universal ma'nolarga ega va turli madaniyatlarda tan olinadi. Bu ramzlar shoirlarga turli millatdagi odamlar bilan rezonanslashadigan mavzular va g'oyalarni o'rganishga yordam beradi, umumiy insoniy tajriba tuyg'usini yaratadi. 5. Ramzlar she'riyatga noaniqlik va sirlilikni yuzaga keltiradi. Bu esa o'quvchilarga ma'noning turli qatlamlarini topish va har bir o'qishda yangi tushunchalarni kashf qilish uchun joy qoldiradi. 6. Ramzlardan mohirona foydalanish she'riyatning estetik ta'sirchanligini oshiradi. 7. Shoirning kechinmalari va his-tuyg'ularini obrazli ifoda etish imkonini beradi. 8. She'riyatdagi siyosiy-ijtimoiy belgilar jamiyat normalarini tanqid qilish, norozilikni ifodalash yoki ijtimoiy o'zgarishlarni himoya qilish uchun ishlatilishi mumkin. 9. Ramzlar she'rlarda takrorlanishi mumkin. Ular asardagi yaxlitlikni ta'minlaydi.

**Arxetip ramzlar.** Turli madaniyatlar va davrlarda umume'tirof etilgan va tushunilgan ramzlardan foydalanishni anglatadi. Bu ramzlar arxetiplar sifatida ma'lum bo'lib, ular insoniyat tarixi davomida miflar, folklor, din, orzu-intilishlar va adabiyotda uchraydigan dastlabki tasvirlar, mavzular yoki personajlarda aks etadi. Arxetiplar madaniy kelib chiqishidan qat'i nazar, barcha odamlar tomonidan umumiy bo'lgan umumiy insoniy tajribalar, his-tuyg'ular va xatti-harakatlar modellarini ifodalaydi. Arxetiplar turli jamiyatlarning afsonalari, hikoyalari va madaniy ifodalarida mavjud bo'lib, umumiy insoniy merosni va umumiy psixologik tajribani taklif qiladi. Madaniyatlararo ahamiyati: arxetiplar o'ziga xos madaniy ma'nolar bilan bog'lanmaydi; ular o'zlarining asosiy va universal tabiati tufayli turli xil odamlar bilan rezonanslashadi. Masalan, Qahramon arxetipi sayohatga yoki izlanishga o'tlangan, qiyinchiliklar va sinovlarga duch keladigan va oxir-oqibat muhim yutuq yoki o'zgarishga erishadigan xarakterni ifodalaydi. Masalan, "Uzuklar hukmdori" dagi Qirol Artur, Gerkules yoki Frodo Baggins kabi qahramonlar.

Ona arxetipi tarbiya, g'amxo'rlik va himoyani o'zida mujassam etgan. Ona siymolarini ko'plab afsona va hikoyalarda topish mumkin. Masalan, Ona Yer yoki Ona Maryam. Soya arxetipi inson shaxsiyatining qorong'i, bostirilgan yoki yashirin tomonlarini ifodalaydi. U ko'pincha hikoyalarda qahramonning o'sishi va rivojlanishiga qiyinchilik tug'diradigan yovuz odam yoki antagonist sifatida tasvirlangan. Sayohat arxetipi jismoniy yoki metaforik sayohat orqali o'zgarish va o'z-o'zini kashf qilish jarayonini ifodalaydi. Masalan, "Odyssey" va "Alisaning mo'jizalar mamlakatidagi sarguzashtlari" kabi hikoyalarda uchraydi.

Universal ramzlar arxetip bo'lib, bu tushuncha psixolog Karl Yung tomonidan taklif qilingan. Ma'lum ramzlar madaniyat yoki dunyoqarashdan qat'iy nazar, barcha odamlar tomonidan bir xil tushuniladi va qabul qilinadi. Binobarin, quyosh, odatda, hayot, intilish, ma'rifat va issiqlikni anglatadi, oy esa ayolni, sir va naqshlarni ifodalaydi. Suv poklanish, tozalash, his-tuyg'ular va ongsizlikning ramzi bovlilib keladi. Yong'in o'zgarish, ehtiros, halokat va yorug'likni anglatadi. Daraxt rivojlanish, dunyoviy va ma'naviy sohalar o'rtasidagi aloqani va hayotni ramziy ifoda etadi. Doira birlik, abadiylik va to'liqlikni, yurak sevgi, mehr va tuyg'u ramzi bo'lib keladi. Kabutar ko'pincha tinchlik, poklik timsoli, ilon esa o'zgarish, vasvasa va yangilanish ramzini bildiradi. Bu ramzlar asrlar davomida san'at, adabiyot, din va turli madaniyatlar tomonidan qo'llangan va ularning ma'nolari turli jamiyatlarda nisbatan izchilligicha, o'zgarimasligicha qolmoqda.

**Madaniy ramzlar** ma'lum bir madaniyat yoki jamiyatda o'ziga xos ma'no va ahamiyatga ega bo'lgan obrazli tasvirdir. Bu ramzlar umume'tirof ega bo'lmaydi. O'sha madaniyatga mansub odamlar tomonidan angatlanadi: tarixiy jarayonlarda shakllanadi. Madaniy belgilar obyektlar, imo-ishoralalar, ranglar, marosimlar yoki hatto ma'lum bir madaniy guruh doirasida alohida ma'noga ega bo'lgan aniq so'z va iboralarni qamrab oladi. Ular madaniy o'ziga xoslik, e'tiqod va qadriyatlarni ifodalash va saqlashda muhim rol o'ynaydi. Ushbu ramzlar kuchli his-tuyg'ularni uyg'otadi. Masalan, lotus guli Osiyo madaniyatlarida poklik, ma'naviyat, ma'rifat va qayta tug'ilish ma'nolarini ifoda etadi. Shuningdek, "dreamtime" tushunchasi avstraliyaliklar madaniyatining ajralmas qismidir. U ajdodlar dunyoni shakllantirgan va madaniy me'yorlarni o'rnatgan afsonaviy ijod davrini ifodalaydi. Xitoy tilida "hongbao" deb nomlanuvchi qizil konvertlar omad va baraka ramzi sifatida yangi yil va to'ylar kabi maxsus bayramlarda beriladigan ramziy sovg'alardir. Xamsa, qo'l shaklidagi tumor bo'lib, Yaqin Sharq madaniyatlarida himoya va baraka ramzini ifodalaydi, yovuzlikdan saqlaydi va omad keltiradi. Yashil, oq va to'q sariq ranglar Irlandiya bilan bog'langan va uning tarixi va o'ziga xosligining turli tomonlarini ifoda etadi. Jumladan, yashil landshaftlar tinchlik ramzi sanalib, Irlandiya millatchiligini ramziylashtirgan.

**Shaxsiy ramzlar** san'at, adabiyot yoki har qanday ifoda shaklining muallifi yoki ijodkori uchun alohida va individual ma'noga ega bo'lgan timsollardan foydalanishni anglatadi. Bu belgilar individualdir va ko'pincha ularning shaxsiy tajribalari, xotiralari, e'tiqodlari va his-tuyg'ularidan kelib chiqadi. Shaxsiy ramziylik ijodkorga o'z ishlariga boshqalarga darhol ko'rinmasligi mumkin bo'lgan chuqurroq, yanada yaqinroq ahamiyatga ega bo'lishga imkon beradi. Ijodkor o'zi uchun shaxsiy ahamiyatga ega bo'lgan aniq

narsalardan foydalanishi mumkin, masalan, bolalik o'yinchog'i, oilaviy me'ros yoki hayotidagi muhim voqeadan esdalikdir. Bular takrorlanuvchi motivlar bilan ham bog'liq. Ya'ni ba'zi tasvirlar, naqshlar yoki mavzular ijodkor dunyosida, ruhiyatida qayta-qayta paydo bo'lishadi. Ular lirik qahramonning mashg'ulotlari, qiziqishlari yoki hal qilinmagan his-tuyg'ularini aks ettiradi. Tushlar ham shaxsiy bo'lib, ramziy mazmun bildirib keladi. Shaxsiy ramziylik ijodkor ruhiyati va dunyoqarashini aks ettiradi.

**Allegorik ramzlar** deganda mavhum g'oyalar, axloqiy saboqlar yoki murakkab tushunchalarni ifodalash uchun adabiyot, san'at yoki boshqa ifoda shakllarida timsol va metaforalardan foydalanish tushuniladi. Allegoriyada butun asar ramziy tasvir bo'lib, unda personajlar, hodisalar va narsalar to'g'ridan-to'g'ri va chuqurroq, majoziy ma'noga ega.

**Результаты и обсуждение.** Важной чертой современной культуры является визуализация мыслей и идей, при этом визуальные формы преобладают над вербальными, особенно в интернете. Интернет-коммуникация приобретает эмоциональность благодаря использованию знаков, картинок, символов, видео и фотографий.

Существуют разные формы сетевого фольклора, в зависимости от их создания: коммуникативные (вербальные), крауд-формы (массовые) и поликодовые (невербальные)[9]. Поликодовые формы являются гибридами языкового кода и других семиотических систем, включая музыку, изображения и символы. К таким формам относятся интернет-мемы, фотожабы, анимэ, короткие видео, демотиваторы, которые распространяются мгновенно с развлекательными, провокационными или мотивационными целями. Характерной особенностью крауд-форм является их динамичность и непрерывное обновление, что делает их похожими на фольклор. Примером крауд-формы может служить онлайн-энциклопедия Википедия, изучением которой занимались С. Херинг и У. Эмиг в своём исследовании «Collaborative authoring on the Web: A genre analysis of online encyclopedias». Эти формы распространяются через гиперссылки и доступны в поисковых системах. Они, хотя и более склонны к письменной форме, сохраняют черты фольклора, такие как коллективность создания, преемственность традиций (кумулятивность) и анонимность [9].

Коммуникативные или вербальные формы сетевого фольклора следуют правилам и структуре естественного языка. Основной целью этих форм является не просто передача информации, но также стимуляция общения и диалога. Это достигается путём вызова реакции или отклика у аудитории. В их числе находятся «чаты, дневники, записи в гостевых книгах, стихи в форме танкеток, хештеги, посты и другие» [10]. Каждый отдельный текст в социальных сетях, согласно Е.П. Белинской, является лишь «одним из звеньев в цепочке речевого общения» [11]; «высказывание пронизано диалогическими нотками, игнорирование которых препятствует полному пониманию стиля

высказывания» [Там же]. Создатель сообщения (адресант) стремится настроить своё сообщение на реципиента (адресата), вступая в диалог, учитывая его точку зрения и апперцептивный фон, или фон восприятия слушателя [Там же].

В рамках этого исследования особое внимание уделяется такой вербальной форме сетевого фольклора, как посты. Посты представляют собой сообщения, публикуемые в интернет-форумах, сообществах, блогах, социальных сетях и на различных сайтах. Они распространяются пользователями через копирование текста, репосты и набирают популярность благодаря большому количеству «лайков».

Точно так же, как и другие вербальные формы фольклора, посты служат средством для диалога между автором и другими пользователями. Они выполняют функции обмена информацией, стимулирования обратной связи и получения мнений от виртуальных собеседников. Независимо от их содержания или цели, посты стремятся привлечь внимание собеседника, используя свою форму или содержание, и обладают соответствующими лингвистическими и структурными особенностями. Например, аттитюдные посты (от английского слова «attitude» – отношение) выражают чувства или эмоции автора, как в следующих примерах:

- «What a great way to start a Sunday morning in Denver Colorado THANKS MIKE» (пользователь Facebook) [12].

- «Fantastic to be here in Northern Ireland speaking to our Conservative & Unionist family. I will never accept a deal that seeks to bind us in the EU's customs union forever, or which divides our United Kingdom. In everything I do as PM, I will strengthen our union of four nations" (пост Бориса Джонса в Twitter) [13].

- «Mathematical Physics has no influence on social life so far. Or does the beer get cheaper? The structures of this complex world explains Wadim's cups» (аккаунт Science Slam Facebook) [13].

- «My heart is heavy this afternoon upon hearing the medical examiner has positively identified the remains found in Arkansas last week as four-year-old #MaleahDavis» (аккаунт houstonmayor Instagram) [14].

Характерной чертой аттитюдных постов является разговорный стиль и имитация устного общения, как видно из таких выражений как «What a great way», «Fantastic to be here», «Or does the beer get cheaper?», «My heart is heavy this afternoon». В большинстве постов можно наблюдать использование гиперболы и эмфатических средств как в графических (например, большими буквами), так и в лексико-грамматических репрезентациях (слова, такие как «never», «forever», «everything», «THANKS MIKE»), что характерно для разговорного стиля.

В этом исследовании в качестве примера сетевого фольклора мы анализируем социальную сеть Instagram. Созданная в 2010 году Кевинном Систромом и Майком Кригером, Instagram к 2019 году насчитывает более 1 миллиарда активных аккаунтов в месяц. В исследовании рассматривается вопрос о том, кто является активными пользователями этой сети.

Основываясь на данных маркетингового исследования, можно увидеть, что 61% пользователей Instagram находятся в возрастной группе от 18 до 34 лет. В частности, 31% составляют пользователи в возрасте от 18 до 24 лет, а 30% – от 25 до 34 лет. Важно отметить, что возрастная структура пользователей сети носит значительный смысл: большинство из них находятся в возрасте, когда формирование языковой личности, как правило, уже завершено. Это означает, что в сетевых текстах проявляется уже сформированная языковая компетентность участников интернет-коммуникации. Анализ возрастных групп пользователей предоставляет ключ к пониманию идентификационной функции фольклора, что может играть важную роль в последующих исследованиях для выявления способов идентификации первой и второй возрастной группы через сетевой фольклор.

Посты на Instagram часто сопровождаются фото- или видеоматериалами. На лексическом уровне пост может быть кратким, состоять из одного мощного слова, но чаще всего включает в себя несколько предложений. Жанровое и стилистическое разнообразие постов зависит от целей, которые преследуют пользователи сети. В одних случаях посты могут быть насыщены жаргонной лексикой и специальными знаками, в других – они могут быть предельно корректными и стилистически нейтральными.

Выбор конкретных фраз и приемов в постах определяется такими факторами, как особенности канала общения, тема сообщения, конкретная цель, индивидуальные особенности и социальные роли пользователей сети. Лингво-структурные особенности постов в Instagram на различных языковых уровнях можно подробно рассмотреть на примере интернет постов, так как они эффективно демонстрируют широкий спектр лингвистических средств, используемых для их создания.

## LITERARY CRITICISM

Интернет посты в Instagram направлены на привлечение внимания читателя и улучшение запоминаемости текста. Для достижения этих целей используются такие фонетические приёмы, как аллитерация, рифма, созвучие и звукоподражание, которые способствуют узнаваемости и запоминаемости текста.

**Таблица 1.**

*Лингвистические средства, используемые в сети Инстаграм на различных языковых уровнях на примере Инстаграм-постов*

Уровень языка	Особенности репрезентации
<b>Фонетический уровень</b>	Фонетические приёмы: Аллитерация (Back to black! More is more.), Рифма (Get refreshed, feel the adrenaline rush. When blue and green can defi nitely be seen!), Созвучие (Fashion meets comfort.), Звукоподражание (Bling! Bling! Beep-beep-beep).
<b>Лексический уровень</b>	Прилагательные в сравнительной и превосходной степени (Fresh, cold-pressed ingredients), Прилагательные с положительной коннотацией (Clarissa looks stunning), Составные существительные (summer must-haves, new handcrafted-shoe, streetstyle).
<b>Семантический уровень</b>	Интертекстуальность (Roses are red, violets are blue), Полисемия (wanted), Метафоризация/антропоморфизация (Delicious jewellery pieces), Конверсия (present), Неологизмы (bullboxershoes, boho-glam heels, foodie).
<b>Морфологический уровень</b>	Существительные (Spotting Spring/Summer trends), Глаголы в повелительном наклонении (Swing it!), Прилагательные (Pretty in palm print), Местоимения (We are happy), Наречия (We proudly present).
<b>Синтаксический уровень</b>	Восклицательные предложения (It's a wrap!), Вопросительные предложения (Looking for a veil?), Простые и эллиптические предложения, Анафора (We love heels, we love colors), Антитеза (Ugly is pretty again!), Активный и пассивный залог, Синтаксические включения (Perfect streetstyle with coffee-to-go).

На лексическом уровне в интернет постах Instagram преобладает использование прилагательных и составных существительных. Прилагательные чаще всего имеют положительную коннотацию и используются в сравнительной и превосходной степенях, что способствует созданию привлекательного образа продукта, тем самым привлекая внимание потребителя. Составные существительные в английском языке часто образуются путём сочетания различных слов, создавая новые термины, которые быстро распространяются и становятся общеупотребительными. Посты в Instagram часто порождают неологизмы, что является одной из ключевых черт семантического уровня сетевого фольклора. Также распространены приёмы интертекстуальности и метафоризации в интернет постах.

На синтаксическом уровне большинство высказываний в постах представляют собой восклицательные и вопросительные предложения. Часто встречаются синтаксические включения, эллиптические конструкции, анафора и антитеза. Эти приёмы привлекают внимание и улучшают запоминаемость текста.

Анализируя лингво-структурные особенности интернет постов в Instagram, можно заключить, что они направлены на узнаваемость, запоминаемость и заинтересованность читателя. Хотя первые две характеристики являются общими для всех интернет материалов, заинтересованность читателя становится ключевой в интернет постах из-за огромного количества контента в Интернете и

стремления каждого автора выделиться. Это стремление влияет на формирование характерных особенностей всех сетевых фольклорных текстов.

**Заключение.** Основные характеристики сетевого фольклора переключаются с классическим фольклором, включая традиционность, анонимность, коллективное авторство, импровизированность и формульность, а также отражение общих представлений о современных реалиях. Отличительные особенности сетевого фольклора включают мультимедийность, опосредованное общение, интерактивность, гипер- и интертекстуальность. Умберто Эко в 1995 году правильно предположил, что текст интернет-коммуникации представляет собой новый нелинейный интер- и гипертекст, сложный симбиоз устной и письменной речи, в рамках которого в виртуальном пространстве возникает новая форма человеческого общения, что подтверждается структурно-лексическими особенностями сетевого фольклора [16].

### ЛИТЕРАТУРА:

1. Таран А. В. *Фольклор в Интернете: рецензия-обзор тематического сборника* / А. В. Таран. – Режим доступа: <http://kniga.seluk.ru/k-filologiya/1216332-1-avtaran-folklor-internete-recenziya-obzor-tematicheskogosbornika-folkloristika-seti-chem-edyat-htobi-otrav.php>
2. Алексеевский М. Д. *Интернет в фольклоре или фольклор в Интернете? (Современная фольклористика и виртуальная реальность)* / М. Д. Алексеевский. – Режим доступа: [https://www.academia.edu/221952/Интернет\\_в\\_фольклоре\\_или\\_фольклор\\_в\\_Интернете\\_современная\\_фольклористика\\_и\\_виртуальная\\_реальность\\_Internet\\_in\\_Folklore\\_or\\_Folklore\\_in\\_Internet\\_modern\\_folkloristics\\_and\\_virtual\\_reality\\_](https://www.academia.edu/221952/Интернет_в_фольклоре_или_фольклор_в_Интернете_современная_фольклористика_и_виртуальная_реальность_Internet_in_Folklore_or_Folklore_in_Internet_modern_folkloristics_and_virtual_reality_)
3. Лутовинова О. В. *Анекдот в смеховом мире Интернета* / О. В. Лутовинова. – Режим доступа: <https://cyberleninka.ru/article/v/anekdot-v-smehovom-mire-interneta>
4. Радченко Д. А. *Современный кинематографический анекдот в условиях сетевой коммуникации* / Д. А. Радченко // *Первый Всероссийский конгресс фольклористов: сб. докл.* – М., 2006. – Т. 3. – С. 307–317.
5. Каргин А. С. *Современный фольклор: на подступах к изучению* / А. С. Каргин // *Фольклор XXI века : герои нашего времени: сб. ст.* – М., 2013. – С. 5–16.
6. Якобсон Р. О. *Лингвистика и поэтика* / Р. О. Якобсон // *Структурализм «за» и «против».* – М.: Прогресс, 1975. – С. 193–230.
7. Рукомойникова В. П. *Интернет как среда существования фольклора* / В. П. Рукомойникова. – Режим доступа: <https://wladimire.livejournal.com/343247.html>
8. Найдорф М. *Еще раз о «визуальной культуре»* / М. Найдорф. – Режим доступа: <https://frodian.livejournal.com/71886.html>
9. Матлин М. Г. *Котэ – герой демотиваторов Рунета* / М. Г. Матлин // *Фольклор XXI века: герои нашего времени: сб. ст.* – М., 2013. – С. 235–259.
10. Emigh W. *Collaborative authoring on the Web: A genre analysis of online encyclopedias* / W. Emigh, S. C. Herring // *Proceedings of the 38th Hawaii International Conference on System Sciences (HICSS-38), January 3–6, Big Island, Hawaii. Los Alamitos, IEEE press, 2005.*
11. Белинская Е. П. *Психология интернет-коммуникации* / Е. П. Белинская. – М.; Воронеж: МПСУ МОДЭК, 2013. – 185 с.
12. Facebook. – Режим доступа: [www.facebook.com](http://www.facebook.com)
13. Twitter. – Режим доступа: [www.twitter.com](http://www.twitter.com)
14. Instagram. – Режим доступа: <https://www.instagram.com>
15. *Data and research on Digital for Business Professional.* – Режим доступа: <https://www.emarketer.com/>
16. Эко У. *От Интернета к Гутенбергу: текст и гипертекст* / У. Эко. – Режим доступа: [https://www.gumer.info/bibliotek\\_Buks/Culture/Eko/Int\\_Gutten.php](https://www.gumer.info/bibliotek_Buks/Culture/Eko/Int_Gutten.php)

## EPİK TURDA INSON TASVIRI (Xurshid Do'stmuhammad asarlari misolida)

*Jalilova Zarina Sadriddinovna,  
Buxoro shahridagi 41 – maktabning  
Ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi  
jalilovazarina9389@gmail.com*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada epik turda tasvirlash mahorati, Xurshid Do'stmuhammadning hikoya va qissalari haqida ba'zi bir mulohaza va fikrlar bayon etilgan. Maqolada ijodkorning tasvirlash mahorati xarakter yaratishdagi nozik jihatlari aks ettirilgan. Qolaversa hozirgi adabiy jarayonda yaratilgan epik tur namunalari haqida, jumladan, hikoya va qissalar haqida yangicha mahorat uslubi haqida bayon etilgan. Ijodkorning hikoya va qissalaridagi tafakkur tarzi, obrazli timsollari misolida ko'rsatib berilgan. Inson psixologiyasiga alohida urg'u berilgan.

**Kalit so'zlar:** hikoya, qissa, ruhiyat, qahramon, milliy xarakter, badiiy obraz, adabiy jarayon, tarixiy hikoya, modern hikoya, tasvir, konflikt.

## ОБРАЗ ЧЕЛОВЕКА В ЭПИЧЕСКОМ СТИЛЕ (на примере произведений Хуршида Дустмухаммада)

**Аннотация.** В данной статье представлены некоторые комментарии и мысли по поводу мастерства изображения в эпическом стиле повестей и рассказов Хуршида Дустмухаммада. В статье показаны тонкости мастерства писателя в создании персонажа. Кроме того, по-новому умело описаны образцы эпического типа, созданные в современном литературном процессе, в том числе рассказы и повести. Особое внимание уделяется психологии человека.

**Ключевые слова:** повесть, новелла, менталитет, герой, национальный характер, художественный образ, литературный процесс, историческая повесть, современная повесть, образ, конфликт.

## HUMAN IMAGE IN EPIC STYLE (on the example of Khurshid Dustmuhammad's works)

**Abstract.** This paper presents some comments and thoughts on the mastery of depiction in the epic style of Khurshid Dustmuhammad's novels and short stories. The paper shows the subtleties of the writer's skill in character creation. In addition, samples of epic type created in the modern literary process, including short stories and novels, are skilfully described in a new way. Special attention is paid to human psychology.

**Keywords:** novella, short story, mentality, hero, national character, artistic image, literary process, historical novella, modern novella, image, conflict.

**Kirish.** Bugungi kunda barcha sohalar singari badiiy adabiyotda turli evrilishlar kuzatilyapti. Jumladan, janr va turlarda ham sezilarli darajada o'zgarishlar bo'lmoqda. XX asr o'zbek hikoya va qissalarida yangicha uslub, yangicha mahorat yuzaga keldi. Bir paytda har bir ijodkorning mahorati, yangicha qarashlari e'tiborga olinadi. Epik turda ya'ni hikoya va qissada turli o'zgarishlar, yangilanishlar sodir bo'ldi. Qissa deganda bugungi zamonaviy adabiyotshunoslikda hajman romandan kichik hikoyadan kattaroq, bir kishi hayotining ma'lum qismi va uning ijtimoiy muhitdagi mavqeyi haqida hikoya qiladigan nasroy asar deganidir. XX asr boshlarigacha bu janr umuman boshqa mazmunli asar sifatida tushunilgan. Bu haqida "Adabiyotshunoslik lug'ati"da quydagicha ma'lumot berilgan: "1) xalq og'zaki ijodida keng tarqalgan voqeaband xarakterdagi, qahramon hayoti va sarguzashtlarini hikoya qiluvchi rioyaviy asar 2) epik turning hikoya va roman qatoridagi uchta asosiy janridan biri, povest" [5].

Epik turning rivoji uchun o'z hissasini qo'shgan ijodkor Xurshid Do'stmuhammad ham nasriy asarlari orqali boyitdi. Jumladan, adib hikoya va qissalarida zamon va makon, inson va tabiat, milliy qadriyatlar uyg'unligini ulug'lagan. Uning qirq yillik mehnati samarasi sifatida 2021-yilda nasriy asarlar to'plami dunyo yuzini ko'rdi. To'plamdan o'nga yaqin hikoya va bir necha qissalar joy olgan bo'lib ularda inson tasviri qalamga olingan. Yozuvchi bugungi kunda adabiy jarayonning qalami ancha charxlangan adib sifatida tan

olingan. Uning asarlari boshqa ijodkorlar yozgan asaralaridan yangicha uslub yo'nalishga egaligi bilan farq qiladi. Hikoya va qissalarda inson tasviri asosiy e'tiborda turadi. Ijodkor inson ruhiyatini tasvirlashda o'tmish mavzularini ham qalamga oladi. Uning "Panoh", "Nigoh", "Yolg'iz", "Kuza" kabi qissalari "Mahzuna", "Jajman", "Maskovlik yaxshi odam", "Kiova quyoshi" kabi hikoyalari bor. Adibning "Yolg'iz" nomli qissasida bosh qahramon Abdulla Qodiriy siymosi gavdalantirilgan. Qodiriyning ruhiyatini tasvirlashda yozuvchi o'tmish haqiqatlariga ham bevosita tayangan. Uning haqiqat izlab charchamagani, yengilmagani, haqiqatga tik boqishga qo'rqmasligi naqadar dovyurak shaxs ekanligi qissada alohida e'tirof etilgan.

Adibni tasvirlash mahorati yuksak saviyada ko'rsatib berilgan. Hattoki adib qahramon siymosini uning ichki olamini tasvirlashda bosh qahramon Qodiriyning oila a'zolaridan ham foydalanilgan. Bu bilan yozuvchi o'tmishga ham sayohat qilgan desak ham bo'ladi. Qolaversa, adib yaratgan hikoyalarda ham inson tasviri yuqori saviyada tasvirlangan. Darhaqiqat, kichik hajmli hikoyadan ham olam-olam ma'no olish mumkin. Kichik hajmli hikoyada ham keng ma'no-mazmunga boy bo'lgan muhit va davr muammolari yoritib berishning imkoniyati mavjud. Mana shu imkoniyatdan Xurshid Do'stmuhammad unumli foydalangan holda o'zining qator hikoya va qissalarini e'lon qildi. Jumladan, uning "Mehmon", "Nusxakashning merosxo'ri hikoyalarda odamzot ongi shaxs, inson tasviri uning ichki olami, mafkurasi, muammolari bilan bog'liq jihatlar aks etsa, "Jim o'tirgan odam", "Jajman" hikoyasida jamiyatdagi yomon illatlar va ularning millat tafakkuri, dunyoqarashi taraqqiyotida ko'rsatgan ta'siri, salbiy oqibatlariga munosabat bildiradi. "Mahzuna" nomli hikoyasida Mahzuna singari o'zbek ayoli obrazi, milliy xarakteri fikrlash tarzi xususiyatlari bilan tom ma'noda pokizalik ramzi oyoqosti qilinayotgan, yuz o'girilayotgan tabiiylik, halollik, pokizalik ramzi, ayol or-nomusi qadr-qimmatiga haqida o'ylashga undaydi. Ijodkor ushbu hikoyasi orqali barcha o'zbek ayollariga xos bulgan milliylik ruhini singdirmoqchi bo'ladi. Inson erki, qadri, ayniqsa, ayollarga berilayotgan imkoniyatlardan qat'iy nazar baribir axloqiy qadriyatlar, o'zbek millati, milliy mentaliteti uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan masalalardan ekanligi hikoyada tasvirlab berilgan holatlar o'zbek milliy xarakter uchun mos kelmasligini aniqlash mumkin.

Adib aytmoqchi bo'lganlarini to'g'ridan to'g'ri emas, balki ishoralar, ramzlar va timsollarga murojaat qilishi orqali badiiy yuksak insoniy qiyofalarni ochib bergan. Yozuvchi Xurshid Do'stmuhammad insonlarni boricha, qanday yaratilgan bulsa, shundayligicha ziddiyatli va murakkab qalb egasi sifatida qabul qilish zarurligini muhimi insonni anglash ekanini badiiy asoslab berdi. Shu boisdan ijodkorni bugungi kunda mislsiz tafakkur namunalari yaratishga erishayotgan iste'dod sohiblaridan biri sifatida e'tirof etish mumkin.

**Tadqiqot obyekti va metodlar.** Tadqiqot obyekti sifatida qissa hikoyalar to'plamini hamda Xurshid Do'stmuhammad hikoya va qissalari tanlandi. Qiyosiy tahlillarni amalga oshirishda o'zbek qissa va hikoyalari va ijodkor nasriy asarlariga murojaat qilindi. Inson tasvirini ochib berishda psixologik metoddan ham foydalanildi.

**Olingan natijalar va ularning tahlili.** Tadqiqotdan olingan natijalar quydagilardan iborat. Epik turda inson tasvirining o'rganilishi, inson psixologiyasining hikoya va qissada namoyon bo'lishi tahlilga tortildi. Istiqlol davri o'zbek hikoya va qissachiligidagi o'zgarishlar tahlil qilindi. Hikoyaning naqadar keng imkoniyatga ega ekanligi turli faktlar vositasida bayon etilgan. Istiqlol davridagi qissalarda inson tasvirining yangicha talqini va hozirgi qissanavislar ijodi, o'zbek hikoyachiligida inson tasvirining ulug'lanishi bayon etildi. Zamonaviy nasrda yangicha tipdagi inson obrazini sistemali guruhlash o'rganildi. Bundan tashqari, qissa yoki hikoya obyekti bo'lgan qahramon jamiyat bilan faol munosabatga kirishgan payt o'zini nimalar kutayotgani haqida hech qanday tasavvuri bo'lmaydi. Ushbu tadqiqotda mana shu jihatlar ochib berilgan. Istiqlol davrida yaratilgan hikoya va qissalar tahliliga nazar tashlaydigan bo'lsak, yangicha bayon uslubi, yangicha obrazlar olami, yangicha tasvir mahoratiga ega ekanligiga guvoh bo'lamiz. Adibning qissalarida ruhiyat tasviriga keng o'rin berilganligi bilan farqlanadi; "Chayongul" nomli kino qissasi juda ko'p muhokamalarga sabab bo'lgan. Unda ayollar sha'ni haq – huquqi poymol etilgani haqida juda ko'p tasvirlar bayon etilganini ko'rish mumkin. "Chayongul" nomining qo'yilishida ham ramziylikka ishora qilingan. Undagi obrazlar, voqealar rivoji, bir – birini takrorlanmasligi bilan o'ziga xos yo'nalishda ekanligini ko'rsatadi; – Obrazilardagi ichki ziddiyat va ruhiyat tasvirini alohida e'tiborga loyiq. Qahramonlarning nima sababdan tushkun vaziyatga tushib qolishi aynan bugungi kunning dolzarb muammolaridan bo'lgan ayollar huquqiga bag'ishlanadi; Muallifning qissalaridan tashqari hikoyalarning birida ham rus adabiyoti vakili Dostayevskiy siymosini yaratganini alohida ta'kidlash mumkin. Demak adib rus va o'zbek adabiyoti darg'alarini ham o'z asarlarida tasvirlashni e'tibordan chetda qoldirmagan. Bu bilan shunday xulosaga kelish mumkinki muallifning asarlari, yaratgan obrazlari jahon adabiyotining yetuk namunalari bilan tenglasha oladi.

Yozuvchi Xurshid Do'stmuhammadning nasriy asarlari jumladan zamonaviy qissalarining bosh qahramonlari esa tevarak atrofimizdagi real hayotdan olingan oddiy odamlardandir. XXasrda yaratilgan hikoya va qissalarda hayotga yaqinlik, jamiyat muammolarini tasviri kabi jihatlariga murojaat etish paydo bo'ladi va shu bilan birga kitobxonga qiziqish uyg'ondi. Adib barcha hikoya va qissalarda inson tasvirini, uning xarakterini keng tasvirlashga alohida urg'u berdi. Uning asarlarida insonning turmush chorrahalari naqadar ilosiz qolganligi, kezi kelganda har bir sinovdan matonat topganligi bayon etilgan.

Adib tasvirlagan insonlar oramizda yashab turganligi fikrimizning isboti ekanini ko'rsatadi. Ular boshidan kechirgan haqiqatlar har birimizning ichida bo'lgan bo'lishi mumkin. Yozuvchi asarlaridagi bu kabi tasvir uslubi va yo'nalishi o'zbek adabiyotida hayot hodisalarini va inson obrazini namoyon etish insonning ichki olamiga kirib borishda izchil izlanishlar bo'layotganidan dalolat beradi. Yozuvchi hikoya va qissalarida asosiy mazmun qahramonlar xarakteri, inson tasviri orqali insonning ko'ngliga kirib borishi bilan ta'sirlidir. Adib milliy adabiyot an'analari ham jahon adabiyoti namunalari ham puxta o'zlashtirganligi bilan kitobxon orasida e'tibor qozondi.

Uning o'z fikri o'z uslubi hikoya va qissalarda namoyon bo'ldi. Qolaversa, Yozuvchining o'zi e'tirof etganidek, "Badiiy adabiyotda har qanday janr o'z o'rnini, fayzi, ahamiyatiga ega. Lekin hikoya janriga xos bo'lgan imkoniyatlar tufayli hamisha u nisbatan ko'p yaratilad, ko'p e'lon qilinadi binobarin har bir milliy adabiyotning o'ziga xos kundalik bafasi, qadam olishi, mavqeyi hikoyada ko'proq namoyon bo'ladi." [6] Shu boisdan ham hozirgi adabiy jarayonda barcha janrlar singari hikoya o'z o'rniga ega, o'z o'rnini topayotgani kunday ravshan. Yozuvchi o'z asarlarida isonni tasvirlar ekan, uning uslubi qahramonlarning hayotiyli va yuqori saviyadali bilan ajralib turadi. Uning "Jimjitxonaga yo'l" hikoyasidagi ko'pgina sahifalarda inson tuyg'ulari jilvalarini nozik ilg'aydigan mohir yozuvchining qo'li sezilib turibdi. Zohid Yaqin ismini ham muallif asarga bekorga kiritmagan. Zohid so'ziga ta'rif berishda tasavvuf ilmiga murojaat qilingan. Zohid Yaqin Allohga yaqin bo'lishni istayotgan shaxs sifatida tasvirlangan. Bu bilan ijodkor mumtoz adabiyot an'alaridan ham unumli foydalangan va hikoyada tasavvufiy g'oyalarni singdirmoqchi bo'lgan. Ehtimol bu bilan inson doimo yetuklik, yuqori cho'qqiga qarab intilishi kerakligiga ishora qilingan. Yozuvchi hikoya va qissalarda turli toifa kishilari qahramon darajasiga ko'tarila olganini ko'rishimiz mumkin. "Har bir ijtimoiy – tarixiy taraqqiyot bosqichida o'z millati, vatani manfaatlarini yoqlagan va kurashgan shaxslarning fe'l – faoliyatiga ko'ra ezgulik adolat, go'zallik singari bashariy qadriyatlarga munosabati nuqtai nazariga ko'ra milliyli namoyon bo'ladi." [7]

Adibning epik turda yozilgan asarlaridan inson tasviri mohiyati batafsil tasvirlab berilgan. Jumladan qissalarida ham noan'anaviy uslublar borligi alohida e'tiborga molik. Chunki adib yaratgan qissalarda ijtimoiy hayotning eng dolzarb muammolarini ko'tarib chiqishga intilish kuchli edi. Uning qissalarida shaxs tasviri, inson ruhiyatini tasvirlash uning ichki olamini bayon etish, ichki ziddiyatlar kabi tasvirlarni uchratish mumkin. Adib asarlarni tasvirlar ekan mana bu obraz ijobiy yoki salbiy deya oshkora aytmaydi. Bu ishni kitobxonning o'ziga havola etadi. Asarlarida inson hayotining chigalliklari, ijtimoiy hayot bilan uning manfaatlari o'rtasidagi kelishmovchiliklarni haqqoniy tasvirlagan. Xurshid Do'stmuhammad hikoyalarida ismlarning qo'yilishida ham muayyan mantiq, asaosga tayanilishini "Ibn Mug'anniy" deb nomlangan hikoya ham isbotlab turadi. Asarning bosh qahramon Ibn Mug'anniy deb yuritiladi. Mug'anniy so'zining ma'nosi – kuy chaluvchi degan ma'noni bildiradi. Qahramonning xarakteri ham, Mug'anniy so'ziga mos ravishda tasvirlanadi. "Ibn Mug'anniy osmonga alanglab kunning qay mahal ekanini, hovli etagidagi uyga dovur yana qancha yo'l bosishi zarurligini chamalay olmadi. U faqat quvvayi hofizasiga ishonayotgan, botiniy bir da'vat izmida harakatdan tortayotgan, to'xtamagani sayin dam-badam badanidan ko'tarilayotgan quyuq hovurni kuzatgancha "Kuy olamni sel qiladurni ham dilida, ham tilida takrorlar edi". [3] Ushbu parchadan ko'rinib turibdiki, Ibn Mug'anniy kuyning oshig'i, u kuy sehrini, kuyning sadosini shu qadar sevar ediki, bolaligidan kuyga mehr-muhabbatini qo'ygan edi. Uning ismi ham kuy sehri deganidir. Yozuvchi Xurshid Do'stmuhammad hikoya sarlavhasiga mos ravishda qahramonni, uning xarakterini, xarakteridagi o'xshatishlarni, badiiy tasvir vositalarini ham o'z maromida qo'lladi. Shuning bilan birga kitobxonlar orasida o'zining ijodiy izlanishlari tufayli o'z mavqeyiga ega bo'ldi.

Xurshid Do'stmuhammad ham hikoyalarda hayotdagi dolzarb muammolarni aks ettiradi. Adibning "Yolg'izim-siz" hikoyasida ushbu epigraf bejizga tanlanmagan "Ko'pgina rus yozuvchilariga Dostoevskiyning ayoli kabi umr yo'ldoshi nasib etganda edi, ular anchagina yaxshiroq yashagan bo'lur edilar" (L. Tolstoy).

Haqiqatan ham, asarda Annaning chiroyi, tarbiyasi, husn-u halovati boshqalar havas qiladigan darajada edi. Yozuvchi bejizga yigirma yoshli Annadek lo'bar, xushbichim, dilbar qizga ko'ngil qo'ymagan edi. Adib bu asarga "Yolg'izim-siz" deb nom berishi ham epigrafga mos. Yozuvchi Xurshid Do'stmuhammad rus adibi F. Dostoyevskiy shaxsiyatiga oid haqiqatlarni uning muhabbatga limmo-lim qalbi

tasviri orqali ochib berishga intiladi. Asar voqeligi orqali ayon bo'lishicha F.Dostayevskiy uchun Annadan boshqa kishi yo'q edi, hayotida shuning uchun ham, Anna u uchun yagona, yolg'izgina farishta misol ayol edi. Yozuvchi muhabbatni baxt deb bilar edi. Baxtli oila qurmoq uchun hurmatning o'zi kifoya emas, muhabbat bo'lishi shartligini aytib o'tadi. Asar sarlavhasi va epigrafning o'ziyoq hikoya mazmuniga o'quvchining qiziqishini oshira boshlaydi. Adibning qissalarini o'qigan kitobxon darrov uning mohiyatini anglamasada ammo anglashga sababchi bo'lgan unsurlarni topishi qiyinlik ham qilmaydi. Muallif ichki monologlardan foydalanib qissalaridagi qahramonlarning orzu – xayollarini real va konkret yoritib berishga intiladi va bu narsa asarlarining g'oyasini yanada chuqurlashuviga xizmat qiladi. Ma'lumki monologik nutqning ochiq nutq va ichki nutq kabi ko'rinishlari bor. Ochiq monologik nutqda qahramon o'z nutqini ovoz chiqarib bayon etadi. Ichki monologik nutqda esa monolog persanajning ichki o'ylari shaklida namoyon etiladi. Muallifning "Katta ko'cha" nomli qissasida ichki monologning namunasini uchratishimiz mumkin. Asar qahramoni Said Aliyevich o'zligini unutilib yuborayotgan qiyofalar sirasiga kiradi. Uning ichki ruhiyatida faqat amal kursini yo'qotmaslik edi. "S. Aliyevich boyaginda – katta ko'chaga ravona bo'lgach, xiyobondan o'tdi, dam mashina yo'lida, dam piyodalar yo'lkasida kela turib ko'nglining chekkasidan bir xayol kechdi; necha yildan buyon bitta xonada o'tiraverib zaxlab ketibdi, azbaroyi ko'chada qadam tashlab yurishni unutilib yuboribdi, ko'chani to'ldirib ketayotgan oddiy bandalar ichiga, orasiga singib ketishni eplolmayaptimi"[4] – deya fikrlar ichki ruhiyatiga tinchlik bermaydi. Biz tahlilga tortgan ushbu qissada muallif S. Aliyevichning qanday shaxs ekanligini uning jamiyatga, insonlarga, mansab, mol – mulkka bo'lgan munosabatini ta'sirchan ichki monologlar orqali yoritib bergan.

Bundan ko'rinadiki, har bir yozuvchining ichki monolog yaratishning o'zgacha usuli mahorati borligini kuzatishimiz mumkin. Muallif bunday shaxslarni, bunday voqealarni hayotiy ijtimoiy voqealardan saralab olgan. Ammo uning aynan nusxasi emas. Darhaqiqat, hayotda bundau insonlarni har qadamda uchratishimiz mumkin. Muallif S.Aliyevichdeklarni ko'zini ochish maqsadida ushbu qissani yaratgan. Unga na martaba, na umr sadoqat qildi, yordamchisi ham unga yordami ham oqibati ham qolmadi. Ammo bosh qahramon undan oqibat tilardi, kutardi. Amal kursidan tushgandan so'ng atrofga boshqalardek nazar tashladi. Butun umr piyoda yurib toliqmaydigan S. Aliyevichning umri endi ko'chada qolgan edi. Hayotda halol topish o'rniga insonlardan ta'magirlik yo'lini bilan muovin pulga mute bo'ldi. Muallif ushbu qissada voqealarni tasvirlar ekan, uning zimmasiga yuklatilgan g'oyani birinchi planga qo'yadi. Tasvirlash jarayonida makon va zamon ham inobatga olingan. Qissada g'oya har doim jamiyat kishilari tomonidan yuz berib kelinayotgan jarayon sifatida namoyon bo'lgan. Undagi, davrdagi fikriy va falsafiy mushohadalar teran tasvirlar yordamida yoritib berilgan.

**Xulosa.** Bizning xulosalarimiz shuni ko'rsatadiki, yozuvchi Xurshid Do'stmuhammadning istiqloq davri o'zbek hikoyachiligi va qissachiligi ravnaqida qo'shgan hissasi va istiqloq davri o'zbek adabiyotining yetakchi vakili ekanligi, adib hikoyalarining mavzular va g'oyalar ko'lami o'rganildi. Istiqloq sharofati bilan jamiyatimizdagi barcha soha vakillari o'z erkini qo'lga kiritdi. Shu jumladan Xurshid Do'stmuhammadov ham turli mavzularda ijod qildi: tarixiy, zamonaviy mavzularda, shuningdek chet el hayotiga oid voqealar haqida hikoya qiluvchi muammolar aks etgan hikoyalar shular jumlasidandir. Xurshid Do'stmuhammad yaratgan obrazlar avvalambor, mukammalligi ilmiy-nazariy talablarga har jihatdan mos kela olishi bilan namoyon bo'ladi. Adibning hikoyalaridagi Zohid Yaqin, Nuriddin, To'xtaboy, Mahzuna, Ibn Mug'anniy, Odil rassom, Mehmon, Jajman kabi xarakterlar namoyon qilindi, ularning o'ziga xos qirralari ochib berildi. Mana shu yaratilgan xarakterlarda shaxs fojiasi talqini ham ko'rsatib berildi. Shuningdek, adib hikoyalaridagi ramziy obrazlar ham kitobxonni o'ylantirishga, mushohadaga chorlaydi. Qolaversa, adib hikoyalari badiiy jihatdan mukammal va betakrorligi bilan ajralib turadi. Ularda ramz, metafora, mubolag'a va shuningdek, turli badiiy tasvir vositalarining har biri muhim poetik maqsad o'taydi.

Adibning ijodi adabiyotimizdagi mavjud an'anaviy tasvir usullaridan farqli, noan'anaviy shakli – tasviriy uslubda ya'ni voqea hodisa, jarayonlar silsilasini ramziy obrazlarda namoyon etadi. Uning qissalari falsafiy mushohadalar bilan boyitilgan ruhiy dunyosi keng ko'lamda yoritilgan obrazlar xarakterini olib kirdi. Insonning ichki dunyosi, uning psixologiyasi, ruhiyatidagi jamiyatdagi, qolaversa, ijtimoiy hayot bilan bog'liq muammolarni o'z asarlarida aks ettirdi. Bizning xulosalarimiz shuni ko'rsatadiki, yozuvchi Xurshid Do'stmuhammadning istiqloq davri o'zbek qissachiligi ravnaqida qo'shgan hissasi, uning bugungi nasrda tutgan o'rnini, zamonaviy qissachilikdagi sifat o'zgarishlar, uning ijodidagi roman, hikoya jumladan qissalarning ham mavzulari va g'oyalar ko'lami o'rganilgan. Qolaversa, adib hikoyalari badiiy jihatdan mukammal va betakrorligi bilan ajralib turadi. Ularda ramz, metafora, mubolag'a va shuningdek, turli badiiy tasvir vositalarining har biri muhim poetik maqsad o'taydi. Adib hikoyalarida yangicha uslubiy izlanishlarni ham kuzatish mumkin. Masalan uning "Mehmon" hikoyasidagi qahramonlar ramziy ma'noda qo'llanilgan. Hikoyada inson bosh miyasida kirib olgan o'rgimchak mehmon shaklida namoyon bo'ladi. Ijodkor



## LITERARY CRITICISM

---

hikoyalari hayotning ijtimoiy-falsafiy muammolarini qamrab oladi. Uning hikoyalarida turmushdagi fojialar, quvonch-u tashvishlar, shaxsning fojiasi va yoki yutuqlari, nafsibuzuqlik, sevgi-muhabbat, mehr-oqibat kabi insoniy munosabatlar, turli kasb va soha egalarining qiziqish va intilishlari, saboq va xulosalari keng qamrovda aks ettirilgan. Xurshid Do'stmuhammad ijodining o'ziga xosligi shundaki, uning asarlarida milliy nasrimizdagi mavjud an'analarni g'arb adabiyotidagi tasvir usullari bilan uyg'unlashganini kuzatishimiz mumkin. Adibning ijodi adabiyotimizdagi mavjud an'anaviy tasvir usullaridan farqli, noan'anaviy shakliy – tasviriy uslubda ya'ni voqea hodisa, jarayonlar silsilasini ramziy obrazlarda namoyon etadi. Uning qissalari falsafiy mushohadalar bilan boyitilgan ruhiy dunyosi keng ko'lamda yoritilgan obrazlar xarakterini olib kirdi. Insonning ichki dunyosi, uning psixologiyasi, ruhiyatidagi jamiyatdagi, qolaversa, ijtimoiy hayot bilan bog'liq muammolarni o'z asarlarida aks ettirdi.

### ADABIYOTLAR:

1. *Дўстмуҳаммад Х. Ҳовли этагидаги уй.* –Т.: Шарқ, 1989. -156-б.
2. *Дўстмуҳаммад Х. Жажман.* – Т.: Ўқитувчи, 1995. 210 б.
3. *Дўстмуҳаммад Х. Беозор қушининг қарғиши.* –Т.: Шарқ, 2006. -512 б.
4. *Дўстмуҳаммедов Ҳ. Қисса – Тошкент.: Янги аср авлоди 2021;*
5. *Қуронов Д. Мамажонов С. Шералиева М. Адабиётшунослик лугати* - Т.:Академнашр 2013.387 - 388 б.
6. *Дўстмуҳаммад Х. Ҳикояларда ҳаёт ва ҳаёл ҳақиқати // Шарқ юлдузи, 2011, 4-сон, 141-146-бетлар.*
7. *Раҳимжонов Н., Кўбаев Қ. Тарихий қиссалар ҳақиқат излайди.* – Тошкент: Адолат, 2005. – 190 б.

## NE'MAT AMINOVNING BUXORODAGI ADABIY FAOLIYATI (arxiv materiallari asosida)

*Axmatov Amonkeldi Hasanovich,*  
*Buxoro davlat universiteti*  
*Jahon tarixi kafedrasi dotsenti, PhD*  
*amonaxmatov@mail.ru*  
*Orcid 0000-0003-3556-6779*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Ne'mat Aminovning hayoti va ijodi, Buxoro adabiy muhitidagi o'rni o'rganilgan. Adibning Buxoroda radioqo'mitada, nashriyotda faoliyat yuritganligi va ko'plab asarlar yozganligi o'rganilgan. Yozuvchining dastlabki ko'plab she'rlari, hajviy hikoyalari, feletonlari ilk bora e'lon qilinadi. Shuningdek, Buxoro adabiy muhitining XX asr ikkinchi yarmidagi holati, adabiy jarayonlar, matbuot bilan aloqalar tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** Buxoro adabiy muhiti, Ne'mat Aminov, matbuot, she'riyat, feleton, hikoya, hajviya, Yozuvchilar uyushmasi, adabiy to'garak, radioqo'mita.

## ЛИТЕРАТУРНАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ НЕЪМАТА АМИНОВА В БУХАРЕ (на основе архивных материалов)

**Аннотация.** В данной статье рассматривается жизнь и творчество Неъмата Аминова, его место в литературной среде Бухары. Упоминается, что писатель работал в радиокомитете и издательстве Бухары и написал множество произведений. Многие ранние стихотворения, комические рассказы и фельетоны писателя публикуются впервые. Также проанализировано состояние литературной среды Бухары во второй половине XX века, литературные процессы, отношения с прессой.

**Ключевые слова:** литературная среда Бухары, Неъмат Аминов, пресса, поэзия, фельетон, повесть, юмор, Союз писателей, литературный кружок, радиокомитет.

## LITERARY ACTIVITY OF NE'MAT AMINOV IN BUKHARA (based on archival material)

**Abstract.** This article examines the life and work of Nemat Aminov, his place in the literary environment of Bukhara. It is mentioned that Adib worked in the radio committee and publishing house of Bukhara and wrote many works. Many of the writer's early poems, comic stories and feuilletons are published for the first time. The state of the literary environment of Bukhara in the second half of the 20th century, literary processes, and relations with the press are also analyzed.

**Keywords:** literary environment of Bukhara, Nemat Aminov, press, poetry, feuilleton, story, humor, Writers' Union, literary circle, radio committee.

**Kirish.** Nasrda mohir hajvda betakror adib, Buxoro adabiy muhitining iste'dodli vakili Ne'mat Aminov 1937-yil 17-iyulda Buxoro viloyatining Romitan tumanida, Pitmon qishlog'ida temirchi Amin bobo oilasida tavallud topgan. O'rta maktabda o'qib yurgan kezarida ijodni boshlagan bo'lajak yozuvchi Fayzulla Xo'jayev nomidagi Buxoro pedagogika institutining tarix-filologiya fakultetiga 1954-yilda qabul qilingan va oliygohni 1959-yil tamomlagan. Ne'mat Aminov mehnat faoliyatini Buxoro viloyati radioeshittirish qo'mitasida muxbirlikdan boshlagan. Avvaliga respublika jurnallaridan ko'plab maktublar va takliflar olgan adib, 1973-yilda Toshkent shahridan – "Mushtum" jurnaliga ishga kelish taklifini qabu qiladi. Shundan keyingi faoliyati poytaxt Toshkent bilan bog'langan adib 1985-yilgacha shu jurnalda mas'ul kotib bo'lib ishlaydi. 1989-yilda Yozuvchilar uyushmasiga taalluqli "Sharq yulduzi" jurnalida bosh muharrir o'rinbosari vazifasini bajaradi, so'ng "Mushtum" jurnaliga boshchilik qiladi, respublika "Ma'naviyat va ma'rifat" jamoatchilik markazini boshqaradi. Qayerda ishlamasin atrofida quvnoq va ahil davra hosil qilgan adib umrining oxiriga qadar ijod qilishdan to'xtamagan.

**Tadqiqot obyekti va qo'llanilgan metodlar.** XX asr ikkinchi yarmidan boshlab, Buxoro adabiy muhiti yangi kuchlar bilan to'lishi jarayoni keng quloch yoyganini ta'kidlash joiz. 1960-yillar boshida

Buxoro bo'limi 70 nafardan ortiq yosh havaskor ijodkorlarni atrofiga jamlagan bir vaqtda [14,83], ularning respublika Yozuvchilar uyushmasiga qabul qilinishi qiyinchilik bilan kechadi. 1957- yilda Toshpo'lat Hamid O'zbekiston SSR Yozuvchilar uyushmasiga a'zo qilinmaguncha Buxorodan birorta vakil yo'q edi. Shundan keyin birin-ketinlik bilan buxorolik ijodkorlar uyushma a'ziligiga qabul qilina boshlanadi. Muso Toshmuhammad o'g'li Oybekning tavsiyasi bilan 1968-yili Sharif Nurxon O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'ziligiga qabul qilindi [13,144-145].

O'zbek nasrida benazir adib Ne'mat Aminov dastlabki ijodiy faoliyatini ota yurti Buxoroda boshlagan. Matbuotda "Yosh leninchi" (shtatsiz muxbir), "Buxoro haqiqati" gazetalarda, viloyat radioqo'mitasida muxbir lavozimlarida ishlagan kezlari e'lon qilingan ko'plab hikoya, ocherk, feleton, intermedialari muxlislarda katta qiziqish uyg'otgan. Yozuvchining dastlabki yillarda yozgan ijod namunalarini yillar ketma-ketligida taqdim qilishga qaror qilindi:

1957-1963-yillarda "Xo'p deng endi shimni yechay" (hikoya), "Nurnoma xat", "Sarataroshning sevgisi", "Shifokor targ'ibotchi", "Tarbiya", "Tashkilotchi" singari hikoyalari saqlanib qolgan[8,13-24].

1964-yildan keyingi davrlarda "Boshsiz eshak" (hikoya), "Bir duoga o'n qarg'ish", "O'rdak tuxumi", "Jigarlar", "Ota" hikoyalari eshittiriladi [5,25-44]. "Jonim direktur" hikoya, viloyat radioqo'mitasida o'qib eshittirilgan. "Oyimning ro'moli" hikoya, "Nusratchaman" hikoya, "Ustoz" hikoya, "To'yda", "Isitma", "Kanalchilar" (Hamqishloqlar), "Bolajonning baxti", "Apollon" (Talabalar hayotidan), "Avlodlar", "Ekspeditor", "Rossiya Farhodlari", "Yaylov simfoniyasi" (do'mbira navosi), "Qalb kamalagi" hikoya, "She'rshunos" hikoya, "Tilshunos" (hajviya), "Ikki oyoqli sigirlar" (sut va yog'ni sotib olib kolxoz planini oshirgan govmishlar haqida), "Sarlavhamiz", "Ikki Buxoro" radio eshittirish Rizvon Safarova bilan o'qigan[10,55-127].

Bu vaqtda viloyat radioeshittirish qo'mitasi Buxoro shahar Traktornaya ko'chasi 15-uyda joylashgan bo'lib, adib aynan shu yerda faoliyat yuritgan. 1966-yildan "Ziyokorlar" radio ocherk, "O'ylar va yillar" (ocherk), "Navoiydan oltovlon" ocherk, "Brigadir bloknotining sirlari" (radioocherk)[4,1-24] singari asarlari saqlanib qolgan.

1968-1969-yillarda "Boyliqdagi roman" (hajviya), Tabassum ruknida "O'rtoq Shokirovning ishlari" (hajviya), "O'z o'ziga xizmat" (satira yumor)[6,8-14]. 1969-yil "Savdo madaniyati uchun" (intermediya) 5 betlik hajviya (yoshlarning muomala madaniyati, savdo hayoti, kulgu ostiga olingan 1965-yil yozilgan)[11,7]. "Gazla Gazim" 10 betlik she'riy ertak. O'tinchi chol va nabirasi suhbatida asosida qishloqlarga gaz yetib kelishi haqida. "Shahri haybar ishlari" eshittirish, "Non hidi ufurgan dalalar", "Instruktur"[3,1-11].

1962-archiv materiallaridan ma'lum bo'lishicha Ne'mat Aminov targ'ibot ishlarida faol bo'lganini kuzatamiz. Hududlarga chiqar ekan "Jonajon qishloq", "Vatan" she'rlarini bitadi. Lavhalar tayyorlaydi.

*She'r: 1-ish, 9-varaq:*

Ko'rinar qo'rg'ondan jonajon qishloq  
Oq uylar naqadar suluv oynaband  
Shulalar ichida shunchalar porloq  
Kolxozning hayoti yurakka payvand

*She'r: 1-ish, 11-varaq:*

Bu vatan bog'lari ichra  
Qarimaysan ming yil yashasang  
Umr aziz oltin asrimiz  
Arzir bunda o'ynasang kulsang. 1962 yil 16 dekabr [12,9-11].

Ne'mat Aminov o'zbek tili adabiyotini yaxshi o'zlashtirib to'garaklarda faol qatnashganligi haqida ma'lumotnoma berilgan. Ushbu ma'lumotnoma asl holatda Buxoro viloyat davlat arxivida saqlanmoqda[2,50]. Shu yillari adibga "Saodat", "Mushtum" jurnallaridan ijobiy maktublar, yang asarlar so'rab takliflar keladi[9,4] (ilovaga qarang).

Ne'mat Aminovning adabiy faoliyatini o'rganish asnosida tarix va etnografiya bilimdoni ekanligi guvohi bo'ldik. Ayniqsa, uning qaysiki qishloqqa borsa o'sha hudud tarixi, urf-odati etimologiyasi, toponimikasini o'rganib so'ngra lavhalar tayyorlashi boshqa hamkasblariga nisbatan materiallari tez-tez chop etilishiga sababchi bo'lar edi. Asosan, nasrda tanilgan bo'lsa-da, nazmda ham chiroyli she'rlar bita olgan.

*She'r 1-ish, 15-varaq:*

Sokin kecha, yaproq tebratardi yel,  
Surmarang osmonda yulduzlar yonar.  
Tug'ulgan qishloqqa bog'lagandim bel,  
Yaqinlashgan sari ko'nglim quvonar.

Ko'zga tashlanadi, yangicha olam,  
Yulduzi charaqlar, hisobsiz sonsiz.  
Endigi yulduzlar oldida endi,  
Osmon yulduzlari majolsiz jonsiz.  
Yangicha olamdir mening kolxozim,  
Undagi har chirog' elim yulduzi.  
Abadiy nur sochar GOELRO doim,  
Kechani yoritar go'yo kunduzi...

Zavod va fabrikalar hayotini yoritgan adib ko'plab lavhalar radio ocherklar tayyorlaydi. Zavod ishchilarining madaniy hordiqalari uchun tashkiliy ishlarda faol qatnashadi. Qishloq ayoli haqidagi lavhalarida xotin-qizlarning zahmatkash mehnati, sharaflil hayoti ulug'lanadi. Onaning farzandga muhabbati qisqa va sodda satrlarda ochib beriladi. "Instruktor" lavha, "Mehribonlik", "Yo'lda", "Hali yangimiz", "Chiroqlar". Lavhalarida qishloq hayoti sodda va ravon tarzida o'zgacha samimiylik bilan tasvirlangan[7,11].

**Natijalar va ularning tahlili.** Ne'mat Aminovning feletonlari hajviy tarzida bo'lsa-da ko'plab, qonunbuzarlarning ta'zirini bergani rost. Yuqorida nomi keltirilgan "Ikki oyoqli sigirlar" hajvijasini olaylik: Ikki oyoqli sigir ham bo'ladimi? Adib bunga asosni Rometan tuman Engels kolxozidan topadi. Kolxoz raisi Obid Kenjayev, bosh hisobchi Shokir Sharipov, chorvachilik bo'yicha hisobchi Axtam Ergashev, ferma mudir Chori Ochilovlar (muallif bu o'rinda hatto kishilar ismini ham asl holida qoldirishni ma'qul topgan) idoraga yig'ilib, sut va yog' rejasini qanday topshirish haqida bosh qotiradilar. Shu yig'ilishdan keyin ular har safar tuman yig'ilishlarida oldingi safda turar, maqtoqlar olar edi. Bunga sabab esa ishchilarning 1966-yilga maoshidan 1490 so'm saqlab qolib boshqa kolxozlardan sut va yog' sotib olib rejani ortig'i bilan bajarib kelganliklarida. Bu odat boshqa jamoa xo'jaliklariga ham o'tib, tarqala boshlaydi. Feleton mazmunini sotsializm g'oyalaridan kelib chiqib baholash kerak bo'ladi. Boisi, bunday tadbirkorlik kapitalistik mamlakatlarda odatiy hol bo'lsada, ishchilar sinfini qo'llovchi, tadbirkorlikni qoralovchi va shu bois iqtisodiy nochor sovet davlati uchun bu salbiy illat edi. Yozuvchi Ne'mat Aminov ham ushbu mafkura ta'sirida ulg'ayganligi bois zamon talabidan kelib chiqib asarlar yozgan.

Hajviy yozuvchi, o'zbek adabiyotida nasr yo'nalishini o'z uslubi bilan bir pog'ona yuksaltirgan ijodkor Ne'mat Aminovga Buxoro viloyat radioqo'mitasida ishlab yurgan kezlarida respublikaaning mashur "Mushrum" jurnaliga xabarlar yozib turgan. Adibning maqolalari mushtumchilarga maqul bo'lganidan unga bir necha bora ijobiy maktublar qaytarganlar. Shunday maktublardan biri 1966- yil 21- yanvarda kelgan. Buxoro viloyat davlat arxivida saqlanayotgan ushbu hujjatni keyingi tadqiqotchilar manba sifatida foydalanishlari uchun asl holida keltirmoqdamiz.

*HURMATLI O'RTOQ N.Aminov*

*Sizdan "Mushtum"ning aktivi, shtatsiz muxbiri sifatida quyidagi temalar bo'yicha xabar, feleton va hajviyalar yuborib turishingizni so'raymiz.*

*Bo'lar ishni bo'ldirmay yurgan paysalkash, sansalorchi, ko'zboyamachilar, byurokratlar, kiyimi yangi-yu qiligi eski shaxslar, dangasa va'dabozlar, maishatbozlar, erkatoy tantiqlar, poraxo'r, yulg'ichlar va hokazolar... ; qishgi-bahorgi ishlarga, chorva qishloviga beg'amlarcha qarab kelgan tepsa tebranmaslar, sanoat, qurilish, transport, xalq maorifi, meditsina, savdo umumiy ovqatlanish sohalarida yuz berayotgan nuqsonlar to'g'risida.*


*Ko'rsatilgan temalar bo'yicha xohlagan janringizda yozib yuborishingiz mumkin. Agar u yoki bu boshqa masalalar yuzasidan maslahat, konsultatsiya zarur bo'lib qolsa, biz bilan telefon yoki xat orqali aloqa qilib tursangiz yaxshi bo'lardi.*

*Salom bilan,*

*"Mushtum" jurnalining feletonlar bo'limi mudiri: (Imzo) A.Muhiddinov*

*Jurnalning ommaviy ishlar va xatlar bo'limi mudiri: (Imzo) Z.Shokirov*

*21/1 – 1966 yil.*



**Xulosa.** Ne'mat Aminovning har bir hikoyasi real hayotdan olinar edi. Hikoyani o'qigan muxlislar go'yoki atroflarida bo'layotgan hodisalarni qayta ko'rgandek bo'lar va albatta, bundan zavq olar edilar. Adibning muxlislari respublika bo'ylab katta doirani egallay boshlaydi. Ko'plab muxlislariga ega bo'lgan yozuvchi doimiy ishlash va yuksalish uchun poytaxt Toshkent shahrini tanlaydi. Yuqorida keltirilgan asarlari esa Buxoroda yozilgan ilk mashqlari edi. Aynan ana shu ijodiy ishlari uni yuksaklikka chiqarishda poydevor bo'lgan, uning nomini nasrda muhrlovchi romanlar yozishida asos vazifasini o'tagan edi. Asosan nasrda ijod qilishini bilsak-da adibning Buxoroda yozgan ko'plab she'rlari ham arxiv tokchalarida saqlanib qolgan. Bu materiallarni o'rganish adabiyotshunoslar, tarixchi olimlar, adabiy muhit tadqiqotchilarining vazifasi sanaladi.


Arxiv materiallarini o'rganar ekanmiz 1967-yil 26-sentabrda adibga ijtimoiy-siyosiy, adabiy-badiiy jurnal bo'lmish "Saodat"dan maktub keladi. Xatda shunday deyilgan edi:

**Hurmatli O'rtoq N.Aminov!**

Jurnalimiz sahifasida yoritilgan lavhangiz qahramoni Xosiyatxon Rohatovanning singlisidan kelgan xatni Sizga yuboryapmiz. Uning minnatdorchiligini qabul qilib, salomini do'stlariga yetkazgaysiz.

Salom bilan,

Jurnalning xatlar bo'limi mudiri: (imzo) R Sayfiyeva.



## ADABIYOTLAR:

1. A.Axmatov. XX asr 50-70 yillarida Buxoro adabiy muhiti tarixi. Oriental renaissance: innovative, educational, natural and social sciences scientific journal. Volume 2, ISSUE 4 ISSN 2181-1784 Impact Factor:5.947 ASI Factor = 1.7. April 2022. –B.399-403.
2. Бухоро ВДА 1079-Фонд, 50-варақ.
3. Бухоро ВДА 1233-фонд, 1,5,11-варақлар.

## LITERARY CRITICISM

---

4. Бухоро ВДА 1233-фонд, 1-24-варақлар.
5. Бухоро ВДА 1233-фонд, 25-44-варақлар.
6. Бухоро ВДА 1233-фонд, 8,14-варақлар.
7. Бухоро ВДА 1233-фонд, 11-варақ.
8. Бухоро ВДА 1233-фонд, 13-24-варақлар.
9. Бухоро ВДА 1233-фонд, 4-ши.
10. Бухоро ВДА 1233-фонд, 55-127-варақлар.
11. Бухоро ВДА 1233-фонд, 7-ши.
12. Бухоро ВДА 1233-фонд, 9-11 варақ.
13. Саидносирова З. Ойбегим менинг. –Тошкент: Шарқ, 1994. –Б. 144-145.
14. Ўзбекистон миллий архиви, Р-2356-фонд, 405-ши.

## KO‘NGIL – TAXTI AMIRI

*Nurmatova Madina Fayzullo qizi,  
Buxoro davlat universiteti, Matnshunoslik va  
adabiy manbashunoslik yo‘nalishi magistranti*

**Annotatsiya:** Maqolada XIX asr Qo‘qon adabiy muhitida faoliyat olib borgan o‘zbek adabiyotining vakili shoir Amiriyning mazkur adabiy muhitga ta’siri o‘rganilgan. Muallif shoir ijodining o‘zbek adabiyotidagi o‘rni va ahamiyatini aniqlaydi, she‘rlarining yuksak badiiyati hamda keyingi davr o‘zbek adabiyoti taraqqiyotida muhim rol tutganini ta’kidlaydi.

**Kalit so‘zlar:** Qo‘qon adabiy muhiti, ijod, adabiy an‘analar, devon.

## СЕРДЦЕ – ТРОН АМИРИ

**Аннотация.** В статье рассматривается влияние на литературную среду поэта Амيري, представителя узбекской литературы, работавшего в Кокандской литературной среде XIX века. Автор определяет место и значение творчества поэта в узбекской литературе, подчёркивает высокую художественность его стихов и важную роль в развитии узбекской литературы следующего периода.

**Ключевые слова:** Кокандская литературная среда, творчество, литературные традиции, деван.

## HEART IS THE THRONE OF AMIRI

**Abstract.** Article is devoted to definition of a place and beaters of creativity known, representative of Uzbek literature of the XIX centuries Amiriy living and creating in due time in Kokand literary environment. The place and value of creativity of the poet in Uzbek literature are defined, great art skills and the importance of creativity of the poet, played a significant role for further development of Uzbek literature as a whole are especially emphasized.

**Keywords:** Kokan literary environment, creativity, literary traditions, devan.

**Kirish.** Qo‘qon adabiy muhitining yuzaga kelishi va taraqqiyoti shoh-shoir Amir Umarxon nomi bilan bog‘liq bo‘lib, u o‘z davrining yirik davlat arbobi va serqirra ijodkor edi. A.Qayumov bu davr haqida shunday yozadi: „..aynan Qo‘qon adabiy muhitida mintaqadagi boshqa rasmiy tillar – arab va fors-tojik tillari orasida o‘zbek tili yetakchilikni qo‘lga kiritdi. Bu yerda juda ko‘p o‘zbek shoirlari kamolga yetishib, ona tillari bo‘lgan o‘zbek tilida devon tuzgan shoirlar yetishib chiqdilariki, ularga haqli ravishda Amiriy va Nodira boshchilik qilishardi”[1, 9].

Ushbu davr adabiy muhitida amalga oshirilgan eng muhim ishlardan biri xalq og‘zaki ijodining beqiyos namunalarini o‘zlashtirish, jamlash borasida olib borilgan ishlardir. Bu jarayonda ikki tilda ijod qilgan, aruzni, muammo san‘atini mukammal egallagan Uvaysiy, Nodirabegim, Dilshodi Barno faol ishtirok etganlar.

Amiriyning o‘zi ham o‘zbek va tojik tillarida birday qalam tebratgan zullisonayn shoir sifatida serqirra faoliyat sohibi o‘laroq go‘zal baytlar bitgan. Xususan, mumtoz so‘z san‘ati tarixida alohida hodisa bo‘lgan Qo‘qon adabiy muhitining vujudga kelishi hamda rivoj topishida Amir Umarxonning xizmati katta bo‘lgan. Zero, XIX asrning 1-yarmida Qo‘qonda o‘ziga xos ilmiy-madaniy muhit vujudga kelgan – uning boshida turgan ma‘rifatparvar hukmdor Umarxon ilm, madaniyat, san‘at, adabiyot, turli kasb-hunarlarining rivojiga katta e‘tibor qaratgan, madrasalarda o‘qish-o‘qitish ishlarini yaxshilagan, turli hunar maktablari ochilishini qo‘llab-quvvatlagan.

**Asosiy qism.** XX asr boshlarida izchil ilmiy adabiyotshunoslikning asoschilari hisoblangan Fitrat, Vadud Mahmud kabi olimlar ham Amiriy merosiga yuksak she‘riyat namunasi sifatida qarashgan. Darhaqiqat, Vadud Mahmud Amiriy va Nodira davri adabiyotini chig‘atoy adabiyotining “Ikkinchi oltin asri” deb baholagan bo‘lsa, Fitrat “Umarxon zamonida adabiyot yangidan bosh ko‘tardi”, deydi.

Barchamizga ma‘lumki, Amiriyning topshirig‘i bilan Fazliy Namangoniy “Majmuayi shoiron” tazkirasini tuzdi. Ushbu tazkira mazkur muhit ijodkorlarining hayoti va ijod namunalarining bizgacha yetib kelishida va o‘rganilishida muhim manbadir. Shuningdek, o‘zbek mumtoz adabiyoti tarixidagi barcha ulkan

soʻz sanʼatkorlari – Uvaysiy, Nodira, Mahzuna, Anbar otin, Dilshodi Barno kabi isteʼdodli shoiralarning aynan Amiriy adabiy maktabidan yetishib chiqqanligi alohida eʼtiborga molik hodisadir. Negaki, ayol ijodkorlar ham oʻz asarlari orqali oʻzbek adabiy tilining ravnaqiga katta hissa qoʻshishgan.

Qoʻqonning soʻnggi xoni Xudoyorxon davrida ham Amiriyning ona tilini qoʻllab-quvvatlash ruhidagi anʼanalari davom ettirildi, jumladan, bu davrda saroy devonida oʻzbek tilida yozishmalar olib borilishiga erishildi. Qolaversa, uning davrida koʻplab masjid va madrasalardagi kitoblar isteʼdodli xattotlar tomonidan koʻchirilgan va maʼnaviy meros masalasiga alohida eʼtibor qaratilgan.

Umarxon Lutfiy, Jomiy, Navoiy, Fuzuliy, Bedil singari buyuk qalam sohiblarini oʻziga ustoz sanab, ularga ergashib ijod qilgan, gʻazallariga muxammaslar bogʻlagan. Aruzning turkiy adabiyotda mashhur, xalq ijodida ham keng tarqalgan yengil va oʻynoqi vaznlarida yozilgan bu sheʼrlarning barchasi ishq- muhabbat mavzuida. Ularda anʼanaviy motivlardan ustalik bilan foydalanilgan, shuningdek, gʻazallarida tasuvvufiy ruh ham ustunlik qilangan oʻrinlarni koʻrish mumkin. Oʻzbek va fors-tojik tilidagi sheʼrlarini toʻplab 1881-yil devon tartib berilgan. Devon gʻazal, muxammas, musaddas, tuyuq janrlaridagi oʻn ming misradan ortiq sheʼrni oʻz ichiga olgan.


Shoir koʻplab gʻazallarida oʻzini “ishq mulkining amiri”, “mulki dil amiri”, “koʻngil taxti amiri”, “junun shahri amiri” kabi sifatlar bilan tavsiflaydi.

Amiriy devonidan joy olgan lirik turga oid namunalar obraz va obrazlilik bilan yoʻgʻrilgan. Ularda insonning insonga, tabiatga, jamiyat va ilohiyotga munosabati aks etadi. Shoir ularda asrlar davomida shakllanib kelgan anʼanaviy obraz va badiiy tasvir vositalariga yangicha maʼno yuklaydi.

Shoir ijodi oʻzbek adabiyotida kam oʻrganilgan. Uning asarlari bilan tanishar ekannimiz, zamiridagi teran tafakkur koʻlami, falsafaga yoʻgʻrilgan hikmatlar olami, badiiy tasvir vositalarining serjiloligidan mazkur ijod sohibining naqadar kuchli qobiliyat egasi boʻlganligini his etamiz.

Qoʻqon adabiy muhitining rahnamosi boʻlgan Amiriy devoni tarkibidagi gʻazallar anʼanaga muvofiq, arab alifbosi tartibida joylashtirilgan. Boshqa janrlar ham devon tuzilishining asosiy tartiblariga rioya qilgan holda jamlangan. Devon maxsus nomlanmagan. Darhaqiqat, muallif tomonidan «debocha» yozilgan. Shoir sheʼrlarining yaratilish tarixi, mavzu qamrovi, timsollar mohiyatini toʻgʻri anglashda «debocha»ning ahamiyati beqiyos. Chunki unda shoirning ijodiy maqsadi borasidagi sharhlari oʻz ifodasini topgan.

Shu oʻrinda "Devoni Amir Umarxon" ning Buxoro Sanʼat muzeyida 27839/11 inventar raqami ostida saqlanayotgan nusxasi tarkibidagi gʻazallardan namuna keltirish joiz koʻrildi:



Dedi Yusuf koʻrub yoringni jononingga sallamno,  
Oni ishqinggʻa toqat aylagan joningga sallamno



G'azal ishqiyy mavzuda yozilganligi dastlabki misralardan oydinlashadi. Lirik qahramonning barcha his-tuyg'ulari ma'shuqaga qaratiladi. Aksariyat ijodkorlardan farqli ravishda Amiriy talmeh san'atidan matla'da foydalanadi. Zero, yorning go'zalligi Yusufning jamoli bilan tenglashtirilmogda.

Qoshing yoyi uza chin ko'rdi-yu: jon bo'ldi qurboni,  
Neki, anga yuz tilim qurboningga sallamno

Baytda mubolag'a san'ati vositasida ta'sirchanlikka erishilgan: yorning qoshi ustidagi sochi oshiqning jonini qurbon qilgani aytilmogda. Darhaqiqat, oshiqning dardi faqatgina bundan iborat emas, balki u o'z jonini qurbon qilishga ham tayyor.

Labingdin va'da qilding bo'sa, o'ldim xumorida

Agar chin deganing bu ersa, yolg'oningga sallamno?

G'azal dastlab ishqiyy mavzuda yozilgan bo'lsa ham, keyinchalik uning mavzu doirasi kengaya bordi. Ma'shuqa timsolida go'zal inson siymosi jilolansa-da, ijodkor bu obrazni turfa ranglarda yangicha sayqal toptirishga intiladi.

Jonon bog'iga kirsang, hur ila g'ilmon ko'rub aytur,

Ayki, nozing bila siyob zanaxdoningga sallamno

G'azalni ko'zdan kechirganda uning boshqa g'azallardan zohiran uncha katta farqqa ega emasligini ko'rish mumkin. Ammo botinan shoir muqoyasa usulini qo'llash orqali yor jamoli, uning malohatini o'ta serzavq baytlar mazmuniga singdiradi.

Na bilmam, gul yuzi shabnamdurur yo aqdi berundur,

Bino hushingdagi la'l-u duraxshoningga sallamno

Amiriy ma'shuqa jamolini tasvirlashda yangi, xalqona tashbehlarni qo'llaydiki, ular ma'shuqani real hayotga anchayin yaqinlashtiradi. Ularda beorom qalbning bani bashargagina xos talpinishlariga, olijanob ruhning betakror manzaralariga duch kelamiz.

Jafolar dilrabolardin ko'rub tark etmangiz, ey jon,

Jafosiz yorlarga ahdi bemoningga sallamno

Yuqoridagi bayt ham an'anaviy tasviriy vositalar zamiriga qurilgan. Shoir endi tazod san'atiga yuzlanadi. Baytda oshiq o'z joniga murojaat qilib, ma'shuqaning har turli jafolariga sabr qilishga chaqiradi.

Gulistoni nazokatsan, bahori husnda go'yo,

Jahon o'ldi muattar xati rayhoningga sallamno

Ma'shuqa jamoli ta'rifi qadimdan g'azal janrining asosiy xususiyati bo'lib kelgan. Darhaqiqat, g'azal istilohining o'zi ham arabchada ayolni madh etish, unga oshiqona munosabatda bo'lish ma'nosini bildiradi. Ushbu baytda muallif tanosub san'atining go'zal namunasini yaratib, yorni bahoriy gulistonga muqoyasa qiladi.

Xirom etgach labingni g'unchasi yuz noz ila kuldi,

Qading naxli bila gulbarg xandoningga sallamno

Mazkur g'azal boshdan oxir yorga murojaat ruhida yozilgan. Amiriy o'zining go'zal ma'shuqa tomon talpinishi hamda visoldan umidvorligini qator badiiy tasvir vositalari orqali juda ta'sirchan ifodalagan.

Bulutdurmu quyosh o'tasida ko'rgan nihon edim,

Banogo'shingda zulfi anbarafshoningga sallamno

Shoirning novatorligi shundaki, ma'shuqa jamolini tasvirlashda mutlaqo yangi tashbehlarni qo'llash orqali betakror so'z o'yinlarini yaratadi.

Seni ko'rgach mahalda ketdi hushim, qolmadi sabrim,

Budur gar subh vasling, shom hijroningga sallamno

Ushbu bayt g'azalning shohbayti sifatida ko'zga tashlanadi. Oshiq chekkan dard-sitamalar, uning unsiz faryodlari hamda oshiq va ma'shuqa o'rtasidagi murakkab munosabatlar yuzasidan oshiqning sabri tugab, hushini yo'qotadi.

Qoshing birla yuzung ko'rgach, Amir insof ila aytdi,

Neki aning bila xurshidi toboningga sallamno

Maqta'da bu fikrlar o'z yakunini topadi. Shuningdek, mumtoz adabiy an'anada bo'lgani kabi Amiriyning ijodida ham majoziy va haqiqiy ishq bir-birini to'ldiradi, biri ikkinchisiga vosita sifatida qaraladi. Shoir ishqni hayotning tub ma'nosi hisoblagan.

Devonda bu kabi tavsifiy g'azallar anchagina. Ular an'anaviy xarakterda bo'lsa ham, shoir mahoratini belgilovchi ahamiyatga egaligi jihatidan ajralib turadi.

Ayniqsa, ma'shuqa jabr-zulmidan oshiqning tong otguncha uyqusiz – bedor bo'lishi, oh-u nolalar chekishi kabi holatlar deyarli barcha shoirlarda uchraydi. Bunday holatlar tasviri serqirra: bir tomondan, vafoda sobit oshiqning tun-u kun yor xayoli bilan yashashi, ikkinchi tomondan, ma'shuqaning beparvo

holati. Uchinchi tomondan esa, inson ruhiyatidagi kurashlar, ularning kuchli va zaif tomonlari namoyon bo'ladi. Shoir bularni tushunarli tasvirlar orqali bayon etadi.

Jumladan, Amiriy g'azallarida ma'shuqaning suratini tasvirlashda mubolag'a usulidan keng foydalaniladi.

Shoir she'rlari, o'zi ta'kidlaganidek, asosan, oshiqona yo'nalishda. Timsollar markazida turuvchi ham oshiq timsoli. Shoir asarlarida ishq chuqur mohiyatga ega. U zohiriy va botiniy ma'noni o'zida mujassamlashtiradi. Agar biz faqat zohiriy ma'nolar haqida so'zlasak, shoirning badiiy maqsadidan uzoqlashamiz. Agar botiniy mohiyatni anglamasak, shoir asarlari jo'n irod namunalariga aylanib qoladi.

Amiriy she'riyatida nazarda tutgan barcha ishoralarni tushunish uchun asarlarining ma'nosi va timsollar mohiyatini to'liq anglash lozim. Bu o'rinda, Amiriy majoziy muhabbatni kuylaganmi yo haqiqiy ishqini degan savolning o'zi noo'rin. Chunki an'analar yo'lidan borgan shoir salafkari kabi insoniy komillik haqida so'zlamasligi mumkin emas.

Demak, shoir sanamlar husni va yoki atrofidagi har bir tabiiy go'zallikni o'xshashi yo'q mahbuba jamolining – Ollohning «jilvayi mazhari», ya'ni tajallisi degan tasavvurda.

**Xulosa** qilib shuni aytish mumkinki, Qo'qon adabiy muhiti shoh va shoir Amir Umarxon zamonida gullab- yashnagan. Zero, ushbu ma'rifiy muhitning rivoji uchun shoir barcha imkoniyatlarni hozirladi, bir-biridan ta'sirchan g'azallar yozish bilan atrofidagi qalam sohiblarini ilhomlantirdi. Amiriy olib borgan islohotlar natijasida bugungi kunda kutubxonalar, muzeylardagi eng nodir asarlar xattotlar-u kotiblar tomonidan ko'chirilgan. Devoni tarkibidagi g'azallardan bahramand bo'lar ekanmiz, shoir ijodining nafaqat Qo'qon adabiy muhitida, balki o'zidan keyingi davr o'zbek adabiyoti taraqqiyotida ham muhim ahamiyat kasb etayotganining guvohi bo'lamiz.

### ADABIYOTLAR:

1. Abdurauf Fitrat. *Tanlangan asarlar. II jild (Ilmiy asarlar).* - Toshkent: Ma'naviyat, 2000
2. Amiriy. *Devon. -T: Tamaddun (nashrga tayyorlovchilar: Qobilova Z., Davlatov O., Madaminov A., Ergashov O.).* 2017.
3. Amonova Z., To'rayeva M. *Alisher Navoiy she'riyatida inson tana a'zolarining qo'llanilishi //Konferensiyalar/ Conferences. – 2024. – T. 1. – №. 5. – C. 79-83.*
4. Amonova Z. Q., Nafetdinova Z. S. *“Hayrat ul abror” dostonida ko'ngil talqini //Academic research in educational sciences. – 2023. – T. 4. – №. Conference Proceedings 1. – C. 129-133.*
5. Amonova Z. *Husayniyning badiiy mahorati //центр научных публикаций (buxdu. uz). – 2022. – T. 16. – №. 16.*
6. Muqimiy. *To'la asarlar to'plami. Tuzuvchi: Turdaliyev A.* -Toshkent: Iqtisodiyot, 2021.
7. Nodira. *Devon. -Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi NMIU, 1968*
8. Qayumov A. *Amiriy – Qo'qon adabiy muhitining asoschisi// “Amiriy va Qo'qon adabiy muhiti” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani mateerallari. -Toshkent: Tamaddun, 2017*
9. Qobilova Z. va boshqalar. *Qo'qon adabiy muhiti ijodkorlari antologiyasi. -Toshkent: Tamaddun, 2022.*
10. <https://uz.denometr.com>
11. <https://tafakkur.net>
12. <https://saviya.uz>
13. <https://ma'naviyat.net>

**JURNALISTIKADA UNIVERSALLASHUV VA IXTISOSLASHUV MASALALARI**

*Xamroyeva Shaxrizoda Shavkat qizi,  
Buxoro davlat universiteti  
Jurnalistika ta'lim yo'nalishi talabasi  
shaxrizodaxamroyeva@gmail.com*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada jurnalistikada universallashuv va ixtisoslashuv masalalari, ularning tarixi, o'ziga xosliklari haqida so'z yuritiladi. Shuningdek, jurnalistika kasbini tanlagan ijodkor uchun qay birini tanlagan ma'qulligi borasida fikrlar beriladi. Maqolada ijtimoiy tarmoqlarda faoliyat yuritayotgan shaxsiy kanallar va bloglarda universallashuv yoki ixtisoslashuv tendensiyalari qay darajada ketayotgani ham tahlilga tortiladi.

**Kalit so'zlar:** jurnalistika, universallashuv, ixtisoslashuv, professional jurnalistikasi, konvergensiya, jurnalistik ta'lim, mahorat maktabi.

**ВОПРОСЫ УНИВЕРСАЛИЗАЦИИ И СПЕЦИАЛИЗАЦИИ В ЖУРНАЛИСТИКЕ**

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются вопросы универсализации и специализации в журналистике, их история и особенности. Также даются мнения о том, какой из них выбрать деятелю, выбравшему профессию журналиста. Также в статье анализируются тенденции универсализации или специализации личных каналов и блогов, работающих в социальных сетях.

**Ключевые слова:** журналистика, универсализация, специализация, профессиональная журналистика, конвергенция, журналистское образование, профессиональная школа.

**ISSUES OF UNIVERSALIZATION AND SPECIALIZATION IN JOURNALISM**

**Abstract.** This article discusses the issues of universalisation and specialisation in journalism, their history and peculiarities. Opinions are also given on which one to choose for a figure who has chosen the profession of journalism. The article also analyses the trends of universalisation or specialisation of personal channels and blogs operating in social networks.

**Key words:** journalism, universalization, specialization, professional journalism, convergence, journalistic education, professional school.

**Kirish.** Jurnalistika, o'zi yoritadigan dunyo kabi, rang-barangdir. Yangiliklarni yoritadigan jurnalistlar shov-shuvli materiallar tayyorlaydigan, taniqli shaxslar haqida yozadigan yoki haftalik jurnallarda ishlaydigan jurnalistlardan boshqacha ishlaydilar. Amerikalik muhbirning ishi ko'pincha britaniyalik jurnalistning amaliyotidan juda farq qiladi va ikkalasi ham Evropa mamlakatlaridagi media hamkasblariga qaraganda butunlay boshqacha yozishadi. Boshqa qit'alar va mintaqalarning uslublari bundan ham ko'proq farq qilishi mumkin.

Jurnalistika xuddi tibbiyotga o'xshaydi: meditsina bir qancha tarmoqlarga bo'lingani kabi jurnalistikaning ham ixtisosligi ko'p. Jamiyatdagi qay bir sohani olmag, bariga OAV kirib borgan. Bevosita jurnalistlar bilan ham aloqalar mustahkam o'rnatib borilgan.

Jurnalistika – ijtimoiy hayot, real voqelikni har jihatdan xolis yoritadigan, inson turmushining ko'p qirrali tomonlari haqida tasavvur beradigan, ularning shaxsiy bo'lmagan muloqotlarining o'ziga xos shakllarini ko'rsatib bera oladigan, fikrlashga undaydigan, asosiy kasbga amaliy tajribalar tufayli erishiladigan inson ijodiy faoliyatining bir turi. Jurnalistikaning har tomonlama rivojlanishsiz insoniyat tamadduni va jamiyat rivojlanishini tasavvur etish qiyin.

Mashhur jurnalist Lugars o'z nutqida jurnalistik faoliyat bilan bog'liq teran mulohazalarni bildirgan: «Jurnalist va muxbirlarning aksariyati texnik til, raqamlar bilan gapirishni ma'qul ko'rishadi. Sharhingiz qancha sodda, lo'nda bo'lsa, jamoatchilik uni bemalol tushunadi. Jonli va tushunarli til keng aholi diqqatini tortib uning qalbiga yo'l olishning asosidir. Aholining shaharga talpinishining boisi — u yerda yashash uchun sharoitlar yo'qligidir. Suv bormagan joy sahroga aylanishini tushuntirishda tahliliy jurnalistikaning o'rni katta. Andalusiyada manufaktura qanday ish tutgani borasida biron narsa deya olmayman, lekin kooperativlar ochib ular faoliyatini keng yo'lga qo'yish kerak. Tez va uzoq muddatli investitsiya ham mamlakat taraqqiyotiga xizmat qilishi, suvning saflanishi va taqsimoti masalasi jurnalistik nazardan chetda

turishi aslo mumkin emas. Mavzuni yaxshi bilish, davlat iqtisodiyotining rivojlanish darajasini chuqur o'rganish ham jurnalistik faoliyatning asoslaridandir. Jurnalist beradigan axborot odamlarga bilim berishi, ularni yo'naltirishi va atrofdagi masalalarga yechim qidirib, muammolarni bartaraf etish uchun chora ko'rishga undashi lozim. Har qanday yangilik, xushxabarmi yo shumxabar, tomoshabinni loqaydlikdan ogohlik tomon yetaklashi zarur. Bir necha yillar o'tsa ham jurnalistikaning bu asosiy qoidalari va vazifalari o'zgarmaydi. Demak, bo'lg'usi jurnalist ham aynan shu an'analarga rioya qilgan holda o'zining yo'lini: universallik yoki ixtisoslashuvni tanlashlari mumkin [1, 25].

**Adabiyotlar tahlili va metodologiya.** Jeremi Tunstall jurnalistikani "kasblar chorrahasidagi kasb" deb ta'riflaydi va u "jurnalist" so'zini turli xil faoliyat yo'nalishlari bilan shug'ullanuvchi kishilarga beriladigan ta'rif bilan bog'laydi [2, 28]. Shu sabab, jurnalistika o'z tarkibida noshirlik, muharrirlik, yozuvchilik, tashkilotchilik, operatorlik kabi kasblarni mujassam etgan. Jurnalist o'zining murakkab faoliyati davomida o'z yo'lini tanlab olishi ya'ni ixtisoslashuv yo'lidan boradimi yoki universallashuv yo'lidan, auditoriya undan nimani talab qiladi-yu, o'zi nimalarga qodir, avvalo, shularni aniqlab olishi lozim.

Bugungi shiddatli zamonda hamma soha ham tezkorlikni talab etyapti. Ayniqsa, axborot asrida bitta yangilik bir necha soniyalar ichida butun dunyoga tarqalishi muammo emas. Bir vaqtning o'zida yangiliklar yoza oladigan, intervyu olib, uni montaj qila oladigan, matnlarni chop etib yoki efirga uzata oladigan jurnalistlarni yetishtirish hozirgi kunda juda muhim vazifa sanaladi. Bu fanda "konvergensiya" (lotincha so'z bo'lib, "converge" – "yaqinlashtiraman") deb ataladi. Media sohasidagi konvergensiya, ya'ni turli axborot-kommunikatsiya yo'nalishlarining bir-biriga yaqinlashishi: jurnalistika, piar, marketing, reklama, noshirlik kabi sohalarga xos sanaladi [3, 2].

Zamonaviy, o'z sohasidan yaxshigina xabardor jurnalist birgina smartfoni yordamida voqea joyidan ham vizual lavha tayyorlab, uni ijtimoiy tarmoqlarga joylay olishi yoki intervyu olib, tahririyatga chop etish uchun jo'natishi mumkin.

Bu jarayonda jurnalist bir vaqtning o'zida bir necha yumushni ado etib, ham muxbirlik, ham operatorlik, ham muharrirlik ishini birda uddalayapti. Bunday jurnalistni universallashgan ijodkor deya olamiz.

2019- 2020- yillarda butun dunyo bo'yicha koronavirus epidemiyasi avj oldi.

Pandemiya davrida aksariyat insonlar uyda qolishga chaqirildi va ko'pchilikning masofadan turib ishlashiga to'g'ri keldi. Ammo OAV xodimlari jarayondan keng jamoatchilikni xabardor qilish maqsadida Covid markazlarigacha qo'rqmay kirib borishdi. Deylik shunday vaziyatlarda bir necha emas, birgina jurnalistning o'zi bir qancha vazifalarni ado etdi: intervyu oldi, materialni yig'di, kezi kelsa o'zi suratga olib, videoga ham tushirdi. Covid markazlari bilan bog'lanib, ulardan so'nggi statistikani olish, voqea joyiga borib, u yerdan jonli reportajlar tayyorlash birgina ijodkor chekiga tushdi; tasvirni montaj qilish, operatorlik, muharrirlik – mazkur jarayonda dunyo ahli universallikning afzallik tomonlarini ko'rdi.

Ixtisoslik esa bu professionalizmdir. Sotsiologiya fanining otalari Tamber va Prentuis, Veber, Dyurkgeym singari olimlar yo'nalishi va asosiy roliga qarab ixtisosliklarni o'zaro ajratib chiqishgan. Jurnalistikada ixtisoslikni ajratib olish qiyin masala. Chunki zamon o'zgargani sayin jurnalistikaga talab ham o'zgarimoqda va o'z-o'zidan shakl ham shunga moslashib boryapti. Kundan kun yangi sohalar, yangi yo'nalishlar jurnalistga o'z ixtisosligidan tashqari qo'shimcha mazkur uslublarni ham o'rganishni talab etmoqda.

Jurnalistikada professional yondashuvlarni qo'llashning turli xil usullari mavjud – urush jinoyatlarini qanday yoritish, qurbonlar va jarohatlar haqida qanday so'zlab berish, "ommaviy jurnalistika" bilan qanday shug'ullanish yoki "mas'uliyatli reportaj" ni qanday tayyorlash kerak – bu ayniqsa murakkab va ba'zan munozarali mavzudir, unda mojaroni qanday yoritish kerakligi va mojaroning oqibatlarini kelajakka qanday ta'sir qilishi haqida o'ylashga majbur qiladi. Ushbu mavzularning ba'zilari keyinchalik ushbu qo'llanmada muhokama qilinadi.

Ammo bularning barchasida va ommaviy axborot vositalarining jamiyat rivojiga va demokratiya rivojiga qo'shgan hissasi asosida voqealarni faktlarga asoslangan xolda yoritilishi yotadi. Mas'uliyatli jamoatchilik muhokamasini ta'minlash uchun ishonchli ma'lumotlarni taqdim etish, mansabdor shaxslarning jamoatchilik oldida javobgarligi darajasini oshirish va elektoratni xabardor qilish – bular demokratik jamiyatdagi ommaviy axborot vositalarining asosiy vazifalaridir.

Tarixga nazar solsak, jurnalistikada ixtisoslashuv masalasi ilk marotaba Amerika Qo'shma Shtatlarida ko'tarilgan. Sababi dastlabki jurnalistika maktablari ham birinchi bor AQSHda ochilgan. Jurnalistikada ixtisoslashuv masalasini birinchilardan bo'lib izohlagan olimlar Xalling va Manchinilarning fikriga ko'ra "Jurnalistika sof tijorat va siyosat omillaridan xolis. Bundan tashqari, jurnalistika an'anaviy sohalar, jumladan, qonunshunoslik, tibbiyot, arxitektura, muhandislik kabi aniq fanlardan farq qiladi". Xalling va

Manchini jurnalistik faoliyatning asosiy uslublari sifatida quyidagilarga e'tibor qaratishgan: mustaqil faoliyat yuritish, aniq kasb normalari hamda jamoatchilikka xizmat qilish [4].

Voqelikni kuzatish va baholash ob'yektni to'g'ri tushunish, sharhlashdan boshlanadi. Shunday ekan, kim, nima, qachon, qayerda savollariga javob topish xabar va ma'lumotning mohiyatini ifoda etsa, nega, nima sababdan, nima maqsadda degan savollarga javob izlash esa voqelikdagi narsa va hodisalar orasidagi umumiy aloqadorlik va bog'lanish qonuniyatlarini tahliliy nazardan o'tkazishdir.

Yevropa mamlakatlariga nazar soladigan bo'lsak, xususan, Ispaniyada sohaviy jurnalistika, boshqacha aytganda, ixtisoslashuv jurnalistikasining mavjudligi kishini hayratlantirmasdan qolmaydi. Bizda O'zbekiston jurnalistlari ijodiy uyushmasi borligini bilamiz. Ular ham o'z faoliyatini olib borishda Ispaniya ommaviy-axborot vositalari bilan hamkorlik yo'sinida, tajriba almashish ma'nosida amalga oshiradi. Muayyan tizim yoxud sohaga ixtisoslashgan jurnalistikaning mohiyati mamlakatning taraqqiyotiga xizmat qilishi muqarrar.

**Natijalar va muhokama.** Vaqt o'tishi bilan jamiyat ham, jurnalist va OAVga bo'lgan ehtiyoj ham o'zgardi. Ko'pgina sohalarida bugun universallikdan ko'ra o'z sohasining ustasi bo'lishga e'tibor qaratilmoqda. Boisi inson ham jismonan, ham ruhan bir paytning o'zida bir necha soha yoki unga doir bilimlarni puxta egallashga qodir emas. Bugun dunyo bo'ylab rivojlanayotgan internet jurnalistikasining turli yo'nalishlarida, fuqarolik jurnalistikasi va bloglar tashkil etishda universallik qo'l kelishi aniq. Chunki tijoriy maqsadda o'zining shaxsiy veb-sayti yoki blogini ochishni istagan ijodkor dastavval yozishni ham, tasvirga olish-u montajni ham o'zi eplashiga to'g'ri keladi. Ammo professional jurnalistika sohalar bo'yicha ixtisoslashuvni talab etadi. Masalan, siyosiy va huquq sohalarining qamrovi keng yoki iqtisodiyot-u tibbiyotni olaylik: undagi sohaviy terminlarni tushunib, mohiyatiga yetmoqning o'zi mushkul. Buning uchun jurnalist yillar davomida shu sohalaridagi bilimlarni egallashiga, har qanday atamalarning izohini bilishiga to'g'ri keladi.

Jurnalistik ta'limda ixtisoslashuv bo'yicha jahon tajribasida quyidagi yo'nalishlarda mutaxassislar tayyorlanadi: gazeta jurnalistikasi, televideniye jurnalistika, radiojurnalistika, xalqora jurnalistika, internet-jurnalistika, fotojurnalistika, reklama, pablik rileyshenz, OAV iqtisodiyoti va menejmenti, tahrir-nashriyot ishi, ommaviy axborot vositalari va kommunikatsiya dizayni, vizual kommunikatsiya (infografika), adabiy-badiiy tanqid (badiiy madaniyat), parlament jurnalistikasi, sport jurnalistikasi.

Birgina ixtisoslashgan bosma ommaviy axborot vositalarini oladigan bo'lsak: bugun ko'pgina sohalarida ixtisoslikka ega jurnallar nashrdan chiqmoqda. Hozirgi ko'rinishdagi jurnallar XVII asrda risolalar va almanaxlar shaklida paydo bo'lgan. Jurnalchilik tarixi bevosita Fransiya davlati bilan bog'liq. "Journal des savants" ("Olimlar jurnali") deb nomlangan jurnalning birinchi soni 1965-yil 5-yanvarda Parijda 12-sahifadan iborat broshyura ko'rinishidagi chop etiladi. Nashrda ilm-fanning turli sohalarini (anatomiya, meteorologiya, mexanika) kashfiyotlar va ixtirolar, mashhur kishilarning o'y-fikrlari, farazlariga oid ilmiy maqolalari bosilgan. Shuningdek, jurnal sonlarida adabiyot, falsafa, tabiiy fanlar sohasi bo'yicha Yevropaning turli nuqtalarida bosilgan kitoblar haqida ma'lumotlar ham berib borilgan. Buning natijasida qisqa muddat ichida boshqa mamlakatlarda ham jurnalga bo'lgan qiziqish uyg'onadi. Mazkur jurnal andozasida chet ellarda ilmiy jurnallar paydo bo'la boshlaydi. Xususan, o'sha yilning o'zida Londonda "Filosofikal tranzekshne of royyal sosyate" ("Qirollik jamiyatidagi falsafiy o'zgarishlar") nomli ilmiy jurnal nashr etiladi. Ushbu jurnal ham Fransiyada chop etilayotgan jurnal singari kitoblarga sharhlar bergan. Keyinchalik Italiya, Germaniya, Ispaniya, AQSH, Vengriya, Rossiya singari davlatlarga ham jurnallar kirib boradi. XVII asrda Germaniyada, asosan Mayn daryosi bo'yidagi Frankfurtda jurnallar nashr etila boshlagan. "Akta publika"(1621), "Teatrum ayropem"(1634-1635), "Diarium ayropeum" (1659-1681) kabi jurnallar hozirgi tarixiy-siyosiy jurnallar ajdodlari edi.

Fuqarolik jamiyati o'z sohasi, kasbidan kelib chiqqan holda jurnalni tanlaydi. Agar aralash sohadagi xabar va ma'lumotlardan iborat nashr bo'ladigan bo'lsa, birgina informatsiyaga ega bo'lish uchun siz 1 ta nashrni sotib olasiz-u, boshqa sahifalardagi ma'lumotlar siz uchun umuman qiziq emas. Tabiiyki, siz sohangizning boshqa yangiligidan xabardor bo'lish uchun yana boshqa yangi jurnal soni nashrdan chiqishini kutishingiz, yana xarajat qilib uni sotib olishingiz kerak. Ixtisoslashiv endi ayni shu o'rinda juda qo'l keladi. Sohaga doir nashrdagi barcha maqolalar sizga birdek kerak va imkon bo'lsa barchasini o'qib chiqasiz.

Ammo O'zbekiston jurnalistik ta'lim jarayonida bu anchayin umumiy, jahon andazasiga qaraganda kichik sohalariga ixtisoslashmagan. O'zbekiston

Respublikasi Prezidentining 2018-yil 24-mayidagi qarorga ko'ra, O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti ochildi.[5]

2018-2019-o'quv yilidan qabul boshlandi. Shu vaqtga qadar yurtimizda jurnalist kadrlarni tayyorlab kelgan O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti va O'zbekiston Milliy universitetida jurnalistika bo'yicha qabul to'xtatilgandi.

O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universitetida bakalavr bosqichi bo'yicha Xalqaro jurnalistika, Internet jurnalistika, Teleradiojurnalistika, Bosma va ommaviy axborot vositalari jurnalistikasi, Sport jurnalistikasi, Harbiy jurnalistika yo'nalishlari mavjud. Universitet hozirda yo'nalishlar bo'yicha faqatgina jurnalistlarni tayyorlab qolmay, mediadizayner, mediamarketolog, PR menejerlar hamda axborot xizmatlari uchun ham kadrlar tayyorlamoqda.

Bundan tashqari, respublika yetakchi tahririyatlari qoshida tashkil etilgan mahorat maktablarida talabalar sohalarga ixtisoslashish imkoniga egalar.

Masalan, "Ma'rifat" tahririyatida tashkil etilgan mahorat maktabida bo'lg'usi jurnalistlar ta'lim sohasiga doir ijodiy materiallar yozish ko'nikmasiga ega bo'lsalar, deylik "Xalq so'zi", "Yangi O'zbekiston" kabi nashrlarda ijtimoiysiyosiy mavzuda qalam tebratish malakasini o'rganadilar. Sport sohasiga qiziqqan ijodkor shu yo'nalishdagi bosma va audiovizual tahririyatlarga tashrif buyurishlari mumkin.

Bundan tashqari, bugungi kunda jurnalistik ta'lim muassasida talabalarga nazariy bilim berish bilan birga, ularni turli tahririyatlarga, teleradiokompaniyalarga, axborot agentliklariga, internet saytlariga, vazirlik va idoralar axborot xizmatlariga malakaviy amaliyot o'tash uchun yuboriladi. Buning natijasida talabalarning tahririyatlardagi ixtisoslashuvi ham shakllanib bormoqda.

Ayni paytda o'zbek jurnalistikasi muhitida ijtimoiy tarmoqlarda ma'lum bir ixtisoslik bo'yicha o'z faoliyatini olib borayotgan bir qator jurnalist, bloggerlar bor. Masalan, huquqiy madaniyat, yoshlar ta'lim masalalari bo'yicha Xushnubek Xudoyberdiyev, ekologiya va atrof-muhit obodonchiligi yo'nalishida Nargis Qosimova, shaxsiy rivojlanish va ta'lim sohasida Muhammad Ali Eshonqulov, sayohat jurnalistikasi va xorijiy ta'lim bo'yicha Mr. Otabek (Otabek Mahkamov).

**Xulosa.** Bugungi kunga kelib, zamona jurnalistlardan universal bo'lishni talab etyapti. Tezkorlik davr talabi bo'lgan bir paytda voqea joyidan ham lavhalar tayyorlay olish, soha vakillaridan intervyular olish, kezi kelganda montaj qilib auditoriyaga yetkazish universal jurnalistning eng katta yutug'idir. Ammo bu tezkor jarayonda bir qator kamchiliklar ko'zga tashlanadi. Xalqimizda "Chumchuq so'ysa ham qassob so'ysin" maqoli ayni shu universallashtiruv va ixtisoslashuv masalasiga juda mos keladi. Har bir yo'nalishda o'z ishini puxta biladigan professional kadrlarning faoliyat olib borishi o'sha sohaning rivojiga xizmat qilishi shubhasiz.

### ADABIYOTLAR:

1. *Imomova N. Harakatlar strategiyasi: islohotlar jarayoni va ommaviy axborot vositalari.* – Toshkent. 26 bet. 2018. – B. 23-bet.
2. *Fianna Smith. Introduction to journalism.* 2017. USA. B. 28-bet.
3. *Karin Wahl-Jorgensen, Thomas Hanitzsch. The handbook of journalism study. International Communication association.* 2009-yil.
4. *Mo'minov F. va boshqalar. Jurnalistika nazariyasi, tarixi va taraqqiyoti.* – n Toshkent, 2019. – B. 578 bet.
5. *O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 24-maydagi PQ-3737 – sonli Qarori 1- ilova.*



# Navoiy gulshani

EY, NUBUVVAT XAYLIG'A XOTAM BANI ODAM ARO

*Sayliyeva Zarina Raxmiddinova,*

*Buxoro davlat universiteti*

*filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

Dohiy ijodkorlaridan biri Alisher Navoiy o'zbek tilida buyuk "Xamsa" yaratgan epik shoir, o'nlab ilmiy asarlar yozgan olimgina bo'lib qolmay, balki zabardast va yetuk lirik shoir hamdir. Navoiy "Xazoyin-ul maoniy" "debocha"sida o'zining "nazm vozilasi va she'r vositasi bilan tamom umr"ini kechirganini yozadi. Shunga ko'ra ulug' Navoiy ijodiy merosining har bir baytiga alohida yondashish, o'ziga xos tahlil va tafsir usulini taqozo etadi. «G'aroyib us-sig'ar» devonidagi joylashtirilishi o'rniga ko'ra uchinchi g'azalning badiiyati, ramziy timsollari, ishqning may bilan o'ndan ortiq o'xshash tomonlari va oqibati jihatlariga ko'ra, tamoman zid farqlarini, har bir baytning zohiriy hamda botiniy ma'nolarini keng tahlil qildik. Navoiyshunoslikda shoir g'azaliyoti muammolari atroflicha hal qilingan bo'lsa-da, uning tahlil talab nuqtalari juda ko'p. Zero, har bir satri bilan abadiylikka aloqador bu ulkan so'z san'atkorining ijodiy merosi o'rganilgan sayin chuqurlashib bormoqda. Shoir sirxonasidagi sirlar tagiga borgan sari sirlar ko'payib bormoqda. Alisher Navoiyning "Badoye' ul-bidoya" devonida hamd, na't va mav'iza yo'nalishidagi ma'rifiy-badiiy g'azallardan keyin badiiy-ma'rifiy g'azallar joylashtirilgan. Ma'lumot o'rnida, Alisher Navoiyning lirik she'rlari jami 8ta devonga jamlangan. "Badoye' ul-bidoya" ("Badiiylik ibtidosi") – shoirming o'zi tuzgan ilk rasmiy devoni sanaladi. Asar taxminan 1472-1476- yillar oralig'ida Xuroson shohi Husayn Boylarining iltimosi bilan tartib berilgan. Alisher Navoiy qalamiga mansub "Badoye' ul-bidoya" devonining Turkiyada saqlanayotgan oltinchi nusxasi borligi aniqlandi. Ma'lum bo'lishicha, qo'lyozma Navoiy hayotligi davrida mashhur xattot Sultonali Mashhadiy tomonidan qog'ozga tushirilgan. Sharq dostonchiligida o'rta asrlarda barcha asarlar xudoning madhi bilan boshlangan. Navoiy ham o'z dostonini shu an'anaga amal qilgan holda Olloh hamdi bilan boshlab, bu masalaga maxsus bob bag'ishlagan. Mazkur bobda shoir hamma narsani yaratgan Xudoning osmon va quyoshdan tortib har bir zarrani, butun o'simliklar va hayvonot olamini, kishilik jamiyatini o'z yuksak aqli, har bir insonga mehri bilan boshqarib, harakatga keltirib, bir-biriga bog'lab, qovushtirib turishini katta shavq-zavq bilan tasvirlagan. Biz tahlilga olgan ushbu g'azal devon tarkibidagi 6- na't g'azal hisoblanadi. Dastavval, g'azalning to'liq matnini keltirishni joiz deb bildik.

Ey, nubuvvat xaylig'a xotam bani Odam aro,  
 Gar alar xotam, sen ul otkim, bo'lur xotam aro.  
 Yuz eshiging tuffrog'iga surta olg'aymenmu deb  
 Charx qasridin quyosh har kun tushar olam aro  
 Anjum ichra orazing me'roj shomi o'ylakim,  
 Tushsa durri shabcharog'i har taraf shabnam aro.  
 Ne chun kiymish qaro har yon solib jabrig'a chok,  
 Firqatingdin Ka'ba gar qolmaydurur motam aro?  
 Sof ko'nglida yuzung mehrini go'yo asramish,  
 Tush chog'i har kun quyosh aksi emas Zam-zam aro.  
 Mash'ale bo'lmish malak ilgida ravzang boshig'a  
 Oy charog'i har kecha bu nilgun toram aro.  
 Qum emas Bathodakim, mehri jamoling hajridin  
 Zarra-zarra jismi bir-biridin to'kuldi g'am aro.  
 Yo'l emas, Yasribda yirtibdur yuzin tirnog'ila  
 Maqdaming to yetmadi ul vodiyni xurram aro.  
 Itlarning maxsus mahzundir, Navoiy, koshki,  
 Kirsu bu mahrum ham ul zumrayi mahram aro.

[Navoiy Alisher. MAT. 20 tomlik. 1-tom. Badoye' ul-bidoya. – Toshkent: Fan, 1989. – B.17].

Ushbu baytda Navoiy payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v)ning yuksak sifatleri, barcha payg'ambarlardan ajralib turishlari ifoda etilgan:

Ey, nubuvvat xaylig'a xotam bani Odam aro  
Gar alar xotam, sen ul otkim bo'lur xotam aro

**Nubuvvat**-payg'arlik, elchilik

**Xayl**-guruh, tun qorong'uligi

**Bani Odam**-Odam avlodi, insonlar

**Xotam**-uzukning ko'zi, muhr

**Nasriy bayoni:**

Ey, odam bolalari ichida payg'ambarlik muhriga loyiq kòrilgan Zot

Agar ular uzuk bo'lsalar, sen ularning yoqut ko'zisan

Bayt tahliliga e'tiborimizni qaratadigan bo'lsak, Muhammad (s.a.v)ning hayoti va tarjimai holi siyratda, uning so'zlari va qilgan ishlari haqidagi rivoyatlar hadislarida bayon etilgan. Islom ta'limotida Muhammad komil inson sifatida ta'riflanadi. Sunnat payg'ambarning hayoti barcha musulmonlar uchun namuna bo'lishi kerakligi ta'kidlanadi. Islom an'anasida Muhammad hech qanday g'ayritabiiy, ilohiy xususiyatga ega emasligi, balki hamma kabi oddiy odam, lekin Allohning chin va oxirgi payg'ambari ekanligi qayd etiladi.

Muhammadning shakl-u shamoyillari, siyratu-sifatleri, insoniy fazilatleri, boshqa payg'ambarlardan farq etadigan xususiyatlari to'g'risida u bilan birga yurgan, suhbatlaridan bahramand bo'lgan sahobalar hamda nikohida bo'lgan ayollari tomonidan naql qilingan rivoyatlar asosida ko'plab asarlar bitilgan. Ushbu parchada ham payg'ambarimizning barchadan g'ayritabiiy va ilohiy xususiyatlari bilan ajralib turishlari tasvirlangan.

Yuz eshiging tufrog'iga surta olg'ay menmu deb

Charx qasridin quyosh har kun tushar olam aro

**Yuz**-kelmoq, kirmoq, yuzlanmoq

**Eshik**-dargoh, saroy

**Charx**-ko'k, falak, osmon, taqdir,

**Qasr**-oliy qo'rg'on, qisqalik, qisqartirish

**Nasriy bayoni:**

Eshigingning tuprog'iga yuz surish uchun

Quyosh har kuni samo qasridan tushadi.

Ushbu bayt payg'ambarimiz (s.a.v)ning go'zalliklari, tashqi ko'rinishlaridagi mukammallik haqida bayon etilgan. Baytda Rasululloh sollallohu alayhi va sallam insonlar orasida yuzlari eng chiroyli, tashqi ko'rinishlari eng go'zal kishi ekanliklari uchun quyosh har kuni go'zal jamollarini ko'rish uchun yuz bor samo qasridan olam aro tushishi yoritilgan. Sahobalar Payg'ambar sollallohu alayhi va sallamni shu darajada vasflaganlarki, go'yo siz U zotni ko'rib turganday bo'lasiz. U zotning yuzlari, yanoqlari, ikki ko'zlari, qovoqlari, burunlari, bo'yinlari, boshlari, peshanalari, og'izlari, tishlari, ikki yelkalar, ikki kaftlari, ikki oyoqlari va boshqa a'zolari qanday bo'lganini o'ta aniqlik bilan bayon etishgan. Bunga misol qilib Baro roziyallohu anhunging so'zlarini keltirishimiz mumkin: "Rasululloh sollallohu alayhi va sallam ikki yelkalarining orasi keng, sochlari ikki quloqlarining yumshoq joyigacha yetadigan zot edilar. Men U zotdan go'zal kishini ko'rmaganman".

Anjum ichra orazing me'roj shomi o'ylakim

Tushsa durri shabcharog'i har taraf shabnam aro.

**Anjum**-yulduz

**Me'roj shomi**-ko'kka ko'tarilish kuni

**Durri shabcharog'**-kechani charog'day yorituvchi dur

**Nasriy bayoni:**

Bu baytda payg'ambarimiz go'alliklari va Me'roj kechasidagi vodealarga ishorat bor.

Sening yuzing yulduzlar orasida me'roj tunidek,

Shabnamlar orasida kechani yorituvchi durdir.

Islom tarixida Muhammad (s.a.v) ning Makkadan Quddusga qilgan tungi sayri (isro) hamda Quddusdagi Aqso masjididan osmonga ko'tarilishi (me'roj). Bu haqda Qur'on oyatlari va Hadisi shariflarda keng ma'lumotlar berilgan. Bu hodisa ilohiy mo'jizalar turiga kirgani uchun moddiylik va aqliy dalillar bilan chegaralanuvchi kishilar uni inkor etadilar. Hadis va rivoyatlarda aytilishicha, Muhammad (s.a.v) Jabroil (a.s) boshchiligida tunda ko'p yillik masofani bosib o'tib, bu samoviy sayohatlaridan boy xotiralar bilan qaytganlar. Jumladan, yetti qavat osmon oraliqlarida o'zlaridan oldingi o'tgan yirik payg'ambarlar bilan



muloqotda bo'lganlar. Jannat va do'xaxni tomosha qilganlar. 5 vaqt namoz ham shu kechada farz qilingan. Bu hodisa tasvirlab yozilgan ko'pgina asarlar mavjud. Jumladan, ushbu baytda ham payg'ambarimizning yuzlari me'roj kechasi kabi yorug' deb ta'riflanadi. Navoiy me'roj voqeasi bo'lib o'tgan tunni koinot jamoliga chiroy qo'shuvchi xolga o'xshatadi.

Ne chun kiymish qaro har yon solib jabrig'a chok  
Firqatingdin ka'baga gar qolmaydurur motam aro?

**Firqa-guruh, mazhab**

**Chok-yirtiq, yara**

*Nasriy bayoni:*

Nima uchun Ka'ba jabringdan qora kiyindi,  
Seni mazhabingdan (Ka'baga) motam qolmaydi

[Navoiy Alisher. MAT. 20 tomlik. 1-tom. Badoye' ul-bidoya. – Toshkent: Fan, 1989. – B.17].

Ka'bayi muazzamani dastlab farishtalar bino qilganlar, so'ng Odam alayhissalom, so'ng o'g'illari Shis alayhissalom, so'ng Ibrohim alayhissalom uni tiklaganlar. Muhaddis va muarrix imom Azroqiy (837 m. y. vafot etgan) bu haqida qayd etganlar. Ka'bayi muazzamaning atrofi Rasululloh sollallohu alayhi va sallam va Abu Bakr roziyallohu anhu davrlarida ochiq edi, devorlar bilan o'ralmagan edi. So'ng hazrat Umar roziyallohu anhu Ka'ba yonlarida joylashgan uylarni sotib olib sahnini kengaytirdilar va kishi bo'qyidan pastroq devor bilan o'radilar. Uning sahnini hazrat Usmon roziyallohu anhu, Ibn Zubayr roziyallohu anhu, Valid ibn Abdumalik ham yana kengaytirdilar. Valid ibn Abdumalik marmar ustunlar tikladi. Undan so'nq Mansur va Mahdiy ham Ka'bai muazzama sahnini kengaytirdilar. Shu bilan uning sahnini kengaytirish to'xtadi. Oli Saud hukmdorligi davrida Ka'bai muazzama atrofi hozirgi ko'rinishda yanada obod etildi. Baytda Ka'ba payg'ambarimiz (s.a.v)ning jabrlarida qora kiyganligi va qora kiyib motam tutayotganligi go'zal ifodalangan.

Sof konglida yuzung mehrini go'yo asramish  
Tush chog'i har kun quyosh aksi emas zam-zam aro

Bayt mazmuni:

Har kuni tush chog'ida go'yo quyosh aksi emas,  
Zam-zamdek sof ko'nglida senga mehrini asrab qo'ygan.

«Rasululloh sollallohu alayhi va sallamning umrida quyosh tutilib, odamlarni namozga turg'izib qo'ydi va o'rnidan turdi va uzun qiyomni ijro qildi, so'ng uzoq vaqt egildi, yana o'rnidan turdi va uzoq qiyomni ijro qildi. birinchisidan qisqartirar, birinchisidan ancha vaqtgacha bosh egib, sajda qildi va sajdadini uzar edi, ikkinchi rak'atida ham xuddi avvalgi kabi qilgan va keyin namozni tugatgan Quyosh tutilsa, quyosh tutilib, Xutbani va'z qilib, Allohni ulug'lash va ulug'lashdan so'ng: «Quyosh va oy Allohning alomatlaridandirki, ular Allohning oyat-mo'jizalaridan ikki alomatdir. o'lim yoki hayotning bir qismini ko'rsangiz, Allohni eslab, takbir ayting, namoz o'qing va sadaqa bering!

(Hadid surasi, 154-oyat)

Navoiy ushbu baytni yozishda shu hadisga ishora qilgan. Payg'ambarimiz zam-zamdek sof ko'ngillarida Allohga bo'lgan muhabbatlarini asrashi ifodalangan.

Mash'ale bo'lmish malak ilgida ravzang boshig'a  
Oy charog'i har kecha bu nilgun toram aro

**Ravza-bog', jannat**

**Nilgun toram-ko'k rangli gumbaz**

*Nasriy bayoni:*

Ushbu baytda oy charog'i har kecha malak qo'lida mash'al chirog'i bo'lishi ta'kidlab o'tilgan.

Qum emas Bathodakim, mehri jamoling hajridin  
Zarra-zarra jismi bir-biridin to'kuldi g'am aro.

**Batho-Makka atrofidagi tog' oralig'idagi dara nomi**

*Nasriy bayoni:*

Bathodagi qum ham sening hajringdan  
G'amdan zarra-zarra to'kildi

Navoiy Batho deganda, Makka shahriga ishora qilyapti. Makkadagi qumlar ham seni ko'rish uchun g'amdan zarra-zarra to'kildi demoqchi shoir.

Yo'l emas, Yasribda yirtibdur yuzin tirnog' ila  
Maqdaming to yetmadi ul vodiyni xurram aro.

Yasrib-Madina

Maqdam-qadam

## NAVOIY GULSHANI

---

Nasriy bayoni: To sening(Muhammad s.a.v) qadaming yetganicha, Yasrib shahri yuzini tirnog'i bilan yirtibdi.

Itlaring maxsus mahzundur Navoiy, koshki,  
Kirsa bu mahrum ham ul zumrayi mahram aro.

**Mahzun**-g'amli,qayg'uli

**Mahrub**-biror narsadan benasib

**Nasriy bayoni:** Koshki Navoiy sening yoningda yuruvchi itlaringga aylansa. Afsus, bundan hammamiz mahrummiz.

Alisher Navoiy badiiy san'atlarni namoyish qilishda leksik imkoniyatlardan o'ta unumli foydalanadi. Shariat va tariqatning komil jamiyat qurish hamda komil inson tarbiyasi uchun bir-birini taqozo etadigan tadrijiy, uzviy, uzluksiz bosqichli mantiqiy jarayondan iborat ekanligini asoslab borish, ulug' shoir g'azallarini birlashtirib turuvchi umumiy g'oyadir. G'azaldagi so'zlarning hammasi ramziy ma'nolarga ega. Ulardan ayrimlarining ma'nolarini ko'rsatib o'tdik. Umuman olganda, Alisher Navoiy ushbu g'azallari bilan so'zdan unumli foydalanishning yuksak mahoratini namoyish eta olgan. Alisher Navoiyning bu g'azallari mukammal bir badiiy asar bo'lib, unda Navoiy davri tili, mafkurasi, badiiy ijod xususiyatlarining muhim tomonlari o'z aksini topgan. Shuning uchun Alisher Navoiy asarlarini o'rganar ekanmiz, yo til, yo adabiyot, yo mazmun, yo shakl jihatlari bilan chegaranmaslik lozimdir. Asarni qanchalik chuqur o'rgansak, shunchalik Hazrat Alisher Navoiy ijodining sirlar xazinasidan bahramand bo'lib boraveramiz.

MINTAQAVIY XAVFSIZLIKNI TA'MINLASHDA POKISTON VA O'ZBEKISTON  
HAMKORLIGI

**Galimov Rustam Ravshanovich,**

Toshkent davlat sharqshunoslik  
universiteti tayanch doktoranti

[Rrgemianopsiya@gmail.com](mailto:Rrgemianopsiya@gmail.com)

<https://orcid.org/0009-0000-5934-2644>

**Аннотация.** Сегодня, на новом этапе развития нашей страны, проводятся масштабные реформы в сфере государственной политики в отношении молодёжи. В центре этих реформ стоит всесторонняя поддержка молодёжи, защита их прав и законных интересов, воспитание предприимчивого и компетентного поколения, ответственного за будущее нашей страны. Тот факт, что эта приоритетная государственная политика отражена в отдельной главе и ряде статей Конституции Республики Узбекистан в новой редакции, свидетельствует о том, что государственная политика в отношении молодёжи в нашей стране конституционно гарантирована. Исходя из этого, в данной статье рассматривается вопрос о конституционных основах государственной политики в отношении молодёжи в нашей стране, а также анализируются проводимые и планируемые государством реформы по духовному, интеллектуальному, творческому, физическому и нравственному развитию молодёжи.

**Ключевые слова:** политика, конституция, агентство, молодёжь, молодёжная политика, стратегия, образование, развитие.

YOSHLARGA OID DAVLAT SIYOSATINING KONSTITUTSIYAVIY ASOSLARI

**Annotatsiya.** Bugun mamlakatimizning yangi taraqqiyot bosqichida yoshlarga oid davlat siyosatini hayotga tadbiiq etish sohasida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu islohotlar markazida yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish va mamlakatimiz kelajagi uchun mas'ul bo'lgan tashabbuskor va barkamol avlodni tarbiyalash nazarda tutilgan. Ushbu ustuvor davlat siyosatining Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizning alohida bobi va qator moddalarida o'z ifodasini topishi yurtimizda yoshlarga oid davlat siyosatining konstitutsiyaviy kafolatlanganligidan dalolat beradi. Shundan kelib chiqib, ushbu maqola mamlakatimizda yoshlarga oid davlat siyosatning konstitutsiyaviy asoslari masalasini o'rganib, davlatning yoshlar ma'naviy, intellektual, ijodiy, jismoniy va axloqiy jihatdan kamol topishi uchun olib borilayotgan va rejalashtirilgan islohotlar tahlil etilgan.

**Kalit so'zlar:** siyosat, konstitutsiya, agentlik, yoshlar, yoshlar siyosati, strategiya, ta'lim, taraqqiyot.

**Introduction.** As a result of the reforms carried out in recent years, a comprehensive system has been created in our country to support youth and ensure their participation in society. Ensuring the legal rights and interests of youth, who are the owners of our future, realizing their dreams, abilities and potential is the most important and priority direction of state policy. Today, the state policy on youth, being implemented in the development of the new Uzbekistan, aims to shape the youth of our country socially and develop their

intellectual, creative, and other potential. This policy includes a system of socio-economic, organizational, and legal measures.

The population of our country will reach 50 million by 2040. It should also be taken into account that more than half of them are youth. To provide them with decent conditions, 250,000 new student places, dozens of modern hospitals, at least 200,000 new housing units, 1 million permanent jobs, and 25-30 billion dollars of investment are needed every year. According to our legislation, young people are persons who have reached the age of 14 and are not older than 30. Today, the number of youth in Uzbekistan exceeds 9.6 million, which is about 30% of the population of our country.

**Main part.** The rights and freedoms of every young citizen are guaranteed in accordance with the Constitution of the Republic of Uzbekistan and the law. In the new version of the Constitution of the Republic of Uzbekistan, special priority is given to the issue of youth, and Chapter XIV is devoted to the matters of family, children, and youth. In particular, Articles 78 and 79 of the new edition of Constitution have been supplemented with special norms related to youth [1]. According to them:

*first of all*, the norm was introduced that the the State and society shall attend to fostering in children and youth a commitment to national and universal human values, pride in the country and the rich cultural heritage of the nation, a sense of patriotism and love of the Motherland.

This norm is important for the peace and harmony of the society and the stable development of the state, and on the contrary, ignoring this task will lead to the decline of the society, the nation and the people;

*secondly*, the norm that The State shall take responsibility to ensure and protect the rights, freedoms and legitimate interests of the child and to create the best conditions for his or her full physical, mental and cultural development, has been strengthened. As we strive to build a democratic, legal state, we will never be able to achieve this without protecting the rights of youth, who are our future, without ensuring their active participation in society and state life;

*thirdly*, a norm was introduced for the State shall ensure the protection of personal, political, economic, social, cultural and ecological rights of youth, and encourage their active participation in the life of society and the State [2].

Therefore, these articles of the new edition of the Constitution of the Republic of Uzbekistan aim to protect and uphold the cultural rights, freedoms, and legal interests of youth in our country, to enhance their role and participation in society, and to nurture a healthy and well-rounded young generation. Regardless of gender, race, nationality, language, religion, social origin, belief, personality, or social status, it is not permissible to restrict the rights and freedoms of youth in any way, whether directly or indirectly. Any such restriction shall be subject to legal consequences. On September 14, 2016, the Law of the Republic of Uzbekistan “On State Policy Regarding Youth” was adopted to elevate the state policy concerning youth to a new level, address issues in the field, and efficiently organize and coordinate the activities of relevant bodies. Based on this, special attention is given to youth in every field in our republic.

Within the framework of the state youth policy implemented in our country, significant positive initiatives have been undertaken in recent years, and these efforts are being consistently continued. A comprehensive infrastructure has been established to implement programs aimed at addressing issues related to youth. Specifically, On June 30, 2017, the Youth Union of Uzbekistan was established, and the day of its establishment, June 30, was declared “Youth Day” in our country. As well the Committee on Youth, Culture, and Sports was formed in the Senate of the Oliy Majlis and the Commission on Youth Issues was established in the Legislative Chamber of the Oliy Majlis. On August 30, 2019, the Youth Academy under the Ministry of Innovative Development of the Republic of Uzbekistan was established. The academy aims to enhance support for initiatives by talented youth in our country, ensure the competitiveness of the country’s science at the international level, and further strengthen the potential of existing scientific schools and develop their innovative capabilities. On August 5, 2019, a youth organization called the “World Association of Youth of Uzbekistan”, with representatives in 26 countries, was established to support Uzbekistani youth who are studying, working, or seeking to migrate abroad, and to protect their rights and legal interests. To assist and support the implementation of business initiatives, startups, ideas, and projects by youth, to provide training to unemployed youth in high-demand specialties and business skills, and to enhance the socio-economic activity of young individuals, the “Yoshlar-Kelajagimiz” foundation was established based on the decision of the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan dated August 16, 2018.

On June 30, 2020, based on the Decree of the President of the Republic of Uzbekistan, the Youth Affairs Agency of the Republic of Uzbekistan was established. To ensure the fulfillment of tasks related to youth support, the agency implements state control over compliance with legislation in the field of youth policy, develops unified state policies, strategic directions, and state programs related to youth output and implementation. In addition, the Institute for the Study of Youth Problems and the Training of Prospective

Personnel was established under the Youth Affairs Agency of the Republic of Uzbekistan, based on the decision of the President of the Republic of Uzbekistan on June 30, 2020. The institute is a state institution focused on researching youth issues, conducting analytical studies, and retraining and enhancing the skills of promising young personnel. Additionally, the institute plays a role in retraining and improving the skills of management personnel in state and economic management bodies, local state executive authorities, citizens' self-management bodies, and public organizations.

In accordance with the decision of the Cabinet of Ministers on January 18, 2021, the concept of development of state policy on youth in Uzbekistan until 2025 was adopted. The concept is being implemented step by step based on the main principle of "Working with the interests of youth" defined in the UN "Youth-2030" strategy and the corresponding "roadmaps" approved annually starting from 2023.

The purpose of this concept is to educate the youth of our country as physically healthy, spiritually mature individuals, to help them realize their scientific and creative potential, to effectively protect their rights, freedoms, and legitimate interests, and to facilitate their democratic, social, and active involvement in economic reforms.

check and correct following these sentences: Based on this goal, the concept envisages the implementation of the following tasks, taking into account the forecasts of the country's socio-economic development in 2021-2025:

- ✓ improving the legal framework aimed at protecting the legal rights and interests of youth;
- ✓ increasing the role of youth in ensuring security, justice, and environmental stability in the country;
- ✓ improving the conditions for accessing qualified medical services for youth, increasing medical literacy among them, and promoting a healthy lifestyle;
- ✓ educating youth in the spirit of love and loyalty to the motherland, family, independence, and respect for national and universal values;
- ✓ creating decent working conditions for youth, expanding their economic opportunities, and fostering entrepreneurship;
- ✓ implementing the "Five important initiatives" aimed at widely involving youth in culture, art, physical education and sports, developing their skills in using information technologies, promoting reading among them, and ensuring women's employment;
- ✓ support for youth in need of social protection, disabled children, children brought up in orphanages, orphans, children who have lost their breadwinners, and children deprived of parental care;
- ✓ supporting youth potential personnel and preparing them for the state civil service to ensure their competitiveness in the labor market;
- ✓ expanding the opportunities for young women and further increasing their position in society;
- ✓ increasing the social activity of youth, supporting youth public organizations, and encouraging voluntary actions;
- ✓ developing international cooperation in the field of youth policy [3].

The 70<sup>th</sup> goal of the development strategy of New Uzbekistan for 2022-2026, which was adopted by the Decree of the President of the Republic of Uzbekistan Shavkat Mirziyoyev on January 28, 2022, is dedicated to improving the state policy on youth in our country.

- ✓ ensuring the rights, freedoms and legal interests of youth;
- ✓ preserving the life and health of youth, improving the conditions for them to use qualified medical services, increasing medical literacy among youth and strengthening a healthy lifestyle;
- ✓ helping youth to mature spiritually, intellectually, physically and morally;
- ✓ providing open and high-quality education for youth, to ensure that youth receive excellent education at all stages of education, to create conditions for the development of inclusive education in the regions;
- ✓ employing youth and creating conditions for their employment;
- ✓ educating youth in the spirit of patriotism, sense of citizenship, tolerance, respect for laws, national and universal values, able to resist harmful influences and currents, having firm beliefs and views on life;
- ✓ protecting youth from actions that lead to violations of moral principles, terrorism and religious extremism, separatism, fundamentalism, violence and cruelty;
- ✓ raising the level of legal consciousness and legal culture of youth;
- ✓ supporting and encouraging talented and talented youth;
- ✓ creation of conditions for the development of youth entrepreneurship;



- ✓ creating an aspiration for a healthy lifestyle in youth, as well as to create conditions for the meaningful organization of free time of youth and the mass development of youth sports;
- ✓ implementing complex system of measures to support young families morally and materially, to create decent housing and social and household conditions for them;
- ✓ developing cooperation with international organizations operating in the sphere of realization of the rights and freedoms of youth [4].

Also, the adoption of the “Uzbekistan – 2030” strategy based on the Decree of the President of the Republic of Uzbekistan on September 11, 2023 was one of the important steps in the field of youth policy. The implementation of the “Uzbekistan – 2030” strategy means that every young generation in our country will receive favorable opportunities, material and spiritual support, and every family will find prosperity, peace and care. This strategy defines the following priority reforms in the areas of state policy and sports related to youth:

*first*, creating a system of training youth in modern professions and foreign languages. To achieve this goal, in order to ensure that young people are engaged in modern professions, it is planned to organize the activity of “Creative Parks” in each region, to attract at least 40 thousand youth to them per year. Also, it is aimed to ensure that school graduates learn at least 2 foreign languages and 1 profession.

*second*, increasing the intellectual potential of youth, stimulating their scientific activity. Based on this goal, it is planned to implement reforms aimed at developing the talent of at least 2 million youth in our country by involving them in scientific and innovative activities, intellectual games, and learning foreign languages. It is also planned to send 500 talented youth to study at prestigious foreign universities every year.

*third*, further popularization of the IT sector among youth and increase of export of services in the sector. This, in turn, aims to provide employment to 300,000 young people in the IT sector in our country, to train schoolchildren in modern professions that are in high demand in the international IT market and to expand the “One Million Programmers” project in our country and train 15,000 of the most talented youth every year based on programs that meet the requirements of prestigious international companies.

*fourth*, expanding the coverage of young people who are engaged in physical education and sports. In this regard, by organizing public sports events in our country, it is planned to increase the coverage of youth from 8 million, to increase the share of the population involved in sports to 36% and to build sports grounds in at least 5 thousand neighborhoods for physical education and mass sports.

*fifth*, increasing the share of youth who are professionally and permanently engaged in sports in the republic. For this purpose, it is decided to increase the number of youth regularly participating in sports-educational institutions in our country to 1 million people and to create an opportunity for about 130 thousand young people to regularly participate in sports.

*sixth*, improving the system of training highly qualified and effective athletes for national teams. In order to achieve this, in the next Asian Games to be held in Doha (Qatar) in 2030, it is envisaged that the athletes of Uzbekistan will enter the ranks of the strong TOP-5 countries in terms of the total team. Also, it is decided to increase the share of employees with higher education in the field of sports in our country to 85%, and to increase the number of scientific researches and researches for the development of the field to 140.

*seventh*, developing the Olympic and Paralympic movement. In this regard, the tasks that our country must perform in order to take a place among the top 15 countries in the Olympic and Paralympic Games have been defined [5].

Today, in our country, special attention is paid to encouraging talented youth, involving them in active creative activities, supporting talented pupils, students and graduate students, and rewarding them appropriately. Most of the talented and patriot young boys and girls who have made valuable contributions to the development of our country in recent years have been awarded state awards. Talented girls under the age of 30 who are studying in educational institutions in our country and demonstrate exceptional behavior, intelligence, wisdom, initiative, and academic success will be honored with the State Award named after “Zulfia” for their outstanding achievements in literature, culture, sports, art, science, and education. Whereas, the State Award “Mard o‘g‘lon” was established to enhance feelings of patriotism among young boys, instill qualities such as bravery, courage, and loyalty in them, and honor those who embody the spirit of bravery as exemplary sons of the nation. This award is ceremoniously presented to the recipients every year on the eve of the “Youth Day” of Uzbekistan. “Kelajak bunyodkori” medal was established to recognize and encourage our dedicated youth who are committed to shaping the country’s future, take pride in the work being accomplished in our nation, and are actively contributing to various sectors of our society. The “Future Scientist” competition was launched to support the scientific and innovative activities of youth and encourage their talent. Fifty billion soums will be allocated to the winners of this competition.

The implementation of these norms in practical life governs the following priority directions of state policy regarding youth in our country:

- ✓ ensuring the rights, freedoms, and legal interests of youth;
- ✓ protecting the life and health of youth;
- ✓ assisting youth in their spiritual, intellectual, physical, and moral development;
- ✓ providing accessible and high-quality education for youth;
- ✓ offering employment opportunities for youth and creating conditions for their job placement;
- ✓ educating youth in the spirit of patriotism, citizenship, tolerance, respect for laws, national and universal values, empowering them to resist negative influences, and fostering strong beliefs and life perspectives;
- ✓ safeguarding youth from activities that violate moral principles, terrorism, religious extremism, separatism, fundamentalism, violence, and brutality;
- ✓ enhancing the legal awareness and legal culture of youth;
- ✓ supporting and recognizing talented young individuals;
- ✓ creating an environment conducive to youth entrepreneurship;
- ✓ promoting a healthy lifestyle among youth, organizing their leisure time meaningfully, and facilitating the widespread development of youth sports;
- ✓ implementing a comprehensive system of support for young families both morally and materially, providing decent housing and social conditions for them;
- ✓ strengthening cooperation with international organizations engaged in promoting the rights and freedoms of youth [6].

**Conclusion.** For the all-round development of our youth, it is necessary to create opportunities for them, that is, to be healthy and have housing, to get education, to get a job, to be busy and to have fun. The state undertakes to create appropriate conditions in this regard, because these norms are important not only for the benefit of our youth, but also for the prosperous future of our entire society and country. For this purpose, a completely new system aimed at ensuring employment of young people in our country and solving their problems - “Yoshlar daftari” (Youth register) and “Yoshlar dasturlari” (Youth programs) is introduced. The single electronic platform “yoshlardaftari.uz” was launched, which allows to digitize the system, ensure the transparency of the benefits given to young people, and monitor the work being carried out in 3 stages. This is not just money for living, but an effective investment for young men and women to build a prosperous life in the future.

In addition, new state and non-state pre-school education organizations, general education schools, higher education institutions, branches of prestigious foreign universities, modern IT-parks, cultural institutions and sports facilities, completely new educational facilities – “Prezident maktablari”, “Temurbeklar maktabi”, “Ijod maktablari” that are being established in our country serve to educate a new generation of mature personnel who are able to compete in today’s globalization conditions. In conclusion, the state policy on youth in Uzbekistan has a constitutional basis, and according to it, the state ensures the protection of the personal, political, economic, social, cultural and environmental rights of young people, encourages their active participation in the life of society and the state. It should be said that the reforms carried out in the field of youth policy in our country play an important role in the rights and freedoms, legal interests, spiritual, intellectual, physical and moral development of youth. At the same time, such a strategic state policy is important as it creates a suitable ground for supporting and encouraging talented and potential youth.

### REFERENCES:

1. *O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi*. – T.: “O‘zbekiston”, 2023. – B.45.
2. *Янгилаётган Конституция. 100 саволга 100 жавоб*. – T.: “Адолат” миллий ҳуқуқий ахборот маркази, 2023. – Б.128.
3. *O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini 2025-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” 2021-yil 18-yanvardagi 23-sonli Qarori// Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 19.01.2021-yil*
4. *O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022 - 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” 2022- yil 28-yanvardagi PF-60-sonli Farmoni// Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 03.01.2024-yil, 06/24/221/0003-son.*
5. *O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risida 2023- yil 11-sentyabrdagi PF-158-sonli Farmoni//Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 29.12.2023-yil, 06/23/214/0984-son.*
6. *O‘zbekiston Respublikasining “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida” 2016- yil 14-sentabrdagi O‘RQ-406-sonli Qonuni// Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 26.01.2022-yil, 03/22/747/0064-son.*

## ЖИНОЯТ ПРОЦЕССУАЛ ВА МИЛЛИЙ ҚОНУНЧИЛИК НОРМАЛАРИНИ ҚЎЛЛАШДАГИ МУАММОЛАР ВА УЛАРНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ

*Бозоров Азамат Мухторович,  
Хуқуқни муҳофаза қилиш академияси  
магистратура тингловчиси*

*Аннотация.* Муаллиф мақолада айбсизлик презумпцияси қоидаларини қўллашдаги мавжуд муаммолар, хуқуқни қўллаш амалиётида айбсизлик презумпциясига мувофиқ бўлмаган айрим миллий қонунчилик нормаларни таҳлил қилиб, ўзининг норматив таклифларини илгари сурган.

*Калит сўзлар:* гумон қилинувчи, судланувчи, айбланувчи, айбсизлик презумпцияси, айбсизлик презумпцияси қоидаларининг мезонлари, айбсизлик презумпцияси категориялари.

## ПРОБЛЕМЫ ПРИМЕНЕНИЯ УГОЛОВНО-ПРОЦЕССУАЛЬНЫХ И НАЦИОНАЛЬНЫХ ЗАКОНОДАТЕЛЬНЫХ НОРМ И ПЕРСПЕКТИВЫ ИХ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ

*Аннотация.* В статье автор проанализировал существующие проблемы применения правил презумпции невиновности, некоторых национальных правовых норм, не соответствующих презумпции невиновности, в правоприменительной практике, и выдвинул свои нормативные предложения.

*Ключевые слова:* подозреваемый, подсудимый, обвиняемый, презумпция невиновности, критерии правил презумпции невиновности, категории презумпции невиновности.

## PROBLEMS IN THE APPLICATION OF CRIMINAL PROCEDURE AND NATIONAL LEGISLATION AND PROSPECTS FOR THEIR IMPROVEMENT

*Abstract.* In the article, the author analysed the existing problems of applying the rules of presumption of innocence, some national legal norms that do not comply with the presumption of innocence, in law enforcement practice, and put forward his normative proposals.

*Keywords:* suspect, defendant, accused, presumption of innocence, criteria for presumption of innocence rules, categories of presumption of innocence.

**Кириш.** Айбсизлик презумпциясини қўллашга доир муаммолар сифатида куйидагиларни кўрсатиб ўтиш лозим.

**Биринчидан,** айбсизлик презумпцияси қоидаларини нотўғри қўллаш орқали жавобгарликни муқаррарлиги таъминланмасдан қолиши (аниқ чегараси мавжуд эмас);

**Иккинчидан,** айбсизлик презумпцияси тамойилларига зид равишда содир этиладиган хатти-харакатлар бўйича маъмурий ва жиноий жавобгарликни назарда тутувчи моддий хуқуқ нормалар белгиланмаганлиги;

**Учинчидан,** қонун ости хуқуқ нормаларини янги қабул қилинишидан олдин уни айбсизлик презумпцияси қоидаларга мос келиш аҳволи бўйича тегишли экспертизадан ўтказиш амалиётининг мавжуд эмаслиги;

**Тўртинчидан,** хуқуқни қўллаш амалиётида жиноят ишининг тергови якуни билан қонунбузилиши унинг келиб чиқиш сабаблари, бунга имкон берган шарт-шароитларни баргараф этиш тўғрисидаги тақдимнома киритишда шахсни айбдор сифатида кўрсатиш, шаблон тариқасида эълон қилинган айбловни тақдимномада тўлиғича кўрсатиш;

**Бешинчидан,** Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2021 йил 10 сентябрдаги “Жиноятларнинг сабаблари ва уларнинг содир этилишига имкон берган шарт-шароитларни муҳокама қилиш тартиби тўғрисидаги низомни тасдиқлаш ҳақида”ги 565-сонли Қарорининг ижросини таъминлаш бўйича ўтказиладиган жиноят муҳокамаларида, жиноят иши қўзғатиш ҳақидаги қарорни тўлиғича ўқиб бериш, бунда жиноят содир этган шахсни айбдор сифатида кўрсатиб ўтилиши, ёки жиноят содир этган шахсни расмини маҳаллада биносидаги пештахтага илиб қўйиш айбсизлик презумпцияси қоидаларига мувофиқ келмаслиги;

**Олтинчидан**, яқин қариндошларнинг жиноят процессига уларнинг розилигисиз жалб қилинаётганлиги айбсизлик презумпцияси қоидалари бузилишига олиб келмоқда;

**Еттинчидан**, тергов ва суд процессида исботлаш мажбуриятини олган шахсларнинг (суриштирувчи, терговчи, прокурор, суд ва бошқа ишнинг натижасидан манфаатдор бўлган адвокатлар) айбдор шахслардек муносабатда бўлиши;

**Саккизинчидан**, шахсга аввал руҳий, психологик ёки жисмоний босим ўтказиб, ушбу босим ўтказган шахс иштирокида тергов ҳаракатлари ўтказиш (мақсад босим ўтказган шахс олдида шахснинг айбдорлигини тан олдириш);

**Тўққизинчидан**, терговга жалб этилган шахсни куттириб қўйиш, ўз вақтида шахсларни қабул қилмаслик, асоссиз равишда муддатни узайтириш каби ҳолатлар айбсизлик презумпцияси қоидаларига мос келмайди;

**Ўнинчидан**, ҳали айбдорлиги номаълум бўлган шахсни олдинги сана билан ишдан бўшатиб, кейинчалик унинг айби судда тасдиқланмаганлиги оқибатида шахсни ишсиз қолиши ҳам айбсизлик презумпцияси қоидаларига мувофиқ эмас;

**Ўн биринчидан**, ОАВларининг айнан қайси тоифалари томонидан жиноят ишининг тафсилоти бўйича маълумот эълон қилиш ваколати аниқ белгиланмаганлиги;

**Ўн иккинчидан**, айбсизлик презумпциясига кўра, суднинг қонуний кучга кирган ҳукми бўлмай туриб шахс айбдор деб топилиши мумкин эмас.

Бироқ, Ўзбекистон Республикаси ЖПКнинг 84-моддасига кўра, шахснинг айбдорлиги билан боғлиқ масалани ҳал қилмай туриб, жиноят ишини тугатиш институтининг мавжудлиги айбсизлик презумпциясининг умумий тамойилларига зид норма сифатида кўринади;

**Ўн учинчидан**, “ўзича судлаш” яъни “самосуд” қилинганлик ҳолатлари бўйича ижтимоий тармоқларга маълумотлар жойлаштирганлик юзасидан маъмурий жавобгарлик тўғрисидаги кодекс ва жиноят кодексига жавобгарлик белгиланмаган.

Ҳуқуқни қўллаш амалиётида қабул қилинадиган процессуал қарорларда айбсизлик презумпцияси тамойили қоидаларини нотўғри қўллаш орқали жавобгарликнинг муқаррарлиги таъминланмасдан қолиш хавфи мавжуд бўлиши ҳам яна бир амалиётдаги мавжуд муаммолар сирасига киради.

Гумон қилинувчи, айбланувчи ёки судланувчининг айбдорлигини кўрсатувчи ҳолатлар текширилишининг имкони мавжуд бўлсада, бироқ уни текшириш орқали аниқлаш имкони тугаганлиги кўрсатилиб, жиноят иши кўзгатишни рад қилиш ҳақида қарор қабул қилиш ёки шахсга нисбатан бўлган жиноят ишини тугатиш каби ҳолатларига йўл қўйилиши кузатилади.

*Бундай қарорлар қабул қилиш аксарият ҳолатларда участка профилактика нозирлари, ёш суриштирувчи ва терговчиларнинг қарорлари ҳиссасига тўғри келади.*

*Ҳуқуқни қўллаш амалиётида айбсизлик презумпцияси қоидаларини қўллашнинг аниқ чегарасини белгилаш лозимлигини тақозо қилади.*

*Ёки, айбсизлик презумпцияси қоидаларининг нотўғри қўллаганлик, айбсизлик презумпцияси қафолатларини бузганлик учун фуқаролар, мансабдор шахслар, оммавий ахборот воситаларининг маъмурий ёки жиноий- ҳуқуқий жавобгарликка тортилиши амалиётининг мавжуд эмас.*

Фикримизча, айбсизлик презумпцияси қоидаларининг қасдан бузилиши ҳолатлари бўйича амалдаги маъмурий жавобгарлик тўғрисидаги ҳамда жиноят кодексларига янги моддий ҳуқуқий нормаларнинг киритилиши оммавий ахборот воситалари вакиллари, ҳуқуқни муҳофаза қилиш органи ходимлари, қолаверса, мансабдор шахслар ва фуқароларнинг масъلياتини оширишга хизмат қиладиган нормалар белгилаш таклиф этилади.

Ўзбекистон Республикаси Маъмурий жавобгарлик тўғрисидаги кодексга 46<sup>3</sup>-моддасига, “*Айбсизлик презумпцияси қоидаларини бузиш*” деб номлаб, “*Айбсизлик презумпцияси қоидаларига зид равишда шахс ҳақидаги маълумотларни ошкор қилиш фуқароларга базавий ҳисоблаш миқдорининг етти баравари, мансабдор шахсларга эса — эллик баравари миқдорида жарима солишга сабаб бўлади*” деб белгилаш лозим.

Ушбу ҳаракатларни айбсизлик презумпцияси қоидаларининг бузилиши бир йил ичида такроран содир этилган тақдирда, жиноий жавобгарликни назарда тутувчи нормалар киритилиши таклиф этилади.

Келгусида айбсизлик презумпцияси қоидаларига риоя қилинишини таъминлашга, жиноят ишларини юритишга риоя қилишни таъминланишига хизмат қилади.

## 1. Жиноят процессуал ва миллий қонунчилик нормаларини қўллашдаги муаммолар

Ўзбекистон Республикаси Жиноят кодексига янги 139<sup>1</sup>-моддасини киритиш таклиф этилади. Уни, “Айбсизлик презумпцияси қоидаларини бузиш” деб номлаб, “Айбсизлик презумпцияси қоидаларини бузиш, шу жумладан оммавий ахборот воситаларида, телекоммуникация тармоқларида ёки Интернет жаҳон ахборот тармоғида тарқатиш ёхуд бундай ахборотни тарқатиш билан қўрқитиш, — базавий ҳисоблаш миқдорининг йигирма беш бараваригача миқдорда жарима ёки икки юз қирк соатгача мажбурий жамоат ишлари ёхуд бир йилгача ахлоқ тузатиш ишлари билан жазоланади.

Ўша ҳаркатлар –

а) айбдорга моддий томондан, хизмат жиҳатдан ёки бошқа жиҳатдан қарам бўлган шахсга нисбатан

б) оғир оқибатларга сабаб бўлса

в) ғаразли ёки бошқа паст ниятларда

г) айбдорга моддий томондан, хизмат жиҳатидан ёки бошқа жиҳатдан қарам шахсга нисбатан содир этилган бўлса, -

базавий ҳисоблаш миқдорининг уч юз бараваридан тўрт юз бараваригача миқдорда жарима ёки муайян ҳуқуқдан маҳрум этиб, уч йилдан беш йилгача озодликни чеклаш ёхуд уч йилдан беш йилгача озодликдан маҳрум қилиш билан жазоланади.

Янги қабул қилиниши кўзда тутилган ҳуқуқий нормаларни ҳуқуқий экспертизадан ўтказиш амалиёти мавжуд.

Бизнинг фикримизча, лекин айнан маъмурий жавобгарлик тўғрисидаги, жиноят ва жиноят – процессуал ҳуқуқ нормаларини қабул қилиш олдидан айбсизлик презумпцияси қоидаларига мос келиши бўйича ҳуқуқий экспертизадан ўтказиш амалиётини йўлга қўйилиши ҳам жиноят ишларини юритиш сиёсатида инсонпарвар демократик ҳуқуқий нормалар қабул қилишининг кафолати бўлиб хизмат қилади деб ўйлаймиз.

Ҳуқуқни қўллаш амалиётида жиноятнинг сабаблари бунга имкон яратиб берган шарт – шароитларни бартараф қилишга доир суриштирувчи, терговчи, прокурорнинг тақдимнома киритиш амалиёти ўрганилганда, кўзда тутилган самарали натижани бермаётганлигини кўрсатмоқда. Жиноят ишининг тергови якунида жойларга киритилган тақдимномаларни кўриб чиқиши аҳоли таҳлил қилинганда, уларни ўз вақтида кўриб чиқилмаганлигини, киритилган тақдимнома бўйича кўриб чиқиш куни тўғрисида уни киритган органга хабардор қилинган бўлсада, уни кўриб чиқиш учун иштирок этилмалиги, тақдимномаларни ўз ҳолига ташлаб қўйилиши ёки номигагина суриштирувчи, терговчи ёки прокурорнинг иштирок этганлиги ҳақидаги баённомага киритилган ёзувлар билан уни натижасини расмийлаштириш ҳолатлари аниқланган.

Тергов натижаси бўйича терговчилар томонидан киритилган тақдимномалар амалиёти ўрганилганда, тақдимнома матнида терговчи томонидан шахсга эълон қилинган айбнинг мазмуни тўлалигича кўрсатилиб, жиноятнинг келиб чиқиш сабаблари, бунга имкон берган шарт-шароитларни бартараф қилиш чоралари кўрилмаганлиги ҳақида сабаблар ёритилиши амалиёти мавжуд.

Жумладан, тақдимномада давлат корхонасида жиноят содир этилишига олиб келадиган шарт-шароитлар, талон-торожликни келтириб чиқарилишига сабабчи бўлган омиллар ҳам кўрсатилмай фуқаро Д.Т.нинг давлат корхонасида жуда кўп миқдордаги пул маблағларини талон-торож қилинганлиги ҳолати бўйича тергов қилинган жиноят иши бўйича киритилган тақдимномада, терговчи С.Б. айбланувчи Д.Т.ни Ўзбекистон Республикаси ЖКнинг 167-моддаси 3-қисми “а, б, в” бандлари билан жиноят содир қилган тафсилоти тўлиқ ёритилиб берилган, холос [1]. Шунингдек, фуқаро С.Х., О.К., Р.К. ва бошқа шахсларга нисбатан тергов қилинган жиноят ишлари бўйича киритилган тақдимномаларда ҳам бундай камчиликлар такрорланган.

Фикримизча, суриштирувчи, терговчи, прокурор томонидан жиноятнинг сабаблари ва бунга имкон берган шарт-шароитларни бартараф қилиш тўғрисидаги киритилган тақдимномаларда жиноят иши бўйича жалб қилинган айбланувчининг тўлиқ тафсилоти ёритилиши, айб эълон қилинган шахснинг маълумотлари киритилиши, тергов натижаси бўйича айбланувчини айбдор деб ҳисобланишини билдириши айбсизлик презумпцияси нормаларига мос келмайди.

Келгусида, Ўзбекистон Республикаси ЖКнинг 297-моддасининг иккинчи қисмига қуйидаги мазмундаги нормаларни киритиш таклиф этилади.

**2. Айбсизлик презумпциясининг ўзига хос хусусиятлари**

Жиноят содир этган шахснинг исм фамилияси кўрсатилган ҳолда юқори турувчи корхона муассаса ташкилот номига тақдимнома юбориш амалиёти айбсизлик презумпцияси тамойилига мувофиқ келмайди.

Аслида эса, жиноят процессуал кодекси талабига кўра, жиноятнинг сабабларини ва уни содир этилишига имкон берган шарт-шароитларни бартараф қилишнинг йўллари кўрсатилиши лозим.

Шу сабабли, ЖПКнинг 297-моддасини янги 2-қисмини қуйидаги мазмунда тўлдириш таклиф этилади.

“Тақдимномада жиноят иши тергови натижаси билан айбланувчи сифатида ишга жалб қилинган шахс тўғрисидаги маълумотларни киритиш тақиқланади.”

Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2021 йил 10 сентябрдаги “Жиноятларнинг сабаблари ва уларнинг содир этилишига имкон берган шарт-шароитларни муҳокама қилиш тартиби тўғрисидаги низомни тасдиқлаш ҳақида”ги 565-сонли Қарорининг ижросини таъминлаш бўйича ўтказиладиган жиноят муҳокамаларида, сектор раҳбари ёки бошқа тегишли масъул шахс томонидан жиноят иши кўзғатиш ҳақидаги қарорни аҳолига (йиғилиш қатнашчиларига) тўлиғича ўқиб берилиши, бунда жиноят содир этган шахсни айбдор сифатида кўрсатилиши, жиноят содир этган шахсни расмини маҳаллада биносидаги пештахтага илиб қўйиш каби айбсизлик презумпцияси қоидаларига мутлақо мувофиқ келмайдиган қоидалар айбсизлик презумпциясининг конституциявий кафолатларига зид келади.

Хуқуқни қўллаш амалиётида жиноят иши кўзғатилган кунининг эртасидан бошлаб, 3 кун муддат ичида жиноят содир этган маҳаллада жиноятчилик муҳокама қилинади.

Бундан муҳокама қилиниши давомида эса муҳокамада иштирок этаётган шу маҳалла фуқаролари томонидан маърузачига савол берилиши ёки жиноят содир этган шахс олдиндан иштирокчиларга аён бўлган бўлиши мумкин. Бу эса шахсни конституция ва қонунлардаги айбсизлик презумпциясига нисбатан бўлган хуқуқларининг поймол бўлишига олиб келади.

Ёки, жиноят иши бўйича суднинг айблов ҳукми эълон қилинган шахсни ўзининг яшаш маҳалласида фотосурати, уни содир қилган жинояти ҳақидаги маълумотларни маҳалланинг пешлавҳасига илиб қўйилиши эса, акс таъсир қилиб бошқача оғир оқибатларга олиб келиши, айблов ҳукми билан айбдор деб топилган шахснинг яқин қариндошларининг бошқа хуқуқларини чекланишига сабаб бўлиши мумкин.

Шу учун Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Жиноятларнинг сабаблари ва уларнинг содир этилишига имкон берган шарт-шароитларни муҳокама қилиш тартиби тўғрисидаги низомни тасдиқлаш ҳақида” 565-сонли Қароридаги, “*шахсга тегишли бўлган фотосуратлар, шахс тўғрисидаги маълумотларнинг маҳалла фуқаролар йиғинидаги пешлавҳага маълумотлар илиб қўйилади*” деган жумлаларни олиб ташлаш таклиф қилинади.

Шахснинг фотосуратини унинг розилигисиз кенг жамоатчиликка эълон қилиш ҳам айбсизлик презумпциясига зид келувчи нормадир.

*Маҳалла фуқаролар йиғинида шахснинг фотосуратларининг илиб қўйилиши унинг яқин қариндошларини кейинчалик обрўсизланишига, уларнинг қонуний манфаатларига путур етказилишига сабабчи бўлади.*

Шу сабабли, Ўзбекистон Республикаси ВМнинг “Жиноятларнинг сабаблари ва уларнинг содир этилишига имкон берган шарт-шароитларни муҳокама қилиш тартиби тўғрисидаги низомни тасдиқлаш ҳақида” 565-сонли Қароридаги, “*шахсга тегишли бўлган фотосуратлар, шахс тўғрисидаги маълумотларнинг маҳалла фуқаролар йиғинидаги пешлавҳага маълумотлар илиб қўйилади*” деган жумлаларни чиқариб ташлаш таклиф этилади.

Жиноят ишини юритиш ваколатига эга бўлган мансабдор шахсларнинг хатти-ҳаракатлари бўйича келиб тушаётган мурожаатлар таҳлили шуни кўрсатмоқдаки, аксарият ҳолатларда ҳали шахс жиноят иши бўйича процессуал мақоми аниқланмаган бўлсада, бундай шахсга нисбатан ходимларнинг айбдор шахслардек муносабатда бўлиши, уларга нисбатан қўпол муомалада бўлганлиги каби ҳолатларга йўл қўйилиши ҳам айбсизлик презумпцияси қоидаларига мутлақо мос келмайди.

Келгусида, жиноят иши юритишга масъул бўлган ходимларнинг ахлоқ кодексига ҳар қандай шахс билан мулоқотда бўлишда уларга айбдорларга мулоқот бўлгани каби мулоқотда бўлмаслик бўйича аниқ нормаларни киритилиши айбсизлик презумпциясига доир кафолатларни янанда мустаҳкамланишига сабаб бўлади.

Ички ишлар органлари, давлат хавфсизлик хизмати органлари тергов изоляторларида, тергов хибсхоналарида шахсга аввал руҳий, психологик ёки жисмоний босим ўтказиб, ушбу босим ўтказган шахс иштирокида кейинчалик тергов ҳаракатларини ўтказиш (*мақсад босим ўтказган шахс олдида шахснинг айбдорлигини тан олдириши*) ҳаракати айбсизлик презумпцияси қоидаларига ҳам мутлақо мос келмайди.

Маълумки, 1999 йилда БМТнинг Инсон ҳуқуқлари бўйича Олий комиссиярияти томонидан мақбулланган “Истамбул протоколи” шахсларни қийноққа солганлик, шавқатсиз муомалада бўлганлик фактларини тергов қилиш қилиш, текшириш бўйича тавсиявий аҳамиятга эга халқаро ҳужжат ҳисобланади.

Мазкур тавсиялар бўйича ҳуқуқни муҳофаза қилиш органлари ходимларининг масъулиятини ошириш, айбсизлик презумпцияси қоидалари бузилганида тергов ҳаракатлари ўтказишнинг қоидаларини миллий қонунчилигимизга ратификация қилиш таклиф этилади.

Бундан ташқари, Ўзбекистон Республикаси Жиноят-процессуал Кодексининг 84-моддасида, шахснинг айблилиқ масаласини ҳал қилмай туриб жиноят ишини тугатишга доир нормалар айбсизлик презумпцияси қоидаларига ҳам тўла мос келади дейиш мушкул. Айбсизлик презумпцияси қоидаларининг замирида шахснинг айбли ёки айбдор эмаслиги масаласини исботлаш жиноят процессида масъул бўлган давлат органлари ва мансабдор шахсларнинг энг асосий вазифаси саналади.

Шундан келиб чиқиб айтиш мумкинки, қандай шароит бўлмасин, шахснинг у айбдор ёки айбсиз деб топилиши унинг содир бўлган жиноят ҳолатида айбдор ёки айбсизлиги аниқ бўлмоғи керак.

Шу сабабли, Ўзбекистон Республикаси ЖПКнинг 84-моддасидаги нормаларни қайта кўриб чиқиш тавсия этилади. Бундан ташқари, айбсизлик презумпциясига доир нормаларни Ўзбекистон Республикаси Маъмурий жавобгарлик тўғрисидаги Кодексга ҳам алоҳида принцип сифатида киритиш таклиф қилинади.

Маъмурий жавобгарлик тўғрисидаги Кодексга кўра, 33 та назорат қилувчи давлат органлари томонидан маъмурий жавобгарликка доир ишлар кўриб чиқилади. Бундай ишларни кўриб чиқишда ҳам айнан айбсизлик презумпцияси қоидаларига қатъий риоя қилиш талаб қилинади.

Клгусида маъмурий ҳуқуқбузарлик бўйича жавобгарликка тортиш масаласини ҳал қилиш ваколатига эга бўлган субъектлар (мансабдор шахслар) айбсизлик презумпцияси қоидаларига қатъий риоя қилиши шартлиги белгилувчи қоидалар киритиш таклиф этилади. Ўзбекистон Республикаси МЖТКга янги 3<sup>1</sup>-модда яъни “Маъмурий жавобгарлик тўғрисидаги ишларни юритишда айбсизлик презумпциясига риоя қилиш” деб номланган норма киритиш таклиф этилади.

“Давлат томонидан ваколат берилган орган ёки суд томонидан шахснинг маъмурий жавобгарлик тўғрисидаги иши кўриб чиқилаётганда, айбсизлик презумпциясига қоидаларига қатъий риоя қилиниши лозим” деган жумлалар киритиш таклиф этилади.

**Хулоса.** Фикримизча, айбсизлик презумпцияси қоидаларининг қасддан бузилиши ҳолатлари бўйича амалдаги маъмурий жавобгарлик тўғрисидаги ҳамда жиноят кодексларига янги моддий ҳуқуқий нормаларнинг киритилиши оммавий ахборот воситалари вакиллари, ҳуқуқни муҳофаза қилиш органи ходимлари, қолаверса, мансабдор шахслар ва фуқароларнинг масъулиятини оширишга хизмат қиладиган нормалар белгилаш таклиф этилади.

Ўзбекистон Республикаси Маъмурий жавобгарлик тўғрисидаги кодексга 46<sup>3</sup>-моддасига, “*Айбсизлик презумпцияси қоидаларини бузиш*” деб номлаб, “*Айбсизлик презумпцияси қоидаларига зид равишда шахс ҳақидаги маълумотларни ошкор қилиш фуқароларга базавий ҳисоблаш миқдорининг етти баравари, мансабдор шахсларга эса — эллик баравари миқдорида жарима солишга сабаб бўлади*” деб белгилаш лозим.

Ушбу ҳаракатларни айбсизлик презумпцияси қоидаларининг бузилиши бир йил ичида такроран содир этилган тақдирда, жиноий жавобгарликни назарда тутувчи нормалар киритилиши таклиф этилади. Келгусида айбсизлик презумпцияси қоидаларига риоя қилинишини таъминлашга, жиноят ишларини юритишга риоя қилишни таъминланишига хизмат қилади.

### АДАБИЁТЛАР:

1. Ўзбекистон Республикаси Жиноят-процессуал кодекс.

2. Ўзбекистон Республикаси Маъмурий жавобгарлик тўғрисида кодекс.

3. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маъкамасининг

2021 йил 10 сентябрдаги “Жиноятларнинг сабаблари ва уларнинг содир этилишига имкон берган шарт-шароитларни муҳофаза қилиш тартиби тўғрисидаги низомни тасдиқлаш ҳақида”ги 565-сонли Қарори.

## BUXORO AMIRLIGI VA ROSSIYA IMPERIYASI O‘RTASIDAGI ELCHILIK TORTIQLARINING ALMASHINUVI

*Klichev Oybek Abdurasulovich,*

*Buxoro davlat universiteti*

*Arxeologiya va Buxoro tarixi kafedrası dotsenti,*

*tarix fanlari doktori (DSc)*

*klichev\_oybek@mail.ru*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada XIX asrning ikkinchi yarmi - XX asr boshlarida Buxoro amirligi va Rossiya imperiyasi o‘rtasidagi diplomatik munosabatlarda sovg‘a almashinuv amaliyoti va uning tartiblashtirilishiga doir ma‘lumotlar tadqiq etiladi. Birlamchi manbalarga tayangan holda Buxoro amiri va Rossiya imperatori, Turkiston general-gubernatorlari o‘rtasidagi elchilik almashinuv tadbirlarida oliy darajadagi sovg‘alarning taqdim etilishi, bu jarayonni ixchamlashtirilishiga qaratilgan sa‘y-harakatlarning ikki tomon manfaatlari asosida hal etilishi tahlil qilingan.

**Kalit so‘zlar:** amir, general-gubernator, Hindiston, elchilik, A.B.Vrevskiy, siyosiy agent, tartib, Moskva, tortiq, Afg‘oniston, general-gubernator uyi, Tashqi ishlar vazirligi, qo‘shbegi, taklif, an‘ana, hukmron doiralari, Ostonaqul-biy.

## ОБМЕН ПОСОЛЬСТВЕННЫМИ ДАРАМИ МЕЖДУ БУХАРСКИМ ЭМИРАТОМ И РОССИЙСКОЙ ИМПЕРИЕЙ

**Аннотация.** В данной статье рассматривается практика обмена подарками и её регулирование в дипломатических отношениях между Бухарским эмиратом и Российской империей во второй половине XIX - начале XX века. На основании первоисточников было проанализировано представление подарков высокого уровня на мероприятиях по обмену посольствами между бухарским эмиром и российским императором, туркестанскими генерал-губернаторами, а также предпринятые усилия по упорядочению этого процесса в интересах обеих сторон.

**Ключевые слова:** эмир, генерал-губернатор, Индия, посольство, А.Б.Вревский, политический агент, Москва, дары, Афганистан, дом генерал-губернатора, Министерство иностранных дел, кушбеги, предложение, традиция, правящие круги, Останакул-бий.

## EXCHANGE OF EMBASSY GIFTS BETWEEN THE EMIRATE OF BUKHARA AND THE RUSSIAN EMPIRE

**Abstract.** This article examines the practice of gift exchange and its regulation in diplomatic relations between the Emirate of Bukhara and the Russian Empire in the second half of the XIX - early XX century. Based on primary sources, the presentation of high-level gifts at embassy exchange events between the Emir of Bukhara and the Russian Emperor, the Turkestan governors-General, as well as the efforts made to streamline this process in the interests of both sides, were analyzed.

**Keywords:** emir, Governor-General, India, embassy, A.B.Vrevsky, political agent, Moscow, gifts, Afghanistan, Governor-General's house, Ministry of Foreign Affairs, kushbegi, proposal, tradition, ruling circles, Ostanakul-biy.

**Kirish.** Hukumatlararo munosabatlarda elchilik aloqalari muhim o‘rin egallaydi. Ushbu jarayon ikkala ba‘zi hollarda bir necha manfaatlar chorrahasidagi muhim yo‘lo‘tkazgich hamdir. Diplomatik etiket va davlatlararo munosabatlar tarixida sovg‘a almashinuv tadbiri ahamiyatli bo‘lib elchilik, rasmiy tashriflar doirasidagi sovg‘a taqdim etish va qabul qilish jarayoni ham tartiblashtirilgan desak, xato bo‘lmaydi.

Imperiya va amirlik o‘rtasida sovg‘a almashinuviga oid ma‘lumotlar O‘zbekiston Milliy arxivi hamda Rossiya imperiyasi Tashqi ishlar vazirligi arxivida saqlanmoqda. Diplomatik protokolning bir qismi sifatida qaralgan sovg‘a almashinuv reglamentlashtirilgan masalalar sirasiga kiradi. Buxoro amirligi va Rossiya imperiyasi o‘rtasidagi munosabatlarda sovg‘a almashinuv masalasiga oid hujjatlar tahlili mazkur yo‘nalishda alohida tartib mavjudligini ko‘rsatmoqda.

Amirlik va imperiya o‘rtasidagi sovg‘a almashinuvini alohida guruhlariga ajratish mumkin. Jumladan,



1. imperator hukumatining Buxorodagi siyosiy agentga amir bilan uchrashuvdan so'ng taqdim etgan sovg'alari;

2. Buxoro amiri va Turkiston general-gubernatori o'rtasidagi an'anaviy elchilik almashinuvi;

3. imperator va amir o'rtasidagi diplomatik munosabatlardagi sovg'a almashinuvi. Mazkur uch guruh bilan bog'liq tartib ishlab chiqilgan va amirlik hukumatiga taqdim etilgan edi.

**Metodlari.** Mazkur maqolada tarix fanida tadqiqotlar olib borishning muammoli-xronologik, obyektivlik, tizimli tahlil metodlaridan foydalanilgan.

**Tadqiqot natijalari.** Sharqona an'anaga ko'ra, hukmdor qabulida bo'lgan shaxs uning marhamati-sovg'asiga ega bo'lgan. Shu nuqtayi nazardan 1886-yil yanvar oyidan o'z faoliyatini boshlagan siyosiy agentlik rahbari – siyosiy agentlar bunday e'tiborga sazovor bo'lganlar.

O'zbekiston Milliy arxivi hujjatlari imperiya va amirlik hukumati o'rtasidagi sovg'a almashinuviga oid masalalar hukumatlararo doirada hal etilganligini ko'rsatdi. 1890-yil avgust - noyabr oylarida siyosiy agent P.M.Lessar va amirlik qo'shbegisi Ostonaqul biy, bular bilan bir qatorda, Turkiston general-gubernatori A.B.Vrevskiy hamda Amir Abdulahad o'rtasidagi yozishmalar buni isbotlaydi.

Siyosiy agent general-gubernator nomiga 1890-yil 3-avgust sanasida yo'llagan maktubida siyosiy agentlik va amirlik hukumati o'rtasida sovg'a almashinuvini to'xtatishga ijobiy yondashganini bayon etadi. Maktub tahlili siyosiy agent ushbu masala yuzasidan amirlik hukumatiga ham murojaat qilganligini ko'rsatdi.

Amir nomiga yo'llangan maktubda Buxoroyi sharifda azaldan oliy qabulda bo'lganlarga sovg'a taqdim etish udumi mavjudligidan xabardor ekanligi bayon etiladi. Shundan so'ng, siyosiy agent Rossiya imperiyasining vakolatli amaldori sifatida bu tortiqlarni qabul qilolmasligiga qaramasdan mazkur tartibga rioya qilayotgani hamda Tashqi ishlar vazirligi xodimlari orasida faqatgina Buxorodagi imperator siyosiy agentligi ushbu tartibga istisno tarzida amal qilayotganligini ma'lum qiladi[1]. U o'z fikrlarini davom ettirgan holda ushbu istisnoga ruxsat etilishining o'zi Rossiya imperiyasi va Buxoro o'rtasidagi hamkorlikning yorqin isboti ekanligini ta'kidlaydi.

Turkiston general-gubernatori A.B.Vrevskiy nomiga yo'llangan maktubda esa siyosiy agent ushbu tartibdan bosqichma-bosqich voz kechish zarurati yuzaga kelganligini bayon etadi. Shuningdek, bugungi kunda dunyoning boshqa mamlakatlaridagi vakillik muassasalarida ham hudud ma'murlari tomonidan sovg'alar taqdim etish to'xtatilganligini ta'kidlagan edi. Buning isboti sifatida Istanbul ma'murlarining faoliyati bilan bir qatorda Eron shohlari ham ushbu tadbirni amalga oshirishni man etganligi bayon etiladi. Mazkur fikrlar siyosiy agent tomonidan qo'shbegi Ostonaqul biy vositasida amirlik ma'muriyatiga yetkaziladi.

Buxoro amiri va siyosiy agent o'rtasidagi sovg'a almashinuvi tadbiri bekor qilinmagan. Bunga mamlakat ichidagi ma'lum guruh vakillarining amir va Rossiya imperiyasi o'rtasidagi munosabatlar yomonlashgan deb tushunishlari xavfi ham sabab bo'lgan. Natijada, amir va siyosiy agentlik o'rtasidagi sovg'a almashinuvi tadbirlarida ba'zi o'zgarishlar kiritilgan. Ya'ni, endilikda amir sovg'alari siyosiy agentga uchrashuvdan keyingi kunda taqdim etila boshlanadi. Uning davriyligi ham o'zgarib, siyosiy agent va amir o'rtasidagi ba'zi bir uchrashuvdan so'nggina sovg'alar taqdim etila boshlangan. Keyinchalik esa bu tadbirdan bosqichma-bosqich voz kechish rejalashtirilgan ham edi. Ammo bunday bo'lmadi.

Amirlik hukumati tomonidan taqdim etiladigan sovg'alarni qabul qilish, bu tartibning bosqichma – bosqich bekor qilinishi bilan bog'liq masalalarga oid ma'lumotlarni Rossiya imperiyasi tashqi siyosati arxiv jamg'armasidagi yig'majildlardan uchratish mumkin. Siyosiy agentlik mazkur masala yuzasidan Tashqi ishlar vazirligi tizimidagi Osiyo departamentiga tegishli xabarlarini bildirgan. Shunday hujjatlardan biri 1894-yil 20-iyun sanasida yo'llangan maktubdir[2].

Maktub matnining tahlili shuni ko'rsatdiki, Buxoro amirining 1892-1893-yilgi Sankt-Peterburgga amalga oshirgan ilk tashrifi doirasida ham ushbu masala ko'tarilgan, ammo Buxoro amirining tashrifi munosabati bilan 1500 pudlik sovg'alar Moskvaga keltirilganligi munosabati bilan hal etilmasdan qolgan. Amirning keyingi tashriflarida ham u tomonidan taqdim etilayotgan sovg'alar masalasi deyarli ko'tarilmagan. Maktubda Turkiya va Eron hukumatlari sovg'a almashinuv munosabatlarini qay tartibda tartiblashtirganligi hamda Buxoro bundan farq qilmasligi kerakligi bayon etiladi.

Siyosiy agent o'zining ushbu maktubida imperiya hukumatining O'rta Osiyo mintaqasidagi obro'sini saqlashda sovg'alarning ahamiyati masalasida to'xtalib, ularni qabul qilish va unga yarasha javob qaytarish masalasiga ham alohida e'tibor bergan holda quyidagilarni ta'kidlagan: " ... Turkiston va Buxoro o'rtasidagi sovg'a almashinuvi xalq ko'z o'ngida amirlik va Rossiya o'rtasidagi munosabatlar do'stona ekanligini ko'rsatadi. Bu mustaqilligi saqlangan Buxoro amiri Abdulahadning nufuzini xalq nazdida saqlashga ko'maklashadi"[3].

Siyosiy agentning ushbu fikrlari bir tomondan go'yoki amir "nufuzini saqlash"ga intilishiga qaratilganday ko'rinsada, ammo bu masalaning o'zagi sharqona odat mahsuli edi. Masalaning bu jihati uning nazaridan chetda qolgan.

Siyosiy agentlik vakili o'z e'tiborini sovg'a almashinuvi bilan bog'liq masalaning ikkinchi jihati – javobsiz sovg'a olish tartibi, ya'ni rus ma'murlarining amirlik hukumati tomonidan taqdiranishi O'rta Osiyodagi imperiya hukumati nufuziga ta'sir ko'rsatishi mumkinligini bayon etadi. U o'z qarashlarini mazkur yo'nalishda Buyuk Britaniya yuritgan siyosat bilan taqqoslashga intilgan. U ingliz hukumatining Hindistondagi vakillari mahalliy hukmdorlardan hech qanday sovg'a olmaslikka kelishganliklari, elchilik natijasida kelib tushgan sovg'alar esa ingliz ma'murlari tomonidan sotilib, sovg'a almashinuvi uchun mo'ljallangan ajratma fondiga ko'chirilganligini ta'kidlaydi[4]. O'z fikrlarini davom ettirib, siyosiy agent, mazkur tajriba Afg'oniston amiri Abdurahmonxon va ingliz seri M.Dyurand o'rtasida ham amalda bo'lganligini bildiradi.

Siyosiy agent P.M.Lessar 1894-yil iyunda ham mazkur masalaga murojaat qilib, o'zining quyidagi takliflarini bildiradi.

1. Ikki mamlakat elchilik vakillari o'rtasidagi sovg'alar almashinuviga ruxsat berish bilan birga, ularni bosqichma-bosqich kamaytirish;

2. Buxoro amirligiga tashrif buyurgan hech bir rus imperiyasi amaldori amir va amirlik hukumati amaldorlaridan sovg'alarni olmasligi zarur.

So'ngra, ikkinchi taklif qabul qilinmagan taqdirda amir tomonidan taqdim etilgan sovg'alarni Buxoro amirligi hududida sotmaslik kerakligi ham ta'kidlanadi. Siyosiy agentning ushbu takliflari general-gubernator A.B.Vrevskiy tomonidan ma'qullanmagan. U buni mazkur masalalarning hal etilishi hali o'rinsiz ekanligi, ushbu masalaning ko'tarilishi ikki mamlakat o'rtasidagi munosabatlarga ta'sir qilishi va mavjud an'analarning buzilishiga olib kelishi mumkinligi bilan izohlagan.

Hujjatlar orasida Bosh shtab boshqaruvchisi A.N.Kuropatkinning 1898-yil 13-mayda Tashqi ishlar vazirligi vakili Graf Mixail Nikolaevich Muravev nomiga yuborgan maktubi ham aniqlandi. Unda A.N.Kuropatkin sovg'a almashuvini bekor qilish masalasiga oid quyidagi fikrni bayon etadi: *"..Bu tadbir birinchidan mavjud an'analarni, ikkinchidan esa Buxoro amirining shaxsiy huquqlarini cheklash va unga nisbatan hurmatsizlik sifatida baholanishi mumkin"* [5]. U fikrlarini davom ettirgan holda masalaga doir quyidagi takliflarini bildiradi.

1. Buxoro amiri va Turkiston general-gubernatori o'rtasidagi an'anaviy elchilik almashinuvini yiliga bir marotaba etib belgilash. General-gubernator nomiga kelgan amir sovg'alarini sotish natijasida kelib tushgan mablag'larning bir qismini xayriya, qolgan qismini esa o'z ixtiyori bilan sarf etish. Sovg'alar savdosini aslo general-gubernator uyida amalga oshirmaslik;

2. Amirlik va general-gubernatorlik o'rtasida joriy masalalar yuzasidagi safarlarni yiliga ikki marotaba, undan ko'p bo'lgan taqdirda ularni harbiy vazirlikka ma'lum qilgan holda amalga oshirish;

3. Buxoro amiriga ko'maklashgan yoki uning Buxoro va Sankt-Peterburg safarlarida hamrohlik qilgan shaxslarga amir tomonidan beriladigan sovg'a ulashish tadbiriga e'tiroz bildirmaslik va unga amir himmati sifatida qarash;

4. Buxoro amirligi hududida faoliyat ko'rsatayotgan harbiy va fuqarolik idoralariga qat'iy tanlov asosida xodimlarni saralash va qarzdorlarni ishga olmaslikni tavsiya etish (Bu tadbir ularning faoliyati ko'lamidan kelib chiqqan – O. A);

5. Buxoro amiri va Samarqand harbiy gubernatori o'rtasidagi elchilik munosabatlarini to'xtatish hamda Ashxobod, Samarqand va Toshkentdagi harbiy va fuqarolik idora xodimlariga amirlik hukumati bilan sovg'a almashinuvini amalga oshirishga ruxsat bermaslik.

Ushbu takliflar 1898-yilning may oyida Harbiy va Tashqi ishlar vazirligi tizimida ko'rib chiqilganligi – Turkiston general-gubernator hamda siyosiy agentlik mazkur masalaga oid qarashlari o'zaro muvofiqlashganligidan dalolatdir. Ikkala vazirlik yozishmalari ularning hududdagi vakillik muassasalari uchun ushbu masala yuzasidan kelgusi tadbirlar ko'lamini belgilab berdi.

Tashqi ishlar vazirligiga tegishli yig'majildlar orasida sovg'a almashinuvi masalasiga doir Bosh shtab hisobot hujjati mavjuddir. U *"О подарках жалужемых Эмиром Бухарским военным и гражданским чинам служащим в Туркестане"* deb nomlangan[6]. Hujjat matni bilan tanishish orqali 1898-yil 26-mayda yuqorida bayon etilgan A.N.Kuropatkinning takliflari imperatorga bildirilganligi hamda unga Tashqi ishlar vazirligi ham qarshilik qilmaganligini anglash mumkin.

Imperiya hukumati 1898-yilda general-gubernatorlik hamda amirlik o'rtasida elchilik amaliyotini qisqartirish, sovg'a almashinuvini imkon qadar tugatish masalasiga ichki siyosatini mustaqil yuritayotgan Buxoro amiriga cheklov sifatida qaralmasligi kerakligini ta'kidlasada, aslida bunga iqtisodiy xarajatlardan qutulish sifatida qaragan. Shu uchun bo'lsa kerak, siyosiy agent imperiya hukumatining sovg'alar

## HISTORY

almashinuvini bekor qilishni rus tartiblariga moslashuv deb qabul qilish va shunday tushuntirish tarafdori bo'lgan. Ammo amirlikdagi mavjud sharqona odatga rioya etilmasdan qolinmagan.

**Xulosalar.** Mazkur masalaga doir tarixiy voqealar tizimidan quyidagi xulosalarga kelish o'rinli.

Rossiya imperiyasi va Buxoro amirligi o'rtasidagi diplomatik munosabatlarda sovg'a almashinuvini hukumat doirasida alohida masala sifatida ko'rilgan. Bunda mahalliy va rus madaniyatining o'zaro yaxlit tizimga yo'naltirishga harakat qilinganligini ko'rishimiz mumkin.

Buxoro amirligi bilan munosabatlarni olib borishda sovg'a almashinuvini tartibini tizimlashtirish, undan bosqichma-bosqich voz kechish bilan bog'liq ishlarni tadqiq etishda siyosiy agent hamda Turkiston general-gubernator o'rtasidagi yozishmalar muhim ahamiyat kasb etadi. Ular asnosida Harbiy hamda Tashqi ishlar vazirligiga bo'ysunuvchi ma'murlarning ushbu masala yuzasidan bildirgan qarashlarini tahlil etish mumkin.

### ADABIYOTLAR:

1. *O'zbekiston Milliy arxivi (keyingi o'rinlarda O'zbekiston MA), I-1-fond, 29-ro'yxat, 914-yig'majild, 1-5 varaq.*
2. *Rossiya imperiyasi tashqi siyosat arxivi (keyingi o'rinlarda - RITSA), 147-fond, 485-ro'yxat, 260-yig'majild, 5- varaq.*
3. *RITSA, 147-fond, 485-ro'yxat, 260- yig'majild, 6 - varaq.*
4. *RITSA, 147-fond, 485-ro'yxat, 260- yig'majild, 7 - varaq.*
5. *RITSA, 147-fond, 485-ro'yxat, 260- yig'majild, 21 - varaq.*
6. *RITSA, 147-fond, 485-ro'yxat, 260- yig'majild, 22 - varaq.*
7. *Klichev O. Scholarships of Emirs of Bukhara // Oriente moderno. – 2020. – T. 100. – №. 1. – C. 57-74.*
8. *Abdurasulovich, Klichev Oybek. "Legal aspects of Russian political agency in the emirate of Bukhara (cross over review)." Austrian Journal of Humanities and Social Sciences 7-8 (2016): 7-9.*
9. *Klichev O.A. Discourse to the history of political agency in the emirate of Bukhara //Europaische Fachhochschule. – 2016. – №. 8. – C. 14-15.*
10. *K Oybek The Role of the Russian Political Agency in Diplomatic Relations between the Emirate of Bukhara and the Russian Empire // Oriente Moderno, 2023 Oriente Moderno. 2023. – Volume102: – Pp. 227-239 Brill. (Print Only-ISSN:0030-5472, Online – ISSN: 2213-8617.)*

**QUYI ZARAFSHON VOHASIDA ZIROATCHILIK HOMIYSI - BOBODEHQON  
BILAN BOG'LIQ URF-ODAT VA MAROSIMLAR (XIX asr oxiri - XX asr boshlari)**

*Jumayeva Nilufar Axmatovna,  
Buxoro davlat universiteti Arxeologiya va  
Buxoro tarixi kafedrasida katta o'qituvchisi*

**Annotatsiya.** Maqolada Buxoro vohasi aholisining XIX asr oxiri – XX asr boshlarida dehqonchilik bilan bog'liq urf – odat va marosimlari o'rganilib, milliy qadriyatlarimizda ularga bo'lgan hurmat va e'tibor juda yuqori ekanligi Sharq allomalarining qarashlari asosida tahlil qilib beriladi. Hozirda ziroatchilikning jamiyatdagi mavqeyini oshirish borasida amalga oshirilayotgan islohotlar tahlil qilinib, bu islohotlarning samaradorligi ko'p jihatdan milliy qadriyatlarimizga bog'liqligi ko'rsatib beriladi.

**Kalit so'zlar:** urf – odat, kult, dehqonchilik, farishtalar, Navro'z bayrami, otashparastlik, hosildorlik, mifologiya, olov.

**ОБЫЧАИ И ЦЕРЕМОНИИ, СВЯЗАННЫЕ С БОБОДЕХАНОМ - ПОКРОВИТЕЛЕМ  
ЗЕМЛЕДЕЛИЯ В НИЖНЕЗАРАФШАНСКОМ ОАЗИСЕ (конец XIX века - начало XX века).**

**Аннотация.** В статье исследуются обычаи и обряды, связанные с земледелием жителей Бухарского оазиса в конце 19-начале 20 веков, и уважение и внимание к ним очень высоки в наших национальных ценностях, основанных на взглядах восточных учёных. В настоящее время анализируются реформы, проводимые для улучшения положения сельского хозяйства в обществе, и показано, что эффективность этих реформ во многом зависит от наших национальных ценностей.

**Ключевые слова:** обычаи, культ, земледелие, ангелы земледелия, праздник Навруз, поклонение огню, урожайность, мифология, огонь.

**CUSTOMS AND CEREMONIES ASSOCIATED WITH BOBODEHAN, THE PATRON  
SAINT OF AGRICULTURE IN THE LOWER ZARAFSHAN OASIS  
(end of the XIX th century - beginning of the XX th century)**

**Abstract.** In the article, the customs and rituals related to farming of the inhabitants of the Bukhara oasis in the late 19th and early 20th centuries are studied, and the respect and attention to them is very high in our national values is analyzed based on the views of the scholars of the East. Currently, the reforms implemented to improve the status of agriculture in society are analyzed, and it is shown that the effectiveness of these reforms largely depends on our national values.

**Keywords:** customs, cult, farming, farming angels, Navruz holiday, fire worship, harvest, mythology, fire.

**Kirish.** Ziroatchilik bilan bog'liq bo'lgan xalq urf-odatlari va marosimlar dono xalqimiz tafakkurining g'aroyib mo'jizalaridan biridir. Ajdodlarimiz asrlar davomida ularga amal qilish bilan birga o'ziga xos qoidalar, duolar, aytimlar va alomatlarini ham yaratishgan. Ijtimoiy kundalik hayotda katta o'rin tutgan bu marosimlarda, avvalo, ziroatchilik bilan bog'liq udum va marosimlar o'zining kelib chiqish ildizlari islomgacha bo'lgan tabiat hodisalarini ilohiylashtirish, osmon va yer ilohlariga sig'inish bilan bog'liq bo'lgan.

Bajarilayotgan har bir irim, urf-odat zamirida voha ahlining ziroatchilik bilan bog'liq asriy hayotiy tajribalari, ziyraklik bilan uzluksiz kuzatishlari jamlangan bo'lib, ularning tub mohiyatiga e'tibor berilsa, ezgulikning hayotbaxsh nurlariga talpinish, dehqonchilikda samarali hosil yetishtirish, yuz berishi mumkin bo'lgan ko'ngilsizliklardan ogoh etish, halol mehnatni rag'batlantirish tabiat ne'matlarini ko'paytirish va avaylab asrashdan iborat bo'lgan.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.** XIX asr oxiri - XX asrning boshlarida Buxoro xonligiga qarashli barcha tumanlarida yashovchi aholining ijtimoiy-iqtisodiy hayotida patriarxal – urug'chilik munosabatlari an'analari hukm surardi. Bu davrda Rossiyaning O'rta Osiyoni bosib olishi o'zbek xalqi hayotidagi muhim ijtimoiy-siyosiy va madaniy muammolarni yoppasiga yuzaga chiqardi. Ijtimoiy

taraqqiyotning mana shu bosqichi dehqon va ziroatchilik bilan bog'liq bo'lgan bir qancha rasm-rusumlarning xarakterini belgilab berdi. Mavzuga doir adabiyotlarni quyidagi guruhga bo'lib o'rganish mumkin:

1. Dala yozuvlari.
2. Sovet davrida yaratilgan ilmiy tadqiqotlar.
3. Mustaqillik yillarida O'zbekistonda nashr yetilgan tadqiqotlar.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Mazkur ziroatchilikka bag'ishlangan kichik ilmiy tadqiqot ishi tarixiylik tamoyili, xronologik va qiyosiy tahlil usullariga tayangan holda yoritilgan.

**Tahlil va natijalar.** Qadimdan o'troq dehqonchilik bilan shug'ullangan Quyi Zarafshon vohasi aholisi ajdodlari tomonidan meros qilib qoldirilgan turli-tuman urf-odatlar, marosimlar va udumlarga qat'iy amal qilishgan hamda ularning magik (sehrgarlik) kuchiga ishonishgan. Ijtimoiy hayotda katta o'rin tutgan bu marosimlarda. Avvalo ziroatchilik bilan bog'liq udum va marosimlarning ko'plari o'zining kelib chiqish ildizlari islomgacha bo'lgan tabiat hodisalarini ilohiylashtirish, osmon va yer ilohlariga sig'inish bilan bog'liq bo'lgan. Shuningdek, ko'plab ziroat urf-odat va marosimlarini islomgacha bo'lgan e'tiqodiy qarashlar bilan islomiy qarashlarning qorishgan sinkratik tarzda ham uchratamiz.

Bajarilayotgan har bir irim, urf-odat zamirida voha aholining ziroatchilik bilan bog'liq asriy hayotiy tajribalari, ziyraklik bilan uzluksiz kuzatishlari jamlangan bo'lib, ularning tub mohiyatiga e'tibor berilsa, ezgulikning hayotbaxsh nurlariga talpinish, dehqonchilikda samarali hosil etishtirish, odamlarni hosil etishtirishda bo'lishi mumkin bo'lgan ko'ngilsizliklardan ogoh etish, halol mehnatni rivojlantirish, tabiat ne'matlarini ko'paytirish va avaylab asrashdan iborat bo'lgan.

Ziroatchilik bilan bog'liq xalq urf-odatlar va marosimlar dono xalqimiz tafakkurining g'aroyib mo'jizalaridan biridir. Ajdodlarimiz necha – necha asrlar ularga amal qilish bilan birga ularga taalluqli qoidalar duolar, aytimlar va alomatlarini ham yaratishgan.

XIX asrning oxiri – XX asrning boshlarida Buxoro vohasida yashovchi aholining ijtimoiy – iqtisodiy hayotida patriarxal munosabatlar hukm surardi. Bu davrda Rossiyaning O'rta Osiyoni bosib olishi o'zbek xalqi hayotidagi muhim ijtimoiy-siyosiy va madaniy muammolarni yoppasiga yuzaga chiqardi. Ijtimoiy taraqqiyotning mana shu bosqichi dehqon va ziroatchilik bilan bog'liq bo'lgan bir qancha rasm – rusumlarning xarakterini belgilab berdi.

Vohada ham bu udumlar xalqning yashash va mehnat tarzi bilan bog'lanib o'tkazib kelingan. Ayniqsa, O'rta Osiyodagi boshqa xalqlar kabi ziroatchilik xomiysi – Bobodehqon kulti va u bilan bog'liq urf –odatlar keng tarqalgan.

Axborotchilarning ma'lumotlaridan shu narsa ma'lumki, dehqonchilikning homiysi Bobodehqon halol mehnat bilan kun ko'ruvchi, boshqalar xaqidan hazar qiluvchi dehqonlarga homiylik qiluvchi, ularning mehnat unumiga unum qo'shuvchi pir hisoblangan. U ayni sahar paytida dehqonlar ko'targan xirmonlarda paydo bo'lib, tong sahar turgan Dehqonlarning xirmoniga baraka ulashib ularning yetishtirgan hosilini to'kilib, sochilib isrof bo'lishdan asrar emish. Qadimgi yozma manbalarni kuzatish jarayonida Bobodehqon obrazi bilan bog'liq bir ma'lumotga duch keldik. Nosiruddin Burhoniddin Rabg'uziyning asarida ziroatchilikning homiysi Bobodehqon Odam timsolida o'z aksini topadi.

Asardagi «Qissayi Odam safiy alayhissalom» hikoyatida agar Olloh Jabroil, Isrofil, Mikoil, Azroil kabi farishtalarni yaratmaganda, olam bunchalar rang – barang rivojlanmagan bo'lardi, deyiladi. Qachonki biror narsani yaratish zarur bo'lsa yoxud boshqa bir ishni amalga oshirmoqchi bo'lsa, shu farishtalar xizmatidan foydalanadi. Axborotchilarimizning fikriga qaraganda, yaxshilik farishtalari yerga tushib dehqonlarga, chorvadorlarga yoxud boshqa kasb egalariga yaxshilik qilmoqchi bo'lsalar, Xo'jayi Xizr, Bobodehqon, Dehqonbobo suratida paydo bo'lishar ekan.

Keksalarning aytishicha, farishtalar osmon toqida yashashadi. Ularni hech kim ko'rmaydi, faqatgina ko'ngil ko'zi bilan ilg'ash mumkin. Shu boisdan ham ular hech kutilmagan yerda namoyon bo'larkan.

Yuqorida nomi eslatilgan Rabg'uziyning hikoyatidan shu narsa ayon bo'ladi, «Odam Hindustonda Anjalus otlig' yerda Sarandib tog'inga tushdi. Havvo Jadda tog'inga tushdi. Odamning yoshi tomgan yerda o't – em, achig' – chuchuk dorular bo'ldi. Havvoning ko'zi yoshi tomgan yerda ud, karanful, sunbul, xino, o'sma undi». Demak, yerda paydo bo'lgan o't-o'lanlar, xayvonlar inson (Odamning) mo'jizasi tufayli ro'y bergan ekan.

Odam ato va Momo Havo yerga quvilgach ularning yashash uchun sharoit zarur edi. Ular yerga tushgach, qorinlari och qoladi. Shunda Jabroil yordamga kelib, ularga xo'kiz, bug'doy olib keladi. Odamga yer haydashni, urug' sepishi, o'simlikni parvarish qilishni, g'alla o'rishni, yanchishni, un qilishni va pishirishni o'rgatadi.

Demak, Odam dehqonchilikda zarur bo'lgan barcha qurollarning, madaniy o'simliklarning ijodkori – piridir. Keksalar aytgandek, barcha ishlar – dehqonchilik ham, chorvachilik ham, hunarmandchilik ham

Odamdan meros qolgan. Odam – Bobodehqon ko‘zga ko‘rinmaydi, ammo unga qurbonlik qilib murojaat qilinganda kishilarga yordam ko‘rsatadi, ekinlarga rivoj berib, balo-qazolardan asraydi, degan tasavvurlar yuzaga kelgan.

Bobodehqon timsolini ziroatchilar bitta suratda tasavvur qilisholmaydi. Shuningdek, faqat Bobodehqonga bag‘ishlangan alohida marosim ham yo‘q. Bobodehqon turli marosimlarda tilga olinadi. uning ramzi sifatida ko‘p o‘rinlarda soqoliga oq tushgan keksa kishi ish bajaradi. Kuz yoki erta bahorda dalaga ko‘sh tushganda, ariqlarni tozalashda, urug‘ ekishda, g‘alla o‘rishda, xirmondagi donni sovurishda birinchi ishni badavlat, bola – chaqasi, nevara – chevarasi ko‘p, ishi doim oldinga ketadigan tadbirkor, obro‘li kishi boshlab bergan. Dehqonchilikdagi har qanday ishning boshlamasida Bobodehqon ramzidaga keksa otaxonlar turishgan. Yuqoridagi fikrlarni N.A.Kislyakov, K.A.Bogomolova, M.R.Raximov, M.Sandreyev, L.F.Monogarova kabi elshunos olimlarning ma‘lumotlari ham tasdiqdaydi.

Elshunos olim I.Muhiddinovning yozishicha, Buxoro vohasidagi barcha qishloqlarda Bobodehqon vazifasini «faygunay» yoki «shogun» deb atalgan eng hurmatli, tajribali qariya bajargan. Xingo daryosi havzasidagi tojiklaruni «shavgun», Rushon, Bartang va Xufda «xushpayqadam» deyishgan. Ularning vazifasi avloddan-avlodga o‘tgan. M.S.Andreyev ham yuqoridagi fikrlarni tasdiqlab, har qaysi «qutlug‘ qadam» (xush poyqadam) yoki «omad keltiruvchi») avloddan-avlodga yoxud otadan o‘g‘ilga o‘tgan, qo‘li yengil bo‘lgan odam tomonidan bajarilgan, u ziroatchilik marosimida aniq bir vazifani bajargan: birinchi qo‘sh chiqarish – shudgorlashda, urug‘ sochishda, g‘alla o‘rish va sug‘orishda bosh bo‘lgan, shuningdek, etti kun mobaynida erkaklarning ayollar mashg‘ul bo‘lgan yozgi yaylovga borishini taqiqlagan.

Shuni ta‘kidlash kerakki, axborotchilarimizning xabarlariga qaraganda, Buxoro vohasida Bobodehqon timsolini bajaruvchi shaxslar oldindan belgilab qo‘yilmagan, ya‘ni bu vazifani xamisha bir kishi bajarmagan. Shu boisdan ham bu vazifa otadan o‘g‘ilga qoldirilmagan. Jondor tumanidagi Buxorcha qishlog‘ida, agar qishloqda eshon kishi yashasa, ko‘proq Bobodehqon vazifasini o‘sha kishi bajargan. Agar eshon olamdan o‘tsa, uning o‘rnini katta o‘g‘illaridan biri bajargan.

O‘rta Osiyoning boshqa hududlaridagi singari Buxoro vohasida ham Bobodehqon timsolini nuroniy chol qiyofasida tasavvur qilishgan. Jondor tumanida qo‘sh chiqarish, g‘alla o‘rimi, xirmon yanchish marosimlarida nuroniy chol ishtirok etolmay qolsa, bu vazifani davradagi eng eshi katta kishi bajargan. U kishining yoshi 50, 55, 60 da ham bo‘lishi mumkin ekan.

Qorako‘l tumanida ilm egasi qishloq mullasi yoxud uning o‘g‘illaridan biri ham marosim chog‘ida «Qur‘on»dan oyatlar o‘qib duo qilishi, ishni esa keksaroq kishi boshlab berishi mumkin deyishar ekan. Yuqoridagi ma‘lumotlar zamirida Bobodehqon timsolida bir necha xil mifologik personajlarni tasavvur qilish an‘anasi mavjudligidan dalolat beradi. Islom dini paydo bo‘lgandan so‘ng yaratilgan «Nurnoma» majmuasining «Risolayi dehqon» bobida «Odam alayhissalomdan to janob rasulilloh Sallollohu alayhi vasallamning saodatlarigacha 7777 dehqon o‘tibdurlar. Hammalari oqil va dono va kasb-koriga muvofiq risola va sohib duo edilar» deyiladi. Balki «Nurnoma»ning el orasida tarqalishi ziroatchilar tasavvuridagi Bobodehqon timsolining shakllanishiga asos bo‘lgan bo‘lishi ham mumkin.

Dehqonchilik bilan shug‘ullanadigan aholi hosilning miqdorini tabiatga va undagi sehrli (magik) kuchlarga bag‘ishlagan. Ba‘zan ekinlarning rivoji past bo‘lib, hosil kam bo‘lsa va bu hodisa ikki – uch qaytarilsa bunday yerga odamlar salbiy nazar bilan qarashgan. Giyoh unmaydigan yoki kam hosilli paykallarni «it tekkan yer» (ins- jins tekkan ma‘nosida), «xudo qarq‘agan yer» deb nomlashgan.

Etnograf olim G.P.Snesaryevning ma‘lumotlariga qaraganda xorazmlilar o‘lgan odamning jasadi tekkan yerni nopok, deb biladilar. Agar yaqin ekiladigan yerda odam jasadi yoki uning suyaklari topilsa, bu joy harom hisoblangan. Bunday yerni besh marta sug‘organdan keyingina ekin ekishgan. Ayrim joylarda esa bunday yerlarning atrofini uvat olib o‘rab qo‘yishgan va 2-3 yil davomida sug‘ormaganlar, ekin ham ekmagan.

Axborotchilarning bergan ma‘lumotlaridan shu narsani anglash mumkinki, voha dehqonlari Bobodehqonning Xizr qiyofasida ham tasavvur qilganlar. Demak, ajdodlarimizning o‘ylashicha, Xizr bobo halol mexnat qilgan, pokiza, diyonatli insonlarning oldida hamisha hoziru nozir. Xizr – arxaiik mifologiyada bahor va tirilish ramzi: keyincha bu Sharq diniy va epos badiiy tafakkuri orqali «obi hayot» tiriklik – suvi baxsh etuvchi, degan tasavvur qo‘shiladi. Yuqoridagi hikoyani nazarda tugib shuni aytish mumkinki, «o‘lik yer»ni tiriltirishga intilgan qo‘shchiga Xizr bobo yordamga kelgan. Kishilarning nazarida «o‘lik yer» tirilgan va mo‘l-ko‘l hosil berishi mumkin.

Albatta, dehqonlar kuzgi va bahorgi shudgor, ekin-tikin, sug‘orish, o‘rish, xirmon qilish, yanchish ishlarida Xizr bobodan yordam so‘rashgan. Kishilar Xizr boboni har joyda uchratish mumkin, deb o‘ylashadi. Axborotchi Bahodir Abdurazzoqovning hikoya qilishicha, begona kishi bilan berib ko‘rishayotganda ba‘zi keksalar hamrohining bosh barmog‘ini siqib ushlaydi. Sababi ko‘rishayotgan shaxs Xizr bo‘lsa, bosh barmog‘ining suyagi bo‘lmas ekan. Suyaksiz barmoqni ushlagan kishi Xizrdan qat‘iy biror

## HISTORY

narsani so‘rash imkoniyati bo‘lgan. Kishilarning tushunchasicha Xizr bobona faqat ziroatchilarga, balki chorvadorlarga ham, ovchilarga ham va boshqa kasb egalariga ham, befarzand kishilarga ham, og‘ir kasalga ham o‘zining karomatini ko‘rsatgan, yordam bergan.

Xalq tasavvurida Xo‘jayi Xizr ko‘lida hassa ushlagan, goh piyoda, goh eshak mingan orasta kiyingan chol sifatida gavalantirilgan.

Dehqonchilikning ko‘zini biladigan keksa kishilarni «Xizr ko‘rgan» yoki «Xizr ko‘rganning bolasi» deyishgan. Dehqonchilikdan mo‘l hosil olgan kishilarni ham «Dehqon boboning nafasi tekkan» yoki «Dalasidan Dehqonbobobo hassasini sudrab o‘tgan» deb ulug‘lashgan. Axborotchi Kenja bobo Jumanazarovning ta‘kidlashicha, otasi ekan bug‘doy, arpa o‘sib, otga tenglashgan ekan. Kishilar «boy buvaning yeridan Dehqonbobobo etagini sudrab o‘tgan, doni omborga sig‘maydi» deb gap kilisharkan. Ko‘pning gapida Xizr bor deganlaridek, don omborga sig‘may, ortganini o‘raga ko‘mishgan ekan.

Xalqimizda Bobodehqon haqida turli rivoyatlar, afsona va ertaklar mavjud, bir – birini to‘ldiruvchi bunday folklor asarlari qaysidir ma‘noda Bobodehqonni ulug‘lashga xizmat qiladi.

Ajdodlarimiz mifologiyasida muqaddas kult darajasiga ko‘tarilgan Bobodehqon timsoliga voha dehqonlarining ham e‘tiqod qilishi asosli edi. Bobodehqon bilan bog‘liq marosimlarga mullalar tomonidan ilohiy tus berildi. Natijada marosimning mazmundorligi, kishilar orasidagi mavqeyi ancha ortgan.

**Xulosa** qilib shuni aytish mumkinki, O‘rta Osiyoda yashovchi xalqlar orasida ziroatchilik homiysi Bobodehqon yoki Dehqonbobobo obrazining tarixiy – mifologik asoslari kadimgi hosildorlik ilohi bilan bog‘liq. Qadimgi ajdodlarimizning e‘tiqodiy ishonchlari, tabiat hodisalarini ilohiylashtirish bilan bog‘liq mifologik hosildorlik xudosi yoki hosildorlik ilohlariga topinish an‘analari zamirida paydo bo‘lgan hamda homiy kuch timsoli sifatida mifologik qahramonlar qatoridan o‘rin olgan va keyinchalik ularga islomiy tus berilgan.

Demak, xalqimizning ziroatchilik homiysi Bobodehqon kultiga sig‘inish udumida islomgacha bo‘lgan e‘tiqodiy qarashlarning islomiy an‘analar bilan qorishiq holda sinkretik tarzda saqlanib kelayotganligini ko‘rishimiz mumkin.

### ADABIYOTLAR:

1. Богомолова К.А. Следы древнего культа воды у таджиков//Иzv.отд. общественных наук. АН Тадж ССР. Сталинабад, 1952. - Вып. 2. - С. 19-21.
2. Кисляков Н.А. Патриархально-феодалные отношения среди оседлого сельского населения Бухарского ханства в конце XIX - начала XX вв//ТИЭ. -М-Л. 1962. – С.
3. Рахимов М.Р. Земледелие бассейна р. Хингоу в дореволюционный период. // Труды АН Тадж ССР. - Сталинабад, 1957. Т. 43. - С. 7.
4. Моногарова Л.Ф. Материалы по этнографии ёзгулумцев//ТИЭ. н.с.. 1959. т.XI. - Вып. VII - С. 12
5. Носируддин Бурхониддин Рабзузий. Киссаси Рабзузий. 1-китоб. -Т.: Ёзувчи. 1990. -Б. 25-26
6. «Нурнома» мажмуаси. -Т., 1991. -Б. 32.
7. Снесарев Г.П. Реликты домусульманских верований и обрядов у узбеков Хarezма. - М.:Наука,1969.-С.226.
8. Ёзбек мифологик афсоналарида Хизр тириклик бахш этадиган хаёт сувини топиб ичганлиги учун абадий бархаётликка эришган мўъжизакор хомий ҳисобланади. Шу боис Хизр образи кўпинча сув манбалари билан боғлиқ холда тасвирланади. Ипак йўли афсоналари. Тўплаб, нашрга тайёрловчи: М.Жураев. -Т.: Фан, 1993. -Б. 87-88.
9. Дала ёзувлари, 1996 йил. Жондор тумани, Бухорча қишлоғи.
10. Дала ёзувлари, 1997 йил. Жондор тумани, Беклар қишлоғи.

## СУҒДНИНГ ИЛК ЎРТА АСРЛАРДАГИ СИЁСИЙ ВА МАДАНИЙ МАРКАЗИ БЎЛГАН КЕШ ХУСУСИДА АЙРИМ МУЛОҲАЗАЛАР

*Эркинова Нилуфар Миршод қизи,  
Бухоро давлат университети  
Тарих ва юридик факультети талабаси*

**Аннотация.** Ушбу мақолада Кеш шахрининг Суғднинг илк ўрта асрлардаги сиёсий ва маданий марказ сифатидаги мавқеи, Хитой тарихий манбаларида Кеш давлати ва вилоятининг тарихий географик таснифи, Чу дарёсидан Шахрисабзгача бўлган ҳудудларни Сулик мамлақати деб номланганлиги, Кеш шахрини антик давр ва илк ўрта асрларнинг дастлабки босқичида Суғднинг сиёсий, маданий ва иқтисодий марказлардан бири бўлганлиги ҳамда Кеш шахри маданий ва халқаро алоқаларда Суғднинг ривожланган марказларидан бири бўлганлиги тарихий манбалар, жумладан, Хитой манбалари асосида таҳлил этилган.

**Калит сўзлар:** Ши давлати, Думо дарёси, Ли, Тухуло давлати, Ми, Сулик мамлақати, Кеш шоҳи, ҳукмдор Шишипир, “Китоб-ал Булдон”, Хан Шу, Сусе, Хунь Янь, Читрагандха, Цюйша.

## НЕКОТОРЫЕ РАЗМЫШЛЕНИЯ О КЕШЕ - ПОЛИТИЧЕСКОМ И КУЛЬТУРНОМ ЦЕНТРЕ СОГДА В РАННЕМ СРЕДНЕВЕКОВЬЕ

**Аннотация.** В данной статье рассматривается положение города Кеш как политического и культурного центра Согда в раннем средневековье, историко-географическая классификация государства и провинции Кеш в китайских исторических источниках, факт расположения территории от реки Чу. Шахрисабзом называли страну Сулик, город Кеш на политическом и культурном этапах Согда в древности и раннем средневековье и то, что он был одним из экономических центров и что город Кеш был одним из развитых центров Согда с точки зрения культурных и международных связей проанализировано на основе исторических источников, в том числе китайских источников.

**Ключевые слова:** государство Ши, Река Думо, Ли, Государство Тухуло, Ми, страна Сулик, царь Кеша, правитель Шишипир, «Китаб-ал Булдон», Хань Шу, Сьюэ, Хун Ян, Читрагандха, Цюша.

## SOME REFLECTIONS ON KESH - THE POLITICAL AND CULTURAL CENTRE OF SOGD IN THE EARLY MEDIEVAL PERIOD

**Abstract.** In this article, the position of the city of Kesh as a political and cultural center of Soghd in the early Middle Ages, the historical geographical classification of the state and region of Kesh in Chinese historical sources, the fact that the territory from the Chu River to Shakhrisabz was called the country of Sulik, the city of Kesh in the political and cultural history of Soghd in antiquity and the early Middle Ages and the fact that it was one of the economic centers and that the city of Kesh was one of the developed centers of Sogd in terms of cultural and international relations was analyzed based on historical sources, including Chinese sources.

**Keywords:** Shi state, Dumo River, Li, Tuxhulo State, Mi, Sulik Country, King of Kesh, Ruler Shishpir, "Kitab-al Buldon", Han Shu, Suse, Hun Yan, Chitragandha, Tsyusha.

**Қириш.** Кеш шахри тарихий манба ва адабиётларда Жанубий Суғднинг марказий шахри бўлганлиги тўғрисида далиллар мавжуд. Ушбу мақолада антик ва илк ўрта асрлар даврида Шарқ, хусусан, Хитой тарихига оид манба, тарихий адабиётларда Кеш шахрининг Жанубий Суғд, Туркистон минтақасида, шунингдек, халқаро муносабатларда тутган мавқеига оид маълумотларни таҳлил этиш мақсад қилиб қўйилди. Шунингдек, Кешнинг иқтисодий, сиёсий ва маданий марказ сифатидаги ролини ҳам кўрсатишга ҳаракат қилинди. Хитой тарихий манбаларида Кеш давлати ва вилоятининг тарихий географик таснифи келтирилган бўлиб, уларда “Кеш (Шы) давлати пойтахти ҳам шу ном билан юритилиши, пойтахт Думо (Танқосдарё)дан 10 ли (1 ли-479 м) жанубда жойлашганлиги, ушбу ерлар қадимий Қанғюй давлати ерлари эканлиги, ҳукмдор Чжао-у деб номланиши, ҳукмдор қароргоҳи 2 ли масофадаги мудофа девори билан ўраб олинганлиги, доимий қўшин сони 1000 кишини ташкил этиши, Шимолда Кан (Самарқанд) давлатигача 240 ли, жанубда



Тухуло (Тохаристон) давлатигача 500 ли, Фарбада Нашеболо (Насаф)гача 200 ли, шимолий-шарқда Ми (Маймурғ)гача 200 ли атрофидаги ерлар ушбу давлат тасарруфида”[1:274] эканлиги билан боғлиқ маълумотлар келтириб ўтилган.

**Асосий қисм.** Илк ўрта асрларда ҳам Кеш Туркистон минтақасида муҳим маданий марказлардан бири бўлган деб айтишга далиллар етарли бўлиб бу даврда суғдлар, ривожланган ўрта асрларда Моварауннаҳр ва хоразмликлар, сўнги ўрта асрларда бухороликлар ва хиваликлар халқаро алоқаларда катта ўрин тутиб, турли ўлкаларни ўзаро боғлашда асосий воситачи бўлиб келдилар [2:360]. Кешнинг минтақадаги маданий ва сиёсий марказлардан бири эканлигини Сюань Цзянь маълумотлари ҳам тасдиқлайди. Унинг маълумотларида, Чу дарёсидан Шахрисабзгача бўлган худудларни Сулик мамлакати деб номланганлигини кўриш мумкин. Шунингдек, у ушбу минтақада ягона тил ва маданиятга эга халқлар истиқомат қилишини ёзиб қолдирган. Академик В.В.Бартольд Сулик буддавийча-манихейча талаффузда Суғд сўзининг ўзгарган шакли деб келтиради. Бундан ташқари Фарғонанинг шимолий-ғарбий худудларидан Шахрисабзгача бўлган ерлар мил.авв II асрда Қанғ давлати таркибига кирганлиги, Хитой манбаларида эса, бу ягона маданий минтақа деб қаралиши билан боғлиқ фикр-мулоҳазаларни ҳам келтириб ўтганлигини кўришимиз мумкин.[3:179]

Шунингдек, Сюань Цзянь хотираларида; “Сушэшуй (Чу дарёси)дан Цзешуанна (Шахрисабз)гача бўлган ерлар қадимда Сули деб номланиши, мамлакатда қўлланиладиган ёзувлари 30 та атрофида эканлиги, ёзувларни тепадан пастга қараб ёзишлари ва ўқишлари, кийимлари чарм ва жундан, қисман матодан тайёрланиши, кийимлари этаклари калта бўлиши, аёллар узун соч кўйиш, эркаклар сочларини калта олдириши ёки бутунлай қиртишлаб ташлаши, пешоналарига нақшлар чизилган майин лента тақиб юришлари”[4:40] билан боғлиқ маълумотлар келтириб, аҳолининг одатлари ва турмуш тарзи тўғрисида ҳам қимматли маълумотлар беради.

Ёзма манбаларга, хусусан, илк ўрта асрларга оид маълумотларга таянган В.В. Бартольд Кеш шаҳрини нафақат жанубий Суғдда, балки бутун Суғдиёна минтақасида дастлабки сиёсий етакчи шаҳар бўлган, деган фикрларни илгари суради. Жумладан, олим ўз фикрини асослаш учун араб муаррихи Ёқубийнинг “Китоб ал-Булдон” асаридаги маълумотларига кўра, Шахрисабз-Суғднинг қадимда бош шаҳри бўлганлиги билан боғлиқ фикр-мулоҳазаларни келтириб ўтиш ўринли деб ҳисоблайди[5:188]. Археологик манбаларда ҳам милодимиз бошларида Суғд минтақасида Кеш шаҳрининг маданий ва сиёсий марказлардан бири бўлганлигини асословчи далиллар мавжуд. XX асрнинг 60-йилларида Қашқадарё воҳасида олиб борилган археологик изланишлар натижасида милодий III-IV асрларга оид тангалардаги суғдий ёзувларни айрим олимлар шоҳ Канишка тарзида ўқиган. Аммо кейинчалик таниқли суғдшунос олима, О.И. Смирнова ушбу тангалардаги ёзувларни таҳлил этиб, ёзувларни “Кеш шоҳи (хукмдори)” тарзида ўқилишини кўрсатиб берган [6:273]. Юқоридаги фикр-мулоҳазалардан кўриниб турибдики, Кеш шаҳри милод бошларида нафақат жанубий Суғднинг, балки бутун Суғдиёнанинг марказий шаҳарларидан ҳисобланиб, маданий, иқтисодий ва сиёсий маркази бўлган. Чунки танга пулларни чиқариш ва унда хукмдор тасвирларининг акс эттирилиши, шаҳар мавқеини, давлатнинг қудратини кўрсатувчи омиллар билан бир қаторда шаҳарнинг мустақил тарзда сиёсат юритганлигидан ҳам далолат беради. Суғднинг биринчи ихшиди Шишпир (тахм. VII асрнинг 40-60- йилларида ҳукумронлик қилган) илк бора маҳаллий танга пул муомаласини йўлга қўйган хукмдорлардан бўлиб ҳисобланади. У зарб қилган тангаларнинг катгаси 25-26 мм диаметрли, 5 грамм оғирликда, кичик тангалари эса, 19-22 диаметр, 2,4 грамм оғирликда эканлиги, энг асосийси унинг Кеш хукмдори бўлганлиги билан боғлиқ маълумотлар Кеш шаҳрини антик давр ва илк ўрта асрларнинг дастлабки босқичида Суғднинг сиёсий, маданий ва иқтисодий марказлардан бири бўлганлигини кўрсатиб беради [7:168].

Тарихий адабиётларнинг айримларида Сўғд сўзининг келиб чиқиши ҳам айнан Кеш шаҳрининг қадимий номланишидан олинганлиги билан боғлиқ фикр-мулоҳазалар келтириб ўтилганлигини кўришимиз мумкин. Хитойнинг Хан сулоласи йилномаси “Хан шу” (“Хан хонадони тарихи”) асарининг 96 бўлимида “Қанғ давлати ҳақида”ги маълумотларда Сусе давлатдаги бешта кичик князлик (сяо ван)лардан биринчиси эканлиги, князь пойтахти ва ўлка ҳам Сусе деб номланиши, князь қароргоҳидан Хитойнинг Дунхуандаги чегара пости Янгуангача 8025 ли масофа эканлиги билан боғлиқ маълумотларни учратиш мумкин[8:273]. Бундан Суғд ўлкасининг Кешнинг номи билан бир хил аталиши ва унинг марказий шаҳри ҳам Кеш эканлиги билан боғлиқ хулосага келиш мумкин. В.В. Бартольд келтирган маълумотлар ҳам юқоридаги фикр-мулоҳазаларни тасдиқлашга хизмат қилади. Туркистон ўлкасининг тарихий географиясига бағишланган асарида, олим Кеш Суғднинг қадимий пойтахти деб ҳисоблангани, эҳтимолки Кеш шаҳрининг хитойча Сусе номланишидан кейинчалик Суғд атамаси келиб чиққан дейди [9:488]. Аммо, тадқиқотчи ушбу атамаларнинг даврлар оша ўзгариб боришини таҳлил этувчи асосларни келтириб ўтмаганлигини ҳам қайд этиб ўтиш лозим. Юқорида

келтирилган нумизматик далиллар ҳам Кешнинг минтақанинг дастлабки сиёсий, маданий ва иқтисодий марказ сифатидаги ўрнини кўрсатиб бера олади. Кешнинг сиёсий мавқеи араблар истилоси даврида ҳам нафақат жанубий Суғд, балки Туркистон минтақасида етакчи мавқеда бўлганлигини исботловчи маълумотлар тарихий адабиётларда талайгина. Араб халифалиги Мовароуннахрни истило қилгандан сўнг ҳам маълум бир тарихий даврда маҳаллий сулолалар бошқарувни ўз қўлларида сақлаб қолишга муваффақ бўлганлар. Кеш шахри ҳукмдорлари ҳам ўзининг маҳаллий сулолавий ҳокимиятини қўлида сақлаб қолишга мушарраф бўлган.

Шунингдек, Кеш Суғд ўлкасида сиёсий ва маданий алоқаларда муҳим роль ўйнашда давом этган. Мисол тариқасида, 738 йилда турклар (туркашлар) давлатидаги сиёсий курашларда Кеш давлатининг қўшинлари ҳам иштирок этганлигини келтириб ўтиш мумкин. Шу йили Кеш давлати ҳукмдори Чоч ҳукмдори билан бирга иттифоқ бўлиб, сиёсий курашларда иштирок қилганлигини рус сайёҳ олими Г.Е. Грум-Гржимайло келтириб ўтган далиллар орқали билиб олишимиз мумкин [10:329]. Илк ўрта асрлар даврида Суғддаги етакчилик Самарқанд шахрига ўтиб кетса-да, Кеш жанубий Суғднинг маркази бўлиб қолиш билан бирга, халқаро иқтисодий ва маданий муносабатларда фаол иштирок этганлиги билан боғлиқ маълумотларни тарихий адабиётларда кўплаб учратиш мумкин. Хитой тарихий йилномаларида Кеш шахри билан олиб борилган савдо ва элчилик алоқалари хусусида кўплаб маълумотларни мисол тариқасида келтириб ўтиш жоиз. Тарихий адабиётларда келтирилган маълумотлар таҳлиliga кўра, Суй сулоласи (586-618 йй) даврида Кеш Хитой билан 604-618 йиллар давомида элчилар ва қарвон орқали маданий, иқтисодий муносабатлар олиб борган. Юқорида кўрсатилган йилларда Ғарб давлатларига келган Суй элчилари турли ҳукмдорлардан император саройига турли ноёб буюмлар, маҳсулотлар олиб кетганлар. Элчилар Кеш шахрида бўлганда, уларга 10 та раққоса қиз, шер мўйнаси ва хитойликлар “хошу” деб номлаган, таржимада “оловли сичқон мўйнаси” (?) маъносини берувчи ноёб маҳсулотни тортиқ сифатида олиб кетганликлари хусусида тарихий адабиётлардаги маълумотларни келтириб ўтиш мумкин [11:66]. Хитойга олиб кетилган ноёб маҳсулотлар сирасига “Қора туз” (“хэй янь”), “Қизил туз” (“хунь янь”), “Читрагандха” (мўъжиза дори) деб номланувчи дориворларни олиб кетилиши борасида кўплаб маълумотлар мавжуд. Тарихий адабиётларда қора рангли туз қорин оғриғига, қизил туз кўз касаллигига, “Читрагандха” дориси эса турли жароҳатларга даъво бўлиши келтириб ўтилган. “Читрагандха” дорисини таркиби тарихий адабиётларда, тамарин (минна), ширинмия ва “Rahnannia”, шунингдек, “қайноқ қон” деб номланувчи моддалардан ташкил топганлиги келтириб ўтилади. Ушбу дорининг мураккаб таркибий тузилишга эга бўлганлиги ва қимматбаҳо эканлиги сабабли, уни қалбаки шаклида ишлаш ва сотиш ҳам катта даромад келтирган. Шу сабабли ушбу дорини сотиб олиш чоғида синаб кўриш орқали, яъни бирор жойни кесиб, дорини оғиз билан намлаб, жароҳат жойига суртиш ва таъсири тезда сезилса унинг сифатли эканлигига ишонч ҳосил қилиниши билан боғлиқ маълумотлар мавжуд [12:247]. Хитой тарихига бағишланган адабиётлардаги маълумотларда милодий VIII асрнинг биринчи ярмида ўлкамиздаги турли давлатлар, хусусан Кешдан Хитойга мусиқачилар, раққосалар бир неча бор хитойлик зодагонлар қўнглини хушлаш учун олиб кетилганлиги қайд этилган. Хитой саройи ва зодагонлар қасрларида Ғарб мусиқаси ва рақслари Тан империяси даврида айниқса оммалашади. Тан даври йилномаларида, Ши (Кеш) раққосалари хусусида, уларнинг рақслари ҳақида маълумотлар келтирилган бўлиб, уларнинг байрамонга қирмизи рангда бўлиши, кийимлари енги парча матосидан, оёқ кийимлари қизил замши (қимматбаҳо чарм) матосидан тайёрланиш, раққосалар шар устида рақсга тушиш учун мўлжалланган майдончада олдинга ва орқага шар устида ҳаракатланган ҳолатда рақсни сакраш орқали ижро этиши ва томошабинни мириқиб ҳордиқ чиқариши билан боғлиқ маълумотлар учрайди [13:85]. Кеш давлати билан Хитойнинг Тан сулоласи давридаги маданий-иқтисодий муносабатлар Буюк ипак йўлида савдо-иқтисодий муносабатлар ривожланиб бориши билан кучайганлигини кўришимиз мумкин. Тан хонадони тарихи (“Син Тан Шу”)да Кеш шахри Ши деб номланган. Шунингдек, Тан хонадони тарихи асарида, Кешнинг номланиши Цюйша, Цзешуанна тарзида ҳам келтириб ўтилади.

Кеш давлати хусусидаги маълумотларда эса, унинг ҳудудида 500 та шаҳар борлиги, бу шаҳарнинг бутун Суғдда етакчи бўлганлигига яна бир ишорадир. Чунки, милодий VII аср учун бу каби кўп аҳоли манзили бутун Суғд минтақасидагина бўлиши мумкин эди. Кешнинг Хитой давлати билан алоқа ўрнатиши хусусида эса, Да-е эраси (605-617) даврида бошланганлиги, княз Дичжэ Хитой билан яхши муносабатларни ривожлантиришга ҳаракат қилган. Чэнь-Гуань ҳукмронлигининг ўн олтинчи йилида (642-643) князь Шасэби (суғдча Шишпир) маҳаллий маҳсулотлардан Тан саройига тортиқ сифатида юборганлиги тарихий адабиётларда қайд этилган [14:85].

**Хулоса** ўрнида илк ўрта асрларнинг охиридан бошлаб, Араб халифалигининг ўлкада таъсирининг ошиб бориши, Тан сулоласининг кучсизланиши ушбу маданий ва иқтисодий

